Moreover, AI-powered analytics support data-driven decision-making, enabling organizations to proactively address workforce challenges, minimize turnover, and optimize talent retention strategies [Sahota & Ashley, 2019. 6]. Figure 1 presents the relationships between AI-driven HR practices and their impact on organizational efficiency.

1. AI integration; 2. Accuracy, 3. Automation, 4. Cost reduction, 5. Time-saving; 6. Efficiency.

Source: [Johnson et al., 2020. 5]

Figure 1. Structural equation model of ai in HRM

The study supports existing research on AI's transformative impact in HRM:

1. Automation reduces administrative workload and enhances efficiency.

2. AI-driven analytics improve decision-making, helping predict workforce trends and reduce turnover.

3. Challenges like data privacy and infrastructure gaps must be addressed for successful adoption.

Overall, AI integration in HRM optimizes talent management, boosts employee engagement, and lowers costs, ensuring a sustainable competitive advantage.

Conclusion. The study confirms that AI enhances HRM efficiency by automating processes, improving accuracy, and reducing costs. AI-driven HRM streamlines recruitment, payroll, and performance management, minimizing errors and saving time. AI optimizes decision-making, talent retention, and employee engagement, offering a sustainable competitive edge. However, addressing data privacy and technological gaps is crucial for successful adoption.

Organizations should invest in AI infrastructure, develop ethical frameworks, and train HR professionals to leverage AI effectively. A balanced AI-human approach ensures adaptability and long-term HR sustainability.

REFERENCES:

1. Morgenstern, J.D., Rosella, L.C., Daley, M.J., Goel, V., Schünemann, H.J. and Piggott, T. (2021). AI's impact on society and public health: A fundamental qualitative descriptive study of the implications of artificial intelligence for public health. BMC Public Health, 21(1), 1–14. Available from https://doi.org/10.1186/s12889-020-10030-x

2. Mintz, Y. and Brodie, R. (2019). Introduction to artificial intelligence in medicine. Minimally Invasive Therapy & Allied Technologies, 28(2), 73–81. Available from https://doi.org/10.1080/13645706.2019.1575882

3. Zhang, J. and Chen, Z. (2024). Exploring human resource management digital transformation in the digital age. Journal of the Knowledge Economy, 15(1), 1482-1498. Available from https://doi.org/10.1007/s13132-023-01214-y

4. Shuck, B., Twyford, D., Reio, T.G. and Shuck, A. (2014). Human resource development practices and employee engagement: Examining the connection with employee turnover intentions. Human Resource Development Quarterly, 25(2), 239–270. Available from https://doi.org/10.1002/hrdq.21188

5. Johnson, R.D, Stone, D.L and Lukaszewski, K.M. The benefits of eHRM and AI for talent acquisition *Journal of Tourism Futures, ahead-of p* (2020), 10.1108/JTF-02-2020-0013

6. Sahota, N. and Ashley, M. (2019). When robots replace human managers: Introducing the quantifiable workplace. IEEE Engineering Management Review, 47(3), 21–23. Available from https://doi.org/10.1109/EMR.2019.2931654

7. Adil, B., Fatima, T. and Lamiae, D. (2024). Artificial intelligence and the future of human resource management. International Conference on Intelligent Systems and Computer Vision (ISCV). Available from https://doi.org/10.1109/ISCV60512.2024.10620146

8. Sugawara, E. and Nikaido, H. (2014). Properties of AdeABC and AdeIJK efflux systems of Acinetobacter baumannii compared with those of the AcrAB-TolC system of Escherichia coli. Antimicrobial Agents and Chemotherapy, 58(12), 7250–7257. Available from https://doi.org/10.1128/AAC.03728-14

9. Hmoud, B. and Laszlo, V. (2019). Will artificial intelligence take over human resources recruitment and selection? Network Intelligence Studies, 7(13), 21–30. https://www.researchgate.net/publication/337931190_WILL_ARTIFICIAL_INTELLIGENCE_TAKE_OVER_HUMANRESOURCES_RECRUITMENT_AND_SELECTION

“YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISH STRATEGIYASI – BARQAROR RIVOJLANISHNING USTUVOR OMILI SIFATIDA

STRATEGY FOR TRANSITION TO A “GREEN” ECONOMY - AS A PRIORITY FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Daljanova Zulfiya – Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, Nukus DPI,
dalzanovazulfia@gmail.com
+998933659955

Annotatsiya

Ushbu maqolada “yashil” iqtisodiyot tushunchasi va “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining mazmun-mohiyati haqida so‘z yuritilgan. ***Kalit so‘zlar**: iqtisodiyot, “yashil” iqtisodiyot, “yashil” iqtisodiyot strategiyasi, barqaror rivojlanish*

***Abstract.** This article discusses the concept of a "green" economy and the essence of the strategy for transitioning to a “green” economy.*

***Keywords:** economy, “green” economy, “green” economy strategy, sustainable development*

2024-yilning 20-noyabr kuni prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan ustuvor vazifalarni e’lon qilgandan so‘ng, 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yili deb nomlashni tavsiya qildi. Davlat rahbari yil uchun tanlangan nomga izoh berib, “Nima uchun, bir yilni shunga bag‘ishlaymiz, qonunlarimizni charxlab, ishlarimizni saranjom qilib olamiz. Hech kim bizga ishonmagan edi: O‘zbekiston shamol, quyosh va gidroelektr bo‘yicha shunday qilishiga. Yashil iqtisodiyot yili deganda tajriba o‘rganamiz. Har bir qaror, qonun, farmonni yashillikka olib borsak, o‘ylaymanki, yaxshi bo‘ladi”, – dedi u [5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi «2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4477-son qaroriga asosan strategiya ishlab chiqildi. Ushbu strategiya amalga oshirilayotgan ko‘plab ishlar uchun dasturilamal vazifasini bajarib kelmoqda. Joriy yilga berilgan nom ham stategiyaning tatbiq qilinayotganligiga yaqqol misol bo‘la oladi [5].

Dastlab “yashil” iqtisodiyot tushunchasining mohiyatiga to‘xtalib o‘tamiz. “Yashil” iqtisodiyot tushunchasi birinchi marta 1989-yil faoliyatga kiritilgan bo‘lib, 1992-yilda Rio-dejaneyroda BMTning atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasida “XXI asr kun tartibi” qabul qilindi. Ushbu hujjatda barqaror rivojlanish strategiyasi doirasida “yashil” iqtisodiy siyosat choralari e’lon qilindi. “Yashil” iqtisodiyotning muhim xususiyatlari quyidagilarda iborat:

– tabiiy resurslardan samarali foydalanish;

– tabiiy kapitalni saqlash va ko‘paytirish;

– ifloslanishni kamaytirish, kam uglerodli rivojlanish;

– bioxilma-xillikni yo‘qotishning oldini olish;

– daromad va bandlikning o‘sishi;

– atrof muhitga antropogen yukni kamaytirish.

Nemis iqtisodchisi Karl Burkart yashil iqtisodiyotni oltita asosiy sektorga asoslangan deb ta’riflaydi va to‘rt asosiy xususiyatlarini sanab o‘tadi:

1. Ekologiyaning iqtisodiyotga integratsiyasi: U an’anaviy iqtisodiy modellarni ekologik cheklovlarni hisobga olgan holda o‘zgartirish zarurligini ta’kidlaydi. Uning ishlarida ekologik toza texnologiyalar va energiya samaradorligiga katta e’tibor qaratilgan.

2. Davriy jarayonlar: Burkart chiqindilar va ifloslanish minimallashtiriladigan, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalaniladigan davriylikka asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish tarafdori. Bu aylanma iqtisodiyot modeliga yaqin bo‘lgan tushunchadir.

3. Barqaror o‘sish: U iqtisodiy o‘sish barqaror rivojlanishga zid bo‘lmasligi kerakligini ta’kidlaydi.

4. Biznesning ijtimoiy mas’uliyati: Biznes ijtimoiy mas’uliyatli bo‘lishi va qaror qabul qilishda ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olishi kerakligiga e’tibor qaratadi [3].

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining maqsad va vazifalari:

1. Strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlarga “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy rivojlanishga, issiqxona gazlarining ajratmalari darajasini pasaytirishga,

iqlim va ekologiya barqarorligiga imkon beruvchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iborat.

2. Strategiya maqsadlariga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish zarur:

– texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

– davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlariga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan “yashil” mezonlarni kiritish;

– davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali “yashil” iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish;

– ta’limga investitsiyalar kiritishni rag‘batlantirish, yetakchi xorijiy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga “yashil” iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

– Orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish choralarini ko‘rish;

– “yashil” iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

Kutilayotgan natijalar:

Strategiyani amalga oshirish natijasida 2030-yilga borib quyidagilarga erishish kutiladi:

– issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;

– qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish;

– sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;

– yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;

– iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;

– yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;

– respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish [1].

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish korxona va zavodlari orqali chiqayotgan zaharli gazlarning xavfini va chiqindilar ko‘lamini kamaytirish oldimizda turgan dolzarb masalalaradandir. Ushbu masalalarni hal qilishda hukumatimiz tomonidan ajratilayotgan mablag‘lardan samarali foydalangan holda yetuk mutaxassislarni tayyorlash va xorij tajribalarini chuqur o‘rganib mutaxassislarning malakalarini oshishirish, ularning “yashil” o‘sish bo‘yicha salohiyatini rivojlantirish lozim. Umumiy qilib aytganda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish izchillikni talab qiladigan, murakkab va ko‘p tarmoqli jarayon hisoblanadi.

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini

tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 4-oktyabr, PQ-4477-son qarorining 1-ilovasi asosida tayyorlandi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori.

3. Burkart, K. How do you define the 'green' economy? http://www.mom.com/green-tech/research-innovations/blogs/how-do-you-define-the-green-economy

4. https://images.app.goo.gl/1qfV2UYhZwuvY1nFA

YO‘L QURILISH KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI TASHQI OMILLAR TAHLILI

Raximov Dilshodjon Turdiali o‘g‘li
Renessans ta’lim universiteti, tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada yo‘l qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi omillar chuqur tahlil qilinadi. Har bir omil alohida baholanib, statistik misollar orqali ularning real ta’siri ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, xavflarni boshqarish va barqarorlikni ta’minlash uchun strategik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *yo‘l qurilishi, moliyaviy barqarorlik, tashqi omillar, risklarni boshqarish, valyuta kursi, iqtisodiy strategiya.*

Аннотация

В статье проводится подробный анализ внешних факторов, влияющих на финансовую устойчивость дорожных строительных организаций.

Рассматриваются механизмы влияния каждого фактора и представлены статистические примеры. Также разработаны стратегические рекомендации по минимизации рисков и обеспечению устойчивости.

Ключевые слова: *дорожное строительство, финансовая устойчивость, внешние факторы, управление рисками, валютный курс, экономическая стратегия.*

Abstract

This article provides an in-depth analysis of external factors affecting the financial stability of road construction enterprises. Each factor is evaluated with real-life statistical data, and strategic recommendations are developed to mitigate risks and ensure long-term stability.

Keywords: *road construction, financial stability, external factors, risk management, currency fluctuation, economic strategy.*

Kirish

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida transport infratuzilmasining rivojlanishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, avtomobil yo‘llarining sifati va ularning kengayish sur’atlari bevosita mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, ichki va tashqi logistika samaradorligi, hamda hududlararo integratsiya imkoniyatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, yo‘l qurilish korxonalari faoliyatining moliyaviy barqarorligi faqatgina ularning ichki boshqaruv salohiyatiga emas, balki tashqi iqtisodiy, siyosiy, va ijtimoiy omillarga ham bevosita bog‘liqdir.

Moliyaviy barqarorlik — bu korxonaning o‘z faoliyatini uzoq muddat davomida foyda bilan yurita olishi, to‘lovga layoqatli bo‘lib qolishi, moliyaviy xavf-xatarlarni oldindan aniqlab ularni boshqara olishi bilan belgilanadi. Afsuski, ko‘plab iqtisodiy tarmoqlar singari, yo‘l qurilishi sohasi ham tashqi omillar ta’siriga sezgir bo‘lib, ularning salbiy ta’siri korxonalarni moliyaviy inqirozga duchor etishi mumkin.

Tashqi omillar deganda, korxonaning bevosita nazoratidan tashqarida bo‘lgan, biroq uning moliyaviy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan omillar tushuniladi. Bular qatoriga global iqtisodiy inqirozlar, inflyatsiya darajasining o‘zgarishi, valyuta kurslaridagi beqarorlik, soliq va bojxona siyosatlaridagi o‘zgarishlar, siyosiy beqarorlik, ekologik xavflar, xorijiy sarmoyadorlar ishonchi va mintaqaviy geosiyosiy jarayonlar kiradi.

O‘zbekiston kontekstida bu omillar alohida dolzarb hisoblanadi. Chunki yo‘l qurilish korxonalari ko‘pincha import qilinadigan texnika, yoqilg‘i, va materiallarga tayanadi, bu esa ularni tashqi bozor va valyuta kurslaridagi o‘zgarishlarga juda sezgir qiladi. Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilishda yuzaga keladigan siyosiy va huquqiy cheklovlar, yoki iqtisodiy sanksiyalar kabi global omillar ham korxonalarning moliyaviy strategiyasini qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi.

Mazkur maqolada yo‘l qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi tashqi omillar chuqur tahlil qilinadi, ularning turlari va mexanizmlari tavsiflanadi, hamda amaliy tavsiyalar asosida ushbu omillar ta’sirini yumshatish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar ishlab chiqiladi. Tahlil natijalari yo‘l qurilishi sohasidagi korxonalar uchun moliyaviy xavfsizlikni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tashqi omillar tasnifi va ularning ta’sir mexanizmlari

Yo‘l qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi tashqi omillar murakkab va ko‘p qirrali xarakterga ega bo‘lib, ular bevosita yoki bilvosita moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta’sir qiladi. Bu omillar quyidagi asosiy toifalarga ajratilishi mumkin:

1. *Makroiqtisodiy omillar*

Makroiqtisodiy barqarorlik yo‘l qurilish sohasining rivojlanishi uchun muhim zamin yaratadi. Inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari, yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sish sur’ati, ishsizlik darajasi kabi ko‘rsatkichlar bevosita moliyaviy rejalashtirish va xarajatlarni boshqarishga ta’sir qiladi. Masalan, yuqori inflyatsiya qurilish

materiallari narxining keskin oshishiga olib keladi, bu esa korxonaning xarajatlarini ko‘paytiradi va foyda marjasini qisqartiradi.

2. *Valyuta kursi va tashqi savdo siyosati*

O‘zbekiston kabi texnika va materiallarning katta qismini import qiladigan davlatlar uchun milliy valyutaning devalvatsiyasi yo‘l qurilish korxonalari uchun jiddiy moliyaviy tahdid hisoblanadi. Dollar, yevro kabi valyutalarga nisbatan so‘m kursining pasayishi import xarajatlarini oshiradi, bu esa loyiha byudjetining ortiqcha sarflanishiga olib keladi.

3. *Soliq va bojxona siyosati*

Davlat tomonidan belgilangan soliqlar, aksizlar, va bojxona tartiblaridagi o‘zgarishlar korxona moliyaviy holatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Yangi soliq yuklamalari yoki imtiyozlarning bekor qilinishi kutilmagan qo‘shimcha xarajatlarni yuzaga keltiradi, bu esa korxonalarning moliyaviy rejalari izdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

4. *Siyosiy va geosiyosiy omillar*

Siyosiy barqarorlik investitsion muhit va infratuzilma loyihalarining moliyaviy manbalariga ta’sir ko‘rsatadi. Siyosiy beqarorlik, saylovlar, huquqiy tizimdagi o‘zgarishlar investorlar ishonchiga putur yetkazishi mumkin. Ayniqsa, davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtiriladigan loyihalarda siyosiy xavf yuqori bo‘lsa, bu loyihalarning kechikishiga yoki butunlay to‘xtashiga sabab bo‘ladi.

5. *Xalqaro moliyaviy institutlar va kredit reytingi*

Yo‘l qurilish korxonalari ko‘pincha Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Jahon banki, va boshqa moliyaviy institutlar tomonidan beriladigan grantlar va kreditlarga tayanadi. Xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan past baho yoki mamlakatning kredit layoqatiga nisbatan shubhalar bu moliyalashtirish manbalariga kirishni qiyinlashtiradi.

6. *Iqlim va ekologik omillar*

Iqlim o‘zgarishlari va tabiiy ofatlar (masalan, kuchli yomg‘irlar, issiq to‘lqinlar) qurilish jarayonlarini to‘xtatib qo‘yishi mumkin. Shuningdek, ekologik

tartib-taomillar va atrof-muhitni muhofaza qilishga doir yangi talablar qurilish korxonalariga qo‘shimcha xarajatlarni yuklaydi. Bu omillarni nazarga olmagan holda tuzilgan moliyaviy rejalar barbod bo‘lishi mumkin.

7. *Texnologik rivojlanish va raqobat muhiti*

Texnologik yangiliklar va raqobatchilar tomonidan innovatsiyalarni tez tatbiq etilishi, bozordagi ulushni saqlab qolish uchun yo‘l qurilish korxonalarini doimiy yangilanishga majbur qiladi. Bu esa qo‘shimcha investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni sotib olish orqali moliyaviy resurslarga bosim o‘tkazadi.

Tashqi omillarning real misollar asosida tahlili va statistik dalillar

Yo‘l qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi tashqi omillarni tahlil qilishda faqat nazariy asoslargagina emas, balki real hayotdagi faktlar, statistikalar va amaliy holatlarga ham tayangan holda yondashish zarur. Quyida bir nechta real misollar va ularning ta’siri ko‘rib chiqiladi:

1. *Valyuta kursining o‘zgarishi — 2022 yilgi devalvatsiya ta’siri*

2022-yil davomida so‘mning AQSH dollariga nisbatan qiymati 11% ga kamaydi. Natijada, import asosidagi asfalt aralashmalari, yo‘l qurilish texnikalari va maxsus uskunalar narxi keskin oshdi. “O‘zYo‘lQurilish” tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘plab shaharlararo avtomagistral loyihalari byudjetda rejalashtirilgan miqdordan 18–25% ortiqcha xarajat qilgan. Bu holat moliyaviy barqarorlikka jiddiy bosim o‘tkazgan va yangi loyihalarning boshlanishini kechiktirgan.

2. *Makroiqtisodiy beqarorlik — Inflyatsiyaning ta’siri*

O‘zStatKom (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda yillik inflyatsiya darajasi 12,2% ni tashkil qilgan. Bu inflyatsiya qurilish materiallari narxining o‘sishiga sabab bo‘lgan: sement narxi 14% ga, metall armatura 18% ga oshgan. Moliyaviy rejalashtirishda ushbu omil hisobga olinmagan loyihalar muammoga duch kelgan.

3. *Soliq siyosatidagi o‘zgarishlar — Subsidiyalar qisqarishi*

2021-yilning oxirida hukumat yo‘l qurilishi uchun subsidiya tarzida ajratilayotgan aksiz soliq imtiyozlarini qisqartirish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bu

esa ayrim hududlardagi kichik va o‘rta yo‘l qurilish kompaniyalarining faoliyatida moliyaviy muvozanatni buzdi. Jumladan, Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan 12 ta korxonadan 5 tasi 2022-yilda faoliyatini vaqtincha to‘xtatgan (Manba: viloyat investitsiya va qurilish boshqarmasi hisobotlari).

4. *Xalqaro kredit reytingining pasayishi — Investitsion oqimga ta’sir*

2023-yilda Fitch Ratings O‘zbekistonning kredit reytingini “BB-” darajasiga tushirdi. Bu esa xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan beriladigan imtiyozli kreditlarga bo‘lgan ishonchga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Yo‘l qurilish korxonalari uchun mo‘ljallangan 170 million AQSH dollari miqdoridagi kredit bitimi (OTB orqali) shartnomalarning qayta ko‘rib chiqilishi tufayli bir necha oyga kechiktirildi.

5. *Tabiiy ofatlar — Iqlim omillarining ta’siri*

2022-yilning bahorida Toshkent viloyatining Ohangaron tumanida kuzatilgan kuchli yomg‘irlar 3 ta yirik yo‘l qurilish loyihasini 2 oyga kechiktirdi. Qurilish maydonlarining suv bosishi natijasida texnik jihozlarga zarar yetdi va loyiha qiymati 400 million so‘mga oshdi. Ushbu kutilmagan xarajatlar kichik korxonalarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Barqarorlikni ta’minlash uchun strategik tavsiyalar

Yo‘l qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini tashqi omillarning salbiy ta’siridan himoya qilish uchun chuqur tahlilga asoslangan kompleks yondashuv talab etiladi. Quyida strategik darajada amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan asosiy choralar bayon etiladi:

1. *Valyuta risklarini boshqarish (hedging) mexanizmlarini joriy etish*

Importga bog‘liq texnikalar, yoqilg‘i va materiallar narxidagi beqarorlikni yumshatish uchun valyuta risklarini sug‘urtalovchi moliyaviy vositalardan foydalanish lozim. Masalan, ilg‘or korxonalar forward va futures shartnomalari orqali valyuta kursidagi keskin o‘zgarishlardan o‘zlarini himoya qiladilar. O‘zbekistondagi yirik yo‘l qurilish firmalarining banklar bilan hamkorlikda maxsus kurs kafolat mexanizmlarini ishlab chiqishi barqarorlikka xizmat qiladi.

2. *Moliyaviy diversifikatsiya va zaxira fondlarini yaratish*

Korxona faoliyatini faqat bitta moliyaviy manbaga bog‘lab qo‘yish moliyaviy inqiroz xavfini oshiradi. Shu bois kreditlar, davlat buyurtmalari, grantlar va xususiy investorlar orqali moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, har bir loyiha uchun favqulodda holatlarda foydalaniladigan moliyaviy zaxira fondini shakllantirish tavsiya etiladi.

3. *Soliq va bojxona siyosatlariga moslashuvchan yondashuv*

Davlat siyosatidagi o‘zgarishlarga tayyor turish uchun ichki audit va moliyaviy monitoring tizimlarini mustahkamlash zarur. Korxonalar soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganib borishlari, qonunchilikdagi yangiliklardan xabardor bo‘lishlari va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi dasturlarga faol qatnashishlari kerak.

4. Texnologik yangilanish va raqamlashtirish

Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish — nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki iqtisodiy xavflarga tez moslashishga yordam beradi. Masalan, “BIM” (Building Information Modeling), dron monitoringi, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari va raqamli smeta tahlil platformalari orqali qurilish xarajatlari aniq va shaffof nazorat qilinadi.

5. *Tabiiy ofatlar va ekologik xavflarga qarshi tayyorgarlik*

Yo‘l qurilishi korxonalari ob-havo monitoringi, ekologik tahlil va risklarni baholovchi maxsus bo‘limlar tuzish orqali oldindan ogohlantirish tizimlarini joriy etishlari kerak. Bu esa tabiiy ofatlar vaqtida yo‘qotishlarni kamaytirish va moliyaviy shoklarni yengillashtirishga yordam beradi.

6. *Xalqaro reytinglar va sarmoyadorlar bilan aloqalarni mustahkamlash*

Moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish uchun xalqaro kredit reyting agentliklari bilan professional hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va ochiq moliyaviy hisobot yuritish zarur. Bu korxonalarning kredit ishonchliligini oshiradi va xalqaro moliya institutlaridan imtiyozli mablag‘lar jalb etish imkonini beradi.

7. *Loyihaviy portfellarni strategik diversifikatsiyalash*

Korxonalar barcha resurslarini bitta yirik loyihaga bog‘lab qo‘ymasligi kerak. Aksincha, kichik va o‘rta hajmdagi loyihalarni strategik portfelga qo‘shish orqali umumiy moliyaviy xavfni kamaytirish mumkin. Bu portfel yondashuvi risklarni taqsimlash va turli bozorlarda mavjudlikni saqlab qolish imkonini beradi.

Xulosa va ilmiy-amaliy natijalar

Yo‘l qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligi zamonaviy iqtisodiy tizimda ularning uzoq muddatli raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omildir. Tashqi iqtisodiy, siyosiy va ekologik omillar ushbu barqarorlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston sharoitida bu omillar orasida valyuta kursining beqarorligi, inflyatsiya darajasining yuqoriligi, xalqaro reytinglar, soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, va tabiiy ofatlar eng katta xavf manbalari sifatida ajralib turadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu xavf omillarini oldindan baholash va ularga qarshi samarali strategiyalarni ishlab chiqish yo‘l qurilish sohasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, valyuta risklarini boshqarish, zaxira fondlari shakllantirish, raqamlashtirilgan moliyaviy monitoring, texnologik yangilanish, hamda xalqaro moliyaviy hamkorlik mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

Amaliy natijalarga asoslanib aytish mumkinki, moliyaviy barqarorlikni oshirish uchun yo‘l qurilish korxonalari har bir tashqi omilga moslashuvchan boshqaruv modelini ishlab chiqishi lozim. Bunda hukumat, xususiy sektor va xalqaro moliyaviy institutlar o‘rtasidagi hamkorlik muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. World Bank. (2022). *Road Construction Management: Best Practices and Guidelines*. Washington, DC.
2. Asian Development Bank. (2021). *Sustainable Infrastructure and Financial Resilience in Central Asia*. Manila.

3. Fitch Ratings. (2023). *Sovereign Credit Overview: Uzbekistan*. www.fitchratings.com
4. Ministry of Economy and Finance, Uzbekistan. (2023). *Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar hisobotlari*.
5. OECD. (2021). *Public-Private Partnerships in Infrastructure Financing*. Paris: OECD Publishing.
6. BIM Handbook. (2019). *Building Information Modeling for Construction Management*. Wiley.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4594-son qarori. *Yo‘l qurilishi sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish choralari*.
8. European Bank for Reconstruction and Development. (2020). *Transition Report: Infrastructure in Transition Economies*.
9. UNDP. (2022). *Disaster Risk Reduction and Climate Resilience in Civil Infrastructure*.

МЕХАНИЗМЫ И ПРЕИМУЩЕСТВА РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ ДЛЯ СТИМУЛИРОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА

Аширов Нурмурод Кулматович,
Ташкентского государственного экономического университета
научный сотрудник

Аннотация:

В данной статье исследуется значимость рынка ценных бумаг как одного из основных инструментов для ускорения экономического роста. Рассматриваются основные механизмы, способствующие развитию этого сегмента, включая привлечение капитала, повышение ликвидности и расширение финансовых возможностей для компаний. Кроме того, акцентируется внимание на таких преимуществах, как улучшение прозрачности финансовых процессов и увеличение доверия со стороны инвесторов.

Ключевые слова: *экономический рост, рынок ценных бумаг, инвестиции, ликвидность, финансовые возможности, прозрачность, доверие*

инвесторов, волатильность, защита инвесторов, механизмы развития, финансовые инструменты, устойчивый прогресс, рынок капитала, риски инвестирования, корпоративные облигации.

В условиях современной глобальной экономики рынок ценных бумаг играет важную роль в обеспечении финансовой стабильности, привлечении инвестиций и оптимальном распределении капитала. Эволюция этого рынка может способствовать экономическому росту и внедрению инноваций, однако на его развитие влияют различные факторы, способные оказывать как положительное, так и негативное влияние. В данной статье мы рассмотрим значимость роста рынка ценных бумаг, факторы, способствующие его развитию, а также преимущества и риски, связанные с этим процессом.

В Указе Президента Республики Узбекистан от 13 апреля 2021 года № УП-6207 «О мерах по дальнейшему развитию рынка капитала» определены важные направления, направленные на активизацию роста рынка капитала, увеличение объемов эмиссии ценных бумаг и расширение участия как физических, так и юридических лиц в фондовых операциях. В этом документе выделены ключевые аспекты, способствующие прогрессу данного сектора:

- повышение конкурентоспособности;
- повышение доступности рынка капитала для всех групп инвесторов через активную интеграцию с международными финансовыми рынками, использование современных информационно-коммуникационных технологий и внедрение передовых зарубежных практик.

Рынок ценных бумаг представляет собой, прежде всего, механизм, обеспечивающий быстрое и эффективное перераспределение финансовых ресурсов между участниками экономических отношений как на национальном, так и на международном уровнях через операции с ценными бумагами. К таким инструментам относятся акции, облигации, депозитарные расписки, деривативы и другие финансовые инструменты. Этот рынок

постоянно эволюционирует, и регулярно появляются новые, более сложные инструменты, которые объединяют характеристики различных типов или разрабатываются для специфических условий. Основными задачами эффективного рынка ценных бумаг являются формирование стоимости компаний и оценка стоимости финансовых ресурсов как в краткосрочной, так и в долгосрочной перспективе.

Развитие рынка ценных бумаг зависит от множества факторов, среди которых можно выделить макроэкономическую стабильность, политическую устойчивость, уровень регулирования и надзора, наличие необходимой инфраструктуры, технологические инновации, доступность информации, уровень образования инвесторов и доверие к финансовой системе. Эти факторы взаимосвязаны и в совокупности определяют степень развития и устойчивости рынка ценных бумаг. Эффективное взаимодействие этих элементов способствует созданию благоприятной среды для инвестиций и роста финансового сектора.

Рост рынка ценных бумаг помогает компаниям привлекать внешний капитал, что, в свою очередь, стимулирует реализацию различных проектов и внедрение инновационных идей. Кроме того, это способствует улучшению корпоративного управления, повышает прозрачность бизнеса и активизирует конкуренцию. В результате появляются новые рабочие места и улучшается распределение капитала, что в конечном итоге приводит к устойчивому экономическому росту.

При развитии рынка капитала необходимо акцентировать внимание на нескольких важных аспектах. Прежде всего, требуется создать эффективные механизмы регулирования, которые обеспечат стабильность рынка и защитят интересы всех участников. Во-вторых, критически важно повысить прозрачность и доступность информации для инвесторов, что способствует формированию доверия и привлечению капитала.

С углублением рыночных отношений в Узбекистане важной задачей становится организация и развитие денежно-кредитных отношений среди

хозяйствующих субъектов. В этой связи в Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП №-291, принятом 2 сентября 2023 года, были обозначены основные направления для развития рынка капитала:

- до 1 мая 2024 года в Центральном банке были открыты корреспондентские счета для АО «Национальный клиринговый центр» и АО «Центральный депозитарий ценных бумаг», что позволит осуществлять расчеты более эффективно.

- с 1 января 2025 года учет государственных и корпоративных ценных бумаг будет централизован и осуществляться в АО «Центральный депозитарий ценных бумаг». Деятельность АО «Национальный клиринговый центр» в роли «Центрального контрагента» и его функции по централизованному клирингу будут находиться под контролем Центрального банка.

- до 31 декабря 2028 года, АО «Центральный депозитарий ценных бумаг», АО «Узбекская республиканская валютная биржа» и АО «Республиканская фондовая биржа «Ташкент» будут освобождены от обязательств по начислению и выплате дивидендов, при этом все средства, полученные от этого освобождения, будут направлены на их дальнейшее развитие.

В ближайшие месяцы ставки по долларовым займам на рынке капитала, вероятно, останутся на высоком уровне, что приведет к росту расходов на финансирование. Тем не менее, это становится неизбежной реальностью, с которой всем придется смириться и продолжать двигаться вперед.

Многие, знакомые с узбекским рынком капитала, понимают, что существуют определенные технические трудности. Например, проблема с IT-инфраструктурой, которая была частично решена за последние два года. Однако необходимо разработать эффективное IT-решение, которое либо обновит текущую систему на бирже, либо полностью заменит её.

Кроме того, важно сосредоточиться на создании надежных механизмов защиты прав участников рынка, чтобы обеспечить их уверенность в справедливости и безопасности сделок. Обеспечение надежности технологической инфраструктуры, управление рисками и повышение финансовой грамотности населения являются ключевыми факторами для успешного развития рынка капитала.

Комплексный подход к данным аспектам позволит сформировать устойчивую и эффективную экосистему, способствующую привлечению инвестиций и общему развитию экономики.

Корпоративное управление представляет собой систему, регулирующую взаимодействия между управляющими органами компании, акционерами и другими заинтересованными сторонами. Эффективное корпоративное управление имеет решающее значение для повышения доверия инвесторов, защиты их прав и обеспечения прозрачности деятельности компании.

Эффективная система корпоративного управления создает подходящие условия для привлечения инвестиций, так как инвесторы склонны вкладывать средства в компании, которые придерживаются высоких стандартов управления и отчетности. Это, в свою очередь, способствует развитию рынка ценных бумаг, поскольку компании с надежным корпоративным управлением могут легче привлекать капитал, реализовывать свои проекты и достигать устойчивого роста.

Принципы эффективного корпоративного управления играют важнейшую роль в формировании стабильной и прозрачной бизнес-среды. К основным из них относятся: прозрачность и открытость, защита прав акционеров, ответственность управляющих органов, добросовестность, а также эффективный контроль и аудит.

Следование этим принципам способствует созданию устойчивой и прозрачной корпоративной структуры, что, в свою очередь, привлекает инвесторов и способствует развитию рынка ценных бумаг.

Эффективные практики корпоративного управления играют ключевую роль в повышении репутации компаний, что, в свою очередь, ведет к росту доверия со стороны инвесторов и облегчает процесс привлечения капитала на рынок. Более того, такие подходы способствуют снижению рисков для инвесторов и укрепляют стабильность финансовой системы в целом.

В настоящее время банки активно вовлечены в торговлю на вторичном рынке государственных облигаций, и подключение к системе Clearstream (международному центральному депозитарию) станет важным шагом вперёд. Это создаст возможности для глобальных инвесторов, которые, без сомнения, проявят интерес к внутреннему рынку облигаций. Следующим ключевым этапом должно стать увеличение числа участников, так как зависимость только от банков и отсутствие иностранных инвесторов затрудняют развитие капитального рынка.

В конечном итоге, развитие рынка ценных бумаг является важным элементом, способствующим экономическому росту и финансовой стабильности. Улучшение регуляторной среды, укрепление корпоративного управления, повышение осведомленности инвесторов и обеспечение доступа к капиталу для компаний создают благоприятные условия для привлечения инвестиций, внедрения инноваций и развития бизнеса. Также необходимо учитывать важность балансировки рисков и усиления контроля, чтобы сбалансировать потенциальные выгоды с соответствующими мерами предосторожности.

Формирование профессионализма на рынке является важным шагом, который позволит системе первичных дилеров увеличить свою прибыльность. В результате банки будут вынуждены нанимать квалифицированных трейдеров, затем специалистов по продажам, а после этого риск-менеджеров, что приведет к необходимости развивать

исследовательские подразделения. В конечном итоге это приведет к созданию инвестиционных банковских подразделений, активно функционирующих на финансовых рынках. Это, в свою очередь, создаст возможности для развития корпоративных облигаций и акций, что приведет к эффекту самоподдерживающегося роста рынка.

Развитие рынка капитала в Узбекистане является важной задачей для обеспечения устойчивости и прогресса экономики страны. Одним из ключевых аспектов этого процесса выступает поддержание стабильности банковского сектора и денежно-валютной системы. Кроме того, открытость и повышение прозрачности в экономической системе играют значительную роль, так как они способствуют укреплению доверия со стороны инвесторов и участников рынка. Это, в свою очередь, создает благоприятные условия для привлечения инвестиций и стимулирования экономического роста.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1.Указ Президента Республики Узбекистан, от 13.04.2021 г. № УП-6207«О мерах по дальнейшему развитию рынка капитала».

2.Постановление Президента Республики Узбекистан, от 02.09.2023 г. № ПП-291 «О дополнительных мерах по развитию рынка капитала».

3.Деттони Дж. (2019), «Узбекистан дает зеленый свет реформе рынка капитала 2020 года»,FDI Intelligence.

https://www.fdiintelligence.com/content/news/uzbekistan-greenlights-2020-capital-arket-reform-75988

O‘ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH SHAROITIDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Do‘stov Bahodir Tashpo‘latovich
O‘zbekiston –Finlyandiya Pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi
bohodustov@inbox.ru
https://orcid.org/0009-0001-6968-3490
tel-+998942401171

Annotatsiya

Barqaror rivojlanishning ijtimoiy tarkibi insonga qaratilgan bo‘lib, ijtimoiy va madaniy tizimlarning barqarorligini ta’minlashga yo‘naltirilgandir. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi inson tanlovini kengaytirish asosiy g‘oya ekanligiga tayangan holda insonning o‘z hayot faoliyatini shakllantirish, qarorlar qabul qilish, ularni amalga oshirish va bajarilishini nazorat qilish jarayonida to‘laqonli qatnashishi lozimligini nazarda tutadi. Bu “Yashil” iqtisodiyot asosida amalga oshirilishi muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqola raqamli texnologiyalar va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi aloqalarni tahlil qiladi. Raqamli texnologiyalar, masalan, aqlli energiya tzimlari va sun’iy intellekt kabi ilg‘or yechimlar atrof-muhitni saqlash va ekologik barqarorlikni ta’minlashda qanday muhim rol o‘ynashini ko‘rsatib beradi.Maqolada resurslarni samarali boshqarish,qayta tiklovchi energiya manbalarini qo‘llash,yashil transport tizimlari va atrof-muhitni monitoring qilish kabi yo‘nalishlarda raqamli texnologiyalar yordamida ekologik barqarorlikka erishish imkoniyatalari ko‘rib chiqilad

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy taraqqiyot, daromad, kapital, iqtisodiy barqarorlik, modernizatsiya, samaradorlik, yashil iqtisodiyot, global, investitsiya.*

Abstract: *The social component of sustainable development is human-centered and aimed at ensuring the stability of social and cultural systems. The concept of sustainable development, based on the fundamental idea of expanding human choice, presupposes the full participation of individuals in shaping their life activities, making decisions, implementing them, and monitoring their execution. Implementation of this concept within the framework of a "green" economy is considered a crucial factor. This article analyzes the relationship between digital technologies and environmental sustainability. It demonstrates how advanced digital solutions, such as smart energy systems and artificial intelligence, play a vital role in environmental protection and ensuring ecological sustainability. The article examines the potential for achieving environmental sustainability using digital technologies in areas such as efficient resource management, utilization of*

renewable energy sources, green transportation systems, and environmental monitoring.

Keywords: *Social development, income, capital, economic stability, modernization, efficiency, green economy, global, investment*

Kirish. Bugungi kunda global iqtisodiyotning rivojlanishi, ekologik muammolar va ijtimoiy adolat masalalarini hisobga olish zaruriyatini tug‘diradi. O‘zbekiston Respublikasi, o‘zining barqaror iqtisodiy o‘sishini ta'minlashda, yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni joriy etishda ahamiyatli yo‘nalishga ega. Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning barqaror iqtisodiy o‘sishga ta'siri ko‘rib chiqiladi. Globallashuv o‘zgarishlari, ilmiy-texnikaviy raqamli transformatsiya va yangi tahdid va tahdidlarning paydo bo‘lishi sharoitida zamonaviy iqtisodiy tizimning rivojlanishi, oldindan aytib bo‘lmaydigan inqirozli vaziyatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi, turli traektoriyalarda sodir bo‘ladi va o‘zaro ta'sirning mutlaqo yangi shakllarini oladi. Bozor munosabatlarining asosiy ishtirokchilari – davlat, tadbirkorlik sektori va uy xo‘jaliklari o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir. Ular orasida yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish, xorijiy mualliflarning klassik g‘oyalariga ko‘ra, barqaror iqtisodiy rivojlanishga yordam beradigan va aholi farovonligi va turmush sifatini yaxshilashga yordam beradigan iqtisodiy tizim sifatida tushunilishi kerak. Ekologik muvozanatni ta'minlash, insonning mavjud ekotizimga ta'sirini kamaytirish va ekologik yo‘naltirilgan innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish va iqtisodiy jarayonlarni uyg‘unlashtirish zarur.

Barqaror iqtisodiy o‘sish tushunchasi bu - iqtisodiy o‘sish, iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik jihatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishini anglatadi. O‘zbekiston hukumati, o‘zining iqtisodiy strategiyasida barqaror o‘sishni ta'minlash maqsadida, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va yashil texnologiyalarni tatbiq etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirmoqda. Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga nisbatan iqtisodiy yondashuvga Y.R.Lindal va J.R.Xikslar asos

solishgan. Xiks-Lindal yalpi daromadlarning maksimal oqimi nazariyasiga muvofiq daromad yalpi kapitalni saqlab qolgan holda yaratilishi zarur. Bunda cheklangan resurslar va ekologik (tabiiy resurslar, energiya va materiallarni tejovchi) texnologiyalardan oqilona foydalanish, ekologik mahsulotlar yaratish, chiqindilarni boshqarish nazarda tutiladi. Ushbu masalani hal etishdagi bosh muammo qaysi kapital (jismoniy, tabiiy yoki inson kapitali) saqlanib qolishi va turli xil kapital turlari qanchalik o‘zaro o‘rin almashinishi hamda ushbu aktivlar (ekologik resurslar) qiymatini baholash muammosi hisoblanadi.

Natijada iqtisodiy barqarorlikning quyidagi ikki turi paydo bo‘ldi:

• kuchsiz - vaqt bo‘yicha kamaymaydigan tabiiy va jamg‘arilgan kapital iqtisodiy barqarorlik;

• kuchli - tabiiy kapitalning kamaymasligiga (qayta tiklanmaydigan resurslarni sotishdan tushgan foy- daning bir qismi tiklanadigan tabiiy kapital qiymatini oshirishga yo‘naltirilishi zarurligiga) asoslangan iqtisodiy barqarorlik. Barqaror rivojlanishni ta’minlash borasidagi xalqaro amaliy faoliyat BMT tashabbusi bilan ilgari surilgan. 2000 yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Ming yillik rivojlanish maqsadlari qabul qilindi va 2015- yil qo‘yilgan maqsadlarga erishishni hisoblash yili sifatida belgilab olindi. 2012- yilda BMTda Ming yillik rivojlanish doirasida amalga oshirilishi yakunlanmay qolgan maqsadlarga erishish uchun jahon hamjamiyatini 2015- yildan keyingi rivojlanish maqsadlarini belgilab olish zaruriyati ta’kidlandi. Shu tarzda, BMTning 2012 yili barqaror rivojlanish mavzusida o‘tkazilgan “Rio+20” Konferensiyasida dunyo mamlakatlari rahbarlari Barqaror rivojlanish maqsadlarini (Sustainable Development Goals (SDGs)) ishlab chiqishga kelishib oldilar. Barqaror rivojlanish maqsadlari har bir inson uchun farovon turmush tarzini yaratishga xizmat qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqsadlar BMTga a’zo barcha davlatlar tomonidan 2015-2030- yillarda amalga oshirilishi kun tartibiga kiritilgan. shkilot, muassasalarni bir lashtiradi. “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga bag‘ishlangan ilk ilmiy tadqiqotlar XX asrning 70-yillaridan boshlangan. Jumladan, 1972 -yilda

Stokgolmda ijtimoiyiqtisodiy rivojlanish va ekologiya muammolariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada atrof-muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan 20 tadan ortiq tamoyil ishlab chiqildi

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning dolzarbligi va zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

• atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslar tugashining salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida iqtisodiyotda texnologik modernizatsiyalashni amalga oshirishni zarurligi;

• uglevodorod xom-ashyosi va uning pirovard mahsulot qiymatidagi ulushiga bog‘liqligini qisqartirish asosida iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish;

• katta multiplikativ samaraga ega bo‘lgan yuqori texnologiyali tarmoqlarni yangilash imkonini beruvchi yashil innovatsiyalarni qo‘llash;

• past uglerodli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida uglevodorodga bog‘liqlikni qisqartirish. Yuqorida qayd etilganidek, jahonda “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish tashabbusi 2008 yilda UNEP tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, quyidagi umumiy tamoyillarga asoslanadi:

• ekologiya bilan bog‘liq muammolarni milliy va xalqaro darajada baholash va birinchi kun tartibiga aylan- tirish;

• “yashil” ishchi o‘rinlarni yaratish hisobidan aholi bandligini ta’minlash va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

• barqaror rivojlanishga erishish uchun bozor mexanizmidan foydalanish.

Yashil innovatsiyalar — tabiatga ijobiy ta'sir ko‘rsatuvchi va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlovchi yangi g‘oyalar va texnologiyalardir. O‘zbekistonda quyidagi sohalarda yashil innovatsiyalar joriy etilmoqda:

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari: Quyosh va shamol energiyasi orqali elektr energiyasini ishlab chiqarish loyihalari, masalan, Toshkent viloyatidagi quyosh elektr stantsiyalari.

Quyosh energetikasi: O‘zbekistonda quyosh nuri ko‘p, bu quyosh energiyasini istiqbolli qayta tiklanadigan energiya manbaiga aylantiradi. Quyosh energiyasi bo‘yicha bir qancha loyihalar, jumladan, keng ko‘lamli quyosh parklari qurilishi amalga oshirilmoqda. Jumladan, hukumat xalqaro kompaniyalar bilan quvvati o‘ndan yuzlab megavattgacha bo‘lgan quyosh elektr stansiyalarini qurish bo‘yicha shartnomalar imzoladi.[1]

Shamol energetikasi: O‘zbekistonning shamolli hududlari shamol energetikasini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun shamol resurslaridan foydalanishni maqsad qilgan shamol stansiyalari rejalari e'lon qilindi.

Siyosatni qo‘llab-quvvatlash. Mamlakatimizda qayta tiklanadigan energiyaga investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun siyosat va imtiyozlarni joriy qildi, masalan, qayta tiklanadigan energiya loyihalari uchun tariflar va soliq imtiyozlari.

Xalqaro hamkorlik. O‘zbekiston qayta tiklanuvchi energiya loyihalari va texnologiyalar transferini qo‘llab-quvvatlash uchun xalqaro tashkilotlar va xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik qiladi. [2]

- Qishloq xo‘jaligida yashil texnologiyalar. Ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish va suvni tejaydigan irrigatsiya tizimlari.

- Chiqindilarni qayta ishlash. Qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha loyiha va dasturlar.

Ekologik barqarorlik atamasi tabiiy resurslardan foydalanishning optimal darajasini anglatadi, bu esa atrof-muhitning ifloslanishi,iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslarning tugashiga olib kelmasdan insoniyatning iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar bu borada ko‘plab imkoniyatalar yaratmoqda, ayniqsa,quyidagi sohalarda:

1. Energiyani samarali boshqarish raqamli texnologiyalar energiya resurslarini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi.Masalan, aqlli tarmoqlar(smart grids) va Internet of Things(loT) qurilmalari yordamida energiya sarfini monitoring qilish va optimallashtirish mumkin.

2. Yashil transport tizimlari transport sohasida ham raqamli texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Raqamli tizimlari va avtomatik boshqaruv tizimlari orqali transport harakatini optimallashtirish mumkin,bu esa benzin va yoqilg‘idan tejash, shuningdek, transport vositalarining karbon chiqindilarini kamaytirishga yordam beradi.

3. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini boshqarish. Raqamli texnologiyalar qayta tiklanadigan energiya manbalarini samarali boshqarishda yordam beradi. Masalan, quyosh va shamol energiyasini ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatib boorish va boshqarish imkoniyatalari mavjud.

4. Atrof-muhit monitoring qilish. Atrof-muhitni monitoring qilish va ekologik holatni baholash uchun raqamli texnologiyalar faol qo‘llanilmoqda. loT sensorlari yordamida havoning sifati, suv manbalarining ifloslanishi va yer yuzasidagi o‘zgarishlar real vaqtda kuzatiladi. Bu Raqamli texnologiyalar Raqamli texnologiyalar, iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarning tatbiqi quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- Elektron hukumat: Davlat bilan fuqarolar o‘rtasidagi aloqalarni oshirish va xizmatlar ko‘rsatishni Sifatni yaxshilash.

- Raqamli iqtisodiyot: Kichik va o‘rta bizneslarni raqamli platformalarda faoliyat yuritishlariga yordam berish.

- Ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqarish: Raqamli analitika vositalari orqali resurslardan foydalanishni monitoring qilish.

Raqamli texnologiyalarning Ekologik Barqarorlikka Ta'siri

1. Uglerod izlarini qisqartirish - Raqamli texnologiyalar orqali ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish mumkin. Bu esa, atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar miqdorini kamaytirishga yordam beradi.

2. O‘rmonlarni qayta tiklash - Dronlar va sun'iy yo‘ldosh texnologiyalari orqali o‘rmonlarni monitoring qilish va ularga zarar yetkazilishining oldini olish

mumkin. Shu bilan birga, o‘rmonlarni qayta tiklash uchun zarur bo‘lgan ma'lumotlarni tez va aniq olish imkoniyati mavjud.

3. Suv resurslarini saqlash. Raqamli texnologiyalar yordamida suv resurslarini monitoring qilish va boshqarish imkoniyatlari kengaymoqda. Aqlli sug‘orish tizimlari orqali suvni tejash va uni samarali ishlatish mumkin.

Raqamli texnologiyalarning asosiy turlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

1. Internet va Aloqa:

- Internetga ulanish va raqamli aloqa vositalari (masalan, mobil telefonlar, smartfonlar, kompyuterlar).

- Ijtimoiy media platformalari va kommunikatsiya dasturlari (masalan, Facebook, WhatsApp, Zoom).

2. Ma'lumotlar va ma'lumotlarga ishlov berish:

- Ma'lumotlarni yig‘ish, saqlash va tahlil qilish uchun dasturlar va bazalar (masalan, ma'lumotlar bazalari, analitika vositalari).

- Sun'iy intellekt va mashinani o‘qitish.

3. Bulutli texnologiyalar:

- Ma'lumotlarni bulutda saqlash va ularga uzluksiz kirish imkonini beruvchi xizmatlar (masalan, Google Drive, Dropbox).

4. Katalizator va Internet narsalar (IoT):

- Qurilmalar va sensorlarning tarmoqqa ulanib, istiqbolli ma'lumotlar almashish imkonini berishi, masalan, aqlli uy tizimlari.

5. Raqamli xavfsizlik:

- Ma'lumotlar va tizimlarni himoya qilishda maxsus texnologiyalar (masalan, kriptografiya, xavfsizlik devorlari).

Raqamli texnologiyalarning afzalliklari

- Tezlik va samaradorlik. Jarayonlarni tezlashtirib, samaradorligini oshiradi.

- Ma'lumotlarga kirish. Ma'lumotlarga yangi darajada kirish imkonini beradi.

- Ishlab chiqarish va xizmatlarni optimallashtirish. Raqamli texnologiyalar orqali resurslardan samarali foydalanish va jarayonlarni yaxshilash mumkin.

Yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar o‘rtasidagi integratsiyada Yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar bir-birini to‘ldiradi. Masalan, Internet of Things texnologiyalari yordamida energiya sarfi va chiqindilarni monitoring qilib, ish faoliyatini optimallashtirish mumkin. Shuningdek, raqamli dasturlar yordamida ekologik toza energiya manbalaridan foydalanishni oshirish va energiya samaradorligini ta'minlash imkoniyati mavjud. O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘sish O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘sishi, yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston hukumati tomonidan ishlab chiqilgan "2020-2030- yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining Barqaror rivojlanish strategiyasi"da ushbu yo‘nalishlar alohida ta'kidlangan. Yashil iqtisodiyotga o‘tishda barqaror rivojlanishni ta’minlashning asosiy omili bo‘lgan zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda va uni modernizatsiya qilish bu yerda tahlil etilgan tarkibiy islohotlarning muhim elementi hisoblanadi. Infratuzilma tarmoqlariga suv infratuzilmasi (shu jumladan to‘g‘on va suv omborlari), yerni rivojlantirish va rejalashtirish, uy-joy va shaharsozlik, qirg‘oqbo‘yi suv toshqinidan himoya qilish tizimlari, yo‘l-transport infratuzilmasi (shu jumladan portlar, ko‘priklar, yo‘llar), energetika (shu jumladan atom elektr stansiyalari) va bir qator tarmoqlar kiradi. Bu tarmoqlar ularda qo‘llaniladigan ishlab chiqarish apparatlarining uzoq xizmat muddati (tarmoqlarning sanab o‘tilgan qatori uchun - 20 dan 200 yilgacha) va investitsiyalarning uzoq muddatliligi bilan tavsiflanadi, buning natijasida ularning ekologik yo‘naltirilganligi. modernizatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, infratuzilma tarmoqlari miqyosning aniq iqtisodlari, tarmoq effektlari va iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy maqsadlar o‘rtasidagi sinergiya bilan tavsiflanadi, bu esa tegishli investitsiyalar samaradorligini oshiradi [5]. O‘zbekiston yashil iqtisodiyot uchun noyob imkoniyatlar va shart-sharoitlarga ega. Keng hudud, qulay geosiyosiy joylashuv, mavjud moliyaviy va tabiiy resurslar, bozorda tobora samarali va foydalanish mumkin bo‘lgan yashil texnologiyalar taklifining o‘sib borishi va boshqa omillar yangi imkoniyatlarni qo‘llabquvvatlamoqda. Iqtisodiyotning yashil rivojlanish tamoyillarini qo‘llash

nuqtai nazaridan islohot talab qiladigan eng muhim segmentlari chiqindilarni boshqarish sektori, energetika sanoati va suv iste'moli sektoridir [3].

Xulosa Yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ular, nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik muammolarni hal etishda ham o‘z rolini o‘ynamoqda. Innovatsiyalarni tatbiq etish orqali O‘zbekiston barqaror va ixcham iqtisodiy rivojlanishi bilan kelajakda samarali muvozanatni ta'minlashi mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, raqamli texnologiyalar ekologik barqarorlikni ta'minlashda salbiy va ijobiy tomonlarga ega. Ularning samarali va barqaror ishlatilishi atrofmuhitga bo‘lgan ta'sirni kamaytirish, resurslarni tejash va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynaydi. Shunga qaramay, bu texnologiyalarning ishlab chiqilishi, ishlatilishi va utilizatsiyasi bilan bog‘liq muammolarni hal etish zarur. Raqamli inqilobning kelajagi nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan ham bog‘liqdir. Faqat shu shartlarda biz kelajakda toza va barqaror dunyoni qurishimiz mumkin. “Yashil” innovatsiyalar bu atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko‘rsatadigan va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydigan yangi g‘oya, mahsulot yoki jarayonlardir. Ular odatda barqaror iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida yaratiladi va tabiiy resurslarning tugashini oldini olish, ijtimoiy farovonlikni oshirish va global isish muammosini hal qilishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. “Aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy o‘sishni ta'minlash haqida” Prezident qarori, 2019.

2. Uzbekiston Respubliki Prezidentining 2019-yil 4- oktabrdagi «2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iktisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘grisidagi-PQ-4477-sonli qarori,

3. Abduqodirov, I. "Yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar: Buguni va kelajagi", 2022.

4. Nematov, A. "Yashil innovatsiyalar va ularning iqtisodiyotga ta'siri", O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali, 2021.

5. 1. Sh, Mavlonov Sh, F. B. Jurayeva. "zamonaviy texnologiyalar yordamida mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirish." Экономика и социум 10 (125) (2024): 234-238.

6. Aliqulov, Sh. "M. Yaxiyaxonova. Ta‘lim samaradorligini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlarning ahamiyati. Raqamli ta’lim muhitida fanlararo integratsiyani qo‘llashning ta’lim samaradorligiga ta’siri: xalqaro Tajribalar va rivojlanish istiqbollari." (2024)

7. Shamsiddinov, G‘iyosjon, Barchin Ro‘ziqulova, Laziza Inatillayeva. "boshlang‘ich ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va afzalliklari" 3.10 (2024): 39-41.

8. Shamsiddinov, G‘iyosjon, Jasmina Murodulloyeva, aUmida Nurmaxmatova. "Yashil” iqtisodiyot va yo ‘nalishlari bo ‘yicha ta’lim dasturlarini rivojlantirish mexanizmlari." Models and methods in modern science 3.5 (2024): 44-49.

9. Shamsiddinov, G‘iyosjon, va Temurbek Zarifov. "global tarmoq qurishda tarmoq qurilmalaridan foydalanish va tarmoq topologiyalarining o‘rni." Science and innovation in the education system 3.5 2024y : 50-60.

10. Nematov, A. "Yashil innovatsiyalar va ularning iqtisodiyotga ta'siri". O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali.2021yil.

11. Xodjayeva, Z. "Raqamli texnologiyalar va barqaror rivojlanish". Tafakkur va Innovatsiyalar jurnalida berilgan maqola. 2023y.

ЁШЛАР ТАРАҚҚИЁТНИНГ ҲАЛ ҚИЛУВЧИ КУЧИ

Саитмуродов Жобиржон Боймурод ўғли
Ренессанс таълим университети доценти
Холмахматов Азим Хазраткулович
Ўзбекистон Миллий университети
мустақил тадқиқотчиси

Ёшлик – инсон келажагини белгиловчи имкониятлар даври. Умрининг шу босқичида ёшлар миллий ва умумбашарий қадриятларнинг мазмун-моҳиятини идрок этиб, уларни амалда қўллаш кўникмаларини ўзлаштиради. Инсон ҳаётининг шу палласида ўз келажаги ҳақида фикр қила бошлайди, у фуқаролик паспортини илк бор қўлига олади, мактабни тугаллаш арафасида “Қайси касбни эгалласам экан?” деган мураккаб саволга жавоб излайди. Ўзи тўғри деб билган қарорини амалга ошириш учун техникум ёки олий ўқув юртига кириб ўқийди ва ўзининг тадбиркорлик субъектини ташкил этиб, катта ҳаёт остонасига қадам қўяди.

Ёшларни айни шу даврида қўллаб-қувватлаш, уларга тўғри йўл кўрсатиш, турмушнинг катта-кичик сўқмоқларида чалкашиб қолишларига йўл қўймаслик ота-оналарнинг, ёши улуғ инсонларнинг биринчи галдаги вазифаси ҳисобланади. Шу ўринда, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йилнинг 30 июнида қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони ёшлар ҳаётида йўлчи юлдуз бўлди, десам янглишмаган бўламан.

Тўғри, Мустақилликнинг илк кунлариданоқ ёшларга алоҳида эътибор қаратилди. Ўзбекистон Республикасининг "Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни қабул қилинди. Таълим, кадрлар сиёсатига оид бир қатор меъёрий ҳужжатлар мавжуд эди. Аммо ёшлар ҳаётида жиддий ўзгаришлар амалга ошмади, коллеж ва лицейни тугаллаган ёшларни ишга жойлаштириш ҳақида кўптомонлама шартномалар тузилардию, ёшларнинг кейинги ҳаёти билан қизиқувчилар кам эди. Хорижга иш излаб кетувчилар орасида ёшлар кўпчиликни ташкил этаётганини кўриб туриб кўрмасликка олиш одат тусига кирди.

2016 йил 14 сентябрда қабул қилинган янги таҳрирдаги “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни қабул қилинганидан кейин бу соҳада амалий ишлар бошланиб кетди.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев биринчи марта ўтказилган Ўзбекистон ёшлари форумига ташриф буюриб, нутқ сўзлади. Давлат раҳбари ўз нутқида Учинчи Ренессанс, ёш волонтёрлар фаолияти, ёшлар билан ишлаш бўйича Тошкент тажрибаси, “Ёшлар: 1+1” дастури, Ёшлар кичик саноат зоналари, “Ёшлар мурожаати” электрон платформаси, тадбиркорликка ўқиган ёшларга 4 фоизлик кредитлар, ёш оилаларни уй-жой билан таъминлаш ва бошқа мавзуларга алоҳида тўхталди. Юртбошимизнинг ёшларга яратиладиган имкониятлар ҳақидаги гаплари шунчаки ваъда эмаслигини ва ўз ҳаётларида туб бурилишлар даври яқинлашганини мамлакатимизнинг миллионлаб ўғил-қизлари дил-дилидан ҳис этганди ўшанда.

Юртбошимизнинг “Ўз тажрибамдан келиб чиқиб, сизларга айтадиган маслаҳатим шу: Илмни қадрланг, илмга интилинг! Бир сония вақтингиз ҳам бекор ўтмасин! Ёшлик – умрнинг энг бебаҳо даври. Илм ва билим – ўтда ёнмайдиган, сувда чўкмайдиган, ҳеч ким сиздан тортиб ололмайдиган бойлик эканини асло унутманг!

Сизлар мустақиллик фарзандларисиз. Ота-боболарингиз кўрган тўсиқ ва қийинчиликларни кўрмай, озод Ватанда эркин нафас олиб вояга етаяпсизлар. Юксак мақсадлар йўлида сиз – ёшлар ҳал қилувчи куч бўлишингиз керак. Мен сизларнинг зиммангизга юкланган ана шундай улкан масъулиятни, том маънодаги тарихий вазифани шараф билан адо этишингизга қатъий ишонаман”, – деган сўзлари ёшлар қалбига олов ёқди.

Бугунги кунда Жиззах вилоятида ёшларни жамиятимизда кечаётган сиёсий-ижтимоий жараёнларнинг ҳақиқий иштирокчисига айлантириш, улар қалбида Ватан тақдири, Янги Ўзбекистоннинг барпо этилишига дахлдорлик ҳиссини уйғотиш, малакали таълим-тарбия олишлари учун шарт-шароитлар яратиб бериш, ёшлар тадбиркорлигини йўлга қўйиш ва бошқа соҳалар бўйича кўзга кўринарли ишлар амалга оширилмоқда.

Ёшларни интернетдаги зарарли хуружлардан асраш, уларни ахборот технологияларидан унумли фойдаланишга ўргатиш масалалари бўйича илғор халқаро тажрибалар асосида барча ҳудудларда Рақамли технологиялар ўқув

марказлари ташкил этилди. Жиззах шаҳрида “IT park” ташкил этилиб, унда келажак дастурчилари таълими йўлга қўйилди. Айни пайтда чекка туманларда ҳам “IT park” филиаллари ташкил этилмоқда. Бу масканларда электрон тижорат ва дастурлаш бепул ўргатилади, ахборот технологиялари соҳасида бизнес бўйича инновацион кўникмалар шакллантирилади, “стартап” лойиҳаларга ёрдам кўрсатилади. Шунингдек, 2021 йилда барча мактаблардаги компьютер синфларини замонавий технологиялар ва юқори тезликдаги интернет тармоғи билан таъминлаш бўйича чора-тадбирлар режаси ишлаб чиқилиб, босқичма босқич амалга оширилди. Янги ташкил этиладиган компьютер ўйинлари марказлари ёш авлоднинг билим ва дунёқарашини кенгайтиришга қаратилган тест, викторина, ривожлантириш стратегиялари ва бошқа фойдали дастурлар билан таъминланди.

Вилоятимиз ҳудудида 299 та маҳалла, 553 та мактаб, 32 та профессионал ва 4 та олий таълим муассасасида “Ёшлар баланси” шакллантирилиб, унинг асосида “Ёшлар дафтари” ва “Ёшлар дастури” ижроси йўлга қўйилди. Ёшлар муаммолари устида ишлашда бундай тизимнинг яратилиши 16 ёшдан 30 ёшгача бўлган 327 734 нафар ёшларни аниқлаб, улар яшаётган маҳаллалар уч ҳудудга ажратилди. Қизил ҳудудга 48 та маҳалла (16,1 фоиз), сариқ ҳудудга 196 та

(65,6 фоиз) ва яшил ҳудудга 55 та (18,4 фоиз) киритилиб, тоифаларга ажратиб чиқилди. Ёшлар билан учрашувлар, якка тартибдаги суҳбатлар натижасида 6004 нафар ишсиз, ёрдамга муҳтож ёшлар “Ёшлар дафтари”га киритилиб, уларнинг муаммолари билан алоҳида шуғулландик.

“Ёшлар дафтари”да рўйхатга олинган ва ижтимоий муҳофазага муҳтож 1 922 нафар ёшни касб-ҳунарга ўқитиш, меҳнат қуроллари, томорқаларини даромад манбаига айлантириш, уруғлик, кўчат харид қилиш учун субсидиялар ажратиш, контракт тўловларини тўлаш учун 1,8 млрд. сўм маблағ ажратилди.

Амалга оширилган хатлов натижасида доимий иш билан таъминланмаган 21 330 нафар ёшларнинг 8 715 нафари бандлиги таъминланди. 1 786 нафар ёшга ўз тадбиркорлигини йўлга қўйиш учун 47 млрд. 571 млн. сўм банк

кредитлари ажратилди. Уларнинг 4 979 нафарига қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштириш учун 0,10 дан 1 гектаргача экин ерлари ажратиб берилди. Ер майдонлари ажратиб бериш тажрибаси ёшлар учун ўзига хос тадбиркорлик мактаби бўлмоқда. Чунки, ўз ерида меҳнат қилган ёш деҳқон етиштирган маҳсулоти ўтмай қолиши ёки арзонгаровга сотилмаслиги учун бозорни, истеъмолчилар талаб ва истагини ўрганади. Қандай маҳсулотга талаб катта эканлигини аниқлаб, кейин экишни бошлайди. Албатта, оладиган фойдаси ҳам шунга яраша бўлади. Шунинг учун улар орасидан деҳқон ва фермер хўжаликлари раҳбарлари, оилавий тадбиркорликни йўлга қўяётган ёшлар чиқаётгани бизни қувонтирмоқда. Ҳалол меҳнат нафақат кишини пишитади, балки ақлини ҳам пешлайди.

Улуғ ҳаким Ибн Сино айтганидай бола тарбиясини бешикдан бошламоқ лозим. Биз фарзандларимизнинг дарсдан бўш вақтларини мазмунли ва қизиқарли ташкил этиш орқали онгига миллий қадриятларимизни сингдириш, маънавий дунёқарашини ўстириш, соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш мақсадида “Йўл харитаси” ишлаб чиқдик. Таълим муассасалари баланси асосида олий ўқув юртларида таҳсил олаётган 778 нафар кам таъминланган, 47 нафар чин етим, 8 394 нафар ижарада, 1 507 нафар ётоқхонада яшовчи, 1 363 нафар ишловчи талабалар билан самарали иш олиб бориш учун олий ўқув юртлари раҳбарлари ва ёшлар етакчилари ҳамкорлиги йўлга қўйилди. Мактабларда ҳам шундай таҳлиллар амалга оширилиб, 9 659 нафар ўқувчи-ёшлар аниқланди.

Ўтган давр мобайнида “Ёшларнинг бўш вақти – етакчининг иш вақти” тамойили асосида маҳаллаларда олти йўналиш бўйича ҳар куни тадбирлар, танлов ва мусобақалар, лойиҳалар ташкил этилди. Фаол ва ташаббускор ёшларни рағбатлантириб бориш учун “Ёшлар дафтари” жамғармасидан 897 млн. сўм молиялаштирилди.

Бугунги кунга қадар жами 13181 та тадбирлар орқали 750 956 нафар ёшлар қамраб олинди. Жумладан, маданият ва санъат соҳасида 2 476 та, спорт бўйича 5 002 та, IT соҳасида 661 та, китобхонлик, адабиёт ва публисистика

йўналишларида 3706 та, ҳарбий ватанпарварлик йўналишида 921 та тадбир, танлов ҳамда мусобақалар ташкил этилди. Масалан, спортнинг “Мини футбол” ва “Street workout” турлари бўйича “Вилоят ҳокими кубоги” мусобақалари ўтказилди. Беллашувларда маҳаллалар, секторлар, шаҳар ва туманлар босқичлари ўтиб, шу йилнинг 29 мартида вилоят босқичи якунланди. Ғолиблар 40,0 млн. сўмлик совғалар билан тақдирланди. Бундай тадбирларнинг аҳамиятли томони шундаки, уларнинг барчасига ҳоким ёрдамчилари, ёшлар етакчилари бош бўлишмоқда, уларнинг ташаббускорлиги иккиланиб турган ёшларни қатъиятли бўлиб, мақсад сари олға интилишга даъват этмоқда.

Ёшлар етакчиларининг саъй-ҳаракатлари билан вилоятдаги 393 та спорт зали, 457 та кутубхона, 697 та компьютер хоналарида ҳар куни соат 16 дан 23 га қадар ёшларга шуғулланиш имкони яратилди.

Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш мақсадида ҳамда “Ватан ҳимояси муқаддас бурч” тамойили асосида “Ёш ватанпарварлар йиғини” лойиҳаси ишлаб чиқилди ва тарбияси оғир, ишсиз 400 нафар ёшларга ўн кунлик дастур асосида касб-ҳунарга ўқитиш, тадбиркорлик кўникмаларини ўргатиш ҳарбий қисмларда ташкил этилди. 10 кун давомида ёшлар ҳарбий кийимда, ҳарбий интизом остида етук мутахассислардан таълим-тарбия олмоқда. Лойиҳа “Жиззах тажрибаси” номи билан мамлакатимиз миқёсида амалга оширилиши йўлга қўйилди.

Ёшларни ижтимоий ҳаётда ўз ўринларини топишида маҳалланинг ўрни беқиёсдир. Шунинг учун аксарият жиддий тадбирлар бевосита маҳаллалар ҳамкорлигида ташкил этилмоқда. 1 253 нафар ёшлар иштирок этаётган “Қалқон” ёшлар гуруҳи, фарзандларимизни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашга қаратилган “Жасорат дарслари” лойиҳалари доирасида ташкил этилаётган камондан ўқ отиш, от спорти каби беллашувлар ҳам маҳаллалар миқёсида ташкил этилмоқда.

Маҳаллалардаги 299 нафар ёшлар етакчилари самарали фаолият кўрсатишлари учун барча шароитларни яратиб бериш вилоят ҳокимлигининг

биринчи галдаги вазифасидир. Зеро, ҳоким ёрдамчилари ва ёшлар етакчилари ҳамкорлигида маҳаллаларда тадбиркорлик йўналишида 75 дан ортиқ лойиҳалар ишлаб чиқилди. Шунинг учун ҳоким ёрдамчилари ва ёшлар етакчилари маҳаллаларда алоҳида иш жойлари, компьютер жамланмалари билан таъминланди. 299 нафар ёшлар етакчиларининг барчасига ишда фойдаланиш учун планшетлар берилди.

Шу йилнинг май ойида фуқаролар йиғини раислари (оқсоқоллари) сайлови бўлиб ўтди. Сайловга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказишга кўмаклашувчи комиссиялар таркиблари, овоз бериш бюллетенлари шакли халқ депутатлари вилоят, шаҳар ва туманлар Кенгашлари томонидан тасдиқланди. Жойларда ишчи гуруҳлари ташкил этилди. Маҳалла раислари (оқсоқоллари) лавозимига энг муносиб номзодларни танлаш ва тавсия этиш жараёнлари бошланиб кетди. Номзодларни танлашда ёш кадрлар заҳирасига ҳам мурожаат этмоқдамиз. Чунки, аксарият ҳоким ёрдамчилари олий маълумотли ёшлардир. Ёшлар етакчилари вазифасига ҳам олий маълумотли ташаббускор, ташкилотчи ёшлар тайинланган. Демак, маҳалла раҳбарининг маълумоти ва ташкилотчилик салоҳияти уларникидан паст бўлиши керак эмас. Биз маҳаллани тараққиёт, ташаббуслар масканига айлантиришни мақсад қилганмиз ва унда ёшлар ҳал қилувчи етакчи куч бўлиб қолади.

Умуман, ёшларнинг таълим олиши, касб-ҳунар эгаллаши, етук инсонлар бўлиб улғайиши йўлида замонавий, илғор-инновацион шарт-шароитларни яратиб бериш учун Ўзбекистон бор куч ва имкониятларини ишга солмоқда. Чунки, ёш авлодни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, маънавий етук, жисмонан соғлом, ватанпарвар ва фидойи этиб тарбиялаш, ҳуқуқ ҳамда манфаатларини ҳимоя қилишга эътибор қанча кучайтирилса, унинг самараси ҳам шунча юқори бўлади. Шу боис Ўзбекистон жамиятнинг фаол қатлами сифатида эътироф этилувчи ёшлар қатламига “муаммо” деб эмас, балки юрт равнақини таъминловчи катта куч, давлатнинг стратегик ресурси сифатида қарамоқда. Натижада бугун юксак билимли, замонавий фикрлайдиган, қатъий

позицияга эга ёшлар мамлакатнинг эртанги тараққиётида тобора ҳал қилувчи кучга айланиб боряпти.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрда “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги ЎРҚ-406-сонли Қонун.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 19 январда “Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-92-сонлип Қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 28 апрелдаги “Моддий ёрдам ва кўмакка муҳтож оилаларни, хотин-қизлар ва ёшларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ВМ-250-сонли Қарори.

ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАРГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИНИ ЎРГАНИШДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН СИЁСИЙ ФАНЛАР МЕТОДЛАРИ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

Ўзбекистон Миллий университети
мустақил тадқиқотчиси
Холмахматов Азим Хазраткулович

Резюме

Ушбу мақолада Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишнинг обеъкт-субеъкт муносабатлари ўзаро қиёсий таҳлил қилинади. Шунингдек, мазкур йўналишдаги сиёсатни тадқиқ этишнинг назарий-методологик асослари муайян мамлакатдаги реал ҳолатини кўриш, унга доир умумлашган хулосалар, шунингдек, истиқболли тараққиётига таалуқли таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилади.

Резюме

В данной статье приведен сравнительный анализ объектно-субъектных отношений при реализации государственной молодежной политики в Узбекистане. Также будет разработана теоретическая и методологическая основа исследования политики в этой области, чтобы увидеть реальную ситуацию в конкретной стране, обобщенные выводы по ней, а также предложения и рекомендации для будущего развития.

Resume

This article provides a comparative analysis of object-subject relations in the implementation of state youth policy in Uzbekistan. A theoretical and methodological basis for researching policies in this area will also be developed to see the real situation in a particular country, general conclusions on it, as well as suggestions and recommendations for future development.

Калит сўзлар: *ёшларга оид давлат сиёсати, назарий моделлар, обеъкт, субъект, давлат ҳокимияти органлари, ёшлар бирлашмалари, ижтимоий муҳит, ёшлар сиёсатини моделлаштириш, фуқаролик жамияти институти, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи, қўшма келишув, кўмакчи ташкилот, жамғарма.*

Ключевые слова: *государственная молодежная политика, теоретические модели, объект, субъект, органы государственной власти, молодежные объединения, социальная среда, моделирование молодежной политики, институт гражданского общества, Союз молодежи Узбекистана, совместное соглашение, дочерняя организация, фонд.*

Keywords: *state youth policy, theoretical models, object, subject, public authority, youth associations, social environment, modeling of youth policy,civil society institute, Youth Union of Uzbekistan, joint agreement, subsidiary organization, fund.*

Бугунги кунда ёшлар муаммоларини ёшлар сиёсати нуқтайи назаридан ўрганиш кенг қамровли ҳисобланади. Замонавий Ўзбекистондаги ёшларга оид давлат сиёсатининг ўзига хос жиҳатларини кўриб чиқишдан олдин мазкур

мавзуга оид категориялар аппаратини аниқлаб олиш бунинг учун эса “Ёшлар сиёсати”, “Ёшлар сиёсатининг моделлари”, “Ёшлар сиёсатининг тамойиллари” ҳамда “Ёшлар сиёсатининг объекти ва субъекти” каби ва бошқа тушунчаларни аниқ таърифлаб олиш шунингдек, ёшларга оид давлат сиёсатини ўрганишда қўлланиладиган сиёсий фанлар методлари таҳлилига диққат қаратиш лозим.

Муайян тамойиллар, ёндашувлар, методлар тизими сифатида ҳар қандай фан методологияси унинг тадқиқот соҳасининг асосини ташкил этади. Сиёсий фанлар методологияси деганда мазкур йўналишда қўлланиладиган методлар, ёндашувларнинг тарихи, маъно-мазмуни, роли ва аҳамиятини ўрганадиган алоҳида йўналиш тушунилади. Ёшлар сиёсатини тадқиқ этишнинг умумий методологиясидан келиб чиққан ҳолда давлат сиёсати, ижтимоий сиёсат, ёшларга оид давлат сиёсати сингари сиёсий категорияларга мурожаат қилишга тўғри келади. Зеро, мазкур категориялар таҳлили ёшларга оид давлат сиёсати тушунчасининг барча элементларини аниқ кўриш имконини беради[2].

Ёшларга оид давлат сиёсатини тадқиқ этишнинг назарий-методологик асослари муайян мамлакатдаги мазкур сиёсатнинг реал ҳолатини кўриш, унга доир умумлашган хулосалар, шунингдек, истиқболли тараққиётига таалуқли таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш имконини беради. XX асрнинг бошларида ёшларнинг сиёсий жараёнлардаги иштироки ўсиб бориши билан уларнинг сиёсий хулқ-атвори ва сиёсий маданиятини эмперик тадқиқот методлари асосида ўрганишга бўлган объектив зарурат ортиб борди. Мазкур тадқиқот услуби статистикадан фойдаланиш, ҳужжат таҳлили, анкета сўровномаси, лабаратория эксперименти, иш ўйини, кузатиш ва бошқа методларни ўз ичига қамраб олади. Масалан, контент таҳлил усули ёшларнинг сиёсий фаоллик даражасини аниқлаш имконини берса, статистик методдан ёшларнинг ижтимоий-сиёсий тизимдаги ҳолатларини қиёсий ўрганиш мақсадида қўлланилади.

[2] Меркулов П. А. Методология изучения государственной молодежной политики — приглашение к дискуссии // Вестник Ассоциации ВУЗов туризма и сервиса. 2012. № 4(23). С. 79–82.

Ёшларга оид давлат сиёсатини ўрганишда бундай хилма-хил метод ва ёндашувларнинг қўлланилиши ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш жараёнида рўёбга чиқадиган ҳодисаларни бир ёқлама, бир ўлчовга кўра, бир чизиқли таҳлил этиш имкони йўқлигини англатади. Ёшларга оид давлат сиёсатини тадқиқ этишда изланишлар амалий ва мақсадли натижаларга олиб келиши учун уларни турли методлар асосида кўп ёқлама тадқиқ этиш зарур. Айни кўп ёқлама комлекс таҳлил методологияси энг аввало ёшларга оид давлат сиёсати унинг объекти-субъектини аниқ белгилаб олиш, шунингдек, Ёшларга оид давлат сиёсатининг назарий моделларини яратиш, парадигма ва тамойилларини шаклантириш имконини беради.

Ёшларга оид давлат сиёсатининг назарий моделларини яратиш, парадигма ва тамойилларини шаклантиришдан аввал мазкур тушунчанинг моҳияти нимадан иборат эканлигини англаб олиш муҳим.

Ёшлар сиёсати тушунчаси давлат сиёсатининг расмий фаолият турларидан бирига айланган вақтдан бошлаб, мазкур тушунча ижтимоий гуманитар фанларда институтционаллаша бошлади. Ўтган асрнинг 90 йиллар бошларидан бошлаб мазкур тушунчанинг бугунги кунгача ўз аҳамиятини йўқотмаган кенг, тор ва муассасавий маънодаги талқинлари муҳокама қилиниб келинмоқда[3].

Замонавий ёшлар сиёсати таърифи бевосита туғилгандан то 30 ёшгача бўлган ёш авлод муаммоларини ҳал қилишга қаратилган кенг кўламли чора-тадбирлар йиғиндисини назарда тутади[4].

Ёшлар сиёсатига ёшлар бандлигини таъминлаш, уларда тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш, таълим ва спортга оид давлат сиёсати сифатида қаралади.

1991 йил 20 ноябрь куни “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”ги Қонуни қабул қилиниши билан Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисидаги тушунча мамлакатнинг қонунчилик

[3] Н.Жўраев. Янгиланиш концепцияси: яратилиши, эволюцияси ва амалиёти. – Т.: Маънавият, 2002. – Б. 43
[4] Ўша ерда

тизимига расман киритилди. Мазкур қонун билан ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширувчи давлат ва нодавлат ташкилотлари тузилмаларининг вазифалари белгилаб берилди. Шунингдек, ёшлар сиёсатига оид давлат дастурлари ва меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилина бошланди. Собиқ совет иттифоқи даврида ёшлар сиёсати асосан мафкуравий характер касб этиб, у давлат сиёсатининг алоҳида йўналиши сифатида ажратиб кўрсатилмас эди. Шунингдек, ёшлар сиёсати тушунчаси ҳам алоҳида атама сифатида қўлланилмас эди.

Ёшлар сиёсатининг умумжаҳон миқёсидаги талқини БМТнинг бу борадаги расмий ҳужжатларида ҳам акс этган. Ушбу ҳужжатларда ёшлар сиёсати тушунчаси бирмунча кенг таърифланган: хусусан, “ёшларни ҳар томонлама ривожлантиришга қаратилган давлат фаолиятининг ажралмас қисми бу ёшлар сиёсати ҳисобланади”[5]. Ёшлар сиёсати нафақат давлат ташкилотлари балки, ўзининг умумий фаолияти доирасида ёшлар масалаларига ҳам диққат қаратувчи партиялар, ижтимоий ҳаракатлар, фуқаролик жамияти институтлари ва бошқа ижтимоий институтларни ҳам қамраб олади.

Шунингдек, 2016 йилнинг 14 сентябрида қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонунида “ёшларга оид давлат сиёсати-давлат томонидан амалга ошириладиган ҳамда ёшларни ижтимоий жиҳатдан шакллантириш ва уларнинг интеллектуал, ижодий ва бошқа йўналишдаги салоҳиятини камол топтириш учун шарт-шароитлар яратилишини назарда тутадиган ижтимоий-иқтисодий, ташкилий ва ҳуқуқий чора-тадбирлар тизими”[6] деб таърифланган.

Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонунида белгиланган талабларга кўра Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатининг асосий йўналишларини қуйидагилар ташкил этади:

[5] Молодежь в организации Объединенных Наций / Библиотека документов ООН, связанных с молодежью. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.un.org/ youth.html.

[6] Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғисида”ги қонуннинг 3 моддаси http://lex.uz/docs/3026246

ёшларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш;

ёшларнинг ҳаёти ва соғлиғини сақлаш;

ёшларнинг маънавий, интеллектуал, жисмоний ва ахлоқий жиҳатдан камол топишига кўмаклашиш;

ёшлар учун очиқ ва сифатли таълимни таъминлаш;

ёшларни ишга жойлаштириш ва уларнинг бандлиги учун шарт-шароитлар яратиш;

ёшларни ватанпарварлик, фуқаролик туйғуси, бағрикенглик, қонунларга, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат руҳида, зарарли таъсирлар ва оқимларга қарши тура оладиган, ҳаётга бўлган қатъий ишонч ва қарашларга эга қилиб тарбиялаш;

ёшларни ахлоқий негизларни бузишга олиб келадиган хатти-ҳаракатлардан, терроризм ва диний экстремизм, сепаратизм, фундаментализм, зўравонлик ва шафқатсизлик ғояларидан ҳимоя қилиш;

ёшларнинг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданияти даражасини юксалтириш;

иқтидорли ва истеъдодли ёшларни қўллаб-қувватлаш ҳамда рағбатлантириш;

ёшлар тадбиркорлигини ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратиш;

ёшларда соғлом турмуш тарзига интилишни шакллантириш, шунингдек ёшларнинг бўш вақтларини мазмунли ташкил этиш ва ёшлар спортини оммавий ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратиш;

ёш оилаларни маънавий ва моддий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, улар учун муносиб уй-жой ва ижтимоий-маиший шароитларни яратиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тизимини амалга ошириш;

ёшларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларини рўёбга чиқариш соҳасида фаолиятни амалга оширувчи халқаро ташкилотлар билан ҳамкорликни ривожлантириш[7]. Бундан келиб чиқадики, ёшларга оид давлат сиёсати давлат

[7] Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятига доир ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар (I қисм). – Т: “O‘zbekiston” НМИУ, 2017.Б – 34-45.

ижтимоий сиёсатининг ажралмас қисми бўлиб, ёшларга оид давлат сиёсатининг тамойиллари сифатида белгиланган жамиятнинг ижтимоий маданий соҳасига оид жараёнларнинг давлат томонидан бошқарилишини таъминлаш унинг асосий вазифаси ҳисобланади.

Айни ўринда ижтимоий тизимга ёки бу тизимнинг қисми сифатида ёшларга тўғридан тўғри таъсир кўрсатадиган ёки билвосита унинг амал қилиш шароитида сиёсат субъекти сифатида ёшларни ривожланишга ундовчи бошқарув жараёнидаги Ёшлар ва ёшларга оид дават сиёсати ўртасидаги объект ва субъект муносабатлари аниқланади.

Ижтимоий эхтиёжлари ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш доирасида қўлланиладиган чора-тадбирлар ва дастурлар орқали қондириладиган турли ёшлар гуруҳлари ва ҳаракатлар, ёшлар ташкилотлари ҳамда алоҳида ёш инсонлар ёшлар **сиёсатининг объекти ҳисобланади.**

Бугунги кунда нафақат биргина давлат ҳокимияти органлари ёшлар бирлашмалари, уларнинг ассосиациялари, шунингдек, ёшларнинг таълим олиши, тарбияси, муносиб турмуш кечириши учун муайян шароит яратиш билан шуғулланувчи ўзини-ўзи бошқариш органлари, иш берувчилар, жамоат бирлашмалари, юридик ва жисмоний шахслар ҳамда ёшларнинг ўзлари ҳам ёшларга оид давлат сиёсатининг субъекти ҳисобланади[8]. Одатда, давлат бошқаруви тизимига мувофиқ, таълим ва тарбия институтлари ёшлар сиёсатининг субъектлари ҳисобланади.

Ёшлар сиёсатини моделлаштириш масаласи давлат ижтимоий сиёсатининг субъекти сифатида қаралувчи ёшлар ва уларга оид назарий ва амалий муаммолар билан боғлиқ тарзда намоён бўлади. Ёшлар сиёсатининг асосий принципларини мазкур сиёсатнинг “субъектлик”и деб ҳисобаш мумкин. Ёшларнинг субъектлик хусусияти ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш жараёнида ташқаридан киритилмаган балки, ўз ўзидан касб этилган хусусият ҳисобланади. Мазкур хусусият давлат ва жамиятнинг

[8] Жўраев С. Ўзбекистон давлатининг ёшларга доир сиёсати: назария ва амалиёт. Сиёс.ф.док. илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. -Т.:1994.

ҳаракати жараёнида юзага келади. Ёшлар субьектлашуви жараёни эса интеграл характер касб этади. Бу жараён ёшларнинг фаолият турини танлаши, ўзининг ташаббускорлигини тушуниши ҳамда мақсадлар ва уларга эришиш воситаларини ишлаб чиқиш кабиларни ўз ичига қамраб олади. Ёшларнинг субьектлиги, ижтимоий фаоллик, ўз ўзини назорат қилиш ва бошқариш ва мавқеини белгилаш билан тавсифланувчи яхлит ижтимоий жараёнларнинг омили ҳисобланади[9]. Шу маънода, муайян гуруҳ ёки субмаданий бирликнинг йўналганлиги сифатида қаралувчи ёшлар гуруҳларининг ижтимоий фаоллигини, ёшларнинг ўз ҳолатини ўзгартириш жараёнида амал қилувчи ижтимоий-маданий шароитларга мувофиқ шаклланган қизиқиш ва эҳтиёжлар ҳамда бунинг учун зарур бўлган ижтимоий сифатлар ўлароқ таърифлаш мумкин.

Ўзини-ўзи бошқариш тушунчаси ёшлар сиёсатининг субьектлик хусусиятини тушунишда муҳим бўлиб, у ўзида жамият олдида турган муаммоларни ҳал қилишдаги иштирокини ва давлат ҳамда ижтимоий гуруҳлар манфаатларининг ўзаро самарадор мутаносиблигини назарда тутади[10].

Субъектлик ёшларнинг муҳим фаолият турлари билан шуғулланиш учун зарурий шарт-шароит яратиш ёки, субъектлик хусусиятининг юзага чиқиши учун хизмат қиладиган технологияларни ишлаб чиқиш билан боғлиқ равишда шаклланади. Айнан мазкур технологиялар ёшларга оид давлат сиёсати доирасида қўлланиладиган муайян ижтимоий лойиҳа ва дастурлар самарадорлигининг ошишига хизмат қилади.

Умуман олганда бугунги кунда “ёшлар ижтимоий тараққиётида ворисийлик ва ўзгарувчанлик хусусиятларининг уйғунлигига алоҳида эътибор қаратилади. Ижтимоий муҳит ва янги авлод ўртасидаги ўзаро таъсир жараёнларини бошқаришда ёшларнинг ўзини-ўзи ривожлантириш

[9] Социальные технологии. Толковый словарь // — Москва-Белгород: Луч-Центр социальных технологий, 1995.-С 36.

[10] Иваненко, СП. Молодежь и государство: инновационные подходы / СП. Иваненков, А.Ж. Кусжанова. - Оренбург: Ком. По делам молодежи Оренбург, обл., 2005. - С. 19

тенденциясига таяниш талаб қилинади”[11]. бундай мураккаб вазиятда жамият ва давлат олдида ёшларга таъсир ўтказишнинг сифатли йўллари ва усулларини излаб топиш ва мувоффаққиятли қўллаш вазифаси қўйилади. Шу маънода ёшлар ва ёшларга оид давлат сиёсати ўртасидаги субъект ва объект муносабатининг мазмуни бугунги кундаги ёшлар муҳити тубдан ўзгаришида муҳим аҳамият касб этади.

Хулоса қилиб айтганда, ёшларга оид давлат сиёсати турли ижтимоий-гуманитар фанлар йўналишидаги тадқиқотлар учун предмет вазифасини ўтай олади. Уни тадқиқ этишга оид методологик ёндашувларнинг хилма-хиллиги ҳам ёшларга оид давлат сиёсатининг соҳалараро тадқиқот предмети бўла олишлик хусусияти билан фарқланади.

Юқорида санаб ўтилган тадқиқот методлари ҳамда улар асосида келиб чиқувчи ёшларга оид давлат сиёсати моделлари уни тадқиқ этишнинг назарий-методологик асоси сифатида мазкур соҳадаги объект субъект муносабатларининг яхлит тарзда очиб беришга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Меркулов П. А. Методология изучения государственной молодежной политики — приглашение к дискуссии // Вестник Ассоциации ВУЗов туризма и сервиса. 2012. № 4(23). С. 79–82.

2. Н.Жўраев. Янгиланиш концепцияси: яратилиши, эволюцияси ва амалиёти.
– Т.: Маънавият, 2002. – Б. 43

3. Молодежь в организации Объединенных Наций / Библиотека документов ООН, связанных с молодежью. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.un.org/ youth.html.

4. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғисида”ги қонуннинг 3 моддаси http://lex.uz/docs/3026246

[11] Кураков, В.Л. Социальная политика и формирование здорового образа жизни молодежи./ В.Л. Кураков. - Чебоксары: изд-во Чуваш, ун-та, 2004. - С. 12.

5. Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятига доир ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар
(I қисм). – Т: “O‘zbekiston” НМИУ, 2017.Б – 34-45.

6. Жўраев С. Ўзбекистон давлатининг ёшларга доир сиёсати: назария ва амалиёт. Сиёс.ф.док. илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. -Т.:1994.

7. Социальные технологии. Толковый словарь // — Москва-Белгород: Луч-Центр социальных технологий, 1995.-С 36.

8. Иваненко, СП. Молодежь и государство: инновационные подходы /
СП. Иваненков, А.Ж. Кусжанова. -Оренбург: Ком. По делам молодежи Оренбург, обл., 2005. - С. 19

4-SHO‘BA:

YEVROOSIY OMINTAQASIDA TURKIY DAVLATLAR TARIXI VA MADANIYATI

YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHNING MA’NAVIY OMILLARI

Musayev Odil Raxmatovich,
Renessans ta’lim universiteti
Professori, falsafa fanlari doktori (DSc);
+998935281018
@odiljonmusayev
Mayliyev O‘lmasxon
Renessans ta’lim universiteti
“Ijtimoiy-siyosiy fanlar”
kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Anatatsiya. *Mazkur maqolada Jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirishda ma’naviy omillarning o‘rni haqida fikr-*

mulohazalar yuritilgan. Shuningdek unda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda ta'lim-tarbiyaning o'rni muhim ekanligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *mafkura, mafkuraviy immunitet, mafkura poligonlari, ma'naviyat, ma'rifat, ta'lim, tarbiya, inson qalbi*.

Духовные факторы укрепления идеологического иммунитета у молодежи

Анатация. *В стате рассматривается роль духовных факторов в формировании и развитии идеологического иммунитета в общэстве. Также анализируется роль образования в формировании идеологического иммунитета.*

Ключевые слова: *идеология, идеологический иммунитет, идеологические полигоны, духовност, просвещэние, образование, воспитание, душа человека.*

Spiritual factors of strengthening ideological immunity in young people

Annotation. *The article examines the role of spiritual factors in the formation and development of ideological immunity in society. The role of education in the formation of ideological immunity is also analyzed.*

Keywords: *ideology, ideological immunity, ideological polygons, spirituality, enlightenment, education, upbringing, human soul.*

Qalb va ong hayotning ma'no-mazmunini belgilaydigan, inson vujudini boshqarib turadigan sezgi va fikr markaz¬laridir. Qalb — his-tuyg'ular makoni. Inson his-tuyg'ulari o'ta nozik bo'lgani bois qalb o'zgarib turadi. Inson qalbi adashishlardan xoli emas. ¬Adashishlardan saqlanish uchun esa ishonch shakllangan bo'lishi kerak. Ishonch, o'z navbatida, e'tiqodga asos bo'ladi. E'tiqodli qalbni esa yengish qiyin.

Dunyoqarashi teran va fikrlash doirasi keng inson o'zini boshqarish, fikrini erkin bayon qilish va uni himoya qila olishni biladi. Lekin tuyg'u va tafakkuri to'liq shakllanib ulgurmagani sababli yoshlarda e'tiqod va dunyoqarash xiyla zaifroq bo'ladi. Shu bois yoshlar qiziqqon, hissiyotlarga tez beriladi.

Mafkuraviy tajovuz muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni zaiflashtirishga, barbod qilishga yo‘naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi g‘oyaviy-nazariy qarashlarga tayanadi.

Mafkuraviy tajovuz — biron bir mamlakatga nisbatan ichkaridan yoki tashqaridan turib bevosita amalga oshiriladigan g‘oyaviy buzg‘unchilikning bir shakli. Bugun mafkuraviy tajovuzni amalga oshirish uchun xilma-xil usullardan, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklardan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalanilmoqda.

Mamlakatimizda mafkuraviy tajovuz aholining ma’lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o‘zlariga ma’qul yo‘nalishda o‘zgartirish, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi g‘oyalarni singdirishdek ko‘rinishlarda sodir bo‘lmoqda. Bunday tajovuz demokratiya bayrog‘i ostida fuqarolarni qonuniy hokimiyat organlari faoliyatini izdan chiqarish, zo‘ravonlikka undash, ularni Konstitutsiyamizda ko‘zda tutilmagan boshqa tuzilmalar bilan almashtirishga chaqirishdek urinishlarda ham namoyon bo‘lmoqda.

Bunday tajovuzlarga yo‘l qo‘ymaslikning eng qulay yo‘li yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishdir. “Mafkuraviy immunitet” tushunchasini dastlab Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ishlatgan va unga quyidagicha ta’rif bergan: “Ma’lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur”[1].

Immunitet — muayyan himoya demakdir va u nimaningdir oldini olishga, unga qarashi kurashga qaratilgan bo‘ladi. Milliy g‘oya asosidagi mafkuraviy immunitet, avvalo, har bir yurtdoshimizning sog‘lom e’tiqod va yuksak dunyoqarashga ega bo‘lishini taqozo etadi.Mafkuraviy bo‘shliqni to‘ldirish va mafkuraviy immunitetni shakllantirish barkamol avlod tarbiyasining muhim yo‘nalishidir. Bugungi insoniyat turli xil g‘oyalar va siyosiy kurashlar butun jahon

miqyosida avj olayotgan, g‘oyaviy qarama-qarshiliklar keskinlashayotgan bir sharoitda yashamoqda.

Nima uchun kishilar ongi va qalbi uchun kurash turli mafkuralarning bosh maqsadiga aylanib qoldi? Gap shundaki, muayyan g‘oya tom ma’noda g‘oya bo‘lishi uchun kishilar ongini egallashi, to‘g‘rirog‘i, ularning qalbidan joy olishi shart. Aks holda u yoki bu g‘oya faqat muayyan xabar yoki axborot sifatida saqlanib qoladi, xolos. Boshqacha aytganda, omborxonadagi keraksiz buyumlar kabi ongimizning bir chetidan joy egallab yotaverishi mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, bunday holatda g‘oya shaxs uchun hech qanday ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

G‘oya faqatgina inson qalbini egallaganda, inson ma’naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylangandagina harakatga da’vat etuvchi, rag‘batlantiruvchi kuchga, harakat uchun qo‘llanmaga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini ham egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo‘lib qolmoqda. Aynan shuning uchun ham Yer yuzining turli mintaqalari xalqlarining ongi va qalbi turli g‘oyalarni sinash maydoniga, boshqacha aytganda, mafkuraviy poligonga aylantirilmoqda.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘zga hududlarni zabt etish maqsadida ishlatiladigan urush qurollari uzluksiz takomillashib borganini ko‘ramiz. U nayzalardan toki zamonaviy qurollargacha, zambaraklardan to Yer yuzining har qanday nuqtasiga bexato yetib boradigan qit’alararo ballistik raketalargacha bo‘lgan uzoq yo‘lni bosib o‘tdi. Bu qurollar bosib olinishi kerak bo‘lgan hududlar aholisini jismonan yo‘q qilishga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa o‘zga hududlarni zabt etish uchun ularning aholisini yo‘qotish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabt etilgan, qarash va kayfiyatlari “ma’qul” yo‘nalishga o‘zgartirilgan aholi ko‘magida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin bo‘lib qolmoqda.

Mafkura poligonlarida sinovdan o‘tayotgan, mohiyatan g‘ayriinsoniy bo‘lgan g‘oyalarga qarshi tura olish uchun aholida mafkuraviy immunitet hosil qilish lozim. Immunitet kishi vujudining turli infeksion kasalliklarga berilmaslik xususiyatini ham ifodalaydi. Insonning butun hayoti davomida tashqi ta’sirlarga aks javob sifatida orttirilgan immunitet tizimi shakllanadi. Avvalo, insonning ko‘plab

xususiyatlari tug‘ma bo‘lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, shakllantirib borish zarur. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina mafkuraviy daxlsizlikni ta’minlash mumkin[2].

Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri, bu bilimdir. Ammo bilimlar ko‘p. Masalan, buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi va amaliyoti tarafdorlari ham muayyan “bilim”larga tayanadilar va uni boshqalarga singdirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, bir tomondan mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar obyektiv bo‘lishi, voqelikni to‘g‘ri va to‘liq aks ettirishi, inson ma’naviyatining boyishiga va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ikkinchi tomondan, bu bilimlar o‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra, Vatan va xalq manfaatlari, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lmog‘i kerak. Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy qismi ana shunday bilimlar zamirida shakllanadigan qadriyatlar tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik obyektiv va chuqur bo‘lsa, uning zamirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, shaxs, millat yoki davlatning qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy tajovuzlar qarshisida mustahkam qalqon bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi zamonning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, u chegara bilmaydigan, hududni pisand qilmaydigan xilma-xil muammolarga serob. Biron davlat – u xoh katta, xoh kichik davlat bo‘ladimi, ichida vujudga kelgan muammo tez sur’atlar bilan, nafaqat yon-veridagi qo‘shni davlatlarga, balki olisdagi mamlakatlarga ham kirib bormoqda. Bir davlatning tashvishi boshqalarni ham tashvishga solmoqda. Muammolar ko‘lami yoyilib ketmoqda, boshqacha aytganda, globallashmoqda[3].

Har qanday ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo‘lgani singari globallashuv ham o‘z ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Ijobiy tomoni shunda ko‘rinmoqdaki, davlatlar va xalqlar o‘rtasida integratsiya va hamkorlik aloqalari kuchaymoqda, kapital, tovarlar, ishchi kuchi erkin harakat qilishi uchun katta

qulayliklar yaratib berilmoqda, ko‘plab yangi ish o‘rinlari tashkil etilmoqda, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, ilm-fan yutuqlari tezlik bilan tarqalmoqda, qadriyatlar umuminsoniy negizda uyg‘unlashmoqda.

Globallashuv mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylandi. U har xil siyo-siy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilmoqda. Ana shunday vaziyatda milliy g‘oya va mafkuraga bo‘lgan ehtiyoj yanada oshadi. Bunday sharoitda har bir odam mustaqil fikri va mustahkam dunyoqarashiga ega hamda irodali bo‘lishi zarur. Aks holda, turli ma’naviy tahdidlarga qarshilik ko‘rsata olmaydi, ularning ta’siriga berilib, to‘g‘ri yo‘ldan adashib, berk ko‘chaga kirib ketishi oson bo‘lib qoladi.

2017-yilning noyabr oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzuidagi xalqaro konferensiyada Prezident Shavkat Mirziyoyev forum qatnashchilari hamda dunyo jamoatchiligini xavfsizlikka tahdidlarni “o‘ziniki va o‘zgalarniki” deb ajratishdan voz kechish, “yaxlit xavfsizlik” tamoyiliga amalda rioya qilish, bu sohadagi amaliy hamkorlikni chuqurlashtirish zarurligini ta’kidlagan edi. Zotan, mintaqa davlatlari terrorizm hamda diniy ekstremizm tahdidlariga birdek duch kelmoqda[4].

Davlatimiz rahbari xalqaro terrorchilik va ekstremizm asosida, boshqa omillar bilan bir qatorda, johillik hamda toqatsizlik ham yotganini BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasining yuksak minbaridan turib alohida aytib o‘tdi. Shu bois insonlar ongi uchun kurash asosiy vazifadir. Birinchi navbatda, yoshlar tafakkurini egallab olish talab qilinadi. Chunki ekstremistik faoliyat va zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq”[5], degan edi Shavkat Mirziyoyev.

BMTga a’zo mamlakatlar vakillari O‘zbekistonning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish, jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazish, Bosh Assambleyaning “Ma’rifat

va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish bo‘yicha tashabbuslarni qo‘llab-quvvatladi.

Aholisining 60 foizini yoshlar tashkil qiluvchi Markaziy Osiyo — eng yosh mintaqalardan biri. So‘nggi bir yarim yil ichida mutlaqo yangi siyosiy muhit shakllanib ulgurgan bugungi kunga kelib, bu qadar hayotiy ahamiyatga molik masalalarni faqatgina birgalikdagi intilishlar, hamkorlikni kengaytirish hamda kuchaytirish orqali hal etish mumkinligini mintaqadagi barcha anglab yetdi. Yoshlarda mustahkam fuqarolik pozitsiyasi, kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirish borasida yagona strategiyani ilgari surish ertamiz egalarining terrorizm va ekstremizm g‘oyalariga samarali qarshi turishiga xizmat qiladi.

Bu yerda yoshlarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish bo‘yicha vazifalar birinchi o‘ringa chiqadi. Yoshlar migratsiyasiga turtki bo‘layotgan ishsizlik, sifatli ta’lim olish imkoniyatining cheklanganligi hamda o‘z navbatida, madaniyat va bilim darajasining pastligi ekstremistlarga qo‘l kelayotgan salbiy omillar bo‘lib, aynan shu holatlar yoshlarni himoyasiz ahvolga solib qo‘ymoqda.

Aniqki, yosh yigit-qizlar internet manbalaridan eng ko‘p ma’lumot oluvchi qatlamdir hamda bundan terrorchilik tuzilmalari imkon qadar foydalanmoqda. Faol internet auditoriyasining tafakkuri va kayfiyatini o‘z g‘oyalariga bo‘ysundiryapti, yoshlarning qalbiga qo‘rquv, nafrat hamda zo‘ravonlik urug‘ini sochmoqda. Globallashuv sharoitida internet terrorchilar uchun yangi a’zolarni aniqlash, miyasini zaharlash va o‘z tashkilotiga tayyorlashda, mablag‘ yig‘ish hamda ularni o‘tkazishda, terrorchilik harakatlarini amalga oshirish va o‘z maqsadlarini ommalashtirishda bosh qurolga aylandi.

Zo‘ravonlikka tayangan ekstremizm hamda terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashishning dolzarb muammolari yosh avlodni buzg‘unchi g‘oyalar, ekstremizm hamda terrorizm ta’sirlaridan himoyalash bo‘yicha siyosiy-huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy-profilaktik vositalarni yanada takomillashtirishni taqozo qilyapti[6].

Ta’lim–bu, jamiyatni yuksaltirishni belgilab beruvchi ijtimoiy institutdir, u ijtimoiy ongni shakllantiradi. Bugungi kunda shuning uchun ta’limga uning

istiqboliga katta e’tibor qaratilyapdi.Ta’lim-tarbiya yoshlarimiz ma’naviyatini yuksaltirish va istiqbolimizni nurafshon qilish vositasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”,– deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi»[7].

Darhaqiqat, jamiyatdagi barcha muammolar ma’naviy jihatdan barkamol insonlarning sa’y-harakati asosida o‘z yechimini topadi. Demak, kishilarning ruhiyati, ya’ni ma’naviyatini yuksaltirishnig samarali vosita va usullarini yaratish lozim.

Yoshlarga ta’lim olishda keng imkoniyatlar yaratib berish, shuningdek ta’limning sifatini hozirgi zamon talablariga muvofiq bo‘lishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni vujudga keltirish O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor vazifalari hisoblanadi.

Globallashuv va intensivlashuv davrida jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy o‘zgarishlar, zamondoshlarimiz dunyoqarashida ham o‘ziga xos sintez hodisasini yuzaga chiqarmoqda. Zotan, yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishiga keng ko‘lamli bilimlarga ega bo‘lish samarali ta’sir qiladi. Tafakkurga internet, telefon, televideniya, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali vositali ta’sir etish mumkin. Chunki juda katta hajmdagi maqola, yoxud ilmiy asarning mazmun mohiyatini yarim betlik annotatsiyada ifodalash mumkin bo‘lganidek,klipda ham, inson hayotining butun mazmunini besh minutlik rolik orqali tushunib bilish mumkin. Demak, texnologiyalarning rivojlanishi bir tomondan ijobiy natijalar bersa, ikkinchi tomondan, salbiy ta’sir etishi ham mumkin.Tushunish uchun imkoniyatning chuqurligi talab etilishi shubhasiz.Tanqidiy tafakkur qilishni shakllantirish degani emasdir. Zotan, tanqidiy tafakkur rivoji uchun bilimlarning chuqurligi talab etiladi.

“Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda ta’lim jamiyatning, bir tomondan asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi insonni kamol toptiradigan, boshqa tomondan esa—dunyoqarashni shakllantirish manbai, jamiyat madaniyatlilik darajasining ko‘rsatkichi hisoblanuvchi yirik tarmog‘iga aylanish tendensiyasi tobora bo‘rtibroq

namoyon bo‘layotgani tasodifiy bir hol emas. Mamlakat qudrati avvalo ta’lim tizimi bilan belgilanishi aniq-ravshan tus olmoqda.Chunki ta’lim tizimining qanchalik samarador ekaniga qarab shu jamiyatning ma’rifatlilik darajasi va kelajagi haqida tasavvur hosil qilish mumkin”[8].

Demak, ta’lim ma’naviyatning tarkibiy qismini tashkil etadi. Chunki ta’lim nafaqat u yoki bu fanni yoxud sohani o‘zlashtirishga, shuning bilan birga insonlarning ma’nan barkamol bo‘lishiga ham xizmat qiladi, ta’limning mazmun-mohiyatiga singdirilgan ezgulik, bunyodkorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik va umuminsoniylik kabi umuminsoniy qadriyatlar insonning axloqiy-ma’naviy yuksalishiga xizmat qiladi.Shu ma’noda, ta’limsiz ma’naviyat bo‘lmaganidek, ma’naviyatsiz ta’lim ham bo‘lmaydi. Ular o‘zaro chambarchas bog‘liq holda jamiyat ijtimoiy hayotining yuksalishiga xizmat qiladi.

Ta’lim-tarbiya-bu, insonning go‘zal fazilatlarini kamol toptirishiga xizmat qiladigan sohadir. Odamlar har doim insoniylik haqidagi bilimlarga ehtiyoj sezishadi.Ta’lim konsepsiyasida insonning o‘sha ichki ehtiyojini qondirish, uning his-tuyg‘ulariga ruhiyatiga, ta’sir etish va tafakkurini kengaytirishga e’tibor beriladi. Ijtimoiy-ma’rifiy faoliyatida faol ishtirok etishi mushohada qilishning yuksalishi, mehnat jamoalarida yaratish va bunyod etish o‘zini ijodiy namoyon qilishiga imkon yaratiladi.

Ta’limning rivojlanishi ma’naviyat bilan bog‘liqlikda kechadi. U inson hayotining uzviy bo‘lagi bo‘lib, usiz jamiyatning rivojlanishini tasavvur etib bo‘lmaydi. Inson ma’naviyatini yuksaltirishda ta’lim-tarbiya tizimining muhim omil ekanini yaxshi anglagan respublikamiz davlat siyosatida ta’limga alohida e’tibor qaratildi. Mamlakatimizda izchil davom etayotgan ta’lim islohotlari yoshlarimizni ma’naviy jihatdan boy, barkamol insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat etishga xizmat qilsin. T. "O‘zbekiston" 1998-y. – 36 b.
2. http://mv-vatanparvar.uz/kr/3119/

3. http://mv-vatanparvar.uz/kr/3119/
4. https://xs.uz/uzkr/post/kuchli-mafkuravij-immunitet-yoshlarning-yot-goyalardan-himoyalanishida-muhim-orin-tutadi.
5. O‘sha manba.
6. Kuchli mafkuraviy immunitet yoshlarning yot g‘oyalardan himoyalanishida muhim o‘rin tutadi. https://xs.uz/ uzkr/post/kuchli-mafkuravij-immunitet-yoshlarning-yot-goyalardan-himoyalanishida-muhim-orin-tutadi.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-tom.-Toshkent: O‘zbekiston, 2017.505.b.
8. Shermuxamedova N.Ta’lim ijtimoiylashuvning ustuvor yo‘nalishlari.// Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.-Toshkent:Nishon noshr nashriyoti,2010.—24 b.
9. Qahhorova M. Uzluksiz ta’lim tizimi va ma’naviy axloqiy muhit // Falsafa va huquq.-2016.-2 son.

DAVLAT BOSHQARUVI VA RAHBAR IMIJI UYG‘UNLIGI

O‘.B.Shakarov
Renessans ta’lim universiteti“Filologiya va tarix”
fakulteti dekani, s.f.b.f.d., dotsent
+998 99 834 61 03
uktam_sh81@mail.ru

Anatatsiya. *Mazkur maqolada Rahbar o‘z jamoasini muvaffaqiyatli va samarali boshqarishi uchun u ma’lum bir qobiliyat va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi muhim. Chunki, rahbar o‘z jamoasi uchun o‘rnak ko‘rsata olishi lozim. Shu sababli, bugungi kun zamonaviy rahbarining zimmasiga katta mas’uliyat yuklangan bo‘lib, tashkilotning samaradorligi rahbarning faoliyatiga bog‘liqligi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *rahbar, mafkuraviy immunitet, ko‘nikma, ma’naviyat, ma’rifat, ta’lim, tarbiya, boshqaruv, erkin va farovon turmush.*

Анатация. *В данной статье говорится о том, что для успешного и эффективного управления своей командой руководитель должен обладать определенными способностями и навыками. Ведь руководитель должен быть образцом для своей команды. Поэтому современный руководитель сегодня несет большую ответственность, и эффективность организации зависит от деятельности руководителя.*

Ключевые слова: *лидер, идеологический иммунитет, навык, мораль, культура, образование, воспитание, управление, свободная и благополучная жизнь.*

Annotation. *In this article, it is important for a leader to have certain abilities and skills to successfully and effectively manage their team. Because the leader must be able to set an example for their team. For this reason, today's modern leaders bear a great responsibility, and the efficiency of the organization depends on the leader's actions.*

Keywords: *Leader, ideological immunity, skills, spirituality, enlightenment, education, upbringing, management, free and prosperous life.*

Bugungi sharoitda yurt mustaqilligini mustahkamlash, islohotlarni hayotga samarali joriy etish, erkin va farovon turmush sharoitini yaratish uchun xizmat qilayotgan rahbar xodimlarning ma'naviy qiyofasi qanday bo‘lishi maqsadga muvofiq? Rahbarning ma'naviy xislatlari nimalardan iborat? Rahbar kadrlardan bugungi kunda nimalar talab qilinmoqda degan muammolar tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Boshqaruvni yanada takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan yuqoridagi masalalar, aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ma'ruzalarida o‘zining nazariy va amaliy yechimini topmoqda. Jumladan, unda tashabbuskorlik, vijdonlilik, ruhan va qalban uyg‘oqlik, siyosiy barkamollik, bilimdonlik, o‘zini xalq ishiga bag‘ishlash, kamtarlik, talabchanlik, odamlar ko‘nglini olish, ziyolilik, pokizalik, so‘z va ish birligi, ijtimoiy nochorlarni himoya qilish, oqillik va odillik, qonuniylik, bunyodkorlik, ishbilarmonlik, mas'uliyat, o‘z ustida doimo ishlash, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ma'naviyatga homiylik,

vatanparvarlik, halollik, yangicha fikrlash, islohotlarning mohiyatini yaxshi bilish, tashabbusni qo‘llab-quvvatlash, elim deb, yurtim deb yonib yashash, shu bilan birga, diyonatlilik, izlanish va intilish, mardlik, g‘ayratlilik, xizmat burchlariga sadoqat, sezgirlik, zimmasidagi mas’uliyatni his qila olish, fuqarolik mas’uliyati, ogohlik, yangiliklarni muntazam kuzatib borish, xorijlik ishbilarmonlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatish, chet tillarni bilish kabi fazilatlarga ham urg‘u berilgan[12].

Bizningcha, rahbarning ma’naviy qiyofasini, imijini oshiradigan rahbar ma’naviyatidagi qirralardan biri – bu mas’uliyat masalasidir. Xo‘sh, mas’uliyat nima? U rahbar faoliyati bilan qanday bog‘liqlikka ega?

Agar bugungi kun talabidan kelib chiqadigan bo‘lsak, zamonaviy davlat xizmati tizimi inson, jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qilishga tayyor bo‘lgan, ijtimoiy mas’uliyatli rahbar kadrlarni o‘zida birlashtiruvchi mukammal mexanizm sifatida ishlashi lozim. Kasbi boshqaruv bo‘lgan shaxslarning jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy rivojidagi o‘rni beqiyosdir. Islom Karimov 2016-yil 4-fevralda Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida rahbar kadrlarga qo‘yilgan ikki muhim talab – o‘z ishiga bo‘lgan mas’uliyat va o‘z sohasiga oid yuqori malakaga ega bo‘lishi lozimligini alohida ta‘kidlagan edi. “Qayerdaki rahbarlar o‘z zimmasidagi mas’uliyatni unutsa, qayerdaki ishlar o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, o‘sha yerda ish orqaga ketadi, bundan qancha-qancha odamlar zarar ko‘radi, eng yomoni, aholining joylardagi hokimiyat idoralariga ishonchi yo‘qoladi. Har bir rahbar – u qaysi vazifada ishlashi, qaysi bo‘g‘inni boshqarishidan qat’i nazar, avvalambor, o‘zining manfaati bilan emas, jamoaning dard-u tashvishlari bilan yashashi, ularni qiynayotgan muammolarni hal qilish haqida chuqur o‘ylashi, uzoqni ko‘rishi va jamoatchilikni o‘z ortidan ergashtirish uchun ularning ishonchini qozonishi kerak”[13]. Bu ko‘rsatma aslida kasbiy va ma’naviy, axloqiy fazilatlarni yaxlit bir

[12] Qarang. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B. 592.

[13] O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2016-yil 4-fevralda Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi // “Xalq so‘zi”, 2016-yil 5-fevral, №25 (6460).

tizim sifatida qarashning o‘ziga xos konseptual qoidasi bo‘lish bilan birga rahbar kadrlar tayyorlash modelining ham asosi hisoblanadi.

Darhaqiqat, yangi jamiyat barpo etilayotgan bugungi kunda har bir rahbarga katta ishonch bildirilgan va mas’uliyat yuklatilgan. Rahbar ishonch va mas’uliyatni oqlash uchun bilim va tajribaga, yuqori malakaga ega bo‘lishi lozim. Jamiyatdagi o‘zga toifalarga nisbatan ziyolining mas’uliyat va javobgarlik yuki mas‘uliyatli. Rahbarlik mas’uliyatini zimmasiga olgan shaxs uchun yanada mas‘uliyat mavjud. Ziyoli olim bo‘lsa, masalan, hayotni ilmiy asosda tadqiq etadi, shu asosda tavsiyalar beradi. Shoir yoki adib bo‘lsa, voqelikning muayyan qirralarini badiiy timsollarda aks ettirib, ibrat yo‘li bilan odamlarga ijobiy ta’sir yetishga urinadi. O‘z tavsiyasini berishda ularda ixtiyoriylik, xolislik mavjud. Ammo rahbar o‘z jamoasidagi xodimlar uchun mas’uldir, ularni to‘g‘ri yo‘ldan yetaklab, muayyan amaliy natijalarga erishishni o‘z zimmasiga olgan shaxs hisoblanadi.

Rahbarlik mas’uliyatini to‘laqonli his qilish va bu “zalvorli yuk”ni zimmasiga olishga ma’nan tayyor bo‘lish uchun ko‘p jihatdan barkamollik taqozo etiladi. Imom G‘azzoliy fikricha: “Shuni bilsinlarki, odamzotni azbaroyi o‘yin uchun yaratmamishlar, aning amali ulug‘ va uning uchun buyuk xatar bordir”[14]. Ana shu “ulug‘ amal” va “buyuk xatar” oralig‘ida yo‘nalishni to‘g‘ri belgilab olmoq uchun nafaqat malaka va iqtidor, nafaqat har tomonlama chuqur iqtisodiy, huquqiy, siyosiy bilimlar, balki, birinchi navbatda, yuksak ma’naviy kamolot va ogohlik ham talab etiladi. “Aqlli odam hayotdan to‘g‘ri xulosa va saboq chiqaradi. Shu ma’noda, hayot biz uchun doimo saboq maktabi desak, yangilishmagan bo‘lamiz”[15].

Xalq o‘z mas’uliyatini millatning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaruvchi vosita deb bilgan rahbargagina ishonch bildiradi. Demak, o‘z faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashish rahbarning xalq orasida hurmat qozonishi va haqiqiy ishboshi bo‘lishiga xizmat qiladi. Shuningdek, rahbar mas’uliyati jamiyatning taraqqiy etishiga xizmat qiluvchi omil bo‘lishi bilan birga rahbar shaxsini amaliy faoliyatga undovchi kuch ham hisoblanadi. Bunga tarixdan ko‘plab misollar keltirish mumkin.

[14] Imomnazarov M., Lafasov M. Ma’naviyat asoslari. –Toshkent, 2018.
[15] Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –Toshkent: O‘zbekiston, 2015. –B. 209.

Jumladan, Sohibqiron Amir Temur, hind xalqining atoqli farzandi Maxatma Gandi, g‘arb davlatchiligi tarixida iz qoldirgan Buyuk Karl hamda bugungi mamlakatimiz mustaqilligining asoschisi hisoblangan O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov singari rahbarlar tarixning burilish pallalarida rahbarlik mas’uliyatini chuqur his qilgan holda o‘z xalqini qaramlik iskanjasidan xalos etishda matonat bilan ma’naviy jasorat ko‘rsatdilar. Ular mas’uliyatni amaliy faoliyatlarining asosiy mezoniga aylantirganliklari sababli tarixning buyuklik shohsupasiga ko‘tarildilar.

Islom Karimov ta’kidlaganidek, ishni amalga oshirish, kadrlarning mas’uliyatini kuchaytirish, ularga talabchanlik bilan qarash, kezi kelganda ruhlantirish, yangi-yangi marralarga, hayotiy muammolarni yechish uchun safarbar etish, eng avvalo, rahbarlarning vazifasi, burchi ekanini unutmasligimiz kerak. Barchaga namuna bo‘ladigan, oliy maqsadlar yo‘lida xalqni o‘zining orqasidan ergashtira oladigan rahbar bo‘lish uchun hayotni bilish, ommaga tayanish kerak.

Rahbar imiji – uning obro‘si bilan bog‘liq muhim jihat hisoblanadi. Uning elementlari sifatida rahbarning tashqi ko‘rinishi, odob-axloqi, muloqot madaniyati ham namoyon bo‘ladi. Bu borada xalqimizda purma‘no hikmat ham mavjud: “Seni kiyimingga qarab kutib olishadi, aqlingga qarab kuzatib qo‘yishadi”[16]. Rahbarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi yuqori bo‘lishi va professional qiyofaga ega bo‘lishi ham ayni muddaodir. U o‘zi boshqarayotgan tashkilotning “yuzi” sifatida o‘zini boshqa tashkilotlarga tashqi tomondan yoqimli, ozoda, intellektual va madaniy sifatlarga ega rahbar sifatida taqdim eta olishi kerak[17].

Rahbar imijining ma’naviy omillaridan biri – bu rahbarlik xislatidir. Munosib rahbar va rahbarlik fazilatlari mujassamini topish hamma zamonlarda ham dolzarb bo‘lib kelgan. Tarixda shunday rahbarlar bo‘lganki, ularning sa’y-harakatlari, insoniy fazilatlari, ishbilarmonligi bilan mamlakat obod bo‘lgan, ammo taraqqiyotga emas, aksincha, beqarorlikka, xo‘jasizlikka sabab bo‘lgan rahbarlar ham ko‘p bo‘lgan.

[16] https://teletype.in/@liderlar/H1azMSKB4
[17] https://doi.org/10.5281/zenodo.5059332

Xalq rag‘bati tufayli rahbarlik ishonib topshirilgan inson, eng avvalo, o‘zini millatning bir bo‘lagi sifatida his etishi, o‘zi mansub xalq yukini yengil qilishga imkon berilganidan iftixor tuyushi lozim. U mansab kursisiga o‘tirar ekan, bu buyuk xalq qanchalar dono ekanligini, ba‘zan nodon rahbarlarni ko‘rganini, xalq xotirasi barchasini yodda saqlab kelayotganini, dono rahbarlar ezgu ishlari tufayli qadrlanib, yomonlar el la’natiga duchor bo‘lganligini unutmasligi zarur. Bu uni ayrim ta’magir, laganbardor kimsalar, shuningdek, o‘z nafsi tuzog‘iga ilinishdan, el tavqi la’natidan asraydi. Ya’ni rahbar o‘zini o‘zgalarning xo‘jayini deb emas, xalq ma’lum muddat ishonch bildirgan xizmatchisi deb anglashi darkor. Leonid Levitin “O‘zbekiston tarixiy burilish pallasida” asarida shunday yozadi: “Islom Karimov hokimiyat boshqaruvini qo‘lga olgan paytda O‘zbekiston halokat yoqasiga kelib qolgan edi. Endi hech kim fojiali voqealar oqimini orqaga qaytarolmaydiganga o‘xshardi. U hokimiyat tepasiga mamlakatni balo-qazolardan saqlab qoladigan kishi sifatida keldi. Shuning uchun men uni peshonasiga siyosiy rahbarlik bitilgan kishi deb atagan bo‘lardim”[18].

Insoniyat hayotida ilm va ijodning mavqei oshib borgani sari, ziyolilar toifasining saflari kengaygani sari, ijtimoiy hayotda ham kuch o‘rnini aql, zug‘um o‘rnini farosat, jaholat o‘rnini ma’rifat egallab boraveradi. Jamiyatimizda qonun ustuvorligi, xalq hokimiyati va fuqarolar jamiyati qudrat kasb etib borar ekan, xalqning rahbarlariga, rahbarning esa o‘z xodimlariga bo‘lgan talablari ham tubdan o‘zgarib boraveradi.

Bizningcha, rahbar ma’naviyatining muhim belgilaridan yana biri bu adolatdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘zining ma’ruzasida ushbu masalaga alohida to‘xtaladi: “xalqimiz azaldan yuksak qadrlab keladigan, hamma narsadan ustun qo‘yadigan adolat tuyg‘usini hayotimizda yanada keng qaror toptirishni biz birinchi darajali vazifamiz, deb hisoblaymiz”[19].

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “adolat” so‘zi ming yillar davomida insonga hamroh bo‘lib kelgan. Asrlar davomida kishilar

[18] Levitin L. O‘zbekiston tarixiy burilish pallasida. –Toshkent: O‘zbekiston, 2001. –B. 37.
[19] Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016. –B. 10.

adolat uchun kurashgan, mislsiz qurbonlar bergan. Adolat haqida juda chiroyli gapirish mumkin. Ammo gap chiroyli va uzoq gapirishda emas, balki hayotda adolatni o‘rnata olishdadir[20]. Ayniqsa, rahbar adolati, el-u yurtga rahbarlik qilishdek og‘ir mas’uliyatni zimmasiga olgan odamning adolati bugungi kunda beqiyos ahamiyatga ega.

Bevosita o‘tmishga nazar solib, Islom Karimov o‘z fikrini quyidagicha davom ettiradi: “odil hukmdor, adolatli rahbar g‘oyasi Forobiydan tortib Alisher Navoiygacha va yana boshqa ko‘p-ko‘p mutafakkirlarimizning ulug‘ ma’naviy ideali bo‘lib kelgan”[21].

Xulosa qiqlib aytganda, adolat – rahbar shaxs ma’naviyatining asosiy fazilatlaridan biridir. Rahbar shaxs o‘z faoliyatida adolat tamoyiliga rioya qilmas ekan, uning ishlari talab darajasida bo‘lmaydi. Rahbar shaxsning adolati iqtisodiyotga, o‘zi boshqarayotgan jamoa a’zolariga, o‘zgalar haqiga va jamiyat manfaatlariga nisbatan odil munosabatda bo‘lishida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B. 592.

2. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2016-yil 4-fevralda Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi // “Xalq so‘zi”, 2016-yil 5-fevral, №25 (6460).

3. Imomnazarov M., Lafasov M. Ma’naviyat asoslari. –Toshkent, 2018.

4. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –Toshkent: O‘zbekiston, 2015. –B. 209.

5. https://teletype.in/@liderlar/H1azMSKB4

6. https://doi.org/10.5281/zenodo.5059332

7. Levitin L. O‘zbekiston tarixiy burilish pallasida. –Toshkent: O‘zbekiston, 2001. –B. 37.

[20] Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. –Toshkent: O‘zbekiston, 1998. –B. 112.
[21] Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. –Toshkent: O‘zbekiston, 1998. –B. 112.

8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016. –B. 10.

9. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. –Toshkent: O‘zbekiston, 1998. –B. 112.

TO‘RTINCHI SANOAT INQILOBI DAVRIDA MA’NAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH MASALALARI

Eshmurodov Akbar Tolliboyevich –
Renessans ta’lim universiteti prorektori,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ilm-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal taraqqiy etib borayotgan bugungi globallashuv davrida dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta’lim, tibbiyot, bandlik, qishloq ho‘jaligi, mudofaa, xavfsizlik, turizm va boshqa sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalari hamda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish urfga kirdi.

Ta’kidlash kerakki, insoniyat tarixida 3 marotaba sanoat inqilobi ro‘y bergan bo‘lib, har bir sanoat inqilobi insoniyat rivojida muhim o‘rin tutgan. Jumladan, birinchi sanoat inqilobi bug‘ kuchi va suv quvvatidan foydalanish orqali qo‘l mehnatida ishlab chiqarish usullaridan mashinalarga o‘tish bilan belgilanadi. Yangi texnologiyalarni joriy qilish uzoq vaqt talab qildi, shuning uchun bu nazarda tutilgan davr 1760-1820-yillar yoki Yevropa va AQSHda 1840-yil oralig‘ida bo‘lgan. Uning ta’siri bunday o‘zgarishlarni birinchi bo‘lib qabul qilgan to‘qimachilik ishlab chiqarishiga, shuningdek, temir sanoati, qishloq xo‘jaligi va tog‘-kon sanoatiga ta’sir ko‘rsatdi.

Ikkinchi sanoat inqilobi — texnologik inqilob sifatida ham tanilgan, 1871-1914-yillar oralig‘idagi davr bo‘lib, odamlar va g‘oyalarni, shuningdek, elektr energiyasini tezroq uzatish imkonini beradigan keng temir yo‘l va telegraf tarmoqlarini o‘rnatish natijasida yuzaga kelgan. Elektrlashtirishning kuchayishi zavodlarga zamonaviy ishlab chiqarish liniyasini rivojlantirish imkonini berdi. Bu katta iqtisodiy o‘sish davri bo‘lib, unumdorlikning oshishi bilan birga, ko‘plab

zavod ishchilari mashinalar bilan almashtirilganligi sababli ishsizlikning ko‘payishiga olib keldi.

Raqamli inqilob deb ham ataladigan uchinchi sanoat inqilobi – XX asrning oxirida, ikkinchi jahon urushi tugagandan so‘ng, oldingi davrlarga nisbatan sanoatlashtirish va texnologik taraqqiyotning sekinlashishi natijasida yuzaga keldi. Ikkilik nuqtali raqamlar va mantiqiy mantiqdan foydalangan Z1 kompyuterining ishlab chiqarilishi, yanada rivojlangan raqamli ishlanmalarning boshlanishi edi. Aloqa texnologiyalarining navbatdagi muhim rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonida kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilgan holda superkompyuter yaratildi inson kuchiga bo‘lgan ehtiyojni kamaya boshladi.

Har bir sanoat inqilobi insonlarning hayoti, turmush, tarzi, dunyoqarashi, o‘y-xayollari, maqsad va intilishlariga keskin ta’sir ko‘rsatdi. Bunday shitob o‘zgarishlar natijasida dunyoning siyosiy xaritasida ulkan o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xususan, mustamlakachilik siyosati, jahon urushlari va ularning oqibatlari ham ushbu sanoat inqiloblarining hosilasi hisoblanadi.

Bugun jahonda to‘rtinchi sanoat inqilobi [2] nomi olgan yangi davr taraqqiyoti sanoatda raqamli texnologiyalar rivojlanish sababli XXI asrda texnologik, sanoat va ijtimoiy jarayonlarning tez o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Bu atama 2015-yilda Jahon Iqtisodiy Forumi asoschisi va ijrochi raisi Klaus Shvab tomonidan ommalashgan va shundan beri ko‘plab iqtisodiy, siyosiy va ilmiy maqolalarda foydalanilgan. Shvabning ta’kidlashicha, sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar nafaqat samaradorlikni oshiradi, shu bilan birgalikda sanoat kapitalizmidagi sezilarli o‘zgarishlarni olib keladi [3].

Albatta, bu inqilobiy o‘zgarishlar bir necha o‘n yil ichida jahon iqtisodiyoti, ishlab chiqarish va bozor munosabatlari, eng asosiysi inson shaxsiyatini ham butunlay o‘zgartirib yubormoqda. Shakllanayotgan yangi texnokratik qadriyatlar asrlar davomida shakllangan qadriyatlar tizimini tubdan o‘zgartirmoqda. To‘g‘ri, ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka erishish uchun fan-texnika rivoji suv va havodek zarur. Lekin, shu bilan birga bunday ko‘rinishdagi taraqqiyotning salbiy ta’sirini ham oqlab bo‘lmaydi. Masalaning dolzarbligi ham shundaki, geosiyosiy makonda

o‘zining geostrategik maqsadlarini amalga oshirishni istagan, reja qilgan davlatlar, markazlar zamonaviy texnologiyalardan resurs, ya’ni qurol sifatida foydlanib, xalqlarning asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlari, urf-odatlari, milliy o‘ziga xosligi, ongu tafakurini o‘zgartirish orqali o‘z maqsadlariga erishishga harakat qilishmoqda. Ularning asosiy obyekti hayotiy qarashlari to‘laqonli ravishda shakllanmagan yoshlar, uyushmagan aholi qatlamlari bo‘lib, shunday chigal va murakkab sharoitda biz uchun galdagi eng muhim vazifalardan biri ularning ongi hamda qalbini yot g‘oyalardan, mafkuraviy tahdidlardan asrab-avaylashdir.

Bugun turli ko‘rinishdagi axborotlarni uzatishga moslashgan texnologiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy hayotning turli sohalariga kirib borayotganligi hech kimga sir emas. Internet tizimidan millionlab insonlarning foydalanayotganligi, hayotning asosiy mazmuniga aylanayotganligi ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘lmoqda. Shubhasiz, bugun hayot tarzimizni Internet, uning ijobiy imkoniyatlarisiz tasavvur eta olmaymiz. Lekin Internet nafaqat muloqot, ma’lumot qidirish va uni keyinchalik olish vositasi, balki shaxsiy fazilatlarning paydo bo‘lishi, hayotning mazmunini topish, maqsadlarni belgilash va ularni hayotga tatbiq etish uchun asos bo‘lib xizmat qilayotganligini ham unutmasligimiz kerak. Internet shaxsni ijtimoiylashtirish unsurlaridan biriga aylanib, ma’naviy rivojlanishda muhim omilga aylandi. Odamzod virtual olamda o‘z dunyoqarashi, qiziqishlaridan kelib chiqqan holda o‘z virtual olamini yaratmoqda va o‘zi yaratgan olam bilan yashashga harakat qilmoqda. Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin” [1, 486] deb ta’kidlashi ayni haqiqatdir.

Ilk bor o‘tgan asrning 70 yillarida Massachusets texnologiya instituti xodimi Jeron Lener “Virtual borliq” atamasini ishlatgan bo‘lsada, bu atama iste’molga amerikalik kinematografchilar tomonidan kiritilgan. Ular muayyan sabablarga ko‘ra, tabiiy yo‘l bilan amalga oshirib bo‘lmaydigan xayoliy imkoniyatlarni belgili-grafik

shaklda amalga oshirish mumkinligi haqidagi kinolentani shu nom bilan chiqarganlar. Virtual olamdagi narsa va hodisalar rivoji o‘ziga xos tarzda virtual tafakkurdagi insonlar jamoasini hamda qadriyatlarini shakllantiradi. Inson qachonki o‘zini virtual olamning ajralmas qismi sifatida his eta boshlasa, undagi narsa va hodisalar qadriyatga aylana boradi. Bizningcha, virtual olam moddiy ko‘rinishdagi narsa va hodisalarni kompyuter grafikasi vositasida bo‘rttirib, xayoliy qayta shakllantirish yoki obyektiv borliqni subyektivlashtirishdir. Virtual olam ham tabiiy olam singari makon, vaqt, mavjudlik, yo‘qlik kabi qonuniyatlarga ega. Uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u real olamni o‘z imkoniyatlari doirasida tasavvur etishi, o‘zgartirishi, oq yoki qora rangda tasvirlashi mumkin, ya’ni u haqiqiy mustaqillikka ega.

Darhaqiqat, bugun mamlakatimizda yoshlar, aholi o‘rtasida Internet va uyali telefonlardan foydalanishning ommaviylashib ketayotganligi jamiyat ma’naviy xavfsizligini barqaror saqlashga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib borayotganligi namoyon qilmoqda. Bizningcha, jamiyat ma’naviy barqarorligining buzilishiga zamonaviy axborot vositalari emas, balki millatimiz axloqi, turmush tarzi, mentaliteti, an’ana va qadriyatlariga zid bo‘lgan turli shakldagi ma’lumotlarni yaratayotgan, yuklayotgan, o‘zining daromad manbaiga aylantirayotgan “qahramon”larga aybni qo‘ysak, adolatdan bo‘ladi. Javobgarlikni jonsiz texnikaga yuklab bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, to‘rtinchi sanoat inqilobi dunyoda insonlar hayot tarzini keskin o‘zgartib yubordi. O‘tmishda insoniyat uchun qadrli bo‘lgan narsa va hodisalar bugun qadriyat bo‘lmasligi mumkin. Katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan axborot va aloqa texnologiyalari hozirda nafaqat insoniyatning o‘zaro yaqinlashuvini tezlashtirmoqda, qadriyatlar tizimi modernizatsiyasiga sharoit yaratmoqda. Ammo bir hayotiy haqiqat shulki, bugun o‘zligidan, insoniy qadriyatlaridan mosuvo bo‘lgan millat ertaga o‘z milliy qiyofasi, tili, dini va asriy an’analaridan ajraladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda “Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga

qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim” [4].

Bir so‘z bilan aytganda, shiddatli texnogen taraqqiyot davrida jamiyatda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha yagona kompleks siyosat yuritish, uyushgan va uyushmagan resurslarni umummillat manfaati yo‘lida safarbar etish, zamon tahlikalarini to‘g‘ri qabul qila oladigan ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalashga urg‘u berish jamiyatning ustuvor maqsad va yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. T. “O‘zbekiston” 2017. – B. 486.

2. Bai, Chunguang; Dallasega, Patrick; Orzes, Guido; Sarkis, Joseph (1 November 2020). "Industry 4.0 technologies assessment: A sustainability perspective" (en). International Journal of Production Economics 229: 107776. doi:10.1016/j.ijpe.2020.107776. ISSN 0925-5273

3. Philbeck, Thomas; Davis, Nicholas (2018). "The Fourth Industrial Revolution" (ing). Journal of International Affairs 72 (1): 17–22. ISSN 0022-197X

4. https://uza.uz/uz/posts/khavfsizlik-millatlararo-totuvlik-va-diniy-ba-rikenglikni-ta-20-03-2020

МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ГЕОСИЁСИЙ БИЛИМЛАР ВА ҲАРАКАТЛАР ТАРИХИДАН

Равшанов Фазлиддин Равшанович, филология фанлари номзоди, сиёсий фанлар доктори, профессор.
“Ренессанс” таълим университети
f_ravshanov@mail.ru
Хидиров Зиядулла Муминович,
юридик фанлари номзоди, доцент.
“Ренессанс” таълим университети
khidirovziyadulla@gmail.com

Аннотация: *мақолада Туркистон ҳудудидаги қадимий давлатлар геосиёсати ва муносабатлари, Шарқ ва Ғарб ўртасидаги халқаро муносабатлар, Фаробий, Берунийнинг, Фирдавсий, Низомулмулк, Амир Темур, Алишер Навоий асарларида географик дитерминизм ва геосиёсий ғоялар, Шайбонийлар ва хонликлар давлатчилигида халқаро муносабатлар, Марказий Осиёнинг жаҳон бозоридан узилиб қолиши ва унинг оқибатлари, Россиянинг мазкур минтақадаги геосиёсати ва элчилик муносабатлари, ҳудудда юзага келган маърифатпарварлик-жадидчилик ҳаракатининг геосиёсий мақсадлари қисқа ва мазмунли тарзда очиб берилади.*

Annotation: *the article briefly and meaningfully explores the geopolitics and relations of ancient states in the Turkestan region, international relations between the East and the West, and the concepts of geographical determinism and geopolitical ideas as reflected in the works of Farabi, Beruni, Ferdowsi, Nizam al-Mulk, Amir Temur, and Alisher Navoi. It also examines international relations during the Shaybanid and khanate statehood periods, the disconnection of Central Asia from the global market and its consequences, Russia's geopolitical strategies and diplomatic relations in the region, as well as the geopolitical objectives of the enlightenment-oriented Jadidist movement that emerged in the area.*

Калит сўзлар: *Туркистон, геосиёсат, географик дитерминизм, халқаро муносабатлар, Фаробий, Беруний, Фирдавсий, Низомулмулк, Амир Темур, Алишер Навоий, Шайбонийлар, хонликлар давлатчилиги, жаҳон бозори, россия империализми, жадидчилик, маърифатпарварлик, Марказий Осиё тарихи, Ипак йўли, элчилик муносабатлари, сиёсий уйғониш.*

Keywords: *Turkestan, geopolitics, geographical determinism, international relations, Farabi, Beruni, Ferdowsi, Nizam al-Mulk, Amir Temur, Alisher Navoi, Shaybanids, khanate statehood, world market, Russian imperialism, Jadidism, enlightenment movement, history of Central Asia, Silk Road, diplomatic relations, political revival.*

Ўзбекистон ҳудудидаги қадимий давлатлар геосиёсати Марказий Осиё тарихида муҳим ўрин тутади. Ушбу ҳудуд қадимги давлат даврида

жойлашувига кўра савдо йўллари кесишган чорраҳада бўлиб, бу унинг сиёсий ва иқтисодий нуфузига катта таъсир кўрсатган. Ҳудудни милоддан аввалги VI-IV асрларда Аҳамонийлар империяси ўз таъсирига тортди. У шу даврларда Марказий Осиё орқали Хитой ва Евроосиё ҳудудлари билан савдо-иқтисодий ва сиёсий муносабатларни ривожлантиришга ҳаракат қилар эди. Милоддан аввалги IV асрда македониялик Искандар Аҳамонийлар империясини забт этгач, Марказий Осиё ҳудудининг ҳам бир қисмини ўз ичига олган кенг империяни барпо этади. У ўз ҳокимиятини мустаҳкамлашда қисқа вақт бўлсада, минтақанинг савдо-иқтисодий ва маданий алоқаларидан фойдаланади [Муқимов З., 280.]. Сўнг, милоддан аввалги II ва милодий I асрларда ҳудуд Қангҳа давлати тасарруфига ўтади. Қангҳа давлати Сурхондарё ва Сирдарё бўйлаб жойлашган бўлиб, Буюк ипак йўлининг муҳим савдо нуқталаридан бирига айланган. Қангҳа савдо йўлларига назорат ўрнатиб, иқтисодий жиҳатдан ривожланган давлатлардан бири бўлган. Милодий I-III асрларда эса минтақани Кушонлар империяси забт этади. У Буюк ипак йўлининг муҳим нуқталарига эга бўлиб, улар орқали савдо ва маданий алмашинувни кенг даражада ривожлантиради. Бу империя геосиёсий жиҳатдан Хитой, Ҳиндистон ва Эрон давлатлари билан чуқур савдо алоқаларигача юксалди. Ҳудудни V-VI асрларда Эфталитлар (Оқ ҳунлар) давлати қўлга киритиб, у эрон ва ҳинд цивилизациялари билан алоқага кўпроқ урғу берди. Уларнинг маданий ва сиёсий таъсири **Окс** (Амударё) ва **Яксарт** (Сирдарё) ҳудудида сезиларли бўлган [Муқимов З., 2003. 280.].

Сосонийлар даврида (III-VII асрлар) Ўзбекистон ҳудуди геосиёсий жиҳатдан эрон маданияти ва савдоси таъсири остида бўлган. Улар Хоразм ва Марказий Осиёдаги бошқа давлатлар билан савдо ва сиёсий алоқаларни ривожлантирган. VI-VIII асрларда эса Туркистон ҳудуди Турк хоқонлигига қарашли бўлиб, ҳудудда туркий халқларнинг таъсири кучайган. Турк хоқонлиги Марказий Осиёда катта ҳокимиятга эга бўлиб, савдо йўллари ва стратегик нуқталарни назорат қилган. VII-VIII асрларда Араб халифалиги Марказий Осиёга экспансия қилиб, бу ҳудудга ислом динини ва маданиятини

киритган. Буюк ипак йўли орқали савдо янада жонланган. Ушбу давлатлар ўртасидаги геосиёсий муносабатлар асосан савдо йўллари, стратегик нуқталар ва маданий таъсирлар атрофида қурилган. Кўриниб турибдики, Туркистон ҳудуди қадимдан халқаро алоқалар маркази бўлиб, турли халқлар ва цивилизациялар ўртасидаги алмашинувлар учун майдон бўлган [Муқимов З., 2003. 280.].

Қадимги даврларда Шарқ ва Ғарб ўртасидаги иқтисодий муносабатлар, айниқса Буюк Ипак йўли орқали савдо йўлларига асосланган бўлиб, бу йўллар турли цивилизацияларни бир-бири билан боғлаб турган. Туркистон ҳудуди ушбу савдо йўлларининг марказий нуқталаридан бири бўлган. Буюк Ипак йўли Шарқ (Хитой, Ҳиндистон, Форс) ва Ғарб (Европа, Византия) ўртасидаги савдо ва маданий алмашинувлар учун асосий йўналиш бўлиб хизмат қилган. Бу йўллар Ўрта Осиё, шу жумладан Ўзбекистон ҳудудидан ўтган. Ҳар бир давлат савдо йўлларига назорат ўрнатиб, иқтисодий ва сиёсий жиҳатдан нуфузини оширган. Ипак, жун, зираворлар, қимматбаҳо тошлар, ғалла ва бошқа товарлар савдоси жуда ривожланган. Хитойнинг ипак тўқимачилик саноати Буюк Ипак йўлининг номи билан ҳам боғланган. Хитой ипаги Ғарбга жўнатилган энг қимматбаҳо товарлардан бири бўлиб, Ғарбда юқори баҳоланган. Бу савдода Ўрта Осиё давлатлари, жумладан Ўзбекистон ҳудудидаги шаҳарлар савдогарлари воситачилик қилган. Форс Аҳамонийлар ва Сосонийлар империялари эса савдо йўллари орқали Хитой, Ҳиндистон ва Марказий Осиё билан яқин алоқада бўлган. Форсда ишлаб чиқарилган қадимий юнон ва форсий санъат, заргарлик буюмлари ва зираворлар ҳам савдонинг муҳим қисмини ташкил этган [Мавлонов Ў., 2008. 432.].

Византия империяси ҳам шу йўллар орқали ипак ва бошқа товарларни Шарқдан олиб келиб, Европага тарқатган. Византия Хитой ва Ҳиндистон билан тўғридан-тўғри савдо қилмаган бўлса-да, Ўрта Осиё ва Форс орқали маҳсулотларни импорт қилган. Шунингдек, Византиядан Ғарбга олиб келинган маҳсулотлар орасида Марказий Осиё ва Хитой ҳунармандчилик буюмлари ва шишадан ясалган нарсалар ҳам катта талабга эга бўлган. Ўша

даврларда Ҳиндистон ҳам Буюк Ипак йўли савдосининг муҳим иштирокчиси бўлиб, ўзининг зираворлари, пахтаси ва тўқимачилик маҳсулотлари билан танилган. Ҳиндистондан Форс, Марказий Осиё орқали товарлар Шарқ ва Ғарбга тарқатилган [Мавлонов Ў., 2008. 432.].

Марказий Осиёнинг йирик шаҳарлари, айниқса Термез, Насаф, Кеш, Самарқанд, Шош, Бухоро ва Урганж каби шаҳарлар, савдо йўлларининг муҳим марказлари бўлган. Бу шаҳарлар орқали Ғарбдан келган товарлар Шарққа ва Шарқдан келган товарлар Ғарбга тарқатилган. Ўрта Осиёдаги савдогарлар ва ҳунармандлар эса ушбу йўлларда воситачилик қилиш орқали катта даромадлар орттирганлар. Шуни ҳам айтиш лозимки, иқтисодий алмашинувлар билан биргаликда Шарқ ва Ғарб ўртасида маданий ва технология алмашинуви ҳам ривожланган. Ҳар бир цивилизация ўзининг илм-фан, ҳунармандчилик ва технологияларини савдо йўллари орқали бошқа маданиятларга етказган. Масалан, порселян (фарфор) ва қоғоз ишлаб чиқариш технологияси Хитойдан Ғарбга тарқалган. Ҳозирги Ўзбекистон ҳудудидаги қадимги шаҳарлар кўплаб ўз маҳсулотлари билан жаҳон савдоси ва бозорларига кирганлар [Мавлонов Ў., 2008. 432.]. Умуман олганда, Шарқ ва Ғарб ўртасидаги иқтисодий муносабатлар савдо йўллари орқали ривожланиб, бу давлатлар ўртасида маданий алмашинувлар ва иқтисодий даромадларнинг шаклланишига катта ҳисса қўшган.

Қадимги геосиёсий муносабатлар доирасида Довон (Ферғана водийси), Хитой, Кушонлар ва Қанғ давлатлари ўртасидаги муносабатлар жуда катта аҳамият касб этган. Ушбу ҳудудлар жаҳон савдо йўлларининг кесишган нуқталарида жойлашган бўлиб, уларнинг геосиёсий аҳамияти иқтисодий ва ҳарбий кучларининг ўсиши билан боғлиқ бўлган. Довон (Ферғана водийси) қадимги Хитой манбаларида жуда муҳим савдо маркази сифатида тилга олинади. Хитой учун Ферғананинг отлари жуда қимматли товар бўлиб, улар “Осмон тулпорлари”, деб аталган ва Хитой армияси учун жуда муҳим ҳисобланган. Бу отларнинг тезлиги ва чидамлилиги уларни жанговар кампанияларда зарур қурол даражасига олиб чиқар эди. Хан сулоласи даврида

Хитой подшолари Довон билан савдо муносабатларини ривожлантиришга ҳаракат қилганлар. Милоддан аввалги 104-102 йилларда эса Хитой Ферғанани бутунлай босиб олиш учун ҳарбий экспедициялар уюштирган. Аммо биринчи экспедиция муваффақиятсизликка учраган бўлса-да, кейинги экспедициялар натижасида Хитой Довон билан савдо шартномаларига эришган [Хўжаев А., 2016. 432.]. Шу каби, Довон стратегик жиҳатдан Хитой ва Ғарб ўртасидаги савдо йўлларининг муҳим қисми бўлган. Унинг савдо йўллари орқали Хитой ипаги ва бошқа товарлар Туроннинг бошқа шаҳарлари, Форс ва Европага тарқатилган.

Буюк Ипак йўли Шарқ ва Ғарб ўртасидаги савдо ва маданий алмашинувлар учун асосий йўл эди ва у Марказий Осиёдан ўтган, Хитойдан Европагача чўзилганди. Туркистон ҳудуди эса ушбу йўлнинг марказий қисми бўлиб, Самарқанд, Бухоро каби кўплаб бошқа шаҳарлар савдо ва маданият марказлари сифатида ривожланган. Буюк Ипак йўли орқали саноат, қишлоқ хўжалиги, чорвачилик, енгил саноат, кон маҳсулотлари ташилган. Бу савдо йўли Шарқ билан Ғарб ўртасида иқтисодий муносабатларни кучайтирган ва давлатлар ўртасида маданий ва илм-фан алмашинувини рағбатлантирган[Бўриев О., 2015. 280.]. Жойлашувига кўра эса Туркистон шаҳарлари савдо карвонлари учун муҳим марказлар бўлиб, уларда савдогарлар дам олишган ва ўз товарларини сотишган. Натижада ватанимиз ҳудуди турли халқлар ва маданиятларнинг кесишган жойи сифатида Шарқ ва Ғарб ўртасида кўприк вазифасини бажарган.

Кушонлар империяси (I-III асрлар) Марказий Осиёда пайдо бўлган катта давлатлардан бири эди, у Буюк Ипак йўли ва бошқа савдо йўлларининг катта қисмини назорат қилган ва шунингдек, Ҳиндистон, Хитой, Форс ва Рим империялари билан яқин алоқаларга эга бўлган. Кушонлар давлати буддавийликнинг кенгайишига ҳам ёрдам берган, чунки буддавийлик рухонийлари ва савдогарлар Ипак йўли орқали ҳаракат қилганлар. Кушонлар Ҳиндистон билан яқин муносабатларда бўлиб, улар орқали ҳинд маданияти ва товарлари Марказий Осиёга ҳам кириб келган [Муқимов З., 2003. 280.]. Бу

Кушонларнинг иқтисодий ва маданий жиҳатдан катта ҳокимиятга айланишига сабаб бўлган.

Қанғ давлати ҳам Сирдарё ва Амударё бўйлаб жойлашган катта давлатлардан бири бўлиб, милодий III-V асрларда жуда кучли давлат сифатида танилган. Қанғлар турли савдо йўллари орқали Хитой ва Шимолий давлатлар билан савдо алоқаларини ўрнатган. **Шимолий савдо йўли** Қанғ давлати орқали Хитой ва шимолий туркий халқлар ўртасида савдо йўли бўлган. Бу йўл ипак, тери, жун, мис, пўлат ва бошқа товарлар савдосида муҳим ўрин тутиб, Қанғ давлатининг иқтисодий нуфузини оширган [Муқимов З., 2003. 280.]. Қанғ давлати савдо йўлларини ҳимоя қилиш ва уларни назорат қилиш учун ҳарбий кучини ривожлантирган. Улар Ҳунлар ва бошқа туркий халқлар билан ҳарбий ва савдо муносабатларига киришиб, Шимолий савдо йўлининг муҳим маркази бўлиб хизмат қилган.

Қадимги ва ўрта асрлар геосиёсий билимларининг ривожланишига Ўрта Осиё мутафаккирлари томонидан ёзилган асарлар катта таъсир кўрсатган. Кўплаб сайёҳлар, шунингдек, Фаробий, Беруний, Фирдавсий, Низомулмулк ва Амир Темур сингари олим ва давлат арбоблари ўз асарларида давлат бошқаруви, сиёсий муносабатлар ва жамият ривожланишига оид мураккаб геосиёсий масалаларни муҳокама қилишган. Ушбу асарлардаги геосиёсий қарашлар ўша даврдаги фикрлаш ва давлатчиликнинг аниқ бир йўналишларини кўрсатади.

Фаробийнинг “Фозил одамлар шаҳри” асари ўзига хос географик дитерминизмни намойиш этади [Форобий, 1993. 224.]. Фаробий бу асарида фалсафа ва сиёсат ҳақидаги мулоҳазаларини баён қилади. Унда идеал жамият ва унинг раҳбарлари қандай бўлиши кераклиги ҳақида фикр юритади. Фаробийнинг фикрича, одамлар яшайдиган муҳит ва табиий шарт-шароитлар (геосиёсий омиллар) уларнинг маънавияти, руҳияти ва жамият тузилишини белгилайди. Қадимда бу фикр географик дитерминизм сифатида маълум бўлган — яъни инсонлар ва давлатларнинг ривожланиши табиий шароитларга боғлиқ. Фаробий жамиятнинг тараққиёти ва инсонларнинг фазилатли бўлиши

улар яшайдиган муҳитга ҳам боғлиқ эканини қайд этади. Бундай қарашлар ижтимоий ривожланишни тушунтиришда муҳим бўлган.

Географик дитерминизмга Берунийнинг “Ҳиндистон” асарида ҳам дуч келиш мумкин [Беруний, 1968. 486.]. Беруний Ҳиндистон географиясини муфассал тасвирлар экан, географик омиллар маданий ривожланиш ва одамлар турмуш тарзига қандай таъсир кўрсатиши ҳақида ёзган. У Ҳиндистоннинг турли табиий шароитлари (иқлими, дарёлари, тоғлари) одамларнинг ҳаёти, фалсафаси ва диний эътиқодларига таъсир қилганини тушунтирган. Беруний жамиятлар ўртасидаги фарқларни тушунтиришда географик омилларга катта аҳамият берган. У турли иқлим шароитларидаги одамларнинг турлича маданият ва сиёсий тузилмаларга эга бўлишини қайд этган.

Фирдавсийнинг “Шоҳнома” асари аслида Эроннинг афсонавий тарихи ҳақидаги энг машҳур эпик поэма бўлиб, унда Турон ва Эрон ўртасидаги тўқнашувлар муҳим ўрин тутади. “Шоҳнома”да Турон (туркий халқлар) ва Эрон (форслар) ўртасидаги доимий жанговар низолар тасвирланган. Турон ва Эрон ўртасидаги зиддиятлар маданий, ҳарбий ва сиёсий қарама-қаршиликлар негизида ривожланган. Асарда Турон ва Эрон ўртасидаги жанговарлик нафақат ҳарбий тўқнашувлар, балки маданий қарашлар ва давлатчиликнинг турлича кўринишлари сифатида ҳам намоён бўлади [Бобоев Ҳ., 2001. 500.]. Бу асар туркий ва форс халқларининг ўзаро муносабатларини акс эттиради ва унда узоқ тарихий геосиёсий ва маданий ўзаро таъсирлар кўрсатиб берилади.

“Сиёсатнома” асари эса ўрта асрлардаги энг муҳим сиёсий фалсафий асарлардан бири ҳисобланади [Низомулмулк, 1997. 256.]. Асар XII асрда, Салжуқлар давлатидаги давлат арбоби Низомулмулк томонидан ёзилган бўлиб, у давлат бошқаруви, сиёсат ва сиёсий фикр юритиш масалаларига бағишланган. “Сиёсатнома” нафақат давлатчилик асослари ва бошқарув этикаси ҳақидаги таълимотлар, балки геосиёсий масалалар, давлатларнинг ўзаро муносабатлари ва ташқи сиёсатга ҳам алоҳида эътибор қаратади. “Сиёсатнома” асарида давлат бошқаруви самарадорлигини ошириш ва

ҳудудий экспансияни муваффақиятли амалга ошириш учун давлат арбоблари ва ҳукмдорлар қандай стратегияларни қўллаши кераклиги муҳокама қилинади. Бунда геосиёсий жиҳатдан муҳим қоидалар қуйидагиларни ўз ичига олади:

адолатли ва кучли ҳукмдор - Низомулмулкнинг фикрича, ҳукмдор фақат ички бошқарувни яхшилаш эмас, балки ташқи таҳдидлардан давлатни ҳимоя қилиш, ҳудудларни кенгайтириш ва геосиёсий ҳолатни мустаҳкамлаш учун кучли бўлиши керак. Бунда ҳукмдорлик давлатни ташқи дўст ва душманлар билан мувозанатда ушлайди;

марказий ҳокимиятнинг аҳамияти - асарда давлатнинг мустаҳкамлиги унинг марказий бошқаруви кучли бўлишига боғлиқ эканлиги таъкидланади. Ҳудудий экспансия ва ташқи сиёсат фақат ички тузилма мустаҳкам бўлган тақдирда муваффақиятли бўлади. Шу тариқа, ҳудудий экспансия ва бошқарувнинг самарадорлиги геосиёсий жиҳатдан аҳамият касб этади. Низомулмулк “Сиёсатнома”да давлатнинг ташқи сиёсати ва қўшни давлатлар билан муносабатларини ҳам кенг ёритиб беради. У ташқи сиёсатдаги геосиёсий ёндашувларни қуйидагича тушунтиради:

дипломатия ва келишувлар - Низомулмулк ташқи сиёсатда дипломатияни қўллаб-қувватлайди. Унинг фикрича, давлатлар ўртасида мувозанатли ва тўғри дипломатик муносабатлар ўрнатиш жуда муҳим. Қўшни давлатлар билан тузилган келишувлар ва иттифоқлар мамлакат хавфсизлиги ва муваффақиятининг кафолати бўлади. Шу тариқа, геосиёсий муросаа давлат мустаҳкамлигини таъминлашда асосий омилдир;

душманларга қарши чоралар – “Сиёсатнома”да душман давлатлар билан қандай муносабат юритиш масаласи ҳам батафсил ёзилган. Низомулмулк давлатни ташқи душманлардан ҳимоя қилиш учун қўшинлар ва махфий хизмат тузилмаларини самарали ташкил қилишга эътибор қаратади. Ташқи таҳдидларнинг олдини олиш учун кучли мудофаа ва стратегик ёндашув муҳим эканини таъкидлайди. “Сиёсатнома”да давлатнинг иқтисодий барқарорлиги ва геосиёсий аҳамиятини таъминлаш учун қўшин, савдо йўллари ва стратегик нуқталарни назорат қилиш муҳимлигига алоҳида урғу берилади.

Низомулмулк савдо йўллари орқали давлатлар ўртасидаги алоқаларни ривожлантириш ва давлатнинг иқтисодий ҳолатини мустаҳкамлаш муҳимлигини тушунтирарди. Унга кўра, давлатнинг географик жиҳатдан савдо йўллари кесишган ҳудудларида жойлашиши унинг ташқи сиёсатдаги қудратини оширади. Асарда савдо карвонларини ҳимоя қилиш ва улар орқали келадиган даромадни назорат қилиш давлат қудратининг бир қисми сифатида кўрсатилади. Бундай геосиёсий назорат орқали давлат бошқалар ўртасида кучли позицияга эга бўлиш мумкин.

Тарихий Марказий Осиё ҳудуди геосиёсати ҳақида маълумотлар берувчи манбалардан яна бири “Темур тузуклари”дир [Темур тузуклари, 2005. 160.]. Асар Амир Темур, унинг давлат бошқаруви, ҳарбий стратегиялари ва ташқи сиёсатдаги қарашлари ҳақидаги муҳим манбалардан бири ҳисобланади. Бу асарда Темурнинг давлатчилик тажрибаси, ҳарбий юришлари ва халқаро муносабатлари, шунингдек, унинг геосиёсий стратегияси ёритилган. Асар жаҳоннинг турли минтақаларидаги давлатларини назорат қилиш орқали қудратли империя қуришга қаратилган сиёсий ва ҳарбий тамойилларини акс эттиради. Темурнинг асосий мақсадларидан бири барча мусулмон ерларини бирлаштириш ҳамда геосиёсий жиҳатдан марказлашган қудратли давлат барпо қилиш эди. Бу стратегия нафақат ҳарбий куч билан, балки сиёсий ва дипломатик йўллар орқали ҳам амалга оширилган.

“Тузуклар”да Темурнинг Марказий Осиё, Хуросон, Эрон, Ҳиндистон, Кавказ ва ҳатто Осиё ҳамда Европа давлатларига қаратган юришлари ва уларни назорат қилиш учун қўллаган стратегиялари батафсил тасвирланган. У ҳар бир минтақанинг стратегик аҳамиятини чуқур тушунган ва уларни назорат қилиш орқали ўзига қўшни давлатлар ва ҳудудлар устидан сиёсий таъсир ўрнатишга эришади. Асарда Темурнинг глобал геосиёсий мақсадлари аниқ кўрсатилган. Унинг фикрича, барқарор ва муваффақиятли давлат қуриш учун фақат бир минтақани эмас, балки қитъаларни қамраб олган катта давлатга асос солиш керак. Темурнинг ҳарбий юришлари ва улардаги геосиёсий омиллар ҳарбий стратегияни нафақат ички тартибни сақлаш, балки ташқи душманлар

устидан ғалаба қозониш, мустақил давлатлар геосиёсий мақсадларини назорат қилиш учун ҳам қўллаш ғоясига асосланган. Темурнинг фикрича, кучли қўшин нафақат давлат ҳудудларини ҳимоя қилиувчи, балки узоқ ва яқин давлатлар ва ҳудудлар ҳарбий, савдо-логистик, сиёсий ва иқтисодий ҳаракатларини гегемон давлат стратегик мақсадларига мувофиқ режалаштиришларига замин ҳозирлайди ҳамда гегемон давлат томонидан геосиёсий аҳамиятли соҳалар ва йўллардаги муҳим пунктлар ва ҳудудларни назоратга олишга имкон яратади.

Бизга маълумки, ўз юришлари давомида Темур армия интизоми, логистика ва таъминотни яхши йўлга қўйган, бу эса унинг ҳаракатларидаги геосиёсий устунликларидан бири бўлган. “Тузуклар”да ҳарбий базалар ва стратегиялар орқали ҳудудий назорат ўрнатиш муҳимлиги таъкидланади. Шу каби, асарда давлат бошқарувида марказлашган ҳокимиятнинг аҳамияти алоҳида урғу билан таъкидланган. Темур марказий ҳокимиятни кучайтириш ва уни мустаҳкам сақлаш орқали давлатни назорат қилиш муҳимлигини чуқур даражада тушунган. Бу ҳудудий назорат ва ички барқарорликни таъминлаш учун муҳим аҳамиятга эга эди. Темур ҳудудларни бошқаришда вилоят ҳокимларини тайинлаш ва уларнинг марказий ҳокимиятга бўйсунишига алоҳида эътибор қаратган. Бу тизим ҳар бир вилоятнинг мустаҳкам бошқарувини таъминлаган ва давлатнинг барча ҳудудларидаги назоратни кучайтирган.

Темур нафақат ҳарбий кучга таянган, балки дипломатия ва сиёсий муносабатларни ҳам самарали қўллаган. Кўплаб тарихий манбаларда унинг қўшни, шунингдек, қатор узоқ ҳудудларда жойлашган давлатлар билан ўрнатган сиёсий ва дипломатик муносабатлари кенг тасвирланган. Темур қўшни давлатлар билан тинчлик ва ҳамкорлик келишувларини тузиш орқали ўз ҳудудий манфаатларини ҳимоя қилган. У қудратли душманлар билан тўқнашувларни камайтириш ва ўз ўрнини мустаҳкамлаш учун дипломатик ёндашувлардан унумли фойдаланган. Бу геосиёсий мувозанатни сақлаш ва ички барқарорликни таъминлашнинг муҳим омилларидан бири эди. Темур

савдо йўллари ва давлатлараро алоқаларга катта аҳамият қаратган. У савдо йўлларини назорат қилиш орқали давлатнинг иқтисодий қудратини оширишга ва қўшни давлатлар билан хавфсиз савдо муносабатлари орқали сиёсий позицияни мустаҳкамлашга интилган.

Темурнинг геосиёсий қарашларида Ислом динининг ўрни ҳам муҳим ўрин тутади. Уни ўз даври Ислом дунёсини мўғул истибдодидан тозаловчи ва диннинг ҳимоячиси сифатида кўрган. У мусулмон давлатлар билан яхши муносабатлар ўрнатишга, уларни ўзи ўйлаган юксак геосиёсий мақсадлар атрофида бирлаштиришга ҳаракат қилган. Темур мусулмон давлатларни бирлаштириш ва уларни умумий манфаатлар атрофида тўплаш орқали жаҳон геосиёсий етакчилигини мусулмон дунёси қўлида кўришни истаган.

Хуллас, “Темур тузуклари”да Амир Темурнинг қудратли империя қуришга қаратилган глобал мақсадлари, унинг давлат бошқарувидаги марказлашган ҳокимияти, савдо йўлларини назорат қилиш орқали давлатнинг иқтисодий ва сиёсий қудратини ошириш стратегиялари ва бошқа геосиёсий масалалар батафсил ёритилган. Асар нафақат Темур давридаги геосиёсий жараёнларни тушунишга, балки умумий давлат бошқаруви ва ташқи сиёсат назарияларини ўрганишга ҳам хизмат қилади.

Бундай улуғвор мақсадлар Темурдан сўнг, сулоланинг сўнгги даврида буюк шоир, мутафаккир ва давлат арбоби Алишер Навоий томонидан ҳам кенг ёритилган. Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” асари унинг машҳур "Ҳамса" тўпламидаги бешинчи достон бўлиб, у Искандар Мақдуний (Александр Македонский) шахси ва унинг тарихий юришлари ҳақидаги бадиий эпик ҳикояни ўз ичига олади [Навоий, 1991. 832.]. Аммо асарда Искандарнинг ҳарбий ва сиёсий фаолияти, у босиб олган ерлар ва турли халқлар ўртасидаги муносабатлар орқали геосиёсий масалалар ёритилади. Искандар нафақат қўшинбоши ва император сифатида, балки адолатли ҳукмдор ва муваффақиятли дипломат сифатида ҳам тасвирланади.

“Садди Искандарий”да Искандарнинг дунё ҳокимияти ва унинг ҳудудий экспансиясини амалга ошириш йўлидаги юришлари тасвирланган. Унинг

мақсади нафақат ҳудудларни эгаллаш, балки жаҳон ҳокимиятини ўрнатиб, ўз назорати остида ягона давлат барпо этишдан иборат эди. Бу жараёнда Навоий геосиёсий билимларни ёритади ва ўз назариясига оид турли халқлар ва давлатлар ўртасидаги муносабатларни тасвирлайди. Асарда Искандар турли қавмлар, халқлар ва давлатлар билан муносабатларни ўрнатиб, уларнинг ҳудудларини куч ишлатмасдан, дипломатик йўллар билан ҳам эгаллайди. Геосиёсатда бизга маълумки, давлатнинг кучи ҳудудларнинг стратегик мавқеини белгилайди. Асарда Искандар йўл юрган ҳудудлар орқали ўша замон геосиёсий муносабатлари очиб берилади.

Назаримизда Амир Темурнинг жаҳон геосиёсий етакчилиги ғояси Алишер Навоийга жуда яхши маълум бўлган ва у бу ғояни қўллаб-қувватлаган. Асарда Искандарнинг ҳудудий экспансиялари унинг геосиёсий мақсадларини, яъни ягона ва мустаҳкам давлат тузиш ниятини кўрсатади. У дунёнинг турли минтақаларини бирлаштириш орқали тинч, фаровон, хавфсиз ва ривожланувчи дунё ташкил қилишга интилади.

Навоийнинг асарида Искандарнинг энг катта ютуқларидан бири савдо йўллари устидан назорат ўрнатиши билан боғлиқ. Бу геосиёсий жараён ўша давр давлатларининг иқтисодий ва сиёсий қудратини белгилаб берган. Искандар дунёнинг муҳим савдо йўлларини ўз назоратига олиб, улар орқали давлатлар ўртасида савдо ва маданий алмашинувни таъминлайди. Бу ҳолат давлатнинг иқтисодий қудратини ошириш билан бирга, унинг сиёсий таъсир доирасини ҳам кенгайтиради. Асарда Искандарнинг юришлар давомида стратегик нуқталарга алоҳида эътибор қаратганлиги кўрсатилади. Масалан, тоғлар, дарёлар ва чегаралар каби муҳим ҳудудлар ҳарбий ва сиёсий назоратни таъминлаш учун аҳамиятли бўлган. Навоий асарида Искандарнинг яна бир муҳим геосиёсий вазифаси - турли халқларни бирлаштириш ва уларнинг маданияти, тили, динини ҳурмат қилиш орқали ягона давлатни барпо этишдир.

Искандар турли халқларнинг маданияти ва анъаналарини қабул қилади ва уларни бирлаштиришга интилади. Бу ҳолат давлатни мустаҳкамлаш учун

маданий ва сиёсий интеграция (замонавий геосиёсий интеграция, масалан, Европа Иттифоқи) қанчалик муҳим эканини кўрсатади. Навоий асарида Искандарни нафақат босқинчи, балки адолатли ҳукмдор сифатида кўрамиз, у маданий ва диний хилма-хилликни инкор этмасдан, турли халқлар билан мулоқот ўрнатади. Шу каби, асарда Искандар фақат ҳарбий қудратга эмас, балки адолатли қонунчилик ва ҳокимиятни тўғри бошқаришга асосланган давлатчиликка эътибор қаратади. У халқлар орасидаги адолат ва ҳуқуқий меъёрларни ривожлантириш орқали давлатнинг сиёсий барқарорлигини таъминлашга интилади. Шунингдек, “Садди Искандарий”даги энг машҳур воқеалардан бири бу Искандар томонидан “Искандар девори”ни қуришидир. Бу деворнинг қурилиши геосиёсий ҳимояни таъминлаш учун муҳим тадбир бўлган. Асарда Искандар ер юзидаги ёвуз кучлардан (аждаҳолар ва ёввойи қавмлардан) халқларни ҳимоя қилиш учун улкан девор қуришга қарор қилади. Бу геосиёсий маънода давлат чегараларини ҳимоя қилишнинг муҳим рамзи бўлиб, ташқи душманлардан ҳимоя қилиш заруриятини кўрсатади. Искандарнинг бу ҳаракати унинг ташқи хавфсизликка бўлган эътиборини акс эттиради ва бу билан давлатнинг геосиёсий қудрати нафақат ички куч-қувватга, балки ташқи ҳимоя тизимига ҳам боғлиқ эканлиги ёритилади.

Навоий асарида Искандар нафақат ҳарбий, балки дипломатик йўллар билан ҳам ҳудудларни назорат қилишга ҳаракат қилади. У турли давлатлар билан тинчлик ва ҳамкорлик ўрнатишга интилади. Искандар турли ҳукмдорлар билан иттифоқлар тузиб, уларнинг ҳокимиятини тан олган ҳолда сиёсий мувозанатни сақлайди. Бу ҳолатда Навоий геосиёсий муносабатлар учун муҳим бўлган дипломатик стратегияни очиб беради.

Шундай қилиб, Навоийнинг бу асари геосиёсий масалаларни кенг қамраб олади. Ҳудудий экспансия, савдо йўлларини назорат қилиш, маданий ва сиёсий интеграция, ташқи хавфсизлик ва дипломатия каби геосиёсий жараёнлар асарда алоҳида ўрин тутади. Навоий Искандарни адолатли ва муваффақиятли ҳукмдор сифатида тасвирлаб, унинг геосиёсий стратегиялари

орқали ўша даврнинг халқаро муносабатлари ва давлатчилик моделини кўрсатиб беради.

Темур барпо этган Турон империяси ва унинг жаҳон сиёсатидаги геосиёсий мавқеи XVI асрнинг бошида ҳудудни Шайбоний босиб олиши билан парчаланди [Ўзбекистон дипломатияси, 2019. 508.]. Шу билан Марказий Осиё халқаро сиёсатда етакчилик мавқеини йўқота бошлади. Ҳудуддаги турли давлатлар ва сулолалар ўртасидаги зиддиятлар, савдо йўлларининг ўзгариши халқаро сиёсий вазиятни ўзгартирди. Шайбонийлар гарчи Марказий Осиёдаги қудратли сулола сифатида ён-атрофдаги Сафавийлар, Бобурийлар, ҳамда Хитой каби қудратли давлатлар билан муайян халқаро муносабатларни ўрнатган бўлсада, бу уни халқаро майдонда етакчи куч сифатида ифодаламаган. Шайбонийлар давлатининг асосий сиёсий ва маъмурий тизими Чингизхон давридаги каби тузилган бўлиб, замондан анча ортда қолиб борди. Унинг давлат ҳокимияти марказлаштирилган ва хонадонинг бошлиғи (хон) юқори ҳокимиятга эга эди. Ғарб мамлакатларида катта стратегик ғоялар ва ҳаракатлар бошланиб кетган бир даврда хонликда стратегик режалаштириш ва ривожлантириш мақсадлари ўта маҳаллийлашган ва сулола ҳукмдорлари ўз давлатини ҳали ҳам турли қабилалар ва урушлардаги ғалабалар орқали мустаҳкамлаган. Шайбонийлар дунё ўзгаришларидан ортда қолиб, халқаро муносабатларда айтарли фақат Хуросон муаммоси билан шуғулланди. Хуросон тарихан муҳим стратегик ҳудуд бўлиб, у савдо йўллари, хусусан, Ипак йўлида муҳим аҳамиятга эга эди. Аммо, денгиз йўллари кашф этила бошлаган бир вақтда Шайбонийларнинг муҳим халқаро масаласи Ғарб учун аҳамияти пасайиб бораётган Буюк ипак йўлининг Хуросон ҳудуди устидан назоратни қўлга киритиш бўлди.

Марказий Осиё ички низоларининг кучайиб бориши охир-оқибатда унинг хонликлардан иборат майда ва кучсиз давлатларга бўлиниб кетишига олиб келди. Минтақавий бирлашиш, кўмаклашиш, уни иқтисодий ривожлантириш, қўшин салоҳиятини ошириш, геосиёсий мавқени сақлаш ва халқаро муносабатларни такомиллаштириш сиёсатининг ўта сусайиши минтақани

аста-секин жаҳон геосиёсий муносабатлари доирасидан четга сурди ва Ғарбнинг колониализм сиёсати объектларидан бирига айлантирди.

Шайбонийлар даври бошларида Марказий Осиё жаҳон сиёсатидаги мустақил минтақа сифатида савдо ва сиёсий жиҳатдан муҳим ўрин тутган бўлса-да, XVII-XIX асрларда ҳудуднинг саноат, технологик ва ҳарбий ривожланишдан ортда қолиши, халқаро савдо йўлларидан узилиши унинг иқтисодий ва сиёсий аҳволига салбий таъсир кўрсатди. Буюк географик кашфиётлар ва денгиз йўлларининг ривожланиши сабабли, Марказий Осиё орқали ўтувчи қадимий Ипак йўли аҳамиятининг йўқолиши сабабли Марказий Осиё давлатлари халқаро бозордан узилиб, иқтисодий жиҳатдан заифлашди. Натижасида Марказий Осиё давлатлари иқтисодий таназзулга учради ва ички зиддиятлар кўпайди. Шунингдек, ташқи кучлар, жумладан, Россия ва Буюк Британия каби давлатлар Марказий Осиёдаги ҳокимият вакуумидан фойдаланиб, ҳудудда ўз сиёсий таъсирларини кучайтиришга ҳаракат қилишди.

XVII асрдан бошлаб Россия Марказий Осиёда ўз таъсирини кучайтириш учун хонликлар билан дипломатик алоқалар ўрнатишга интилди [Игнатьев Н., 1897. 186.]. Хонликлар ва Россия ўртасидаги элчилик муносабатлари XVIII-XIX асрларда Марказий Осиёда геосиёсий курашлар, савдо йўллари, ҳамда Россиянинг минтақадаги таъсирини кучайтиришга қаратилган ҳаракатлари билан чамбарчас боғлиқ. Россия империяси Марказий Осиёдаги Бухоро, Хива ва Қўқон хонликлари билан турли дипломатик миссиялар ва элчиликлар алоқаларини ўрнатишга ҳаракат қилган. Айниқса, XIX асрда Марказий Осиё хонликлари билан Россия ўртасидаги элчилик муносабатлари, геосиёсий мақсадларни белгилаб берган муҳим воқеалардан бири бўлиб, бу алоқалар хонликларнинг ташқи сиёсати, Россия империясининг Марказий Осиёга киришга қаратилган ҳаракатлари ва келажакдаги босқинларга замин яратган [Глущенко Е., 2010. 575.]. Хохлов, Черкасский, Бухголц ва Беневени элчиликлари Россиянинг минтақага бўлган қизиқишининг асосий дипломатик босқичларини ташкил қилган.

1602 йилда Иван Хохлов бошчилигидаги элчилик Марказий Осиё билан савдо алоқаларини йўлга қўйиш ва ҳарбий-сиёсий аҳволни ўрганиш мақсадида Бухоро юборилган илк дипломатик миссиялардан бири эди [Глущенко Е., 2010. 575.]. У муваффақиятсиз тугаган бўлсада, Россиянинг Марказий Осиё геосиёсий салоҳиятини аниқлаш юзасидан илк дипломатик қадамларидан бири бўлди.

Черкасский элчилиги эса 1714-1717 йилларда Россия императори Петир I томонидан Бухоро хонлигига юборилган дастлабки элчилик бўлди. Унинг асосий мақсади Марказий Осиёдаги иқтисодий шароит, савдо йўлларини ўрганиш, савдо ва дипломатик муносабатларни ўрнатиш эди. Шарқ савдо йўллари ўша пайтда Россия учун катта аҳамиятга эга бўлган, чунки у ўзининг иқтисодий нуфузини кучайтириш ва Марказий Осиё билан савдо алоқаларини яхшилашга интилаётганди [Глущенко Е., 2010. 575.]. Россия Ғарб билан кўплаб тўқнашувларга бораётган бир паллада Жанубнинг куч-қуввати, келажак стратегиясини билишни ҳам истарди. Шу сабабли Черкасский элчилиги орқали Россия Бухоро хонлиги ҳақидаги маълумотларни тўплади ва минтақанинг сиёсий аҳволини ўрганди.

1715 йилдан эса Россия Хива хонлигини ўрганишга киришади. Князь Иван Бухголц элчи сифатида Хивага юборилди, лекин унинг миссияси муваффақиятсиз тугади. Хоннинг шубҳалари туфайли Бухголц қўлга олиниб, Россияга қайтишга мажбур бўлди. Сўнг у Қўқон хонлигига юборилди. Бухголц элчилиги орқали Россия Қўқон ва бошқа хонликлар билан ҳамкорлик қилишга ва ушбу ҳудудларда ўз таъсирини кучайтиришга интилаётган эди.

XVIII асрнинг ўрталарида Хива хонлигига йўлланган Беневени миссияси ҳам дипломатик ташаббуслардан бири бўлиб, Россиянинг ҳудудий ва сиёсий манфаатларини ривожлантиришга қаратилган эди. Россиянинг бу даврдаги асосий мақсадларидан бири Марказий Осиё хонликлари билан савдо муносабатларини ривожлантириш ва уларни Россиянинг сиёсий ва иқтисодий таъсир доирасига олиш эди.

Умуман олганда Россия Марказий Осиёдаги геосиёсий мувозанатни ўз фойдасига ўзгартиришга ҳаракат қиларди [Терентьев М., 1906. 164.]. Элчихоналар орқали у хонликларнинг сиёсий заифлигини ўрганиб, ҳудуд экспансияси учун тайёргарлик кўрди. Россия хонликлар ҳақида сиёсий ва ҳарбий маълумотларни тўплади. Улар кейинчалик Россиянинг минтақани босиб олиши ва уни тўлиқ мустамлакага айлантиришда муҳим рол ўйнади.

Марказий Осиёнинг Россия томонидан босиб олиниши минтақа давлатлари билан бирга халқларининг ҳам жаҳонда юз бераётган тезкор ўзгаришлар билан яқиндан танишишига йўл очди. Рус асоратидан қутулиш ҳаракатлари орасида айниқса XIX аср охири ва XX аср бошларида юзага келган маърифатпарварлик-жадидчилик ҳаракатлари геосиёсий жиҳатдан ҳам муҳим рол ўйнаган [Жадид маърифатпарварлик ҳаракати, 2016. 216.]. Бу ҳаракатлар Марказий Осиёдаги халқларнинг ижтимоий ва маданий уйғонишига туртки бўлган. Маърифатпарварлик ҳаракати жадидчиликнинг асоси эди. Жадидчиликнинг асосий мақсади халқни саводли қилиш, илмий билимларни тарқатиш ва замонавий таълим тизимини яратиш эди. Бу ҳаракатларнинг геосиёсий мақсадлари ҳам бор эди, улар аслида мустамлакачиликка қарши туриш, Марказий Осиёда салоҳиятли миллий мустақилликни таъминлаш ва минтақанинг жаҳон сиёсатидаги мавқеини қайтариш эди [Саломов Ш., 2017. 312.]. Жадидлар ушбу улуғвор натижаларга аҳолининг ялпи тарзда билим-салоҳияти, яъни маърифати ва хабардорлигини ошириш орқали эришилади, деб ҳисоблаганлар.

Шу асосда улар янги усулдаги мактаблар очиш, замонавий фанлар ва илмий билимларни ўрганишга катта аҳамият бердилар. Улар жамиятнинг ривожланиши учун таълим тизимини модернизация қилишга уриндилар, Марказий Осиёдаги урф-одатларни қайта кўриб чиқиб, миллий ва диний қадриятларни сақлаш билан бирга, уларни замонавий тамойиллар билан мувофиқлаштиришга ҳаракат қилдилар [Мунавварқори, 2018. 158.]. Жадидлар Европанинг илмий ва технологик тараққиётини ўрганиб, уни Марказий Осиёдаги ислоҳотларга татбиқ этишни мақсад қилганлар. Улар замонавий

технологиялар ва илм-фанни миллий ривожланиш учун муҳим восита деб билганлар [Абдурашидов З., 2008. 107.]. Шу каби, фуқаролик ҳуқуқларини кенгайтириш, адолатли давлат тизимини яратиш ва мустақилликка интилиш ғояларини илгари суриб, мустамлакачиликка қарши курашиш ва миллий озодлик ғояларини тарғиб қилдилар.

Жадидлар Марказий Осиёдаги халқларнинг ўзлигини тиклаш ва уларни миллат сифатида шакллантиришга катта эътибор қаратишган. Улар таълим тизимини ислоҳ қилиш, миллий тарих ва маданиятни уйғотиш орқали бу мақсадни амалга оширишга интилишган. Жадидлар учун таълим асосий ўринни тутарди. Улар эски мактаб ва мадрасаларни замонавий мактаблар билан алмаштириш, илм-фан ва маърифат орқали халқни саводли қилиш тарафдори эдилар [Жадид маърифатпарварлик ҳаракати, 2016. 216.]. Улар шундай асосда янги авлодни тарбиялаб, ўз даврлари жаҳон тараққиётига яқинлашиш, пировард натижада эса минтақанинг бир замонлар машҳур бўлган халқаро ўрни ва геосиёсий мавқеини тиклаш мумкин деб ўйлардилар.

Хулоса қилиб айтганда, тарихий воқелик, манбалар ва мутафаккирлар асарлари шундан далолат берадики, Туркистон ҳудуди қадимдан стратегик ва геосиёсий жиҳатдан муҳим минтақа бўлиб келган. У ер қуруқлик қисмининг энг муҳим нуқтасида сифатида Шарқ ва Ғарбни боғлаган, иқтисодий ва маданий алмашинув маркази сифатида ривожланган. Лекин ташқи таҳдидлар, ички низолар ва замонавий талабларга мослаша олмаслик сабабли бу ҳудуд аста-секин халқаро майдондаги етакчи мавқеини йўқота бошлаган. Шарқ ва Ғарб цивилизациялари ўртасида кўприк бўлган бу минтақада қадимий давлатлардан тортиб, Амир Темур ва Алишер Навоий давригача бўлган тарихий жараёнлар шундан далолат берадики, бу ҳудуд дунёнинг нафақат иқтисодий ва геосиёсий маркази, балки интеллектуал ва маданий ривожланиш маскани ҳам бўлган. Шу билан бирга, кейинги асрларда геосиёсий тафаккурнинг етарли ривожланмаслиги, ички сиёсий парокандалик ва ташқи таҳдидларга қарши мустаҳкам стратегик ёндашувнинг етишмаслиги натижасида минтақанинг халқаро мавқеи пасайган ва ташқи таъсирга очиқ

бўлиб қолган. Жадидлар ҳаракати эса бу ҳолатдан чиқиш учун маърифат, замонавий илм-фан ва миллий уйғониш орқали янги геосиёсий мақсадларни шакллантиришга уриниш бўлган.

Аммо турли даврларда геосиёсий ҳаракатлар, билимлар ва тажрибалар бу ҳудуддаги халқларнинг қайта уйғониши, мустақиллик ва ўзлигини англаш йўлида муҳим қадам бўлган. Таҳлилларимиздан келиб чиқадиган асосий хулоса шуки, геосиёсий тараққиёт, маънавий уйғониш ва миллий ўзликни сақлаш бир-бири билан узвий боғлиқ жараёнлардир, бугунги кунда ҳам уларни ўрганиш ва қадрлаш миллий тараққиётнинг муҳим асосидир. Бугунги Марказий Осиё давлатлари тарихий Туркистоннинг стратегик ва маданий аҳамиятга эга бўлган ҳудуди бўлиб, унинг геосиёсий мавқеини тиклаш уларнинг биргаликдаги муҳим вазифасидир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. –224 б.
2. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. Т.1. –Т.: Фан, 1968. –486 б.
3. Алишер Навоий. Садди Искандарий.–Т.: ҒафурҒулом нашриёти, 1991. 832 б.
4. Бобоев Ҳ. Ўзбекистонда сиёсий ва маънавий-маърифий таълимотлар тараққиёти. Ўқув қўлланма. –Т.: Янги аср авлоди, 2001. -500 б.
5. Низомулмулк. Сиёсатнома. –Т.: Адолат. 1997. –256 б.
6. Темур тузуклари. –Т.: Шарқ, 2005. –160 б.
7. Ўзбекистон дипломатияси тарихи (қадимги замонлардан ҳозирги кунгача). 6-жилд. -Т.: O‘zbekiston, 2019. -508 б.
8. Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. - Т.:Адолат, 2003. - 280б.
9. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. – Тошкент: Akademiya, 2008. – 432 б.
10. Терентьев М. История завоевания Средней Азии, т. 1-3, СПб., 1906.
11. Глущенко Е. Россия в Средней Азии. Завоевания и преобразования. -М.: ЗАО Издательство Центрполиграф, 2010. — 575 с.

12. Игнатьев Н. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 г. флигель-адъютанта полковника Н. Игнатьева, СПб., 1897.
13. Саломов Ш. Ғоялар жанги XIX-XX аср Туркистон ва Жанубий Кавказ – Т.: Истиқлол нури, 2017. - 312 б.
14. Мунавварқори Абдурашидхонов - Туркистон тараққийпарварларининг сардори. -Т.: Мумтоз сўз, 2018. 158 б.
15. Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари // "Жадид маърифатпарварларининг миллий таълим, матбуот, адабиёт ва санъатни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ва унинг Миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти" мавзуидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 2016 йил 15 апрель -Т.: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2016. 216 б.
16. Бўриев О. Марказий Осиё тарихий географиясидан лавҳалар. -Т.: Tafakkur, 2015. -280 б.
17. А.Хўжаев, А. Айтбаев, Ш. Қўлдашев, Ф. Джуманиёзова. Марказий Осиё тарихи Хитой манбаларида. Тошкент -2016. 432 б.

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПРИРОДЫ СОЦИАЛЬНЫХ КОНФЛИКТОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Рахматов Отабек Одилович
Начальник отдела по работе с молодежью и просвещение духовности.
в филиале РГПУ им. А.И. Герцена в г.Ташкент.
E-mail:mosi_94.ru@mail.ru
+ 99 020 88 70

Аннотация: *В данной статье рассматриваются философские основы и сущностные характеристики социальных конфликтов в контексте процессов глобализации. Анализируются причины и формы социальных противоречий, трансформирующихся под влиянием глобальных изменений, информационных технологий и культурной поляризации. Освещаются подходы к интерпретации природы конфликта в трудах классических и современных философов. Особое внимание уделяется вопросам*

устойчивости, общественной безопасности и роли идеологических факторов. Делается вывод о необходимости философско-гуманистического осмысления конфликтов как условия для формирования культуры диалога и предотвращения социальной деструкции.

Ключевые слова: *социальный конфликт, философия, глобализация, общественная безопасность, культурная идентичность, диалог, неравенство, конфликтология;*

“Philosophical analysis of the nature of social conflicts in the context of globalization”

Annotation: *This article explores the philosophical foundations and essential characteristics of social conflicts in the context of globalization processes. It analyzes the causes and forms of social contradictions, which are being transformed under the influence of global changes, information technologies, and cultural polarization. The paper highlights various approaches to interpreting the nature of conflict in the works of classical and contemporary philosophers. Special attention is given to issues of stability, public security, and the role of ideological factors. The study concludes that a philosophical and humanistic understanding of conflicts is essential for fostering a culture of dialogue and preventing social disintegration.*

Key words: *social conflict, philosophy, globalization, public security, cultural identity, dialogue, inequality, conflict studies;*

“Globallashuv sharoitida ijtimoiy ziddiyatlar tabiatining falsafiy tahlili”

Annotatsiya: *Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari kontekstida ijtimoiy ziddiyatlarning falsafiy asoslari va mohiyati o‘rganiladi. Ijtimoiy qarama-qarshiliklarning sabablari va shakllari, ular global o‘zgarishlar, axborot texnologiyalari va madaniy polarizatsiya ta’sirida qanday o‘zgarayotganligi tahlil qilinadi. Konflikt tabiatining talqiniga oid klassik va zamonaviy faylasuflarning yondashuvlariga e’tibor qaratiladi. Barqarorlik, jamoat xavfsizligi va mafkuraviy omillarning o‘rniga alohida urg‘u beriladi. Xulosa qilib aytiladiki, ijtimoiy mojarolarni falsafiy-gumanistik yondashuv asosida anglash — dialog madaniyatini shakllantirish va ijtimoiy yemirilishning oldini olish uchun zarurdir.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy ziddiyat, falsafa, globallashuv, jamoat xavfsizligi, madaniy identitet, dialog, tengsizlik, konfliktologiya;*

“Философский анализ природы социальных конфликтов в условиях глобализации”

Введение. Процессы глобализации, радикально изменяя политические, экономические и культурные контексты современного общества, обостряют существующие социальные противоречия и порождают новые формы конфликтности. В этих условиях усиливается потребность в философском осмыслении сущности конфликтов, их структурных причин и общественно-политических последствий. Социальные конфликты утрачивают локальный характер и приобретают транснациональное измерение, охватывая различные сферы общественной жизни — от экономики до культуры, от политики до технологий. Это требует не только междисциплинарного, но и прежде всего философского анализа, направленного на выявление глубинных причин, ценностных противоречий и мировоззренческих основ конфликтных процессов.

1. Понятие и сущность социальных конфликтов: философский взгляд:

С философской точки зрения, социальный конфликт представляет собой проявление фундаментальных противоречий, возникающих в обществе в сфере интересов, ценностей, доступа к ресурсам и идентичностей. Классики социальной философии — Г. Гегель, К. Маркс, Ж. Сорель — подчеркивали неотъемлемость конфликта как механизма саморазвития социума.

По Гегелю, конфликт есть выражение «диалектики противоречий», в процессе которой происходит становление духа и развитие общества. Противоречие, по его логике, не устраняется, а снимается (aufheben), поднимаясь на более высокий уровень[22].

К. Маркс рассматривал конфликт как антагонизм между классами — следствие несправедливого распределения материальных благ. Он утверждал,

[22] Гегель Г. Ф. *Феноменология духа*. — М.: Наука, 1990.

что борьба классов является движущей силой истории, а социальная революция — механизмом устранения отчуждения и эксплуатации[23].

В XX веке Льюис Козер определил конфликт как функциональный элемент общества, способствующий интеграции и обновлению социальных структур. «Конфликт способствует осознанию групповых интересов и укреплению внутренней солидарности»[24]. В свою очередь, Ральф Дарендорф подчеркивал институциональные причины конфликтов, связывая их с неравенством власти и авторитета. Он рассматривал конфликт как постоянный элемент социальной динамики, ведущий к институциональным реформам[25].

Таким образом, социальный конфликт, с философской точки зрения, выступает не только как источник напряжения и деструкции, но и как предпосылка общественного развития, обновления норм и практик.

2. Влияние глобализации на трансформацию социальных конфликтов:

Глобализация, усилив взаимозависимость государств, трансформировала природу и масштабы социальных конфликтов. Наряду с преимуществами — расширением коммуникаций, мобильностью капитала и информации — она обострила социальное расслоение, культурную фрагментацию и создала новые формы конфликтов идентичности.

Во-первых, экономическая глобализация привела к концентрации ресурсов в руках транснациональных корпораций и глобальной элиты, тогда как значительная часть населения столкнулась с обострением бедности и социальной незащищенности. Это обусловило всплеск протестных движений (например, Occupy Wall Street, «жёлтые жилеты» и др.).

Во-вторых, информационная глобализация породила феномен цифровых конфликтов, в которых противостояние разворачивается в медиа- и онлайн-пространстве. Усиление роли постправды, распространение дезинформации, цифровое неравенство формируют новую среду конфронтации, где конфликт становится информационным оружием.

---

[23] Маркс К., Энгельс Ф. *Манифест Коммунистической партии*. — М.: Политиздат, 1961.
[24] Козер Л. *Функции социального конфликта*. — М.: Идея-Пресс, 2000.
[25] Дарендорф Р. *Современный социальный конфликт: Очерк политики свободы*. — М.: РОССПЭН, 2002.

В-третьих, культурная глобализация приводит к утрате локальной идентичности, культурной унификации и, как реакция, — к этнокультурной и религиозной радикализации. Этот феномен усиливает деструктивные формы самоидентификации, подрывающие основы глобального сотрудничества.

Таким образом, глобализация не устраняет конфликты, а трансформирует их — по форме, содержанию и механизму воспроизводства. Конфликт в условиях глобализации становится многоуровневым, устойчивым и трудноразрешимым.

3. Конфликт как угроза и условие развития: философско-гуманистические аспекты:

Современная философия стремится осмыслить конфликт не только как разрушительную силу, но и как потенциал развития. Ю. Хабермас в теории коммуникативного действия предлагает концепт рационального диалога как способа преодоления конфликтов. Он полагает, что через дискурсивное взаимодействие возможно достижение консенсуса без насилия и принуждения[26].

Пауль Рикёр дополняет эту перспективу идеей «этической интерпретации», при которой преодоление конфликтов требует признания инаковости, эмпатии и стремления к пониманию другого[27].

Философские традиции ненасилия — в частности, идеи Л. Толстого и М. Ганди — утверждают приоритет моральных ценностей и гражданской солидарности над враждебностью и местью. В этой парадигме конфликт выступает как стимул к нравственному очищению и социальной ответственности.

Таким образом, философско-гуманистический подход к конфликту позволяет трансформировать его из механизма разрушения в средство мобилизации человеческого потенциала на пути к более справедливому общественному устройству.

---

[26] Хабермас Ю. *Теория коммуникативного действия*. — М.: Весь Мир, 2001.
[27] Рикёр П. *Конфликт интерпретаций*. — СПб.: Университетская книга, 2002.

4. Проблема безопасности в условиях социальных конфликтов

В эпоху глобализации понятие безопасности требует переосмысления. Сегодня это не только отсутствие войны или насилия, но и наличие социального доверия, справедливости и инклюзивности. Социальные конфликты, если они не распознаны и не урегулированы, могут перерасти в угрозы национальной и международной стабильности.

Новые вызовы — миграционные кризисы, международный терроризм, кибератаки, политический популизм — свидетельствуют о глубинных противоречиях в структуре глобального порядка. Примером служит «арабская весна»: социальное недовольство, вызванное бедностью и авторитаризмом, переросло в широкомасштабные конфликты и региональные войны.

Философия безопасности в современных условиях предполагает не столько контроль и репрессию, сколько развитие культуры доверия, открытости и гражданского участия. Это требует перехода от стратегии силового сдерживания к стратегии гуманитарной безопасности и образовательной профилактики.

Заключение

В условиях глобализации социальные конфликты приобретают новые формы и измерения. Они становятся не только локальными или национальными проблемами, но и универсальными вызовами для всего человечества. Их философское осмысление предполагает переоценку традиционных представлений о конфликте, признание его конструктивного потенциала и поиск гуманных механизмов разрешения.

Конфликт как проявление общественного напряжения может служить основой для обновления социальных институтов и формирования новой этики взаимодействия. Философия, опираясь на ценности гуманизма и диалога, призвана быть не только аналитическим инструментом, но и этическим ориентиром в формировании более устойчивого и справедливого мира.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Гегель Г. Ф. Феноменология духа. — М.: Наука, 1990.

2. Маркс К., Энгельс Ф. Манифест Коммунистической партии. — М.: Политиздат, 1961.

3. Козер Л. Функции социального конфликта. — М.: Идея-Пресс, 2000.

4. Дарендорф Р. Современный социальный конфликт: Очерк политики свободы. — М.: РОССПЭН, 2002.

5. Хабермас Ю. *Теория коммуникативного действия*. — М.: Весь Мир, 2001.

6. Рикёр П. *Конфликт интерпретаций*. — СПб.: Университетская книга, 2002.

TURKIY DAVLATLAR TARIXI VA MADANIYATIDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Rajabov Orifjon Xonimqulovich
psixologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori, dotsent
Jizzax politexnika instituti
E-mail: orifjonrajabov921@gmail.com
+99 (890) 495-25-79

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turkiy davlatlar tarixi va madaniyatida psixologik bilimlarning o‘rni va ahamiyati keng tahlil qilinadi. Inson ongi va xulq-atvorini tushunish jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi. Amir Temur davridan tortib, Alisher Navoiy ijodigacha bo‘lgan turkiy madaniyat namoyondalarida psixologik bilimlardan foydalanish usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ta’lim va tarbiya, davlat boshqaruvida psixologik yondashuvlarning ahamiyati ham tahlil qilinadi. Ushbu maqola turkiy xalqlar madaniyatida psixologik bilimlarning ahamiyatini chuqur anglashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Turkiy davlatlar, psixologik bilimlar, madaniyat, tarix, adabiyot, ta’lim, davlat boshqaruvi, shaxs, ruhiyat, ijtimoiy munosabatlar*.

Annotation: *This article extensively analyzes the role and significance of psychological knowledge in the history and culture of the Turkic states. It is argued that understanding human consciousness and behavior plays an important role in the development of society. In the manifestations of Turkic culture, from the era of Amir Temur to the work of Alisher Navoi, methods of using psychological knowledge are considered. The importance of psychological approaches in education and upbringing, public administration is also analyzed. This article serves to deeply understand the importance of psychological knowledge in the culture of Turkic peoples.*

Keywords: *Turkic states, psychological knowledge, culture, history, literature, education, public administration, personality, psyche, social relations*

Turkiy davlatlar tarixi va madaniyati juda boy va murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu xalqlar taraqqiyotida psixologik bilimlar muhim o‘rin tutadi. Chunki jamiyatning ma’naviy va madaniy rivojlanishida, shaxs kamoloti va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda psixologik bilimlar katta ahamiyatga ega.

Psixologiya inson ongi, his-tuyg‘ulari va xulq-atvori haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Ushbu bilimlar qadim zamonlardan boshlab turkiy xalqlarning ma’naviy va madaniy hayotida aks etgan. Har bir jamiyat o‘zining madaniy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida insonning ruhiy holatini tushunish va undan samarali foydalanishni maqsad qilgan. Shu bois turkiy davlatlarda ham shaxsning axloqiy tarbiyasi, jamiyatdagi o‘rni va uning ruhiy holatiga katta e’tibor berilgan.

Jumladan, turkiy xalqlarning qadimgi manbalaridan tortib, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Xojib, Axmed Yassaviy kabi mutafakkirlar ijodigacha bo‘lgan davrda insonning ma’naviy kamoloti, uning ruhiy holati va ijtimoiy munosabatlari muhim masala sifatida qaralgan. Bu masalalar faqat falsafa yoki adabiyot bilan cheklanib qolmasdan, davlat boshqaruvida ham namoyon bo‘lgan. Masalan, Amir Temur o‘z tuzuklarida inson tabiati va uning ruhiy holatini tushunish orqali samarali boshqaruvni shakllantirgan.

Bugungi kunda ham turkiy davlatlar madaniyatida psixologik bilimlar muhim ahamiyatga ega. Hozirgi jamiyatda shaxs kamoloti va ijtimoiy munosabatlar psixologik bilimlar asosida shakllantirilmoqda. Shuning uchun turkiy xalqlar madaniyati va tarixida psixologik bilimlarning o‘rnini o‘rganish nafaqat ilmiy

ahamiyatga ega, balki amaliyotda ham qo‘llanilishi lozim bo‘lgan muhim masala hisoblanadi.

Shu sababdan ham turkiy davlatlar madaniyati va tarixida psixologik bilimlarning o‘rni va ahamiyati keng ko‘lamda yoritilgan. Turkiy xalqlar ma’naviyatida inson ongi, xulq-atvori va ruhiy holati qanday aks etgani va bu bilimlar jamiyat rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatganini tahlil qilish juda muhimdir. Shuningdek, ta’lim va tarbiya, davlat boshqaruvi kabi sohalarda psixologik yondashuvlar qanday amalga oshirilgani haqidagi fikrlar dolzarb hisoblanadi.

Psixologik bilimlarning tarixiy jihatdan ahamiyatiga e’tibor beradigan bo‘lsak, turkiy xalqlar an’anaviy ravishda inson ongi va ruhiyatini anglashga yo‘naltirilgan tarbiya usullariga ega bo‘lgan. Jumladan, ular orasida shajara va falsafiy qarashlar asosida yozilgan manbalar keng tarqalgan. Bunday manbalarda insonning shaxsiy va jamoaviy psixologiyasi, uning jamiyatdagi roli va xulq-atvorini anglash muhim o‘rin egallagan.

Qadimgi turkiy jamiyatlarda psixologik bilimlar asosida shaxsning ma’naviy kamolotiga katta e’tibor berilgan. Masalan, Yusuf Xos Xojibning "Qutadg‘u bilig" asarida davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyotida inson ongi va ruhiyatining ahamiyati keng yoritilgan [Turabov, 2020. 29]. Ushbu asar shaxsning ruhiy muvozanatini saqlash, odob-axloq qoidalariga rioya qilish hamda jamoada o‘z o‘rnini topish kabi psixologik masalalarni o‘z ichiga oladi.

Masalan, Amir Temur davrida jamiyatni boshqarishda inson psixologiyasini tushunish va undan foydalanish muhim ahamiyat kasb etgan. Uning "Temur tuzuklari" asarida inson tabiati, rahbarlik va boshqaruvda psixologik yondashuvlar alohida ta’kidlangan. Bu davrda jang san’atida ham psixologik usullardan foydalanish keng tarqalgan bo‘lib, dushman ustidan g‘alaba qozonish uchun uning ruhiy holati va kayfiyatini anglash katta ahamiyat kasb etgan [Amir Temur,1991. 173].

Bundan tashqari, turkiy xalqlarning og‘zaki ijodiyotida ham psixologik bilimlar aks etgan. Masalan, Qorqut ota dostonlarida shaxsning ichki kechinmalari, taqdir va hayotga bo‘lgan munosabati keng yoritilgan. Bu asarlarda insonning

irodasi, sabr-toqati va aql-idroki psixologik nuqtai nazardan tahlil qilingan [Qorqut ota dostonlari, 1980. 192**].**

Shu bilan birga, turkiy xalqlar tarixida shaxsning ichki dunyosini anglashga qaratilgan turli an’analar va marosimlar mavjud bo‘lgan. Masalan, jamoaviy maslahatlar, xo‘jalik va jang san’atida qo‘llanilgan psixologik tamoyillar jamiyatning barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutgan. Davlat arboblari va harbiy yetakchilar inson ongi va ruhiyatini o‘rganish orqali samarali boshqaruvni ta’minlaganlar.

Hozirgi kunga kelib, psixologik bilimlarning ahamiyati yanada ortayapti. Jamiyat taraqqiyoti, davlat boshqaruvi, ta’lim va madaniyat sohalarida psixologik bilimlarni samarali qo‘llash orqali inson resurslarini yanada rivojlantirish mumkin. Shu bois turkiy davlatlarda bu sohadagi tadqiqotlar yanada kengaytirilishi talab etiladi.

Turkiy xalqlar madaniyatida ham psixologik bilimlar adabiyot va san’at orqali namoyon bo‘lgan. Masalan, Alisher Navoiy ijodi insonning ichki dunyosi, uning his-tuyg‘ulari va kechinmalari chuqur tasvirlangan. Uning asarlarida inson ruhiyatining murakkab jihatlari, shaxsning komillikka intilishi, hayot mazmuni va axloqiy qoidalar psixologik yondashuv bilan ifoda etilgan [Turabov, 2020. 146].

Bundan tashqari, xalq og‘zaki ijodi – dostonlar, maqollar va afsonalarda ham psixologik bilimlar aks etgan. Masalan, Qorqut ota dostonlari va Alpomish haqidagi rivoyatlarda shaxsning ichki dunyosi, jasorati va irodasi, ruhiy qiyinchiliklarni yengish yo‘llari haqida psixologik qarashlar mavjud [Alpomish haqidagi rivoyatlar, 1999. 245].

Turkiy xalqlarda ta’lim va tarbiya jarayonida psixologik bilimlarning o‘rni juda katta bo‘lgan. Bolalarni tarbiyalashda ularning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishda ruhiy quvvat berish usullari qo‘llanilgan.

Hozirgi kunda ham turkiy davlatlarda ta’lim tizimida psixologik yondashuvlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Masalan, ta’lim jarayonida interaktiv

usullar, talabalarning ruhiy holatini inobatga olish, individual yondashuv kabi metodlar samarali qo‘llanilmoqda.

Bundan tashqari eng muhim jihatlardan biri bo‘lgan jamiyat boshqaruvida psixologik bilimlarning ahamiyati ham katta bo‘lgan. Turkiy davlatlarda davlat boshqaruvida psixologik bilimlardan foydalanish an’anaviy holat hisoblangan. Masalan, qadimgi turk davlatlarida rahbarlar o‘z xalqining ruhiy holatini tushunish va uning talablariga muvofiq siyosat yuritishga harakat qilganlar.

Hozirgi kunga kelib, davlat boshqaruvida psixologik bilimlarning ahamiyati yanada ortayapti. Jamoatchilik bilan munosabatlar, siyosiy jarayonlarni boshqarish, aholi ruhiyatini o‘rganish va uning ehtiyojlariga mos ravishda siyosat yuritishda psixologik yondashuvlar juda muhimdir.

Turkiy davlatlar tarixi va madaniyatida psixologik bilimlar muhim o‘rin tutadi. Ular insonning ichki dunyosi va xulq-atvorini tushunish, madaniy merosni boyitish, ta’lim samaradorligini oshirish va jamiyat boshqaruvida samarali qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, psixologik bilimlarni chuqur o‘rganish va ularni turli sohalarda qo‘llash turkiy davlatlarning ijtimoiy, madaniy va siyosiy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Bu bilimlar nafaqat o‘tmishda, balki hozirgi davrda ham ahamiyatli bo‘lib, kelajakda ham katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun psixologik bilimlarning rivojlanishi va ularni amaliyotga tadbiq etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amir Temur. "Temur tuzuklari". – T.: "Fan", 1991. – 173 b.

2. Alisher Navoiy. "Hamsa" asarlari. – T.: "Fan", 1988. – 5 jild.

3. Turabov B.N. A.Navoiy ijodida borliq muammolari. Falsafa va hayot xalqaro jurnali. № si-2. – T.: 2020 yil. – 146 B.

4. Turdieva M. Pedagogik-psixologik hamda ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta’minlash masalalari. “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. № 2. 2020 yil. Buxoro davlat universiteti.

5. Xalq og‘zaki ijodiyoti mahsuli. “Alpomish haqidagi rivoyatlar”. "O‘zbekiston" nashriyoti. 1999 yil. – 245 B.

6. Xalq og‘zaki ijodiyoti mahsuli. **"Qorqut ota dostonlari".** "G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti". 1980 y. – 192 B.

7. Xakim Sattoriy. “Mahak toshi” tanlangan badiiy publitsistika. – T.: 2008 yil. – 296 B.

BUXORO - TURKIYA DIPLOMATIK ALOQALARINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI

Davurova Shohida Haydarovna,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD) arxiv mudiri,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Markaziy arxivi
Toshkent shahri
shohidadavurova@gmail.com
+99890 989-80-51

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Buxoro amirligida Mang itlar sulolasi hukumronlik qilgan davridag**i** Buxoro - Turkiya diplomatik aloqalariga oid ma’lumotlar O‘zbekiston va Turkiya Milliy arxivlarida bugungi kungacha saqlanib kelinayotgan alohida qimmatli va noyob arxiv hujjatlari asosida yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Elchi, qurush, to‘p, piastr, sulton, halifa, imperiya, memorandum.*

Annotation. *This article provides information on the diplomatic relations between Bukhara and Turkey during the reign of the Mang dynasty in the Bukhara Emirate, based on particularly valuable and unique archival documents preserved to this day in the National Archives of Uzbekistan and Turkey.*

Key words*: Ambassador, penny, cannon, piastre, sultan, caliph, empire, memorandum.*

Ma’lumki, diplomatik munosabatlar manfaatdor davlatlar vakillari bilan bevosita yoki bilvosita, uchinchi bir davlat diplomatik vakillari bilan muzokara

yuritish natijasida o‘rnatiladi. [O‘ME, 2012, 1] Davlatlar o‘rtasida yozishmalar tarzidagi amalga oshiriladigan tashqi aloqalar davlat, hukumat boshlig‘i, tashqi ishlar idorasi, turli davlat va jamoat tashkilotlari hamda muassasalari yoki ularning boshliqlari, diplomatik vakillar va ayrim diplomatlar nomidan olib borilgan.

Jumladan, o‘rta asrlarda davrida Sohibqiron Amir Temur o‘zining harbiy iste’dodi, mohir sarkardaligi, diplomantligi va buyuk davlat arbobi bo‘lganligi tufayli Movarounnahrda ulkan markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo‘lgan. A.Temur tashqi siyosati va diplomatiyasi tinchliksevarlik, xavfsizlik va o‘zaro hamkorlik prinsiplariga asoslangan bo‘lib, u davlatni boshqarishning o‘n ikkinchi qoidasida quyidagilarni bayon etadi: “Har mamlakat va diyor sayohatchilar-yu, musofirlarining boshini siladimki, turli mamlakatlardan menga xabar keltirib turdilar. Har bir mamlakatga va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladimki, ular qayerga borishmasin, u yerlarning nafis matolari va munosib tuhfalarini keltirishsin. O‘sha mamlakatlarda yashovchi kishilarning hol-ahvoli, turish-turmushlari haqida menga xabar olib kelsinlar. Har bir mamlakat hukmdorining o‘z raiyatiga qanday muomila-yu, munosabatda ekanligini aniqladilar”. [Temur tuzuklari. 2014, 2]

Darhaqiqat, o‘zaro munosabatlarni mustahkamlash, turli mamlakatlar holatidan xabardor bo‘lish, ular o‘rtasida tinchlik o‘rnatish orqali fuqarolarning tinchligini ta’minlash – elchilarning asosiy vazifalari hisoblangan. O‘z mamlakatining siyosatini teran anglay oladigan va uni o‘zgalarga yetkazib bera oladigan yetuk insonlargina elchilik lavozimlariga tayinlangan. Shu boisdan, o‘rta asrlar davridan elchilar turli davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy aloqalarni bog‘lashda muhim o‘rin tutgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan Buxoro amiriligida Mang‘itlar sulolasidan Amir Doniyolbiy (1758-1785 yy.) hukmronligidan boshlab, Buxoro va Usmoniylar davlatlarining ikki tomonlama manfaatli o‘zaro siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik aloqalari elchilar orqali mustahkamlanib borgan. Bu davrda Rossiya imperiyasi bilan urush holatida bo‘lgan Usmoniylar davlati yaxshi qo‘shnichilik,

o‘zaro yordam hamda iqtisodiy hamkorlik g‘oyalarini ilgari suruvchi ittifoqchi davlatga muhtoj edi.

Jumladan, Turkiya Milliy arxivida saqlanayotgan hujjatlarning birida, Buxoro amiri Amir Doniyolbiy 1783-1784 yillarda Usmoniylar sultoni Abdulhamid II (1774-1789) huzuriga Muhammad Sharif boshchiligidagi elchilik missiyasi yuborganligi qayd etiladi. Amir Doniybiy elchi orqali sultonga yo‘llagan maktubida ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashga yo‘naltirilgan takliflarni va shaxsan podshoh zoti oliylari uchun amir beklari tomonidan olmos, zumrad, la’l kabi qimmatbaho toshlar tuhfa sifatida yuborilayotganligini ma’lum qiladi. O‘z navbatida amirning diplomatik takliflari Sulton Abdulhamid II tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi [Turkiya arxivi hujjati. 1790.3]. 1786 yilda Buxoro amiri taklifiga javoban Sulton Abdulhamid II o‘z elchisi Mahmud Said og‘a orqali Buxoroga xat yuborib, amirni Rossiya imperiyasiga qarshi kurashish uchun birlashishga chaqiradi. [Gulyamov, 1992. 4]

Ammo chor Rossiya bilan qizg‘in tashqi savdo-sotiq aloqalarini olib borayotgan Buxoro amirligi o‘rtadagi munosabatlarning buzilishidan manfaatdor emas edi. Shuning uchun Amir Shohmurod (1785-1800) elchiga: “Moskov kabi qudratli davlat birla kuchlarimiz teng emasdur. Ayni vaqtda ruslar bilan mujadolaga kira olmaymiz. Bizning hozirgi vaqtda dushmanimiz Erondir” – deb javob beradi. Mahmud Said og‘a esa “Hozir sultonimizning dushmani Moskovdir. Eron ila nizomiz yo‘qdur” - deb o‘z yurtiga qaytib ketadi [O‘MA, 1800. 5].

Rossiya arxivi hujjatlaridan birida Buxoro amirligida Amir Haydar (1800-1826) taxtga o‘tirganidan so‘ng birinchi marta Turkiyaga devonbegi Eshmuhammad Boykishiyev boshchiligidagi diplomatik missiyasi yuborilganligi qayd etiladi [Vasilyev, 2014. 6]. Ushbu missiya 1802 yil dekabr oyining oxirida yo‘lga chiqib, unga avval, Rossiya imperiyasi poytaxtiga so‘ngra uning chegara hududidan Istambulga o‘tish topshirig‘i beriladi.

Buxorolik elchi E.Boykishiyev Turkiyaning Istambul shahriga borishi bilan bosh vazir Yusuf Ziyovuddin poshsho bilan muzokaralar olib boradi. Muzokara boshida elchi Turkiya sultoniga qisqa va lo‘nda qilib yozilgan amir xatini taqdim

etadi. Bu safar elchi Amir Haydar nomidan turk sultonidan uning “Turkiston va Turon yerlari hukmdori” ya’ni, Buxoro amiri taxtini egalaganini tan olishini so‘raydi. Turkiya sultoni ham Amir Haydarni muborakbod etib, unga 2 ta chopqir arab otlari, bezatilgan egar-jabduqlar hamda Usmoniylar mamlakatining boshqa qimmatbaho savdo mollarini sovg‘a sifatida yuboradi.

Buxoroda Amir Haydar hukmronligi davrida Istambulga yana 1810 yilda Mirza Xoji Sobir, 1815 yilda Mehmet Sharifboy, 1816 yilda Devonbegi Muhammad Yusufboy boshchiligidagi elchilik missiyalari yuborilgan.[Vasilyev, 2014. 7]

Amirning ushbu elchilik missiyalarini yuborishidan maqsadi, avvalo Turkiyaning yangi sultoni Maxmud II ni (1808-1839) saltanat taxtini egallaganligi bilan qutlash va u bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish bo‘lgan.

Rus muallifi ma’lumotlariga ko‘ra, Usmoniylar arxivida Buxoro amirligidan Amir Nasrulloxon (1827-1860) hukmroniligi davrida ham bir necha bor elchilik missiyalari yuborilganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Jumladan, Buxoro amirligidan Istambulga 1837 yil yanvar oyida Boltaqulibek boshchiligidagi elchilik missiyasi yuborilib, u o‘z elchilik ishlarini sentabr oyida yakunlab, usmoniylar sultonidan Buxoraga qaytishiga ruxsat olad [Vasilyev, 2014. 8].

Arxiv hujjatida elchi Boltaqulibekka amir tomonidan sultonga yo‘llangan maktub va unga berilgan topshiriqlar haqida ma’lumotlar mavjud emas. Biroq, hujjatda Turkiya sultoni davlat xazinasidan Buxoro elchilik missiyasi yo‘l harajatlari uchun 17500 qurush, ushbu elchilik missiyasini mehmon qilish va kuzatib qo‘yishda qilgan xizmatlari uchun Trabzon xokimi Xasanbiyga 3267 qurush pul mablag‘i ajratlganligi qayd etilgan [Turkiya arxivi hujjati, 1837. 9].

Buxoro amirligidan navbatdagi elchilik missiyasi Istambuldan 1843-1844 yillarda yuboriladi. Bu elchilik missiyasi boshlig‘i buxorolik Xoji Abdulloh afandi bo‘lgan. Bu elchilik missiyasi olib borgan va olib kelgan javob xatlari mazmuni haqida arxiv hujjatlari ichida ma’lumotlar topilmagan.

Buxoro amirligiga 1848 yilda Turkiyaning Istambul shahridan o‘zbeklarning taka urug‘idan bo‘lgan shayx Xoji Muhammad sulton maktubi bilan elchi qilib yuboriladi. [Turkiya arxivi hujjati, 1848. 10] Ushbu maktubda Usmoniylarga

amirlik hududida harbiy urush harakatlari va qotilliklar sodir bo‘layotganligi haqida ma’lumotlar yetib kelganligi aytiladi. Shu munosabat bilan sulton halifalik maqomini musulmonlar uchun eng yuqori darajadagi ma’naviy mavqe ekanligini eslatib o‘tadi. Dushmanlikka barham berish, musulmonlar birligi va birdamligini saqlab qolish uchun barcha zaruriy choralarni ko‘rishni talab qiladi hamda o‘z qardoshlarining qonini bekorga to‘kish mumkin emasligini bildiradi.

Buxoro amirligidan 1850 yil kuz oyida Nurmahdi boshchiligidagi elchilik missiyasi Turkiyaga tashrif buyuradi. Elchi Buxoro amiri sovg‘asi sifatida Turkiya sultoniga Qur’oni Karim kitobi nusxasi, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan qilich va 10 to‘p buxoro gazlamalarini taqdim etadi [Vasilyev, 2014. 11]. Elchi kelishi munosabati bilan Turkiya sultoni Moliya vazirligiga elchining poytaxtda yashashi uchun zaruriy mablag‘ ajratilishi haqida farmon ham yuboriladi. Afsuski, elchining amirning sultonga yozgan xatining asl nusxasi arxiv hujjatlari ichida saqlanmagan. Ammo amir xatining mazmunini sultonni tanishtirish uchun tuzilgan memorandumdan topish mumkin edi.

Unda aytilishicha, Buxoro amiri nomidan yuborilgan elchi Qo‘qon xoniga 1848 yilda berilgan xuddi shunday amrni, shuningdek, sulton amirga buyruqni beradigan xatni va shu bilan birga Usmoniylar imperiyasi ramzlari sulton Tugra va boshqalar nomlari yozilgan bahosi 50 000 ming kurushdan kam bo‘lmagan qimmatbaxo qutini talab qilgan. Shuningdek, amir o‘z elchisini uzoq ushlab turmasligini, unga 30000 qurush yo‘l harajati uchun pul berib, uni ob-havo sovuq bo‘lishiga qaramasdan Trabzon orqali Eron chegarasigacha kuzatib qo‘yilishini iltimos qiladi. Shu bilan birga elchi o‘zini kuzatib borgan 2 nafar o‘g‘illariga ham 5 ming qurushdan pul berilishini ham so‘ragan [Turkiya arxivi hujjati, 1848. 12].

Buxoro-Turkiya tashqi munosabatlariga oid O‘zbekiston Milliy arxivining tarixiy davrga oid fondlarida ham muhim ma’lumotlar mavjud. Jumladan Buxoro Qushbegi devonxonasi fondidagi hujjatlardan birida 1867-1884 yillar uchun Buxoro amirligi va Usmoniylar imperiyasi fuqarolarining har ikki mamlakatga kirib-chiqishi va aniq manzillarda yashashlari to‘g‘risida tartib-qoidalar ko‘rsatilgan shartnoma shartlari izohlab berilgan. Ushbu hujjatda xorijga chiqish uchun

fuqarolarga zarur bo‘ladigan shaxsiy hujjatlar, ularga qo‘yiladigan talablar va majburiyatlar belgilab berilgan[O‘MA hujjati, 1867. 13]

Yana bir arxiv hujjati 1883 yil 18 yanvarda yozilgan Turkiyadagi (Konstantinopol) Rossiya elchixonasi boshlig‘ining ma’lumoti bo‘lib, unda 1862 yilda Turkiya bilan tuzilgan savdo shartnomasiga kiritilgan tarif bo‘yicha Usmoniylar imperiyasiga olib ketiladigan rus shoyi matolari uchun 8,76 piastr (turkiya tangasi) qiymatida boj to‘langanligi qayd etilgan [O‘MA hujjati, 1883. 14].

Shuningdek, hujjatda Turkiya bojxonasi tomonidan 1871 yilda Toshkentning Rossiya imperiyasiga qo‘shib olinganligi sababli, Rossiya imperiyasi bilan avval tuzilgan savdo-sotiq shartnomasi asosida Toshkent, Qo‘qon, Buxoro, Samarqand shaharlaridan olib ketiladigan shoyi matolariga ham rus shoyi matolari uchun belgilangan tariflar bo‘yicha boj to‘lovlari amalga oshirilganligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Xulosa qilib ayitgnda, Buxoro-Turkiya tashqi diplomatik aloqalari tarixini o‘rganishda o‘zaro elchilik missiyalari va rasmiy davlatlararo yozishmalar haqidagi arxiv hujjatlari muhim manbaviy asos hisoblanadi. Ushbu arxiv hujjatlari nafaqat davlatlarning diplomatik etika qoidalari, balki ularning tashqi siyosati, nufuzi va iqtisodiy munosabatlariga doir noyob ma’lumotlarni aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekistan Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2002. – B. 310.
2. Temur tuzuklari. Toshkent: O‘zbekiston. IMIU, 2014. – B.94.
3. Turkiya arxivi hujjati (NAT, dosya,723, gomlek.16. h.1199/ 1790.
Ramazon 22).
4. Gulyamov X.G. Iz istorii diplomaticheskix otnosheniy Rossii s Buxarskim xanstvom v XVIII v. – Tashkent: Fan, 1992. – S. 90.
5. O‘MA, F.I-125, r.2, yj.282, v.1.

6. Vasilyev A.D. Znamya i mech ot padishaxa. Politicheskiye i kulturnыe kontaktы xanstv Sentralnoy Azii i Osmanskoy imperii (seredina XVI - nachalo XX vv.). M.: Probel-2000, 2014. – S. 120.
7. Vasilyev A.D. Znamya i mech ot padishaxa... – S. 121-122.
8. Vasilyev A.D. Znamya i mech ot padishaxa... – S. 133.
9. Turkiya arxivi hujjati (BOA, HAT, dosya 175, gomlek 7622)
10. Turkiya arxivi hujjati (BOA, HR. MKT., dosya 4, gomlek 38)
11. Vasilyev A.D. Znamya i mech ot padishaxa ... – S. 141.
12. Turkiya arxiv hujjati (Belgelerle Osmanli-Tiirkistan iliskileri. - S.120-121)
13. O‘MA, F.I-126, r.1, yj. 1321, v.1-2.
14. O‘MA, F.I-1, r.11, yj. 286, v.2-3.

O‘RTA OSIYODA HADISSHUNOSLIK ILMINING RIVOJLANISHIDA IMOM AL-BUXORIYNING TUTGAN O‘RNI

Renessans ta’lim universiteti,
Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti,
PhD J.Sh Elmurotov
+998935281018
@odiljonmusayev

АННОТАЦИЯ. *В этой статье рассказывается о жизни и научном наследии Имама аль-Бухари, великого мыслителя, ученого и ученого хадисов, который внес вклад в нашу национальную культуру.*

ANNOTATION. *This article talks about the life and scientific heritage of Imam al-Bukhari, a great thinker, scholar and scholar of hadith, who has contributed to our national culture.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Аутентичные, Хадисы, Шедевры, Великая История, Малая История, Аль-Джаме ас-Сахих, Аль-Адаб Аль-Муфрад, Куня, Пожертвования, Большая Поддержка*

KEYWORDS: *Authentic, Hadith, Masterpieces, Great History, Small History, Al-Jame al-Sahih, Al-Adab Al-Mufrad, Kunya, Donations, Great Support.*

Ulug‘ mutafakkir, hadis ilmining sultoni, islom dini va uning madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shgan Imom al-Buxoriy hayot yo‘li, ilmiy merosi ham mustamlaka davrlardagi ta’qiqlarga qaramasdan o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Shu o‘rinda aytadigan bo‘lsak, Imom al-Buxoriy tijorat qilganda topgan daromadidan oyiga faqiru miskinlarga, ilm toliblariga sarflagan. Imom al-Buxoriyning щzi esa shaxsiy hayotida ortiqcha hashamat va sarf-xarajatlarga yo‘l qo‘ymagan.

Ma’lumki, Imom al-Buxoriy butun umr bo‘yi hadislarni to‘plash va tizimga solish bilan shug‘ullangan. Ularni sahih (to‘g‘ri, ishonchli) va g‘ayri sahih (xato, zaif)ga ajratgan. Bu ishni hadis roviylarining maishiy hayotlari, yashash joylari, tug‘ilgan va vafot etgan sanalari, bir-birlari bilan qilgan o‘zaro muloqotlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda olib borgan. Buxoriy hammasi bo‘lib 600 mingga yaqin hadis to‘plagan bo‘lib, shundan 100 ming “sahih” va 200 ming “g‘ayri sahih” hadisni yoddan aytib bera oladigan darajada bilgan. U o‘zining iqtidori, noyob qobiliyati, quvvai hofizasining nihoyatda kuchliligi bilan ilm ahllarini lol qoldira olgan. Hadis ilmiga o‘ta fidoyilik, aql-zakovatini baxshida etish Buxoriyga shon-sharaf keltirdi, uni islom dunyosining eng buyuk allomalaridan biri sifatida tanitdi[28].

Imom al-Buxoriy 20 dan ortiq kitob tasnif etgan. Ulardan ayrimlari bizgacha yetib kelgan. Uning “Al-Jome’ as-Sahih” nomli shoh asari, islom dini allomalarining dalolatiga ko‘ra, Qur’oni karimdan keyingi asosiy manba hisoblanadi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, Imom al-Buxoriyning ushbu asari islom olamida inson tomonidan yaratilgan, eng ishonchli diniy manbaa sifatida e’tirof etiladi desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

[28] Muhaddislar sultoni: Metod.-bibliogr. qo‘ll. / Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi; Tuzuvchi F.Ro‘ziyeva; Muharrir H..Mamatraimova; Mas’ul muharrir O.Qilichboyev.-T.: Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi. nashrièti, 2006.

Buxoriyning bu yirik asarida, muallifning o‘zi ham, boshqa olimlarning ta’kidlashicha ham, 600 000 hadisdan saralanib, sahihlari tanlab olingan va 16 yil davomida ta’lif etilgan. Asar bir qancha xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Buxoriy yaratgan “Al-Adab al-mufrad”–(“Adab durdonalari”) odob-axloq xususidagi eng sahih hadis- larni o‘zida mujassam etgan asari zo‘r tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to‘plamdir. Bu asarda 1322 hadis va xabar 644 bobda jamlangan bo‘lib, u Hindiston, Turkiya va Misrda bir necha bor chop etilgan. 1990-yilda esa olim Shamsiddin Boboxonov o‘girgan o‘zbekcha tarjimasi nashr etilgan.

Bilamizki, azaldan hadisnavislar o‘rtasida roviylarni ko‘pincha asl ismlari bilan emas, kunyalari bilan atash odat bo‘lgan. Ushbu holat esa o‘z navbatida roviylarni bir-biri bilan almashtirib yuborilishiga va xatoliklarga yo‘l qo‘yilishiga sabab bo‘lgan. Shu boisdan Imom al-Buxoriyning roviylarning kunyalariga bag‘ishlangan “Kitob al-kuna” (Kunyalar haqida kitob) nomli asari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu asar Hindistonda 1940-yilda chop etilgan.

Xususan, Buxoriyning “At-ta’rix al-kabiyr” (“Katta tarix”) kitobi esa Turkiyada 9 jildda nashr qilingan. Asar qo‘lyozmasining ba’zi qismlari Haydarobod kutubxonasida saqlanadi. Shuningdek, “At-ta’rix as-sag‘iyr” (“Kichik tarix”) ham hadis tarixiga oid qimmatli asar hisob- lanadi. Buxoriy yaratgan “Kitob al-favond” (“Foydali ashyolar haqida kitob”), “Al-Jomi’ al–kabiyr” (“Katta to‘plam”), “Xalq af’ol al-ibod” (“Alloh bandalari ishlarining tabiati”), “Al-musnad al-kabiyr” (“Katta tayanch”), “Kitob al-xiba” (“Xayr-ehson haqida kitob”) va boshqa asarlarining ba’zilari bizgacha yetib kelmagan, ba’zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma’lumotlar bor. Uning asarlari musulmon dunyosining barcha madrasa va dorilfununlarida payg‘ambar (as) sunnatlari bo‘yicha asosiy darslik, qo‘llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olimu ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar[29].

Shu o‘rinda qayd etish lozimki, mustaqillik tufayli Imom al-Buxoriyning abadiy merosi el-yurt bag‘riga qaytdi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha

[29] Ma‘naviyat yulduzlari. 64-bet.Toshkent. 2001

1225-yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori (1997-y. 29 apr.) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. 1998-yil 23-oktyabrda Samarqandda to‘y-tantanalari bo‘lib o‘tdi. Alloma abadiy qo‘nim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlog‘ida ulkan yodgorlik majmui ochildi.

Samarqanddagi me’moriy yodgorlik, ziyoratgoh, Imom al-Buxoriy dafn etilgan Chelak tumani Xartang qishlog‘idagi qabriston musulmon ahlining eng tabarruk va aziz ziyoratgohlaridan bo‘lib kelgan. XVI asrda Imom al-Buxoriy qabri ustiga mo‘jazgina maqbara, yoniga masjid qurilib, hovlisiga bir necha tup chinor ekilgan. Lekin sho‘ro tuzumi davridagi dahriylik siyosati tufayli bu maskan qarovsiz ahvolga tushib qolgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng Imom al-Buxoriy kabi butun umrini iymon va e’tiqod, ilm-ma’rifat, diyonat yo‘liga baxshida etgan ulug‘ zotlar xotiralarini e’zozlash, ular nomlari bilan bog‘liq joylarni obodonlashtirishga alohida e’tibor berila boshladi. Allomaning 1225-yilligini nishonlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida Imom al-Buxoriy maqbarasi o‘rnida maxsus yodgorlik majmui barpo etildi[30].

Ushbu majmua avvalambor ziyoratgoh, muqaddas qadamjo bo‘lish bilan birgalikda, kundalik, juma, hayit namozlari o‘qiladigan joy vazifasini ham o‘tamoqda. Shuningdek, bu yerda hadis ilmini o‘rganish va boshqa ma’rifiy ishlarni amalga oshirish ham ko‘zlangan. Majmua tarkibida kutubxona ham mavjud bo‘lib, unda Qur’oni Karimning noyob qo‘lyozmalari, turli nashrlari, Imom al-Buxoriy asarlarining nashrlari va boshqa kitoblar saqlanmoqda.

Shuningdek, majmuaning o‘ng tomonida mo‘jaz bir muzey ham tashkil etilgan. Ushbu muzeyda O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon islom olamida bir qancha muvaffaqiyatlarga erishganini ko‘rsatib turuvchi bir qancha eksponatlar ham joylashtirilgan. Xususan, 1992-yilda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovga Sa’udiya Arabistoni podshohi

[30] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2 tom. 279 –bet. Toshkent. 2001

Fahd ibn Abdulaziz janoblari tomonidan sovg‘a qilingan ka’bapo‘sh va xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurgan mehmonlarning sovg‘alari saqlanmoqda.

Xususan, ziyoratgohning barpo etilishi, undagi naqshinkor ko‘rinishlar nafaqat islom dinining balki o‘zbek millatining urf-odatlari, qadriyatlari mujassam qilib turganini ko‘rish mumkin. Shu o‘rinda aytadigan bo‘lsak, bilamizki, majmua to‘rg‘ri to‘rt burchak shaklida qurilgan bo‘lib, bu ham o‘ziga xos ma’noni beradi. Ya’ni Islom diniga e’tiqod qiluvchi jamiki insonlar tengdirlar.

Majmua tarkibida kutubxona va muzeyning mavjudligi ushbu maskanga tashrif buyuruvchi mamlakatimiz fuqarolari va xorijdan kelgan mexmonlar uchun ma’naviy sarchashma bo‘ladi desak aslo yanglishmagan bo‘lamiz.

Xulosa qilib aytganda Imom al-Buxoriy o‘zbek millati faxrlanib, g‘ururlanib maqtanadigan darajadagi hadis ilmining bilimdoni desak aslo yanglishmagan bo‘lamiz. Imom al-Buxoriyning bosib o‘tgan hayot yo‘lini hozirgi yosh avlodga namuna sifatida ko‘rsatilsa, mamlakatimiz rivoji yanada barqaror va bardavom bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Муҳаддислар султони: Метод.-библиогр. қўлл. / Алишер Навоий ном. Ўзбекистон Миллий к-наси; Тузувчи Ф.Рўзиева; Муҳаррир Ҳ..Маматраимова; Масъул муҳаррир О.Қиличбоев.-Т.: Алишер Навоий ном. Ўзбекистон Миллий к-наси. нашриѐти, 2006.
2. http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=588.0
3. Ma‟naviyat yulduzlari. 64-bet.Toshkent. 2001
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2 tom. 279 –bet. Toshkent. 2001
5. Islom ensiklopediya. 56-bet. Toshkent. 2004

SHAXS MADANIY SAVIYASI QAROR TOPISHINING TARIXIY VA IJTIMOIY RAKURSLARI

Soxibova Lola Joniboyevna
Ijtimoiy-siyosiy fanlar
kafedrasi dotsenti, PhD
Renessans ta’lim universiteti

O‘zbekiston
lolasoxibova63@gmail.com

ANNOTATSIYA. *Maqolada madaniy saviyasiga xos bo‘lgan progressiv xususiyatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan tendensiyalar va mazkur masalani jamiyatning ma’naviy xavfsizligini va ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlash jarayoniga xos bo‘lgan xususiyatlar konseptual o‘rganilgan.*

ANNOTATION. *The article conceptually studies the trends that can negatively affect the progressive characteristics inherent in the cultural level and the characteristics inherent in the process of ensuring the spiritual security and social development of society.*

Kalit so‘zlar: *madaniy saviya, yangi tipdagi shaxs madaniy saviyasi, ijtimoiy tendensiyalar, shaxs madaniy saviyasi tarixiy tahlili, modern jamiyatning paradigmasi progressi, shaxsning madaniy saviyasi pragmatik xarakteri.*

Keywords: *cultural level, new type of cultural level of the individual, social trends, historical analysis of the cultural level of the individual, paradigmatic progress of modern society, pragmatic nature of the cultural level of the individual.*

Jahonda XXI asrda kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Jamiyatda yuz berayotgan voqea va hodisalar yangi va yangi kasbiy va ijtimoiy bilim va qadriyatlarni qaror toptirmoqda, turfa g‘oyalarni vujudga keltirmoqda. Shu munosabat bilan shaxsning ulardan xabardorligi darajasini aniqlash zaruriyati yuzaga kelmoqda. Ikkinchi tomondan esa, shaxsni mazkur bilimlar, qadriyatlar va g‘oyalarni o‘zlashtirishdan “bezdiradigan”, chalg‘itadigan omillar ko‘paymoqda. Bu hol uning madaniy saviyasi va ma’naviy qiyofasini salbiy omillar ta’siridan himoyalash yo‘llarini topish masalasiga dolzarb tus bermoqda.

Jahon ilm-fanida shaxs madaniy saviyasi, ijtimoiy jarayonlarning unga ta’siri bilan bog‘liq muammolar turli aspektlarda qizg‘in tadqiq qilinmoqda. Yevropa va AQShning yetakchi universitetlarida amalga oshirilgan tadqiqotlarda zamonaviy jamiyatlarda shaxsning madaniy jihatdan rivojlanishi qonuniyatlarini ifodalashga intilishlar mavjud. Binobarin, umumjahon ilmiy taraqqiyot tendensiyalaridan ortda

qolmaslik uchun, bir tomondan, mamlakatimizda ham yuqoridagi ilmiy masalalar tahliliga bag‘ishlangan ijtimoiy-falsafiy izlanishlarni yo‘lga qo‘yish, ikkinchi tomondan, dunyo ilmiy maktablarida yaratilgan ta’limot va konsepsiyalarni atroflicha o‘rganish, ulardan zaruriy xulosalar chiqarish taqozo qilinmoqda.

Mamlakatimizda jamiyatda yuz berayotgan voqealar bilan shaxs madaniy saviyasi” o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lmoqda. Bir tomondan, yangilanayotgan O‘zbekistonda sodir bo‘layotgan ijtimoiy jarayonlar shaxs madaniy saviyasining asrlar davomida hukm surib kelgan xususiyatlariga goho ijobiy, goho esa salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Ikkinchi tomondan esa, shaxs madaniy saviyasini yuksaltirish orqali ijtimoiy jarayonlarga yanada progressiv tus berish zaruriyati tobora kuchaymoqda. Aynan shu sababdan Prezident SH. Mirziyoyev: “Yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umum-insoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir”[31],- degan edi. Shu munosabat bilan O‘zbekistonda ham jamiyat a’zolari madaniy saviyasining shakllanishi qonuniyatlarini o‘rganish zaruriyati paydo bo‘lmoqda.

XXI asrda zamonaviy sosium madaniy hayoti bemisl o‘zgardi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalari yangi va yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlar, tajribalar, bilimlar, g‘oyalar bilan boyib bormoqda. Shu munosabat bilan individuumning ushbu qadriyatlar, tajribalar va bilimlarni o‘zlashtirganligi darajasini “o‘lchab” ko‘rish, aniqlash zaruriyati tug‘ilmoqda. Buning uchun esa dasturilavvalda “madaniy saviya” tushunchasi insonning madaniy jihatdan rivojlanganligi ifodasi sifatida ko‘rib chiqilmog‘i lozim.

«Madaniy saviya” tushunchasining vujudga kelishi shaxsning moddiy va ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirilgani darajasini aniqlash zaruriyati bilan bog‘liq.[32] O‘tgan asrning 70-yillarida Rossiya Federasiyasidagi Ural sosiologiya maktabi vakillari madaniyat bilan bog‘liq empirik tadqiqotlarni yo‘lga qo‘ydilar. Bu

[31] Мирзиёев Ш.М. Демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш, барқарор ривожланишни таъминлаш – халқимиз учун муносиб ҳаёт даражасини яратишнинг кафолатидир.// Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ж.1.-Т.:Ўзбекистон, 2017.-Б.88-89.

[32] Қаранг: Коган Л.Н. Культурный уровень и культурная деятельность.// Исследование культурной деятельности и культурного уровня населения городов Урала.- Свердловск, 1979.- С. 3-13.

izlanishlarni amalga oshirgan olimlar tez orada qadriyatlarning shakllanishi qonuniyatlarini aniqlash, ayni paytda ularning inson tomonidan o‘zlashtirilishi jarayonini ilg‘ab olish uchun ilmiy muomalaga yangi tushuncha kiritish darkorligini tushunib yetdilar. Yuzaga kelgan ehtiyojga javoban oradan sal o‘tib L.Kogan tomonidan ilmiy muomalaga “madaniy saviya” tushunchasi kiritildi.[33]

Albatta, o‘tgan vaqt mobaynida inson madaniy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari mufassal tadqiq qilib borildi. Bu tadqiqotlar juz’an “madaniy saviya” tushunchasining mazmunini ham boyitish imkonini berdi. Bugungi kunda madaniy saviya deganda inson ijtimoiy qiyofasining o‘ta muhim alomatlaridan biri tushuniladi. *Madaniy saviya shaxsning milliy va umuminsoniy qadriyatlardan voqifligi meyorini, insoniyat tomonidan asrlar davomida to‘plangan bilim va g‘oyalarni o‘zlashtirganligi darajasini, mazkur qadriyatlar va bilimlar asosida faoliyat ko‘rsatish malakasini ifodalovchi tushunchadir.* Mazkur tushuncha, “bir tomondan, insonning jamiyatda mavjud bo‘lgan, ajdodlar va avlodlar tomonidan yaratilgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish darajasini ifodalasa, ikkinchi tomondan, insonning ongi bilan faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikning mustahkamligini xarakterlaydi. Uchinchidan, madaniy saviya inson ma’naviy-intelektual faoliyatining o‘ziga xos shakli, ko‘rinishi va uning natijasidir.”[34]

Ta’kidlash zarurki, tushuncha *mazmuni* ancha chuqur, boy va murakkab. Bu borada mazkur muammoni maxsus tadqiq qilgan rus olimi A. Jigunovning maqolasida bayon qilingan fikrlarga murojaat etish zarur, deb hisoblaymiz.[35] Uning fikriga ko‘ra, *shaxs madaniy saviyasining ikki jihati mavjud: maxsus-madaniy va umummadaniy jihatlar*. Shaxs madaniy saviyasini ushbu ikki jihat birligi sifatida tasavvur qilsakkina uni yaxlit tizim sifatida tadqiq qilish imkoni yuzaga keladi. Maxsus-madaniy jihat shaxsning ta’limiy va malakaviy parametrlari, ilmiy-texnik salohiyati, ijodiy imkoniyatlari, hayoti va mehnat faoliyati davomida erishgan yutuqlari bilan tavsiflanadi. Shaxs madaniy saviyasining maxsus-madaniy darajasi

[33] Қаранг: Коган Л.Н. Культурный уровень и культурная деятельность.// Исследование культурной деятельности и культурного уровня населения городов Урала.- Свердловск, 1979.- С. 3-13.
[34] Чориев А.Ч. Инсон фалсафаси. Мустақил шахс.Иккинчи китоб.- Т.: Chinor ENK, 2002.- Б.220.
[35] Жигулин А.А. Общекультурные параметры личности.// Гуманитарные научные исследования, 2012, № 3.

jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlardan kelib chiqib aniqlanmog‘i va baholanmog‘i darkor.[36] Chunki shaxs muayyan ta’lim yo‘nalishini, egallamoqchi bo‘lgan bilimlari doirasini mavjud iqtisodiy shart-sharoitlardan kelib chiqib belgilaydi. Uning ilmiy-texnik salohiyati, uni ro‘yobga chiqarish meyori ham jamiyatda qaror topgan ijtimoiy shart-sharoit va iqtisodiy vaziyatga monanddir.

Shaxs madaniy saviyasining umummadaniy jihati esa uning insoniyat sivilizasiyasi yutuqlaridan voqifligi, ma’naviy madaniyat mahsullaridan xabardorligi holati, madaniy faoliyatining ahvoli, uning mayllari, ehtiyoj va manfaatlari xarakteri, ahloqiy qiyofasining o‘ziga xos xususiyatlaridan tarkib topadi.[37] Umummadaniy elementlarning ahamiyati ayniqsa beqiyos, chunki insoniyat sivilizasiyasi davomida erishilgan yutuqlarni o‘zlashtirmagan, ma’naviy madaniyatning noyob durdonalaridan xabardor bo‘lmagan, xususan adabiyot, teatr, kinematografiya, muzey, musiqa va qo‘shiqchilikka dahldor asarlarni bilmagan shaxsni madaniyatli deyish qiyin. Asrlar davomida shakllangan axloqiy qoidalar, umumijtimoiy ehtiyoj va manfaatlar, insonparvar maqsad-muddaolardan xabardorlik xususida ham shunday deyish mumkin. Madaniy saviya umummadaniy jihati rivoji katta ijtimoiy aha-miyatga ega. Chunki uning rivoji oxir-oqibatda jamiyat iqtisodiy potensi-allari yuksalishiga olib keladi, ijtimoiy sohadagi aloqalarning barqaror kasb etishiga, umumijtimoiy ijtimoiy-ma’naviy muhitning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Коган Л.Н. Культурній уровен и культурнауа деуательность.// Исллedование культурной деуатель-ности и культурного уровнуа населениуа городов Урала.- Свердловск, 1979.- С. 3-13.
2. Чориев А.Ч. Инсон фалсафаси. Мустақил шахс.Иккинчи китоб.- Т.: Chinor ENK, 2002.- Б.220.
3. Қаранг: Расмий статистика. Демографиуа ва меһнат. Статистик жадваллар.// https://stat.uz/uz/statinfo.

[36] Жигулин А.А. Общекультурные параметры личности.// Гуманитарные научные исследования, 2012, № 3.
[37] Қаранг: ўша ерда.

4. Ахборот-ресурс ва ахборот-кутубхона марказлари// https://stat.uz/uz/statinfo/ijtimoiy-soha/statistik-jadvallar-sotsfera.
5. Oteuliyev A. O‘zbekiston Respublikasida innovasion faoliyatni rivojlantirish konsepsiyasi asoslari.// https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-economy-uz/2859.
6. Чориев А.Ч. Инсон фалсафаси. Мустақил шахс. Иккинчи китоб.- Т.: Chinor ENK, 2002.- Б.224.
7. Сохибова, Л. Ж. (2021). Культурный уровень личности в узбекистане: диалектика стабильности и изменений. *Ответственный редактор*, 45.
8. Сохибова, Л. (2023). Шахс маданий савияси–маданий ривожланганлик ифодаси. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/2), 220-224.

ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ ГНОСЕОЛОГИК МОТИВАЦИЯСИНИ ОШИРИШ

Худойқулова Дилрабо Шодмоновна
Ренессанс таълим университети катта ўқитувчиси
+998935281018
@odiljonmusayev

Аннотация. *Ушбу мақолада талабалар билиш мотивациясини ошириш таълим жараёнининг муҳим қисми эканлиги, талабаларни гносеологик мотивациясини оширишда фалсафа фанининг ўрни, таълим жараёнида инновацион таълим технологияларидан фойдаланиш талабаларнинг шахсий ривожланишига, келажакда етук мутахассис сифатида жамиятга фойдали бўлишига ҳам хизмат қилиши, масъулиятли кадрлар ҳар қандай мамлакатнинг барқарор тараққиёти учун муҳим эканлиги қайд этилган.*

Калит сўзлар: *таълим, талаба, мотив, жараён, касб, инновация, фаоллик, фаолият, сифат, натижа:*

Аннотация. *В данной статье отмечается, что повышение мотивации студентов к обучению является важной частью образовательного процесса, роль философии в увеличении гносеологической мотивации студентов, использование инновационных образовательных технологий в процессе обучения способствует личностному развитию студентов и будет полезно обществу в будущем как квалифицированных специалистов, а также подчеркивается, что ответственные кадры являются важными для стабильного развития любой страны.*

Ключевые слова: *образование, студент, мотивация, процесс, профессия, инновация, активность, деятельность, качество, результат:*

Инновацион таълим технологиялари асосида талабаларнинг гносеологик мотивациясини ошириш таълимда янги ва самарали усулларни қўллаш орқали уларнинг билимга бўлган қизиқишини ва иштиёқини кучайтиришга йўналтирилган тадбирлардан иборат.

Таълим жараёнида Фалсафа фани муҳим ўрин тутадиган фан бўлиб, у талабаларда дунёқарашини кенгайтириш, ақлли ва танқидий фикрлашни шакллантириш, одамийликнинг маънавий-ахлоқий жиҳатларини ривожлантириш ва илмга муносабатни аниқлаштиришга қаратилган. Фалсафа талабаларга ҳаёт ва инсон табиати ҳақидаги аниқ тушунчаларни шакллантириш ва уларга ҳақиқатни топишда қўлланадиган асосий мантиқий ва методик инструментларни ўргатишга ёрдам беради.

Фалсафа фанидан таълим беришда талабаларни фалсафий ўйлашга, ижодий ва танқидий фикрлашга, шунингдек, маънавий ва ахлоқий қадриятларни тушунишга ўргатиш тақозо қилинади. Бу мақсадга эришиш учун турли инновацион таълим технологиялари ва ёндашувлар қўлланилади.

Фалсафа фанидан таълим беришнинг асосий принциплари:

1. **Танқидий фикрлашни рағбатлантириш:** фалсафа фанидан таълим беришда муҳим принциплардан бири — талабаларда танқидий фикрлашни шакллантиришдир. Фалсафий мавзулар кўп ҳолларда анъанавий

тушунчаларни синаш ва уларни янгилашга қаратилган бўлади. Талабаларга қарашларини танқидий таҳлил қилиш, ҳар қандай масалага нисбатан ўйлаш ва шубҳа қилишни ўргатиш фалсафа фанининг муҳим вазифаларидан биридир.

2. **Шахсий фикрлаш ва мустақил ўйлаш:** фалсафа фанидан таълим бериш талабаларнинг шахсий фикрларини ривожлантиришга кўмаклашади. Бу фан инсоннинг ҳаёт, ахлоқ ва табиатга нисбатан турли қарашларини тушунишни талаб қилади. Таълим жараёнида талабалар мустақил фикрлашга ва ўзларининг қарашларини ифода этишга ўрганишади.

3. **Илмга бўлган қизиқиш ва маънавий ривож:** фалсафа фанидан таълим бериш билимга, илмга бўлган қизиқишни ва ижтимоий аҳамиятни оширишга қаратилган. Таълим жараёнида фалсафий назарияларнинг ҳаётий аҳамияти ва уларни ҳаётда қўллаш орқали, талабаларнинг маънавий ривожи таъминланади. Бу фан инсонга илмга бўлган муҳаббатни, ҳаётга маънавий ва ахлоқий муносабатни ўргатади.

Фалсафа фанидан таълим беришда:

1. Дебатлар ва муҳокамалар**:** фалсафий концепциялар, назариялар ва қарорлар ҳақида олиб борилган муҳокамалар талабаларнинг фикрлашини ривожлантиради. Дебатлар орқали талабалар турли нуқтаи назарларни ўрганишади ва ўзаро фикр алмашадилар, бу эса танқидий фикрлаш ва баҳс қилиш қобилиятларини оширади.

2. Жумбоқли вазиятга асосланган таълим **(**Puzzling situation learning**):** бунда талабаларга фалсафий муаммолар ва назарий масалаларни ҳал қилишни ўргатади ҳамда талабаларни амалий ва концептуал тафаккурга ўргатишга қаратилган бўлиб, уларнинг муаммоларни фалсафий нуқтаи назардан ҳал қилиш қобилиятини оширади.

3. **Таълимда интерактив методлар:** интерактив таълим методлари талабаларни ўқиш жараёнига фаол жалб этишга қаратилган. Масалан, **онлайн форумлар**, **савол-жавоб сессиялари**, **викториналар** ва **группадаги муҳокамалар** талабаларнинг фалсафий ва гносеологик мотивациясини

оширади. Бу методлар, талабаларни ўзаро ўқитиш ва ўз билимларини такрорлашга ёрдам беради.

4. **Маълумот беришга асосланган таълим ва симуляциялар:** назарий м**аълумот беришга асосланган таълим** талабаларнинг ўқишга бўлган қизиқишини оширишга қаратилган. **Виртуал симуляциялар** ва **ўйинлар** орқали фалсафий муаммолар ва таълим мавзуларини кўрсатиш талабаларга ўйлаш, таълимга янги ва интерактив ёндашувлар билан яқинлашишга имкон беради.

Фалсафа фанидан таълим беришда, фақат илмий билимларни бериш эмас, балки талабаларга ҳаётга, инсон табиатига ва умумий қийматларга мантиқий, танқидий ва ахлоқий муносабатларини шакллантиришни мақсад қилади. Бу фан таълим жараёнида талабаларни шахсан ривожлантиришга, уларнинг ақлли ва мустақил фикрлашини рағбатлантиришга ёрдам беради.

Фалсафа фанидан таълим беришга янгича ёндашув замон талабларига жавоб берадиган, талабаларнинг танқидий ва ижодий фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришга йўналтирилган янги, замонавий методлар ва технологияларни қўллашни назарда тутади. Бугунги кунда фалсафа фанини ўқитиш нафақат классик назарий материалларни ёдлаш, балки талабаларни илмий, маънавий ва ахлоқий жиҳатдан шакллантириш, уларга ҳаётий ва аниқ вазиятларда фалсафий билимларни қўллашга ёрдам беришни мақсад қилади. Бунинг учун таълимнинг янгича концептуал, педагогик ва методик усуллари талаб этилади .

Фалсафа фанини бошқа фанлар билан интеграция қилиш (масалан, психология, социология, санъат, тарих, этика) талабаларга фалсафий билимларни кенг контекстда тушунишга ёрдам беради. Бу ёндашув талабаларнинг билимларни мураккаб ва холистик тушунишини таъминлайди.

Инновацион таълим технологияларини қўллаш талабаларга янги нуқтаи назарлардан ёндашишга ёрдам беради. Фалсафа фанидан таълим беришда талабаларнинг фикрлаш ва баҳслаш қобилиятларини шакллантириш муҳим аҳамиятга эга. Фалсафа фанидан таълим беришга янгича ёндашув,

талабаларнинг интеллектуал ва ахлоқий ривожини рағбатлантиришга, шу билан бирга, уларнинг маънавий оламининг шаклланишини таъминлашга қаратилган. Замонавий таълим технологиялари, интерфаол ўқитиш, инновацион методикалар ва фалсафий таълимни турли дисциплиналар билан интеграция қилиш орқали талабаларнинг гносеологик мотивацияси, танқидий фикрлаш қобилияти ва ижодий фаоллиги ошади.

Фалсафа фанидан инновацион таълим технологияларини қўллаш асосида талабаларнинг гносеологик мотивациясини ошириш, таълим жараёнини замонавий ва самарали усуллар билан мукаммаллаштиришнинг муҳим қадамидир. Инновацион таълим технологиялари талабаларнинг билимга бўлган интиллишини рағбатлантириш, уларнинг танқидий фикрлаш қобилиятларини ривожлантириш ва таълимнинг мазмунли, мантиқий ва мақсадга йўналтирилган бўлишини таъминлайди.

Интерактив таълим технологиялари **орқали талабаларга фалсафий концепциялар ва назарияларни** муҳокама қилиш**,** видеолекциялар **ва** онлайн форумлард**а талқин этиш имкониятини беради. Бу технологиялар талабаларнинг билимга қизиқишини оширади, уларнинг фикрий фаоллигини кучайтиради ва билимга интилганликни рағбатлантиради.**

Жумбоқли вазиятга асосланган таълим (Puzzling situation learning) технологияси, талабаларга мураккаб фалсафий муаммоларни ёки воқеаларни ўрганишга имкон яратишга ёрдам беради. Бу технология талабаларнинг фалсафий билимларни ҳаётга қўллаш қобилиятини оширади ва уларга амалиётда эътиборли ва мантиқий ёндошувларни ўрганишга ёрдам беради. Фалсафий парадокслар ёки назарий муаммолар бўйича масалаларни ишлаб чиқиш ва талабаларга уларни ҳал қилиш йўлларини излаш. Талабалар, ўз билимларини ҳар хил назарий рамкаларда қўллашга ҳаракат қилишади.

Гносеологик мотивация, билимнинг нақадар ҳақиқий ва фойдали эканини тушунишга қаратилган бўлиб, цифровий ресурслар **ва** онлайн дарслар орқали билим олиш жараёнини мувофиқлаштириш имконини беради.

Интернет ва рақамли платформалар талабаларга илмий, фалсафий ва гносеологик маърузаларни тўплаш ва тадқиқ қилишга йўналтиришга ёрдам беради. Рақамли китоблар **ва** онлайн илмий журналлар орқали талабалар фалсафий муаммоларни излаш ва таҳлил қилиш имкониятига эга бўладилар. Бу уларнинг билимга бўлган қизиқишини кучайтиришга ёрдам беради. Мобил иловалар ва онлайн платформалар орқали талабалар фалсафа фанини ўрганиш ва ўз гносеологик мотивацияларини ошириш учун қўллашлари мумкин. Бу технологиялар талабаларга ўқишни ҳар қандай жой ва вақтда ташкил қилишга, материалларни излаш ва чуқур тушунишга ёрдам беради.

Инновацион таълим технологиялари таълим жараёнини замонавий, динамик ва талабларга мос ҳолга келтиришга ёрдам беради. Бу, талабаларнинг фаол иштирокини таъминлаш, уларнинг мустақиллик ва ижодий қобилиятларини ривожлантириш, шунингдек, мукаммал таълимни таъминлаш учун муҳимдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016
2. Абатов Ж.Б. Талабаларда креатив фикрлашни ривожлантиришнинг педагогик технологиясини такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Нукус, 2025
3. Имомова У.М. Талабаларда инновацион технологиялар асосида когнитив компетенцияларни шакллантириш методикаси // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Чирчиқ, 2023.
4. Имомова У.М. Талабаларда инновацион технологиялар асосида когнитив компетенцияларни шакллантириш методикаси // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертатсияси автореферати. – Чирчиқ, 2023.

ETNIK ZIDDIYATLARNING JAMIYAT BARQARORLIGI VA TARAQQIYOTIGA SALBIY TA'SIRI

Olmos Toshev – MTTDMQTMOI
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi
katta o'qituvchisi.
+998935281018
@odiljonmusayev

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Turli ijtimoiy-siyosiy asosdagi etnik ziddiyatlar, millatchilik tahdidiga samarali qarshi kurash olib borish bugungi kunda global darajadagi muammoga aylanganligi tahlil etilgan. Shuningdek, unda ayrim mamlakatlar yoki xududlarda millatlararo ziddiyalarning keskinlashuvi jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning zaiflashuviga hamda ekstremistik va millatchilik xarakterdagi jarayonlarining faollashuviga olib kelishi mumkinligi ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *etnik ziddiyat, millatchilik, etnik ixtiloflar, millatlararo totuvlik, millatlararo munosabatlar, separatizm, terrorizm, ekstremizm.*

Негативное влияние межнациональных конфликтов на стабилност и развитие общества

Аннотация. *В данной стате анализируется тот факт, что эффективная борба с угрозой национализма и этническими конфликтами на различной социально-политической основе стала сегодня глобалной проблемой. Также выявляется, что обострение межетнических конфликтов в отделных странах или регионах может привести к ослаблению социалной и политической стабилности в общэстве и активизатсии экстремистских и националистических процессов.*

Ключевые слова: *этнический конфликт, национализм, этнические различия, межетническое согласие, межетнические отношения, сепаратизм, терроризм, экстремизм.*

The negative impact of ethnic conflicts on the stability and development of society

Annotation. *This article analyzes the fact that effectively combating the threat of nationalism and ethnic conflicts on various socio-political grounds has become a*

global problem today. It is also revealed that the aggravation of interethnic conflicts in certain countries or regions can lead to a weakening of social and political stability in society and the intensification of extremist and nationalist processes.

Key words: *ethnic conflict, nationalism, ethnic differences, interethnic harmony, interethnic relations, separatism, terrorism, extremism.*

XVI—XX asrlardagi siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayot, xalqlar tengsizligi, mustamlaka davlatlarning talon-toroj qilinishi, ularning jismoniy va ruhiy ezilishi tobora ortib, kuchayib borishi millatchilikning doimiy va kuchli ijtimoiy oqimga aylanishiga sabab bo‘ldi. Bu oqim XXI asrga kelib ham o‘z kuchi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’sirchanligini saqlab qoldi.

Insoniyat taraqqiyotining tarixiy tajribasi millatlararo munosabatlarning holati va terrorchilikning namoyon bo‘lishi darajasi o‘rtasida chuqur aloqadorlik borligini tasdiqlamoqda. Bu masala ayniqsa ko‘pmillatli dalatlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy taraqqiyotning o‘zgarishi, bir tuzumning o‘rniga boshqasining kelishi, xususan, sobiq totalitar tuzumdan voz kechish hamda yangi demokratik tuzumga qadam qo‘yish, ijtimoiy hayotning turli sohalarida tub islohotlarni amalga oshirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini boshdan kechirayotgan ayrim davlatlarda millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi, buning natijasida esa ommaviy noroziliklar, huquqbuzarliklar, halqlar o‘rtasidagi ishonchsizlik, adovat, ekstremistik kayfiyatlarning o‘sib borishi va uning o‘ta chet ko‘rinishi – terrorchilikka olib kelishini kuzatish mumkin.

Turli ijtimoiy-siyosiy asosdagi etnik ziddiyatlar, millatchilik tahdidiga samarali qarshi kurash olib borish bugungi kunda global darajadagi muammoga aylangan. Bu muammo ayniqsa, MDH doirasidagi respublikalar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugun millat tushunchasi, millat omili barcha ijtimoiy va siyosiy munosabatlar tizimida yetakchi omillardan biri darajasiga aylanib bormoqda. Millat bugun insonning o‘zini-o‘zi anglashi va rivojlanishining yuksak mezonlari darajasiga, shuningdek, davlatlararo ijtimoiy va siyosiy munosabatlarga o‘zining kuchli ta’sirini o‘tkazmoqda.

Barchamizga ma’lumki, dunyoda qancha millat, xalq bo‘lsa, har birining o‘ziga xos fe’li, urf-odat va fazilatlari bor. Asrlar davomida turli-tuman din, madaniyat va turmush tarziga ega bo‘lgan xalqlar birgalikda yashab kelayotgan O‘zbekiston ham buning yorqin tasdig‘idir. Qadim zamonlardan beri yurtimizda zardushtiylik, buddaviylik, yahudiylik, nasroniylik kabi turli din va millat vakillari mavjud bo‘lgan. Aynan shu zaminda yuz yillar davomida dunyo madaniyatlarining katta miqyosdagi bir-birini boyitish jarayoni ro‘y bergan.

Keyingi paytlarda “millatlararo totuvlik” va “millatlararo munosabatlar” mavzularida deyarli har kuni matbuotda gapirilmoqda, ko‘rsatuvlar olib borilmoqda. Buning sabablaridan biri, millatlararo munosabatlar mohiyat va mazmun jihatdan juda serqirra va teran mazmunga ega ekanligidadir.

Shu narsani e’tiborda tutish kerakki, millatlararo totuvlik — umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omildir[1]. Muayyan mamlakatga nom bergan (titul) millat bilan unda yashaydigan boshqa xalqlar o‘rtasida hamjihatlik bo‘lishi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Insoniyat bino bo‘lgandan buyon bu masalalar bilan shug‘ullanib keladi. Hozirgi davrda millatlararo totuvlik va munosabatlar tushunchasining falsafiy mazmuni to‘g‘risida ko‘plab faylasuf, tarixchi, sotsiolog va shu kabi boshqa soha vakillari tomonidan ta’rif berilgan bo‘lib, shulardan ba’zi birlarini tahlil qilib o‘tmoqchimiz.

Jumladan, “Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati”da “millatlararo totuvlik” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Millatlararo totuvlik – millatlararo ahillik, xalqaro do‘stlik, milliy g‘oyaning asosiy g‘oyalaridan biri, muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha”[2].

Xorijiy so‘zlar lug‘atida esa, millatlararo munosabatlar tushunchasining ma’nolaridan birini sabr-toqat, kimgadir, nimagadir hurmat-ehtiromda bo‘lish deb talqin etilgan. Shuningdek, Oksford lug‘atida millatlararo totuvlik (tolerantlik)ni “shaxs yoki buyumni noroziliksiz yoki aralashuvsiz qabul qilishga tayyorlik va qobillik” deb ta’riflanadi[3].

Rossiyada nashr etilgan sosiologik lug‘atda esa, millatlararo totuvlikka quyidagicha ta’rif berilgan:

Yot odamning turmush tarzi, xulqi, urf-odati, hissiyoti, fikri, g‘oyasi, e’tiqodiga chidamlilik bilan yondashuv;

noqulay omillarni sezmay qolish natijasida sodir bo‘lgan hodisalarga bag‘rikenglik bilan yondashuv;

noqulay, nomaqbul hissiy omillar ta’siriga ham chidam bilan yondashuv[4].

Yana bir taniqli olim Mark Notturno bu tushunchani quyidagicha izohlaydi: “millatlararo totuvlik — o‘zga hayot tarzi, nuqtayi nazar, g‘oyalar va e’tiqodlarga toqatlilik, bag‘rikenglikdir”[5].

Aytish joizki, millatlararo munosabatlar turli ziddiyatlar sharoitida atrofdagilarga zarar yetkazmagan holda o‘zini-o‘zi qaror toptirishdir. Millatlararo hamjihatlik his-tuyg‘ularni jilovlaydigan ongli sergak nuqtayi nazardir.Ma’lumki, o‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilligida sodir bo‘lgan geosiyosiy o‘zgarishlar (Sobiq ittifoqning parchalanishi, mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi, dunyoviy hukmronlik uchun kurashning avj olishi kabilar) bunday ko‘rinishidagi harakatlar faollashgan.

Bunday jarayonlar siyosiy-mafkuraviy sohaga ham katta ta’sir ko‘rsatdi, mafkuraviy vakuum xosil bo‘ldi, vatanparvarlik, burch, baynalmilallik, axloq kabi ijtimoiy hayotni mustahkamlovchi asoslar yemirildi. Ekstremizm, millatchilik, terrorizmni vujudga keltiruvchi omillar qayta tiklandi. Bunday determinantlarga jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi, siyosiy kurashning keskinlashuvi, ishsizlikning o‘sib borishi va fuqarolarning ijtimoiy ximoyalanmaganligi, jamiyat hayotining turli sohalari va davlat tizimi darajalarida tarqalgan huquqiy nigilizm, separatizm tendensiyalarining kuchayishi, qonunchilikdagi kamchiliklar va boshqalarni kiritish mumkin.

Millatchilikning yana bir jihati uning manfaatdor kishilar tomonidan sun’iy yoki real mavjud bo‘lgan tahdidga qarshi kurash olib borish maqsadida alohida millat vakillarini uyushtirish va safarbar etish imkoniyatini yaratib berishidadir. Bunday holat alohida individlar agressivligini to‘plash, millatchilik ruhidagi shiorlar

ostida birlashtirish, safarbar etish imkoniyatini tug‘dirib, uni u yoki bu tahlikali shaklida namoyish etishga yetaklaydi.Millatchilikka ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarni vujudga keltirishning juda kuchli determinanti sifatida murojaat qilish uning ta’sir doirasi va makonini sezilarli darajada kengaytirish, xorijdagi milliy diasporalarning turli shakllardagi ishtirokini ta’minlash (chunonchi: mafkuraviy, moddiy, texnik, moliyaviy va boshqa ko‘mak ko‘rsatish; millatchilarga maqbul keladigan ijtimoiy fikrni shakllantirish; zaruriyat to‘g‘ilsa davlat tuzulmalari, xukumat, xalqaro tashkilotlarga ta’sir o‘tkazish va x.q.) orqali bitta davlat chegarasidan chiqib ketishigacha olib kelishi mumkin.

Millatchilik va terrorchilikning umumiyligi tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan tasdiqlangan, ikkalasi ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sharoitlar yomonlashganda, talafot, inqiroz va bir tuzumdan ikkinchisiga o‘tish sharoitida vujudga keladi. Aynan shunday holat bugungi kunda jahonning qator mamlakatlarida (Angliya, Siriya, Rossiya, Ukraina, Moldaviya, Ozarbayjon va x.q) kuzatilmoqda.Millatchilik terrorchiligidan milliy (davlat) va xalqaro darajadagi siyosiy maqsadlarda foydalanishning zamonaviy sharoitlari millatchilik mohiyati hamda uni tashkillashtirish usullarini o‘zgartirib yubordi. XX asr ikkinchi yarmida millatchilik terrorizmida sodir bo‘lgan bunday o‘zgarishlar qator tendensiyalarda o‘z ifodasini topgan. Fikrimizcha, ushbu tendensiyalarni belgilash nafaqat millatchilik terrorizmning insoniyat taraqqiyotiga global tahdid soluvchi rolini asoslash, balki unga qarshi kurash olib borishning ilmiy asoslangan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish uchun ham muhimdir.Millatchilik terrorizmi rivojlanishining muhim tendensiyalaridan biri - uning xalqaro munosabatlar, xalqaro va milliy xavfsizlik, davlatlar konstitutsiyaviy tuzumi, fuqarolar haq-huquqlariga nisbatan ijtimoiy xavfining o‘sib borishidir va bu birinchidan, bu jahonning turli davlatlarida ildiz otgan va jahon siyosati, ayrim mamlakatlar siyosiy amaliyotiga millatchilik ekstremizmi va siyosiy terrorizmning kirib borishi va faollashuviga zamin bo‘ladi. O‘tgan asrning o‘rtalari va oxiriga kelib kishilik jamiyatining barcha sohalarida ziddiyatogen salohiyat yig‘ilib qoldi. Aynan shu salohiyat bugungi kunga kelib siyosiy zo‘ravonlikning o‘ziga xos shakllarini vujudga keltirishga sabab bo‘lgan.

Ular qatorida millatchilik va millatchilik separatizmi, millatchilik terrorchiligi alohida o‘rin tutadi.

Ikkinchidan, bu taraqqiy etadigan jarayondir hamda u aholi turli guruh va qatlamlarini (eng avvalo, millatchilik ekstremizmi, diniy-siyosiy, neofashizm asosida) dunyoning asosiy qit’alari va ayniqsa Yaqin va O‘rta Sharq, Lotin Amerika, Shimoliy Amerika, Janubiy-Sharqiy Osiyo, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida kechayotgan siyosiy ekstremizmning turli oqimlarga jalb etish bilan tavsiflanadi.

Uchinchidan, siyosiy jihatdan “oqlangan” zo‘ravonlikning xavfli shakl va usullarga murojaat qilish, millatchilik harakatlarini amalga oshirishda kuch ishlatish, vayrongarchiliklar, odamlarni vahshiyona o‘ldirish va x.k.

To‘rtinchidan,turli mafkuraviy-siyosiy yo‘nalishdagi millatchilik ruhdagi tashkilotlar faoliyatining alohida millat, elatlarga qarshi qaratilgan daxshatli ta’siri tomon barqaror o‘zgarishi[6].Bugungi kunda, MDH davlatlari ichki va tashqi xavfsizligiga nisbatan millatchilik ijtimoiy xavfining o‘sib borishini kuzatish mumkin.

Millatchilik terrorizmi siyosiy xokimiyat uchun kurash olib borish, uni qo‘lga kiritish va saqlash kabi siyosiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida aynan millatchilik kayfiyatlar keng ildiz otgan va tarqalgan, konfessiyalararo ziddiyatlar kuchaygan, jamiyat kriminagen darajasi yuqori bo‘lgan, jinoyatchilik rivojlangan mamlakatlarda namoyon bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, millatchilik terrorizmi o‘z amaliyotida terrorchilik usullariga murojaat qilish orqali o‘z siyosiy raqiblarga, xokimiyat idoralari yoki ularning vakillariga bosim o‘tkazish, turli klan, mafiya tizimlari bilan hisob-kitob qilish va ta’sir ko‘rsatishga intiladi.

Zamonaviy millatchilik terrorizmning muhim tendensiyadan biri - uning ijtimoiy asosining kengayib borishidir.

Millatchilik terrorizmi jahonning qaysi mamlakatida bo‘lishidan qat’i nazar aholi turli qatlam vakillarini uyushtirishga intilishini namoyon qilib, ularda millatchilik ruhdagi siyosiy maqsadlarni qo‘llab-quvvatlovchi kayfiyatlarni kuchaytirish, bu maqsadlarga erishish yo‘lidagi usul va vositalarini tanlashdagi uyg‘unlikka erishishga muvaffaq bo‘lmoqda.

Millatchilikning kelib chiqishi va evolyutsiyasini tadqiq etuvchi ko‘pchilik xorijlik olimlar fikricha, turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlardan iborat bo‘lgan jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti millatchilik aktlarida ishtirok etishga tayyor turgan, u yoki bu millat ustuvorligini, alohidalikni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy guruhlar soni o‘sib bormoqda. Ijtimoiy, iqtisodiy muammolar ko‘payib borishi esa, o‘z navbatida millatchilikning ijtimoiy asosini kengaytirib boradi.

Siyosiy beqarorlik yuksak darajada bo‘lgan hamda siyosiy ekstremizmi tarqalib borayotgan ayrim xudud va mamlakatlarda millatchilik terrorizmi ijtimoiy asosining kengayib borishi millatchilik ruhdagi terrorchilik tashkilotlari aktiv faoliyatining zaruriy shartidir.

Millatchilik terrorchilik ijtimoiy asosining muhim vazifalaridan biri alohida millat vakillaridan iborat bo‘lgan guruhlar, aholi qatlamlari tomonidan terrorchilik faoliyatini siyosiy, axloqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashishiga erishish, millatchilik g‘oyalariga sodiq kishilar bilan qatorlarini to‘ldirish, har qanday yordam ko‘rsatishga tayyor turishdan iborat.

Yuqorida ko‘rsatilgan ushbu tendensiyalar turli xarakterdagi millatchilik namoyon bo‘lishining shakllarida (namoyish va chiqishlar, targ‘ibot ishlari, uning legitimlik darajasini oqlash va shu tufayli ayrim xalq, millat, elat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, millatchilik ruhdagi yoki millatchilik terrorchilik ruhdagi tashkilotlar infrastrukturasini shakllantirishning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, texnik imkoniyatlarini kengaytirish va x.q.) ifodalanadi.

Fikrimizcha, millatchilik terrorizmi ijtimoiy asosining kengayib borishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- jahonning turli mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy-siyosiy ziddiyatlarning kengayishi asosida ushbu ijtimoiy-siyosiy kurashga yetarli darajada siyosiy ong va madaniyatga ega bo‘lmagan, siyosiy ekstremizm ta’siriga moyil bo‘lgan qatlam va guruhlar vakillarining keng jalb qilinishi;

- ayrim mamlakatlar yoki xududlarda millatlararo ziddiyalarning keskinlashuvi, ekstremistik va separatik xarakterdagi millatchilik jarayonlarining faollashuvi, ularga aholi keng qatlamlarining jalb qilinishi;

- turli xududlarda konfessiyalararo ziddiyatlarning tarqalishi, diniy va diniy-siyosiy ekstremizmning rivoji (avvalo islom xarakterdagi), ushbu asosda keng xalq ommasi ishtirokida davlatlararo va davlat ichidagi barqaror xarakterdagi siyosiy to‘qnashuv va ziddiyatlarning shakllantirilishi;

- jahonning turli xududlarida xududiy separatizmning keskinlashuvi, davlat ma’muriy-xududiy tuzilishi, davlat ichidagi alohida xududlarning siyosiy-huquqiy makomini o‘zgartirish maqsadida qurolli kurashning vujudga kelishi va x.q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamadaliyev Sh.O. Milliy istiqlol g‘oyasi va milliy xavfsizlik. –T.: “O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi”, 2008. –B.63.
2. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. -T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2009. –B.379.
3. Tishkov V.A. O tolerantnosti. //Tolerantnost i soglasiye. Materialы mejdunarodnoy konferensii “Tolerantnost, vzaimoponimaniye i soglasiye”. Yakutsk, iyun, 1995. M ., 1997. -C.19.

4. Rossiyskaya sotsiologicheskaya ensiklopediya. –M.: “Nauka”, 1998. –S.278.
5. Mark Notturno. Tolerantnost, svoboda i istina: fallibalizm i otkrытiye “zakrытых obщestv”. //“Ijtimoiy fikr” jurnali. №2, 1998-yil.
6. Dobson C., Payne R. The terrorists.Their Weapons, Leaders and tactics.-N.Y., 1979.-P.112.

ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИГА ТАЪСИРИ

Низомий номидаги ТДПУ ўқитувчиси
Камолова Кимёхон Ғуломжоновна
Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Тел: +9989-743-42-63

Аннотация. *Ушбу мақолада ҳозирги даврда фанлар таснифи, ижтимоий фанлар, уларнинг келиб чиқиш тарихи, бугунги кунда ижтимоий фанларга бўлган муносабат, ижтимоий фанлар тизимида фалсафанинг ўрни ва баркамол ёшлар тарбиясига таъсири ҳақида сўз юритилган.*

Таянч тушунчалар: *Фан, фалсафа, дунёқараш, инсон, олам, жамият, ривожланиш, баркамоллик, таълим тизими, ижод, тафаккур.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается классификация наук в современную эпоху, общественные науки, история их возникновения, отношение к общественным наукам сегодня, роль философии в системе общественных наук и ее влияние на воспитание гармонично развитой молодежи.*

Ключевые слова*: наука, философия, мировоззрение, Человек, Вселенная, Общество, Развитие, совершенство, система образования, креативность, мышление.*

Annotation. *This article examines the classification of sciences in the modern era, social sciences, the history of their origin, the attitude to social sciences today,*

the role of philosophy in the system of social sciences and its impact on the upbringing of harmoniously developed youth.

Keywords: *science, philosophy, worldview, man, universe, society, development, perfection, education system, creativity, thinking.*

Дунёда ҳеч қачон бир хил тонг отган эмас”. Мазкур ибора минг йиллар давомида барчани лол қолдириб келмоқда. Ҳақиқатан ҳам, тонглар бир-бирига ўхшайди, лекин ҳар кун биронта ўзгариш, биронта янгилик ёки бирон жойдаги можаро ёки кўнгилсизликни эшитиш билан кутиб оламиз. Демак, бу иборадан инсоният, бутун коинот, табиат ва башарият доимий ўзгаришда, янгиланишда деган маънони англаб олсак бўлади. “Бу ёруғ оламга келган ҳар бир одамзот авлоди турли ўзгариш ва янгиланишлар сари интилаверади”, – деган эди Президент Ш.М.Мирзиёев.

Азалдан инсоният коинотдаги, табиат ва башариятдаги ўзгаришларга ҳамиша қизиқиб келган. Ҳар бир бўладиган ўзгариш ва янгиланишнинг сир-асрорини билишга интилиб, ўзларининг эҳтиёжларини қондиришга, манфаатларига хизмат қилдиришга ҳаракат қилишган. Бу эса илм-фан куртакларининг пайдо бўлишига сабаб бўлган. Дастлабки илмий дунёқараш сифатида фалсафа пайдо бўлди. Кейинчалик бу фанларнинг шаклланиши ва ривожланишига асос бўлиб хизмат қилди.

Фалсафа инсоннинг оламга муносабатини ифодалайдиган назарий билимлар тизими бўлиб, борлиқнинг моҳияти ва ҳаётнинг мазмуни, оламни билиш, тараққиёт ва ўзгариш, ҳаётнинг маъноси каби турли хил масалалар билан шуғулланган учун ҳам қизиқарлидир. Шунинг учун ҳам фалсафа нафақат дарс жараёнида, балки дарсдан ташқарида ҳам инсонларнинг диққатини ўзига торта олади. Буни буюк файласуф Арасту фалсафани “барча мавжудотнинг ибтидоси ва сабаблари тўғрисидаги фан”, – дея таъкидлаган бўлса, аллома Абу Али ибн Сино “мутлақ борлиқ тўғрисидаги олий фан”, – дея таърифлади.

Ғарб таълимотида Т.Гоббс “тўғри фикрлаш орқали эришилган билим”, Г.В.Гегел эса “фанларни кўриб муҳокама қилувчи”, – деган тушунчаларни беришди.

Шарқда Абу Наср Фаробий, Абу али ибн Сино, ал Беруний, Ибн Рушд, Ғаззолий каби алломалар шуғулланишган.

Ўзбекистонда фалсафа фани билан шуғулланган файласуф олимлар сифатида Жондор Туленов, Саид Шермуҳаммедов, Иброҳим Мўминов, Қиёмиддин Назаров, Исмол Саифназаров, Саид Мамашокиров, Нигина Шермуҳамедова, Дилбар Файзиходжаева ва бошқа бир қанча олимларни кўрсатиш мумкин. Улар ўз тадқиқотларида фалсафа фанининг моҳияти, унинг ижтимоий фанлар тизимида тутган ўрни ҳақида қимматли фикрларини билдиришган. Ушбу мақолада уларнинг илмий асарларидан фойдаланилди.

Фалсафа дастлаб, борлиқнинг моҳиятини ўрганишга ва тушунишга ҳаракат қилиши билан биргаликда, оламда инсоннинг мавжудлиги ва ўрни, олам ва одам ўртасидаги муносабат ҳақида баҳс юритувчи соҳа эди. Кейинчалик у кўплаб соҳаларга: гносеология, антропология, метафизика, мантиқ, сиёсат, эпистемология, этика, эстетика ва тил фалсафаси, тарих, онг ва дин фалсафаси каби соҳаларда ўзини намоён қилди.

Фалсафанинг аҳамиятли томони шундаки, у ақлга асосланади; мантиқий мулоҳазалардан фойдаланади. Ҳар қандай инсон атрофида рўй бераётган ҳодисаларга савол назари билан қарайди, ўз дунёқараши билан жавоб излашга ҳаракат қилади. Қандайдир маъно олишга ошиқади. Фалсафа саволларнинг ҳам субъектив, ҳам объектив турларини ўз ичига олади. Бундан шуни англаш мумкинки, жавобларни топиш билан бир қаторда, яна саволлар туғилаверади. Жавобларни топмасдан олдин савол ва жараёнлар келиб чиқаверади, воқеа-ҳодисаларни фикрда умумлаштириб, ўзаро боғликликда ўрганиб, моҳиятини чуқурроқ ва тўлароқ билишга қизиқиб борилаверади. Демак, фалсафа асосан фикрлаш ва билим яратиш билан боғлиқ бўлади. “Фалсафанинг фойдаси

шундаки, у ҳар қандай одам билан сўзлаша олиш имконини беради”, – деган эди юнон файласуфи Аристипп.

Хўш, фан нима? Унинг фалсафа билан қандай алоқаси бор? Фан тараққиётида фалсафанинг ўрни қанчалик аҳамият касб этган?

Маълумки, “Фан – дунё ҳақидаги билимлар системаси, ижтимоий онг шаклларидан бири. У янги билимларни эгаллаш билан боғлиқ фаолиятни ҳам, бу фаолиятнинг маҳсули – оламнинг илмий манзараси асосини ташкил этувчи билимларни ҳам ўз ичига олади, инсон билимларининг айрим соҳаларини ифодалайди”.

Позитивизм намоёндаси инглиз файласуфи Г.Спенсер (1820-1903) ўзининг “Фаннинг пайдо бўлиши” асарида “фан жамият билан бир вақтда пайдо бўлган” деган фикрни инкор қилади ҳамда “билимлар фақатгина тажрибаларнинг кенгайиши билан боғлиқ, демак фан ҳам қандайдир илмий ғоя ва муаммоларнинг пайдо бўлиши билан шакллана бошлаган”, – дейди.

Файласуф олима Н.Шермуҳамедова “Фалсафа ва фан методологияси” дарслигида фан тушунчасини илмий жиҳатдан тушунтириб беришга ҳаракат қилган: “Фан олам ҳақидаги билимлар тизими(олам, жамият, инсон); фан янги билимларни эгаллашдаги инсон фаолияти; фан жамият, давлатни ташкил қилиш шакл(институт)ларидан бири”. Демак, фан олам, инсон, жамият ҳақидаги билимлар тизимидан иборат. Инсон янгиликларни, билимларни эгаллаши, назарияларини яратиши, илм билан боғлиқ фаолиятни юритиши жараёнида фанга ўз ҳиссасини қўшади.

Кўпгина мутафаккир олимлар фаннинг илк куртаклари кишилик жамиятининг пайдо бўлиши билан боғлиқ ҳолда майдонга келганлигини таъкидлашади. Бизга маълумки дунёқарашнинг илк кўринишларидан бири мифологик дунёқараш эди. Мифология қадимги Шарқ ва Юнонистонда пайдо бўла бошлаган ва фанга ўтиш бўсағасида маълум босқич вазифасини бажарган. Секин-аста мифология ўз ўрнини натурфалсафага бўшатиб беради. Кейинчалик буюк файласуфлар Зенон, Демокрит, Аристотель, Евклид, Архимед, Птолемей, Диоген, Пиррон, Эпикур, Сян Цзи ва бошқа кадимги

замон мутафаккирлари табиат, жамият ва инсон, билим, тафаккур ва бошқаларнинг мазмун-моҳиятини фан тилида тушунтириб беришга ҳаракат қила бошладилар.

Шарқ фалсафаси ҳақида гапирганда эса юртимиздан етишиб чиққан алломалар дунё ренессансига, илм-фан оламига ўзларининг ҳиссаларини қўшган, кашфиётлар оламини яратиб кетган зотларни фахр билан тилга оламиз. “Биз қандай буюк ва шонли ўтмишимиз, қандай улуғ аждодларимиз борлигини яхши биламиз ва бу билан ҳамиша фахрланамиз. Мисол учун, бирон та жангда енгилмаган буюк саркарда Соҳибқирон Амир Темурни оламизми, алгебра фанига асос солган Ал-Хоразмийни оламизми, Колумбдан 500 йил олдин Американи кашф этган Беруний бобомизни оламизми, ўрта асрларда тиббиёт фанининг пойдеворини яратган Ибн Синони оламизми, астрономия соҳасида беқиёс кашфиётлар қилган Мирзо Улуғбекни оламизми – жаҳон цивилизацияси ва маданиятига улкан ҳисса қўшган бундай улуғ аждодларимизнинг ҳар бири ҳақида соатлаб гапиришимиз мумкин”.

Мисол учун, Ғарб ва Шарқ мамлакатларида Альфраганус номи билан шуҳрат қозонган олим Абул Аббос ибн Касир ал-Фарғоний фалакиёт илмига асос солди. У коинот илми билан шуғулланиб, коинотда юлдузларнинг жойлашиши, уларнинг сирлари ҳамда ҳаракат қилиш қонуниятларига оид назарияларини яратди. Аҳмад Фарғоний тинимсиз самарали илмий меҳнати ва фаолияти туфайли буюк фалакиётшунос сифатида илми риёзиёт ва жўғрофия фанларининг ривожланишига сабаб бўлди. Унинг асарлари лотин тили орқали бутун Оврўпага тарқалди ҳамда ўзидан кейинги дунё олимларига қўлланма сифатида хизмат қилди ва хизмат қилиб келмоқда.

Яна бир буюк файласуф Муҳаммад ал Хоразмий тенгламалар ҳақидаги алгебра ва алгоритмларни яратди, астрономия соҳасидаги билимларни алгоритмик усулда ифодалаб берди, алгебра фанига асос солди. Абу Райҳон Беруний геодезия, минералогия, фармакогнозияни яратди. Абу Али Ибн Сино тиббиёт илмини асосчиси сифатида дунёга танилди. Хуллас фанларнинг ривожланишига ғарб ва шарқ олимлари, файласуфлари, мутафаккирлари

ўзларининг беназир ҳиссаларини қўшиб, унинг ривожи учун ҳаракат қилганлар. Илм-фан улар ҳаётининг ажралмас қисми сифатида намоён бўлган. Хўш, энди ижтимоий фанлар бу борада нима дейди? Бугунги кунда ижтимоий-гуманитар фанларга эҳтиёж нега юқлори даражада? Ижтимой-гуманитар фанларнинг бугунги кундаги аҳволи қандай?

Жаҳон тараққиёти, жумладан, Янги Ўзбекистон тараққиётининг ҳаракатлантирувчи кучи замонавий юқори малакали кадрлардир. Шубҳасиз, бундай кадрларни олий таълим тизими тайёрлайди. Шунинг учун ҳам бутун дунёда тараққиётнинг тамал тоши бўлган, мамлакатни қудратли, буюк давлатга айлантира оладиган илм-фан, таълим ва тарбияга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Етук кадрлар тайёрлашда ижтимоий фанларнинг роли катта. Президентимиз Шавкат Мирзиёев деярли ҳар бир нутқида ёшлар ва кадрлар тайёрлаш масалаларига алоҳида эътибор қаратаётгани, ижтимоий фанларнинг ўрни беқиёс эканини таъкидлаётгани бежиз эмас, деб ўйлаймиз. Давлатимиз раҳбарининг яқинда нашр этилган “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси” асарида ҳам ижтимоий фанларни ўқитишни чуқурлаштиришга алоҳида эътибор қаратилган. Зеро, биз учун бугунги шароитда фуқаролик позициясига эга, жамият ва давлат манфаатларини ҳимоя қиладиган, мамлакатимиз ҳаётидаги ўзгариш ва ислоҳотларда фаол иштирок этувчи замонавий ва кенг дунёқарашли ёшлар авлодини вояга етказиш ниҳоятда муҳим. Шундай кадрларни тарбияламасак, ёшларимиз бирёқлама шаклланади. Ёш авлод маънавиятсиз бўлса, унинг яхши замонавий мутахассис, фаол фуқаро бўлиб шаклланиши амри маҳол бўлиб қолади. 1971 йилда Д.Белл: «Постиндустриал жамият» концепцияси назарий билимларнинг марказий ролини янги технология, иқтисодий ўсиш ва жамиятнинг янги табақаланиши атрофида қуриладиган ўқ сифатида таъкидлайди»

Совет даврида ҳам ижтимоий фанларни ўқитишга алоҳида эътибор қаратилди. Хусусан, фалсафа, тарих, ҳуқуқ, сиёсатшунослик, этика, эстетика каби гуманитар фанлардан дарслар ўтилди. Бироқ, барча ижтимоий фанлар марксизм-ленинизм ғояларига, коммунистик мафкурага бўйсундирилди ва бу

асоссиз ғоялар комил инсонни тарбияламади, балки кадрларни боши берк кўчага солиб қўйди. Натижада жамият таназзулга юз тутди. Давлат пароканда эди. Мустақилликнинг дастлабки йилларида мамлакатимизда ижтимоий фанларни янгича нуқтаи назардан ўқитиш йўлга қўйилди. Бироқ 1990 йилларнинг ўрталарида Ўзбекистонда ижтимоий фанларга бирёқлама технократик ёндашув кузатилди, бу фанларга ўзига хос «бегона» фанлар сифатида қарашлар шакллана бошлади. Афсуски, узлуксиз таълим босқичларида, айниқса, олий таълим тизимида ижтимоий фанлар қанча ва қайси йўналишларда, қандай шаклда, қандай мазмунда ўқитилиши ҳақида ягона тушунча ҳалигача мавжуд эмас. Давлатимиз раҳбари таъкидлаганидек, баъзи узоқни ўйламайдиган мулозимларнинг “ижтимоий фанлардан фойда йўқ” каби нотўғри қарашлари натижасида бу фанларнинг салмоғи ва сифати пасайиб кетди. Бу соҳада тез-тез ўтказилаётган «тажриба»лар, кимнингдир бир фанни киритишга субъектив ёндашуви, бошқасини йўқотиш, кафедралар қўшилиши ва профессор-ўқитувчилар, ижтимоий фанлар ва мутахассислар, профессор-ўқитувчилар сонининг кўпайиши, ҳолатлари меҳнатга нисбатан доимий скептицизм соҳага жиддий зарар етказди. Айнан шу оқимнинг айрим вакилларида шундай: “Биз ва бизнинг фанларимиз керак эмасми, бизга ҳам ҳеч нарса керак эмас. Шунчаки топшириқларни бажариб, фанларимизни ўқитиб ва дарсларимизни ўз вақтида ўтиб юрсак бўлди, деган тасаввур шаклланишига сабаб бўлган. Бироқ ижтимоий ва гуманитар фанлар – тарих, фалсафа, ҳуқуқ, археология, шарқшунослик, тилшунослик, адабиёт, санъатшунослик ва бошқа фанларда юксак натижаларга эришилди.

Ижтимоий фанлардаги бўшлиқ натижасида глобал таҳдид бўлган диний ақидапарастлик ва унинг оқибатларидан бири бўлган глобал терроризм, жаҳолатга, нафратга асосланган диний оқимларнинг пайдо бўлишига олиб келди.

Балки ижтимоий фанларни қисқартириш орқали, уларни ўқитмасдан ҳам етук мутахассислар тайёрлаш мумкиндир. Лекин миллат учун қайғурадиган ҳақиқий ватанпарварни, оилапарвар, юртпарвар, меҳр оқибатли инсонларни

тарбиялаш ижтимоий фанларни ўқитмасдан амалга ошириш анча қийин кечади деб ҳисоблаймиз. Учинчи Ренессанс даври ҳақида қанча гапирмайлик, унинг моҳиятини ижтимоий-гуманитар фанлар ёрдамисиз ёшлар онгига сингдириб бўлмайди. Ижтимоий фанлар Учинчи Ренессанс даврининг бошланиши ва ривожланишининг “катализатори”дир. Халқни, миллатни уйғотадиган куч айнан ижтимоий ва гуманитар фанлардир. Таниқли олим М.Шелер таъкидлаганидек, “таълим “бирор нарсага ўргатиш” эмас, касб-ҳунар, мутахассислик, ҳар қандай маҳсулдорлик учун, ҳатто ундан ҳам кўпроқ, таълим бундай тайёрлаш учун мавжуд эмас”.

Бугун биз замонавий билим ва технологияларни, иқтисодиётни пухта эгаллаган авлодни тайёрлашимиз керак. Бундай мутахассисларни тайёрлашда табиий-техника ва махсус фанлар ҳам асосий омил бўлиб хизмат қилиши шубҳасиз. Бироқ, халқ ва жамият, миллат ва давлат манфаатларини ўйлайдиган, ўзини юрт манфаати йўлида кўрадиган, ислоҳотлар ва ижтимоий ҳаётга дахлдорлигини ҳис этувчи, етук инсонларнинг янги авлодини тарбиялаш учун фақат шу фанларнинг ўзи етарли эмас. Давлат ва жамият манфаатлари йўлида ҳалол меҳнат қилган, бу борадаги барча ижтимоий чақириқ ва мурожаатларга жавоб берадиган аждодларимиз авлоди таъсирида тарбияланганмиз. Уларнинг ривожланишида ижтимоий фанлар тизими муҳим роль ўйнаганини ҳаммамиз биламиз. Демак, ижтимоий фанларга эътибор бермаслик натижасида дунёқараши бир ёқлама, фақат ўзи ҳақида ўйлайдиган, халқ, давлат ва жамият тўғрисидаги ёт ғояга эга бўлган ёшлар авлоди пайдо бўлди, яъни чет элдаги “йўқолган авлод”. Президент Шавкат Мирзиёев “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” асарида бундан 60-70 йил аввал Иккинчи жаҳон урушидан кейинги қийинчилик ва моддий тақчиллик йилларида ишлаб чиқилган ва асосан, маънавият ва гуманитар таълимга пул сарфлаш зарур эмас, деб ҳисобланган ва мутлақ ғоясизликка асосланган ижтимоий концепцияси оқибатларининг қандай бўлганлиги ҳаммамизга маълумлиги ҳақида алоҳида эслатади. Шунинг учун биз ижтимоий фанларни

ўқитишга пул сарфлашдан қўрқмаслигимиз керак. Беш йилдан сўнг, ўн йилдан сўнг сарфланган маблағлар эътибордан четда қолмаганига гувоҳ бўламиз. Жанубий Корея, Япония, Сингапур каби мамлакатлар тажрибаси ҳам таълимни молиялаштириш ўз самарасини берганини дунёга кўрсатди. Ижтимоий фанларни ўргатиш учун маблағни аясак, эски услубга қайтамиз. Ҳеч қандай ҳолатда бунга йўл қўйилмаслиги керак.

Биз ёшларга ўргатаётган фалсафа фанимиз ҳам ижтимоий фанларнинг асосий бўғинларидан бири ҳисобланади. Хўш, фалсафа нима? Бугунги кунда фалсафа ёшларга нима учун зарур? Унинг жамият тараққиётидаги ўрнини нималарда кўриш мумкин? Фан фалсафанинг бир қисми ҳисобланади. Тўғри фалсафа ва фан ўртасида ўхшашлик билан бирга фарқлар мавжуд. Кўпчилик одамлар, ҳатто айрим тадқиқотчилар ҳам фан ва фалсафа бир-бирига қарама-қарши бўлган тушунчалар деб фараз қилишади, аммо иккала мавзу ҳам бир-бирига қарама-қарши, адоват маъносида эмас, балки ижобий муносабатларга эга. Маълумки, фан тизим сифатида қуйидаги гуруҳларга бўлинади: табиий фанлар, гуманитар фанлар, техника фанлари ва ижтимоий фанлар. Фалсафа мана шу фанларга асос сифатида дунёқараш, билим ва илмий фаолият юритиш ҳамда ижоднинг аҳамияти ҳақида тушунча беради. Шунинг учун ҳам фалсафа “Фалсафа фанлар ичидаги фандир, тафаккур маданиятидир”, деб ҳам айтилади. Фанда инсон табиий қизиқувчанлик, интеллектини ишга солган ҳолда, янги билимга интилади. Бунда маълум соҳа вакиллари аниқ йўналиш бўйича иш олиб боришади. Фалсафада эса олам ҳақидаги билимларини янгилаш, ўз руҳиятини билимларни эгаллаш орқали қониқтириш орқали билимга интилади, фикр юритиш орқали билимга эришишга ҳаракат қилади. Демак, иккаласининг ҳам мақсади битта, “янги билимларни эгаллаш ва юксакликка эришиш”, ҳар қандай ҳолатда ҳам вазиятларни тушунтириш ва жавоб топишга ҳаракат қилади.

ХУЛОСА.

Хулоса қиладиган бўлсак, фалсафа ва фан иккаласи ҳам жамият ҳаёти учун зарур бўлган тадқиқот манбаи ҳисобланади. Иккаласида ҳам ўз соҳалари ва йўналишлари мавжуд бўлиб, улар олам, унда одамнинг ўрни, одамнинг табиатга, жамиятга муносабати ва бошқа саволларга жавоб бериш мақсадида тадқиқот олиб боради, **бу биринчидан.**

Иккинчидан, фалсафа воқеа-ҳодисага муносабатини мантиқий далиллар, қонунларга асосланиб тушунтиришга ҳаракат қилса, фан кузатишлар, тажриба натижалари, исботланган назарияларга асосланиб тушунтиради. Фанда монизм ғояси биринчи ўринда туради. Фанда келтирилган ишончли далиллар прогноз қилиш имконини беради.

Учинчидан, илм-фан кўпинча тажриба текширув, кузатишни талаб қилиб, объективликка, асосланганликка таяниб, универсалликни даъво қилади, рационалликка эришишга ҳаракат қилади. Фалсафа учун эса кузатиш, тажриба қилиш муҳиммас. У кундалик ва назарий билимлар асосида фикр юритиб, саволларга жавоб беради. Фалсафада фикрлар ранг-баранглигига эътибор қаратилади. Берилаётган фикрларда эса қайсидир файласуф ёки фалсафий мактабнинг фикрларига таянилади. Фақатгина иккаласи ҳам берилган саволларга жавобларни олади ва уларни объектив равишда тўғри ёки нотўғри эканлигини исботлайди.

Тўртинчидан, фан ҳам, фалсафий тафаккур ҳам, инсоннинг ўз-ўзини англашидан, оламни тушуниш ва идрок этишидан бошланади. Фалсафа замонавий фанларнинг ютуқларига таянади, оламнинг илмий манзарасини яратишга ҳаракат қилади.

Бешинчидан, фалсафий ғоялар битта файласуф номи билан боғланади, унинг ғояси бошқа файласуф томонидан қўллаб-қувватланиши ёки рад қилиниши мумкин бўлади. Фандаги назария ва ғоялар эса бир киши томонидан айтилиши мумкин, аммо у жамоанинг қўллаб-қувватлаши, қабул қилиши, бир сўз билан айтганда жамоа билан ишлаш натижасида юзага келади.

Бугунги кун ёшларида фан ва фалсафанинг келиб чиқиши, эволюцияси, бугунги ҳолати, инсоният ҳаётида тутган ўрни тўғрисида чуқур илмий тушунчалар ҳосил қилиш, шунингдек, уларда турли хил мифологик, диний, илмий-фалсафий оқимларнинг келиб чиқиши, фан ривожи ва йўналишлари тўғрисида илмий хулосалар чиқара оладиган кўникма ва малакаларни мустаҳкамлаш, фалсафий таълимотларни асосли таҳлил қилишга имкон берадиган илмий дунёқарашни шакллантириш долзарб масалалардандир. Бу мақсадга эришишда ўтмишдаги мутафаккирларнинг асарлари, турли тарихий манбалар зарурий назарий асос бўлиб хизмат қилиши керак. Фалсафа ҳам фан ҳам инсон маънавий ҳаёти ва билимларининг асосини ташкил қилар экан, ҳозирги вазиятда уларга кўпроқ эътиборни қаратиш, айниқса ижтимоий-гуманитар фанлар доирасида миллий, умуминсоний, фалсафий, диний ҳуқуқий, сиёсий, социологик, психологик, ижтимоий- иқтисодий, маънавий-ахлоқий жиҳатлари, унинг халқ одатлари, анъаналари ва қадриятларни шакллантириш ҳамда бойитишдаги ўрни ва аҳамияти бўйича тарғибот йўналишларини кучайтириш мақсадга мувофиқдир.

Президентимиз ҳам ўз китобида бугунги ёшларнинг дунёқарашини шакллантиришда ижтимоий фанларнинг ўрнини кўрсатади. Бугун Янги Ўзбекистонимизга нафақат яхши мутахассислар, балки ўз тарихи, миллий анъаналарини яхши биладиган юксак маълумотли, юксак маданиятли фуқаролар ҳам зарур. Бизнинг фикримизча, Президентимизнинг мазкур тавсия ва талаби олий ўқув юртларида ижтимоий фанларни ўқитишни жиддий қайта кўриб чиқиш, ижтимоий фанларни ўқитишни бойитиш учун етарли асос, деб ҳисоблаймиз. Дарҳақиқат, ижтимоий соҳа бошқа техно-иқтисодий, савдо, молиявий ва иқтисодий тармоқлар каби катта тўғридан-тўғри даромад келтирмайди. Аммо жамиятнинг маънавий бўшлиги туфайли юзага келадиган оқибатлар, ҳалокатлар тузатиб бўлмас офатларга олиб келиши мумкинлигини бугун ҳаётнинг ўзи исботлаб турибди.

Шу боис таълим тизимининг барча бўғинларида ижтимоий фанларни қандай тақсимлаш, ўқув ва амалий соатларни қандай ташкил этиш бўйича махсус концепция ишлаб чиқиш зарурати туғилди. Бинобарин, “Узлуксиз таълим тизимида ижтимоий фанларни ўқитишнинг тартиби ва тамойиллари тўғрисида”ги қонунни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш зарур. Шу муносабат билан 2022-2030 йилларда Ўзбекистон Республикасининг узлуксиз таълим ва тарбиясини инсонпарварлаштириш стратегиясини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш мақсадга мувофиқдир. Шундагина биз жамиятнинг барча соҳаларида ҳар томонлама билимга кенг дунёқарашга эга замонавий кадрлар тайёрлай оламиз. Дарҳақиқат, биз буюк ниятлар билан пойдевор қўяётган Янги Ренессанс даври юртимизда мана шундай улкан бойликларни яратиш, халқимиз турмушини яхшилаш, келажак авлодларга муносиб мерос қолдиришга хизмат қилади. Шунингдек, ижтимоий фанларни боғча, бошланғич синфлардан бошлаб ахлоқ ва маънавиятга оид асосий тушунча ва талабларни ўргатиш шаклида олиб бориш, олий таълим муассасаларида “Ижтимоий фанларни ўқитиш концепцияси”ни ишлаб чиқиш, Янги Ўзбекистон – обод, демократик давлат қуриш, Учинчи Ренессанс даври профессор-ўқитувчилари, ижодкор зиёлилар энг катта куч эканлиги, уларнинг масъулиятли фаолиятини қўллаб-қувватлаб, уларга муносиб меҳнат ва турмуш шароити яратилиши ўта муҳимлигини алоҳида қайд этиш зарур.

Зеро, бу фанлар Янги Ўзбекистоннинг келажак авлодида янги дунёқарашни, фаол фуқарони шакллантиради. Нодавлат олий ўқув юртларида эса ижтимоий фанларни ўқитиш тўлиқ давлат буюртмаси тарзида бўлиши ва шу орқали ёшларимизни “оммавий маданият” мафкурасидан ҳимоя қилишимиз мумкинлигини унутмаслигимиз керак. Алоҳида таъкидлаш жоизки, олий ўқув юртларида ижтимоий фанлар, жумладан, фалсафани ўқитишни кучайтириш - миллий маданият, анъаналарни асраб-авайлаш, ёшларни ўз Ватанига муҳаббат руҳида тарбиялаш, замонавий воқеликни муносиб идрок этишга ёрдам берадиган фалсафий тафаккурни шакллантириш,

шунингдек экстремизм, коррупция ва бошқа замонавий таҳдидларга қарши курашда ёшларда маънавий иммунитетни шакллантиришга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ш.М.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент. 2021й. 5-бет
2. Ш.М.Мирзиёев. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. 2017 йил 4 август.
3. Н.Шермуҳамедова. Фалсафа ва фан методологияси. Дарслик. Тошкент. 2008. 25-Б.
4. https://qomus.info/encyclopedia/cat-f/fan-uz/

YOSHLAR MA’NAVIY KAMOLOTIDA AJDODLARIMIZ QARASHLARINING O‘RNI

Salamov Xurshid Bariddinovich
Renessans ta’lim universiteti
“Ijtimoiy-siyosiy fanlar”
kafedrasi tadqiqotchisi
+998935281018
@odiljonmusayev

Annotatsiya. *Mazkur maqolada IX-XII va XIV asr oxiri va XV asr O‘rta Osiyo xalqlari ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, ma‘daniy-ma‘naviy, ma‘rifiy hayotida tub burilishlar, Temuriylar davridagi yuksalgan ilm va fanni yuksalishi, Mirzo Ulug‘bekni fan, madaniyat va ma‘rifat rivojiga qo‘shgan hissasi, Alisher Navoiyning asarlarida odob-axloq, ma‘naviy yetuklik kabi sifatlar tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Vatanparvarlik, ma‘naviyat, ma‘rifat, renossans, insonparvarlik, tenglik, adolat, ma’rifat.*

Роль воззрений наших предков в духовном развитии молодежи

Аннотация. *В данной стате рассматриваются коренные изменения в социально-экономической, политической, культурно-духовной, просветителской жизни народов Средней Азии IX-XII и в конце XIV и XV веках, подем передовых знаний и науки в период Тимуридов. В произведениях Алишера Навои*

анализируются наука, культура Мирзо Улугбека и вклад Алишера Навои в развитие благосостояния, таких качеств, как нравственност и духовная зрелост.

Ключевые слова: *Патриотизм, духовност, просвещеэние, ренессанс, гуманност, равенство, справедливост, просвещение.*

The role of the views of our ancestors in the spiritual development of youth

Annotation: *This article examines the fundamental changes in the socio-economic, political, cultural, spiritual, and educational life of the peoples of Central Asia in the late 9 th and 12th, 14th and 15th centuries, the rise of advanced knowledge and science during the Timurid period. The works of Alisher Navoi analyze science, the culture of Mirzo Ulugbek, and Alisher Navoi‘s contribution to the development of well-being, such qualities as morality and spiritual maturity.*

Key words: *Patriotism, spirituality, enlightenment, renaissance, humanity, equality, justice, enlightenment.*

O‘zbekiston o‘zining tarixida buyuk madaniy yuksalishlar uyg‘unligini shakllantirgan, ular vositasida mutloqo yangicha sivilizatsiyalar, yangicha madaniy-ma’naviy qadriyatlar yaratgan o‘lkadir. O‘zbek xalqi o‘zining o‘tmish tarixida bir necha bor ilmiy-madaniy yuksalish bosqichini-Uyg‘onish davrlarini kechirgan. Ana shu Uyg‘onish davrlarida bizning qadimiy va muqaddas zaminimizdan o‘zimizning tariximiz, madaniyatimiz, ma’naviyatimiz va ma’rifatimizni, adolat va qonunchilikni va jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga bebaho hissa qo‘shgan, ilmu urfon, qonunchilik, ma’naviyat va ma’rifat sohasida ta’limot yaratgan buyuk daholar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Jumladan, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Abu Mansur Moturidiy, Burxoniddin Marg‘iloniy, Najmiddin Kubro, Al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi ulug‘ zotlar, buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanamiz. Ularning ilmiy-falsafiy, siyosiy-huquqiy, diniy-axloqiy, davlatchilik sohasida qoldirgan boy ijodiy merosi bugungi milliy mafkuramizga, madaniyatimiz, ma’naviyatimiz va ma’rifatimiz shakllanishi va rivojlanishiga zamin, ilmiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Islomiy qadriyatlarni, Qur’oni Karim, Muhammad payg‘ambarimizning Hadislarini o‘rganish asnosida ularda, milliy ma’naviyatimiz uchun juda ham muhim bo‘lgan bironta ham masala e’tibordan chetda qolmaganini ko‘rishimiz mumkin. Ulardagi odob-axloq,, halolik va poklik, iymon-e’tiqod va vijdod, mehr-oqibat, og‘ir sinovlarga bardoshli bo‘lish, bir-birini moddiy-ma’naviy, ruhiy qo‘llab-quvvatlash, hamdard, hamnafas, hamfikr, yelkadosh bo‘lish, tinchlik osudalikni saqlash, mehnat qilib, birovlarning haqiga xiyonat qilmasdan, poraxo‘rlik qilmasdan halol pokiza yashash haqidagi va boshqa g‘oyalar, ta’limotlar umuminsoniyatga bevosita daxldordir.

Biz o‘z millatimizni, milliy urf-odatlarimiz va ma’naviyatimizni islom dini ta’limotisiz tasavvur eta olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimiz, ongimiz, qalbimiz, jismu jonimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz o‘zligimizni yo‘qotamiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkentda ish boshlagan Islom Hamkorlik tashkilotiga a’zo mamlakatlar Tashqi ishlar vazirlari kengashi majlisining ochilish marosimida: Xalqimizning ming yillik tarixini, bugungi ma’naviy hayotini, dinu diyonatimizni islom dinisiz tasavvur eta olmasligimizni, qolaversa, islom dini tinchlikka, ma’rifatga va ma’naviy boylikka da’vat etadigan din ekanligini ta’kidlab, "Shu ma’noda bizning buyuk ajdodlarimiz - Islom dunyosining mutafakkirlari yutuqlari, ularning jahon tamadduni taraqqiyotiga qo‘shgan mislsiz hissalarini o‘rganish va ommalashtirish o‘ta muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston islomiy madaniyat noyob merosiga ega va Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy, Imom al-Moturidiy va boshqa buyuk arboblarning nomlari nafaqat musulmon mamlakatlari va butun dunyoga yaxshi tanish"[1] , degan chuqur ma’noli so‘zlari fikrimizga yorqin misol bo‘ladi.

Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida Yangi O‘zbekistonni barpo etishda asosiy e’tibor nimalarga qaratilayotgani haqida gapirib, quyidagilarni bayon etdi: “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda asosiy e’tibor 5 ta ustuvor yo‘nalishga qaratilmoqda. Bular: sifatli ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, biznesni

rivojlantirish, korrupsiyadan xoli, adolatli sud tizimini yaratish, sog‘liqni saqlash sohasini tubdan yaxshilash va ekologik barqarorlikni ta’minlash. Muammolarimizning yechimi, savollarimizning javobi faqat va faqat ta’limda. Hamma eshiklarni ochadigan kalit ham – faqat va faqat ta’lim va tarbiyadir”[2].

Yurtboshimizning ushbu takliflari mohiyatidan anglash mumkinki, o‘zlikni anglash, yoshlar ma’naviy-mafkuraviy kamolotida dunyoviy va diniy qadriyatlarning namoyon bo‘lishi, ilm-ma’rifat, uchinchi Renesansga xos dunyoqarash bilan, say-harakat bilan yashashga har bir yoshni da’vat etadi.

Vatanimizda qadimdan turli sivilizatsiya vakillari, madaniy qatlamlar, xilma-xil e’tiqod va dunyoqarash yonma-yon yashab kelgan. Bu yerda yashovchi xalq boshqa joydan ko‘chib kelib o‘rnashib qolmagan. Bu zamin Sharq va G‘arbning, Simol va Janubning, Qadim o‘tmish va buyuk kelajagining tutashgan joyi, Markaziy Osiyoning yuragi, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatning eng ko‘hna o‘choqlaridan biridir. Bu tuproqda jahonni hayratga solgan sivilizatsiyaning ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga mansub diniy va falsafiy an’analar shakllangan. Qadimgi Yunon faylasufi Geraklit bu yurtni “falsafiy tafakkurning beshigidir”, deb bekorga ta’riflamagan.

Bizga ma’lumki, IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda vujudga kelgan mustaqil davlatlar xalqaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning o‘sishi nafaqat tabiiy, texnikaviy balki ijtimoiy-gumanitar fanlarni ham taraqqiy etishiga sabab bo‘ldi. Ko‘pgina hukmdorlar o‘z saroylarida faylasuflar, tarixchilar, shoirlar va yozuvchilarni, musiqashunoslar va munajjimlarni, diniy ulamolar, shayxlar, imomlar va huquqshunoslarni bir so‘z bilan aytganda barcha donishmandlarni to‘plab, ilm ahllariga muruvvat ko‘rsatib homiylik qilganliklari, o‘sha davrdagi ilm-fan va madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat taraqqiyotiga o‘zining ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmadi.

Jamiyat taraqqiyoti o‘rtaga qo‘ygan obyektiv talab va ehtiyojlar asosida hamda yaratib berilgan qulay shart-sharoit va imkoniyatlar tufayli IX-XII asrlarda Turkistonda ilm-fan va madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat gurkirab rivojlangan, Uyg‘onish jarayoni ro‘y bergan.

IX-XII asrlarda Movarounnahrdan yetishib chiqqan buyuk hadischilar, tariqatchilar, fiqhchilar, diniy va dunyoviy ilm daholari, faylasuflar, tarixchilar, me'morlar, bastakorlar, hattotlar dunyo ilm fani va madaniyati taraqqiyotida peshqadamlik qilganlar.

IX asr hadis ilmi rivojida oltin davr hisoblanadi. Muhaddislar Ichida eng mashhuri, islom olamining iftihori Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870) dir. Yaratgan Imom al-Buxoriyga behad keng va ziyrak qalb, kuvhli xotira hamda o'tkir zehn ato etgan. 600 ming hadisni yod bilish uchun qanday aql va bilim kerakligini ko'z oldimizga keltirsak hayronu lol bo'lib qolamiz.

Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy "Amirul mo'minin" ("Hadis ilmida mo'minlarning amiri"), "Shayxul-islom" ("Musulmonlar ustozi"), "Imomud dunyo" ("Dunyodagi barcha mo'min va musulmonlar imomi") degan sharafli nomga sazovor bo'lgan allomadir.

"Al-jomi' as-Sahih-uzoq yillar davomida olib borilgan mashaqqatli va o'ta mas'uliyatli mehnatning buyuk samarasi hisoblanadi. Bu haqda Imom al-Buxoriyning o'zlari: "Men Al-Jome' as-Sahihni" olti yuz ming hadisdan (sahihlaridan saralab olib) o'n olti yilda tasnif etdim va uni o'zim bilan Olloh taolo o'rtasidagi (ahdu paymonga vafo qilg'onimning)dalili qildim"[3].

Imom Buxoriy o'zlarini yuqoridagi asarlarida 600 ming hadisdan faqat 7275 tasigina Payg'ambarimiz muborak so'zlari, diniy va dunyoviy ko'rsatmalari, hikmatlari, axloqiy o'gitlari ekanligini shak-shubhasiz to'g'ri va rost, gumondan holi bo'lganlarini ajratib olib saqlab qolganlar.

Asarda ifoda etilgan masalalar nafaqat o'tmish uchun, ayni paytda hozirgi davr va kelajak uchun ham ahamiyatlidir.

Asarning Ota-onani mukofotlash bobida: "Bola ota-onasiga har qancha yaxshilik qilsa ham, ularning yaxshiligini qaytara olmaydi. Faqat, uni qul holida topsayu, sotib olib, ozod qilsa, bundan mustasno",-dedilar"[4].

Agar mazkur kitobning barcha hadislarini sinchiklab o'qib o'ganilsa bu hadislar insonni, ayniqsa yoshlarni madaniy-ma'naviykamolotga, ma'rifatli bo'lishga da'vat etilayotgani ravshan bo'ladi.

XIV asr oxiri va XV asr O‘rta Osiyo xalqlari ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, ma’daniy-ma’naviy, ma’rifiy hayotida tub burilish, gullab-yashnagan davr, ikkinchi Uyg‘onish davri bo‘lib tarixga muhrlandi.

Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva Shahrisabz, termizning noyob tarixiy yodgorliklari, Sharq mutafakkirlari yaratgan bebaho ta’limotlar, amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, me’morchilik, tasviriy san’at, musiqa rivojlangan savdo iqtisodiy munosabatlar, barpo etilgan mustahkam qudratli davlat va uning ichki va tashqi siyosati Yevropadagi Uyg‘onish jarayoniga katta ta’sir etgani tarixiy haqiqatdir[5]. O‘sha kezlarda ilm-fan, madaniyat sohalarida erishilgan ulkan muvaffaqiyatlar o‘zining ulug‘vorligi, umumbashariy g‘oyalarga boyligi, ma’naviy sofligi bilan insoniyat aql-idrokini yuksaklikka ko‘tardi.

Shavkat Mirziyoyev saylovoldi dasturi yuzasidan ma’ruza qilib samarqandni milliy davlatchiligimizdagi o‘rni haqida to‘xtalib shunday degandi: “ Jahon ilm-fanida “G‘arbda – Rim, Sharqda – Samarqand” degan ibora bejiz paydo bo‘lmagan. Ayniqsa buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz davrida Samarqandning shuhrati butun dunyoga taraldi”[6].

Xerman Vamberi Samarqand o‘rta asr dunyosining asl madaniy-ma’naviy va savdo maskanlaridan biriga aylanganligini quyidagicha ifodalagan: «Samarqandning butun Osiyo savdosida mol ombori o‘rnini olganini fahmlash juda oson deb o‘ylaymiz. Bu yerda Hindistondan juda ko‘p attorlik va bo‘yoq tijorat karvonlari kelib turardi. Xitoy bu yerga ipak gazlamalar, chinni kosalar, qadahlar, mushk, qimmatbaho toshlar yuborardi.Mamlakatning shimol tarafidan noyob po‘stinlar kelar edi. Ushbu turli iqlimlarning mollari Samarqand bozorlarida toy-toy bog‘lanib, Osiyoning eng katta shaharlariga va Buyuk Ipak yo‘li orqali G‘arbiy Yevropaga jo‘natilar edi. Nihoyatda qo‘rqinchli zamonlar bo‘lishiga qaramay, Temut hokimiyatining soyasi tushgan yerlarning barchasida savdo juda jonli va xavfsiz edi. Biz qayta-qayta zikr etgan Ispaniya elchilari bunga eng ishonchli shohiddirlar»[8]. Har bir zamon o‘zining ulug‘ siymolarini yaratgan va yaratadi. XIV-XV asrlarda bir qancha buyuk olimlar, nomi dunyoga mashhur ulug‘ shoir va mutafakkirlarni yetishtirdi. Alisher Navoiy ana shunday buyuk zotlardan biri hisoblanadi. Navoiy

insoniyat o‘tmish madaniy-ma’naviy merosiga, diniy-axloqiy, falsafiy ta’limotlariga hech qachon befarq bo‘lmagan. U bashariyat mutafakkirlari tomonidan turli davrlar va tillarda yaratilgan barcha tarixiy, badiiy, falsafiy, diniy, axloqiy mazmundagi kitoblarni o‘rgangan.

Alisher Navoiy asarlari jamiki odamizotga mehnat va halollikdan, do‘stlik va hamkorlikdan, rostgo‘ylik, soflik va samimiylikdan muhim hayotiy saboq bermoqda, Buning ustiga xaromxo‘rlik va adolatsizlikni, o‘zaro nizo va qonli to‘qnashuvlarni, vayronagarchiliklarga sabab bo‘ladigan urushlarni Keskin qoralagan. Ana shu ma’noda olganda Alisher Navoiy ta’limoti faqat milliy ahamiyatga ega bo‘lib qolmasdan, umumbashariy qimmatga ham egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev Islom dinini muhofaza qilishga chaqirdi. https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan-37689456

2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/7519

3. Imom al-Buxoriy-muhaddislar sultoni. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. T., 1998, 56-57 betlar.

4. Al-adab al-Mufrat.T., “Sharq”, 2008, 72-bet.

5. Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. T., “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2021, 122-bet.

6. O‘zbekiston respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning Samarqand viloyati saylovchilari bilan uchrashuvidagi nutqi. 2021-yil 24-sentyabr.

7. Xerman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi. T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990, 55 bet.

YOSHLARDA BAG‘RIKENGLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILILARI

Xazratkulov Matlab Yoqubjonovich
Renessans ta’lim universiteti
“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi
mustaqil tadqiqotchisi
+998935281018
@odiljonmusayev

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy omillari o‘rganiladi. Ta’lim, umumiy ma’naviy-axloqiy muhit, oilaviy tarbiya, ijtimoiy hodisalar va davlat siyosati kabi omillar yoshlarning bag‘rikenglik, mo‘tadillik va turli xillikka nisbatan munosabatlarini shakllantirish borasidagi tahlillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: bag‘rikenglik, madaniyat, yoshlar, ma’naviy omillar, ta’lim, oilaviy tarbiya, ijtimoiy muammolar, davlat siyosati.

Факторы развития культуры толерантности среди молодежи

Аннотация. В данной стате рассматриваются социально-политические и духовные факторы формирования и развития культуры толерантности среди молодежи. Анализируются такие факторы, как образование, общая духовно-нравственная среда, семейное воспитание, общественные мероприятия и государственная политика в формировании установок молодежи на толерантност, умеренност и многообразие.

Ключевые слова: толерантност, култура, молодеж, духовные факторы, образование, семейное воспитание, социалные проблемы, государственная политика.

Factors for developing a culture of tolerance among youth

Abstract. This article examines the socio-political and spiritual factors of the formation and development of a culture of tolerance among young people. It analyzes factors such as education, the general spiritual and moral environment, family education, social events and state policy in the formation of youth attitudes towards tolerance, moderation and diversity.

Keywords: tolerance, culture, youth, spiritual factors, education, family education, social problems, state policy.

Bugungi kunda dunyoda turli nizolar kuchayib borayotgan bir sharoitda millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini yoshlar ongiga singdirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Dunyo tajribasidan bizga ma’lumki, davlatning barqarorligi davlatda yashayotgan millatlarning birdamligi, millatlararo munosabatlardagi turli muammolarni hal etish bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan millatlararo bag‘rikenglik madaniyati ko‘pmillatli davlat uchun tinchlik va barqarorlikni ta’minlovchi omil hisoblanadi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev таъкидлаганидек, “...bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik xalqimizga doimo xos bo‘lgan. Uning mentaliteti asosini tashkil etadi”[1]. Bugungi kunda yoshlar mamlakatimiz aholisining 60% ni tashkil etmoqda. Bu katta kuch ekanini yaxshi bilamiz. Shuning uchun yoshlarda bag‘rikenglikni shakllantirish va ularni ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini ko‘rishimiz mumkin.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, “Bizning keyingi yillarda erishgan eng katta yutug‘imiz – bu umumiy xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir”[2]. Bugungi kunda jamiyat hayoti va kishilar turmush tarzini yaxshilash uchun zarur iqtisodiy, ma’naviy tushuncha va qadriyatlarni yoshlarga ta’lim jarayonida singdirish mumkin.

Yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish — bu zamonaviy jamiyatda olib boriladigan ijtimoiy va ma’naviy siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bag‘rikenglik — bu turli millatlar, dinilar, irq va madaniyatlarga ega bo‘lgan odamlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, tinchlik va insonparvarlik hissini uyg‘otishga qaratilgan tushuncha. Bu jarayonda ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy omillar, o‘zaro integratsiya, inson huquqlari va adolatlilik prinsiplari markaziy ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning bag‘rikenglik madaniyatiga

bo‘lgan munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishda bu omillar o‘zining muhim o‘rnini egallaydi.

Yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu omillar yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishida, jamiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada yoshlar orasida bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy omillariga keng to‘xtalib o‘tamiz.

Demokratik jamiyatlarda inson huquqlari va erkinliklari himoya qilinishi yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishga katta yordam beradi. Qonunlar, huquqiy tizim va ijtimoiy siyosatlar yoshlarning ijtimoiy hayotga faol qatыnashiga, turli millatlar, diniy va madaniy to‘dalarga hurmat bilan qarashga o‘rgatadi. Qonunchilik yoshlarga o‘zaro hamjihatlik va bag‘rikenglikni mustahkamlash uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Falsafa fanlar doktori N.Nazarovning fikricha “Shaxsning milliy davlatchiligiga bo‘lgan pozitiv munosabati hamda fuqarolik mavqeini idrok etishi ham milliy o‘zlikni anglashning komponentlari hisoblanib, tafakkur rivojiga imkon yaratadi. Tafakkurdagi bunday rivojlanish ko‘p millatli jamiyatda millatlararo munosabatlar takomillashuvini ta’minlaydi. Bugun har bir millat vakili va har bir shaxs o‘zligini bilib, milliy kelib chiqishini chuqur anglab, idrok etgan holda umumsivilizatsiya taraqqiyotiga hissa qo‘shishi lozim”[3].

Ijtimoiy ahvol ham yoshlar uchun muhim omildir. Agar ijtimoiy shart-sharoitlar mukammal bo‘lsa, yoshlar o‘zaro muloqotda va ijtimoiy munosabatlarda bag‘rikenglikni ustuvor tanlashi mumkin. Buning natijasida jamiyatda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi va ijtimoiy barqarorlik ta’minlanadi. Maxsus ijtimoiy dasturlar, yoshlar uchun tashkil etiladigan treninglar va tadbirlar, ularning shaxsiy taraqqiyoti va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini yaxshilashga ko‘maklashadi.

Globallashuv шароитидаги мadaniyatlarlararo aloqalardagi ko‘nikmalar yoshlarga bag‘rikenglik va inklyuzivlikni targ‘ib qilishga xizmat qiladi. Yoshlar boshqa millatlar va madaniyatlar bilan ijobiy aloqalarni o‘rnatish va ularni hurmat qilishni o‘rganishlari mumkin.

Media va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ijtimoiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Televizor, internet va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar uchun qadriyatlar, axloqiy va ijtimoiy me’yorlar bilan bog‘liq turli xabarlar tarqaladi. Agar media orqali ijobiy, bag‘rikenglik va hurmatni targ‘ib qiluvchi kontent tarqalsa, bu yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy muammolarning oldini olish va yoshlar o‘rtasidagi bag‘rikenglikni rivojlantirishga yordam beradi.

Bizga ma’lumki, oila yoshlar uchun birinchi o‘quv muassasasi hisoblanadi. Oiladagi tarbiya, qadriyatlar va munosabatlar yoshlar shaxsining shakllanishida asosiy ahamiyatga ega. Agar oilada o‘zaro hurmat, tushunish va bag‘rikenglikka e’tibor berilsa, yoshlar ham shunday munosabatlarni jamiyatga nodavlat. Buning natijasida oiladagi tarbiyani isloh qilish yoshlar o‘rtasida ijobiy axloqiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Jamiyatdagi bag‘rikenglikni saqlashda oilaning ham roli katta. Oila mustahkamligi, xonadondagi to‘g‘ri tarbiya jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligi, ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu yoshlar o‘rtasidagi hurmat va qadr-qimmat, turli millatlarning o‘zaro munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish orqali davlatni mustahkamlash, xavfsizlikni muhofaza qilish, ularda jamiyat tinchligi va farovonligini ta’minlash mas’uliyatini kuchaytirish, ayniqsa o‘g‘il-qizlarni milliy qadriyatlar asosida hayotga tayyorlash mumkin.

Mamlakatimizda yoshlarning axloqiy bag‘rikenglik madaniyatini kamol toptirishda oilaning roliga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, “Mamlakatimizda bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirish, millatlar va konfessiyalararo o‘zaro bir-birini tushunish va hamjihatlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanadi…”[4]. Shu nuqtayi nazardan yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish mezon va tamoyillarini aniqlash hamda uni oilaviy qadriyatlarda yuksaltirish tendensiyalarini tadqiq etish hayotiy zaruriyat bo‘lib qolmoqda.

Yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish — bu jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan jarayondir. Ijtimoiy-

siyosiy va ma’naviy omillar yoshlarning bag‘rikenglikka bo‘lgan munosabatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ta’lim, oilaviy tarbiya, davlat siyosati va ijtimoiy muhit yoshlar orasida bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirishning muhim mexanizmlari sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, yoshlarning bag‘rikenglikka bo‘lgan munosabatini shakllantirishda davlat, oila va jamiyatning birgalikdagi sa’y-harakatlari zarurdir.

Yoshlarda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonning samarali bo‘lishi uchun ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy omillar muhim rol o‘ynaydi. Ya’ni, davlat siyosati, ta’lim tizimi, oila tarbiyasi, madaniyat va san’at, shuningdek, xalqaro hamkorlik va globallashuv jarayonlari yoshlar o‘rtasida bag‘rikenglikni shakllantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy-siyosiy omillar yoshlarda bag‘rikenglikni shakllantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Demokratik jamiyat va qonunlar yoshlarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga, yoshlar o‘rtasida turli millatlar, dinlar va madaniyatlarga hurmatni shakllantirishga asos bo‘ladi. Ijtimoiy ahvol, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi va medianing ta’siri yoshlarning bag‘rikenglikka bo‘lgan qarashlarini shakllantiradi. Mediadagi ijobiy kontent va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar o‘rtasida ijtimoiy va madaniy aloqalarni mustahkamlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. –T.: O‘zbekiston. 2018. – B.295.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O‘zbekiston. 1999. – B.9.
3. Nazarov N.A. Markaziy Osiyo polietnik sotsiumida millatlararo munosabatlar takomillashuvining falsafiy-funksional tadqiqi. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – B.11.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Islom hamjihatligi: O‘zbekiston va Ozarbayjon misolida” mavzuidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga. – T.: 2017-yil, 18-oktyabr // Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O‘zbekiston. 2018. –B.455.

IJTIMOIY KONFLIKTLARNING JAMIYATDA NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yesenkulova Nafisa
Renessans ta’lim universiteti
“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi
Tadqiqotchisi
+998935281018
@odiljonmusayev

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyatda ijtimoiy konfliktlarning o‘ziga xos ko‘rinishlari va talqinlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, unda ijtimoiy ziddiyat jamiyatdagi turli guruhlar yoki shaxslar o‘rtasidagi raqobatdosh manfaatlar yoki bir-biriga mos kelmaydigan maqsadlar natijasi ekanligi, resurslar, hokimiyat yoki ijtimoiy me’yorlarni taqsimlashdagi adolatsizliklar natijasi ekanligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: inson, ziddiyat, ijtimoiy ziddiyat, etnik ziddiyat, mojaro, resurs, sotsiologiya, siyosat, iqtisod, falsafa, manfaat, konsensus.

Особенности проявления социальных конфликтов в обществе

Аннотация: В данной стате рассматриваются конкретные проявления и трактовки социалных конфликтов в общэстве. Это также предполагает, что социалный конфликт является резултатом конкурирующих интересов или несовместимых селей между различными группами или отделными людми в общэстве, а также резултатом неравенства в распределении ресурсов, власти или социалных норм.

Ключевые слова: человек, конфликт, социалный конфликт, этнический конфликт, конфликт, ресурс, социология, политика, экономика, философия, интерес, консенсус.

Features of manifestation of social conflicts in society

Annotation: This article examines the specific manifestations and interpretations of social conflicts in society. It also suggests that social conflict is the result of competing interests or incompatible goals between different groups or

individuals in society, as well as the result of inequalities in the distribution of resources, power, or social norms.

Key words: person, conflict, social conflict, ethnic conflict, conflict, resource, sociology, politics, economics, philosophy, interest, consensus.

Bizga ma’lumki, u yoki bu qarama-qarshiliklar muammosi ilmiy adabiyotimizda ma’lum darajada rivojlangan. Biroq, konflikt nazariyasi haqida ham shunday deyish mumkin emas. Shu bilan birga, qarama-qarshilik va konflikt, bir tomondan, sinonim sifatida qaralishi mumkin emas, ikkinchi tomondan, bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish mumkin emas. Qarama-qarshiliklar, tafovutlar zarur, ammo ziddiyat uchun yetarli shart emas. Qarama-qarshiliklar va ularni ko‘taruvchi kuchlar o‘zaro ta’sir qila boshlaganda, to‘qnashuvga aylanadi. Shunday qilib, konflikt tomonlarning qarama-qarshiligida ifodalangan obyektiv yoki subyektiv qarama-qarshiliklarning ko‘rinishidir.

Shuni qo‘shimcha qilish kerakki, jamiyatdagi ijtimoiy konfliktlar subyektlari bu - mavhum kuchlar emas, balki kosmik yoki boshqa tabiat hodisalari emas, ayniqsa, xayoliy hodisalar (taqdir, shayton, noma’lum narsalar) emas, balki ijtimoiy konfliktlarning subyektlari bu aniq odamlar, shaxslar, guruhlar, ijtimoiy qatlamlar, siyosiy partiyalar yoki davlatlardir.

Ijtimoiy ziddiyat har doim kamida ikkita qarama-qarshi tomonni talab qiladi. Ularning harakatlari odatda bir-birini istisno qiladigan manfaatlarga erishishga qaratilgan va shuning uchun to‘qnash keladi. Barcha to‘qnashuvlar kuchli keskinlik bilan tavsiflanadi. Bu odamlarning xatti-harakatlarini u yoki bu tarzda o‘zgartirishga, moslashishga yoki berilgan vaziyatdan "o‘zini himoya qilishga" undaydi. Ilmiy adabiyotlarda, bizning fikrimizcha, ijtimoiy ziddiyatning eng to‘liqroq ta’rifini E.M. Babosov bergan deyish mumkin. Ya’ni “Ijtimoiy konflikt (lotincha – to‘qnashuv) – turli ijtimoiy jamoalar – sinflar, millatlar, davlatlar, ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy institutlar va boshqalarning to‘qnashuvida ifodalangan ijtimoiy qarama-qarshiliklarning keskinlashuvining ekstremal holati. Qarama-qarshilik yoki ular o‘rtasidagi manfaatlar, maqsadlar, rivojlanish tendensiyalari o‘rtasidagi sezilarli farq bor. Ijtimoiy ziddiyat muayyan ijtimoiy vaziyatda hal

qilinishini talab qiladigan ijtimoiy muammoning paydo bo‘lishi munosabati bilan rivojlanadi va hal qilinadi. Uning o‘ziga xos sabablari bor, uning ijtimoiy tashuvchilari (sinflar, millatlar, ijtimoiy guruhlar va boshqalar), ma’lum funksiyalari, davomiyligi va zo‘ravonlik darajasiga ega"[1].

To‘g‘ri, bu ta’rif masalaning asosiy mohiyatini qamrab olgan holda, konfliktning barcha xususiyatlarini — xususan uning psixologiyasini aks ettirmaydi. Bu xususiyatni Yu.G.Zaprudskiyning “Ijtimoiy konflikt” asarida ham ko‘rish mumkin: “Ijtimoiy konflikt – ijtimoiy subyektlarning obyektiv bir-biridan farq qiluvchi manfaatlari, maqsadlari va rivojlanish tendensiyalari o‘rtasidagi ochiq yoki yashirin qarama-qarshilik holatidir. “Ijtimoiy konflikt” mavjud ijtimoiy tuzumga qarama-qarshilikka asoslangan ijtimoiy kuchlarning bilvosita to‘qnashuvi, yangi ijtimoiy birlik sari tarixiy harakatning o‘ziga xos shakli"[2]. Aytilgan narsa odatda to‘g‘ri, lekin juda keng. Kundalik, oilaviy, ish uchun joy yo‘q edi — bir so‘z bilan aytganda, "quyi darajadagi" nizolar. Va ularni e’tiborsiz qoldirmaslik kerak.

Jamiyat hayotining turli sohalarini o‘rganishda tadqiqotchilar odatda konfliktologik yondashuvdan foydalanadilar. Ijtimoiy tadqiqotlarga bunday yondashuv, masalan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar ustidan shaxslar va guruhlar o‘rtasidagi raqobat nuqtayi nazaridan ijtimoiy jarayonlarga e’tibor qaratadi.

Konfliktning mohiyatini va uning tegishli hodisalardan farqini aniqroq tushunish uchun konflikt chegaralarini aniqlash kerak, ya’ni, uning makon va vaqtdagi tashqi chegaralari. Konflikt chegaralarini aniqlashning uchta jihatini ajratish mumkin: fazoviy, vaqtinchalik va tizim ichidagi.

Konfliktning fazoviy chegaralari konflikt yuzaga kelgan hudud bilan belgilanadi. Ko‘rinib turibdiki, bu hudud minimal makondan (masalan, yashash maydonidan) butun dunyoga qadar juda farq qilishi mumkin. Turli miqyosdagi misollar: oshxonadagi janjal — va jahon urushi. Konfliktning fazoviy chegaralarini aniq belgilash, asosan, konflikt ishtirokchilari muammosi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan xalqaro munosabatlarda muhim ahamiyatga ega. Yaqin tarixdagi shunga

o‘xshash holat Tog‘li Qorabog‘, Dnestr bo‘yi, Tojikiston, Shimoliy Kavkaz va boshqa joylarda millatlararo nizolar paytida bir necha bor yuzaga kelgan.

Vaqt chegaralari — konfliktning davomiyligi, uning boshlanishi va oxiri. Xususan, uning ishtirokchilarining muayyan vaqtdagi harakatlariga huquqiy baho berish konflikt boshlangan deb hisoblanishi, davom etayotganligi yoki allaqachon tugaganligiga bog‘liq. Bu, ayniqsa, mojaroga yangi qo‘shilganlarning rolini to‘g‘ri baholash uchun muhimdir.

Konfliktning boshlanishi, bizning nuqtayi nazarimizdan, boshqa ishtirokchiga (nizolashayotgan tomon) qarshi qaratilgan obyektiv (tashqi) xatti-harakatlar bilan belgilanadi, agar u ushbu harakatlarni unga qarshi qaratilgan deb tan olsa va ularga qarshi tursa. Bu biroz murakkab formula shuni anglatadiki, mojaro boshlangan deb tan olinishi uchun kamida uchta mos shart kerak bo‘ladi:

1) birinchi ishtirokchi ongli ravishda va faol ravishda boshqa ishtirokchi (ya’ni uning raqibi) zarariga harakat qiladi. Bundan tashqari, harakatlar orqali biz jismoniy harakatlarni ham, ma’lumot uzatishni ham tushunamiz (og‘zaki so‘z, bosma, televizor va boshqalar);

2) ikkinchi ishtirokchi (dushman) bu harakatlar uning manfaatlariga qarshi qaratilganligini anglab yetsa;

3) shu munosabat bilan uning o‘zi birinchi ishtirokchiga qarshi faol javob harakatlarini amalga oshiradi. Shu paytdan boshlab biz mojaro boshlangan deb hisoblashimiz mumkin.

Yuqorida aytilganlar shuni anglatadiki, agar faqat bitta ishtirokchi harakat qilsa yoki ishtirokchilar faqat aqliy operatsiyalarni bajarsa (xulq-atvorni rejalashtirish, dushmanning harakat yo‘nalishi haqida o‘ylash, kelajakdagi mojaroning borishini bashorat qilish va boshqalar).

Aslida, boshqa tomon da’vo qilmaydigan faqat bir tomonning harakatlari, hatto tajovuzkor bo‘lsa ham, hali konflikt deb atash mumkin emas. Ehtimol, mo‘ljallangan dushman bu harakatlarni to‘g‘ri deb biladi; Ehtimol, u birinchi ishtirokchiga dushmanlik qilishdan qo‘rqadi va unga bo‘ysunadi yoki u boshqa fikrlarni boshqaradi. Asosiysi, u birinchi mavzuga nisbatan hech qanday chora

koʻrmaydi. Ammo bu holatda tomonlar oʻrtasidagi qarama-qarshilik sifatida hech qanday ziddiyat yoʻq.

Tashqarida jismonan hech qanday tarzda ifodalanmaydigan aqliy harakatlar boshlangan nizoning elementi emas, bu tomonlar oʻrtasidagi xayoliy emas, balki haqiqiy qarama-qarshilikni anglatadi. Bogʻdagi qoʻshnisidan qasos olishni rejalashtirgan Ivan Ivanovich hali mojaroni boshlamagan, faqat uni rejalashtirgan. Qarama-qarshi pozitsiyalar hali ziddiyat emas. Bu tomonlar oʻz maqsadlariga erishish yoʻlida bir-biriga faol qarshilik koʻrsata boshlaganlarida paydo boʻladi[3].

Konflikt xalqaro munosabatlardagi tomonlar oʻrtasidagi qarama-qarshilik sifatida faqat harbiy harakatlar bilan cheklanmaydi. Diplomatik mojaro, savdo-sotiq, chegara, siyosiy, zoʻravonlik yoʻli bilan hal etilmagan boʻlishi mumkin. Biroq, barcha sharoitlarda biz tomonlar oʻrtasidagi qarama-qarshilik haqida gapiramiz, ya’ni. oʻzaro harakatlar haqida (hatto ogʻzaki). Shunday qilib, konflikt har doim ikki tomonlama (yoki koʻp tomonlama) xatti-harakatlar sifatida boshlanadi. Qoida tariqasida, undan oldin tomonlardan birining harakatlari sodir boʻladi, bu koʻp hollarda nizo qoʻzgʻatuvchini aniqlashga imkon beradi.

Shunday qilib, 1991-yilda Iroq va Quvayt oʻrtasidagi mojaroning qoʻzgʻatuvchisini aniqlash qiyin boʻlmadi. Qoʻshni davlatga asossiz hujum uyushtirgan Iroqning agressiv roli BMT va butun jahon hamjamiyatining salbiy bahosiga sazovor boʻldi.

90 yillarda MDX davlatlarida sodir boʻlgan koʻplab millatlararo nizolarning qoʻzgʻatuvchisi kim boʻlganini aytish qiyinroq. Dastlabki qadamlarning aniq emasligi, javob harakatlarining chalkashligi, oʻzaro ayblovlar, noxolis ma’lumotlar — bularning barchasi konfliktning rivojlanishini kechiktiradi va unga toʻsqinlik qiladi. uning tez va ogʻriqsiz toʻxtatilishi haqiqiy aybdorlarni aniqlashga toʻsqinlik qiladi.

Aytilganlardan allaqachon ma’lum boʻladiki, konflikt qarama-qarshiliklarni aniqlash va hal qilish yoʻli boʻlib xizmat qiladi. Agar qarama-qarshi kuchlar va ularning manfaatlari ochiq qarama-qarshilikka aylanib ketadigan keskinlikni keltirib

chiqarsa, tabiiyki, bu qarama-qarshilik ertami-kechmi barham topishi kerak. Mojaro va uning keyingi yechimi hozirgi boshi berk koʻchadan chiqish yoʻllaridan biridir.

Konfliktning funksiyalarini baholashga bunday yondashuv bilan savol tugʻiladi: nizo yuzaga kelishi yaxshi yoki yomonmi? Oddiy deb aytish mumkinki, ustunlik nuqtayi nazari har qanday nizolarga aniq salbiy baho berishdir. Darhaqiqat, biz nafaqat kundalik janjal va janjallardan, rasmiy muammolardan, balki keyingi paytlarda jiddiy millatlararo, hududiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa qarama-qarshilik va qarama-qarshiliklardan ham yetarlicha aziyat chekdik. Shu sababli, konflikt odatda jamoatchilik fikri tomonidan nomaqbul hodisa sifatida baholanadi va bu, ehtimol, umuman olganda, hech boʻlmaganda tomonlardan biri uchun shunday boʻladi[4]. Shu bilan birga, yana bir nuqtayi nazar mavjud boʻlib, unga koʻra konflikt nafaqat muqarrar ijtimoiy hodisa, balki foydalidir. Hatto konfliktni umuman salbiy hodisa deb hisoblaydigan mutaxassislar ham unda qandaydir ijobiy xususiyatlarni koʻrishadi.

Boshqa bir ilmiy anʼana odatda konfliktni gʻayritabiiy va oʻtuvchi hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlarning doimiy va hatto zarur tarkibiy qismi sifatida koʻradi. Bu anʼana Aristotel, Hobbes, Gyegel, Marks Veberga borib taqaladi. Bu fikrga koʻra, jamiyatdagi har qanday kamchilik faktining oʻzi ziddiyatni keltirib chiqarish uchun yetarli. Har qanday guruhdagi har bir kishi kam resurslardan oʻz ulushini va kerak boʻlganda boshqalar hisobiga koʻpaytirishga harakat qiladi. Va agar biz hududlar va resurslarni qidirayotganlar orasida yetakchilik, kuch va obroʻ-eʼtibor uchun kurashni aniqlasak, unda mojaro muqarrar! Va bu yerda moddiy neʼmatlarga ega boʻlish bilan bogʻliq nizo bilan oʻxshashlik boʻlmaydi, bu yerda tomonlar har bir kishining ulushi oshishiga ishonch hosil qilishlari mumkin. «Haqiqiy dunyo uchun, — deb yozgan edi R.Darendorf, — turli qarashlar, ziddiyatlar va oʻzgarishlarning kesishishi zarur. Aynan ziddiyat va oʻzgarishlar odamlarga erkinlik beradi, ularsiz erkinlik mumkin emas»[5].

L. Koserning fikricha, guruh ichidagi ziddiyat uning birligiga yoki birligini tiklashga yordam berishi mumkin. Shuning uchun, faqat shunday maqsadlar, qadriyatlar va manfaatlarga taʼsir qiladigan, guruh ichidagi munosabatlarning qabul

qilingan tamoyillariga zid bo‘lmagan ichki ijtimoiy mojarolar, qoida tariqasida, funksional jihatdan ijobiydir[6].

Yuqoridagi nuqtayi nazarlarni solishtirganda, ular biroz boshqacha narsalar haqida gapirayotgani aniq. Aslida, ziddiyat foydalidir, chunki u qandaydir tarzda qarama-qarshilikni hal qiladi. Lekin qanday narxda? Tizimni yo‘q qilish yoki jiddiy zarar etkazish yoki hatto tomonlardan birini yo‘q qilish orqali. Obyektiv ravishda mavjud bo‘lgan qarama-qarshilik nizoga olib kelmasa, balki tinch, madaniyatli vositalar bilan bartaraf etilsa yaxshi. Shuning uchun, bizning nuqtayi nazarimizdan, biz konfliktlarning foydaliligi haqida faqat juda aniq holatlarda va bundan tashqari, shartli ma’noda gapirishimiz mumkin.

Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, har bir konflikt qonuniy emas, balki deyarli har bir konflikt u yoki bu huquqiy protsedura bilan yakunlanishi mumkinligini ta’kidlash mumkin. Konfliktning oldini olish, hal qilish yoki tugatishning huquqiy imkoniyatlari, qoida tariqasida, konfliktning huquqiy tabiatiga qaraganda kengroqdir. Biroq, ko‘p hollarda konfliktning boshidanoq huquqiy aralashuv uchun qonuniy asoslar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sotsiologicheskiy slovar. Minsk, 1991. S. 80
2. Zaprudskiy Yu. G. Sotsialnыy konflikt. Rostov, 1992 S. 54.
3. Sotsialnыe konfliktы... Vыp. 1. S. 31.
4. Iz-za konfliktov na proizvodstve teryayetsya do 15% rabochego vremeni. Sm.: Danakin N. S., Dyatchenko L. Ya. Texnologii sotrudnichestva i protivoborstva. Belgorod, 1993. S. 43.
5. Darendorf R. The modern social conflict. L., 1988. P. 87.
6. Coser L. A. The function of social conflict. Sociological theory. London, 1957. P. 199.

JAMIYAT XAVFSIZLIGIGA OID TUSHUNCHALARNING IJTIMOIY TAHLILI

Axmedov Farrux Nurmuxammad o‘g‘li
Renessans ta’lim universiteti
“Ijtimoiy-siyosiy fanlar”
kafedrasi tadqiqotchisi
+998935281018
@odiljonmusayev

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Jamiyat xavfsizligiga oid “globallashuv”, “tahdid”, “Ommaviy madaniyat” kabi tushunchalarning ijtimoiy jihatdan tahlil qilingan. Bu nafaqat hozirgi voqelikni tahlil qilishni, balki kelajakdagi ssenariylarni bashorat qilishni ham talab qiladi. Unda milliy va xalqaro miqyosda xavfsizlik siyosatini ishlab chiqish, shuningdek, global o‘zgarishlar va muammolar oldida jamiyatlarning barqarorligini mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tushunchalar tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar*: xavfsizlik, barqarorlik, taxdid, globallashuv, “ommaviy madaniyat”, ma’naviyatga taxdid, terrorizm, ekstremizm.*

Социальный анализ концепций, связанных с общественной безопасностью

Аннотация. *В данной статье такие понятия, как «глобализация», «угроза», «массовая культура», связанные с общественной безопасностью, анализируются с социальной точки зрения. Для этого необходимо не только анализировать текущую реальность, но и прогнозировать будущие сценарии. В ней анализируются концепции, важные для разработки политики безопасности на национальном и международном уровнях, а также для укрепления стабильности обществ перед лицом глобальных изменений и проблем.*

Ключевые слова: *безопасность, стабильность, угроза, глобализация, «массовая культура», угроза духовности, терроризм, экстремизм.*

Social analysis of concepts related to public safety

Annotation. *This article analyzes the concepts of "globalization", "threat", "popular culture" related to public security from a social perspective. This requires*

not only an analysis of current reality, but also a prediction of future scenarios. It analyzes concepts that are important for developing security policies at the national and international levels, as well as for strengthening the stability of societies in the face of global changes and challenges.

Key words: *security, stability, threat, globalization, "popular culture", threat to spirituality, terrorism, extremism.*

So‘nggi o‘n yilliklarda dunyo globallashuv jarayoniga guvoh bo‘ldi, bu mamlakatlar va madaniyatlarning o‘zaro munosabatlarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Globallashuv hayotning barcha jabhalariga, iqtisodiyotdan madaniyatgacha kirib boradi va global o‘zaro bog‘liqlik tarmog‘ini yaratishga hissa qo‘shadi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy o‘sish va texnologik yangiliklar, balki turli madaniyatlarning aralashishi va o‘zaro boyishiga olib keladigan madaniy almashinuv bilan ham tavsiflanadi.

Insoniyat tarixi shundan guvohlik beradiki, har qanday jamiyatdagi kechayotgan jarayonlarda uning rivojlanishi va tanazzulga yuz tutishiga sabab bo‘ladigan turli holatlar doimo bo‘lgan va bo‘laveradi. Har ikki holat rivojlanishi va tanazzulida ham insonlar “omma”si muhim o‘rin egallaydi. Ya’ni jamiyatdagi voqea-hodisalarning tizimlilik bilan rivojlanib borishida yoki uning yemirilib parokandalikka yuz tutishida “omma”ning roli katta. Xo‘sh, “omma”ning o‘zi nima? Uning “ommaviy madaniyat” bilan qanday aloqasi bor?

Omma – millati, irqi, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, yoshidan qat’i nazar, butun dunyo odamlari. Ommaga biror g‘oya targ‘ib qilinsa, qiziqtirilsa, ularning ongini egallasa yoki muayan maqsad ostida birlashtirsa, uni boshqarish oson bo‘ladi. Ammo bugungi davrda ommani birlashtirish muammosi emas, balki ularni aynan qanday maqsad ostida birlashtirish, shuningdek, ularga nimani targ‘ib qilish muhim masalalardan biri sanaladi. Shu ma’noda ommaviy madaniyat – madaniyat mavjudligining murakkab shakli bo‘lib, u hamma davrlarda ham bir xil talqin qilinmaydigan jarayon hisoblanadi[1]. Chunki omma nafaqat ijobiy maqsadlar yo‘lida, balki salbiy jarayonlarni amalga oshirish g‘oyalari ostida ham harakat qilishi mumkin.

Bugun “globallashuv” juda keng darajada ommaviylashib ketgan tushunchaga aylandi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki uning ta’sir o‘tkazmagan birorta sohasi qolmadi. Uning moddiy kush sifatida shakllanishi tarixiy taraqqiyotning obyektiv qonuniyati hisoblanadi. Bugungi kunga kelib insoniyat intellektual salohiyatining yuksak darajada rivojlanishi va uning o‘sib borayotgan moddiy hamda ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan intilishlari fan, texnika va texnologiyani hamda ijtimoiy tarmoqlarni zamon talabi darajasida rivojlantirishni talab etmoqda. Bu yo‘nalishda qo‘lga kiritilgan olamshumul yutuqlar, butun insoniyatga beminnat xizmat qilmoqda.

Globallashuv – barcha sohani ya‘ni falsafiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy boshqa sohalarni qamrab oladigan ko‘p o‘lchovli harakat. Bu milliy chegaralar ahamiyatsiz bo‘lib qoladigan yagona dunyo makonining shakllanishiga olib keladi. Globallashuv xalqaro savdoning o‘sishiga, texnologiyalar va madaniy qadriyatlar almashinuviga, shuningdek migratsiya oqimining ko‘payishiga yordam beradi. Shu bilan birga, bu daromadlar tengsizligi, madaniy o‘ziga xoslikni yo‘qotish va ekstritritorial xatarlar kabi oqibatlari to‘g‘risida tortishuvlarni keltirib chiqaradi.

Globallashuvning asosiy jihatlari:

- Iqtisodiy jihatdan milliy iqtisodiyotlarning global iqtisodiy tizimga qo‘shilishi, bu xalqaro savdo va investitsiyalarning ko‘payishiga, xalqaro savdo to‘siqlarining pasayishi va logistika tarmoqlarining rivojlanishi hisobiga mamlakatlar o‘rtasidagi savdo hajmining rivojlanishiga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ortishi va transmilliy korporatsiyalarni yaratishga, jahon moliya bozorlarining shakllanishi va iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikning o‘sishiga olib keladi.

- Madaniy jihatdan dunyo bo‘ylab madaniy mahsulotlar va qadriyatlarning tarqalishiga olib keladigan madaniyatlarning o‘zaro ta’siri ortishiga, mamlakatlar o‘rtasida madaniy mahsulotlar (kino, musiqa, adabiyot) va g‘oyalarni sochishga, migratsiya va madaniy qadriyatlar hamda urf odatlar, almashinuvi tufayli davlatlar va shaharlarda madaniy xilma-xillikning o‘sishiga, zarur brendlar va iste’molchilar standartlarini ommalashtirishga yordam qiladi.

- Ijtimoiy jihatdan migratsiya oqimining ko‘payishiga, bu mamlakatlarda madaniyatlar va etnik xilma-xillikning aralashiga, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarga ta’sir ko‘rsatadigan tug‘ilish, o‘lim va migratsiyadagi farqlar tufayli demografik tuzilmalarni o‘zgartirishga olib keladi[2].

Globallashuvning ijobiy tomonlari bu – global YIMning o‘sishi va ayrim mamlakatlarda turmush darajasining yaxshilanishiga, innovatsiyalar va texnologiyalarning tez tarqalishiga, madaniy urflarni kengaytirish va turli xil madaniy mahsulotlarga kirishga, odamlar va mamlakatlar o‘rtasidagi muloqotni osonlashtirishga, o‘zaro tushunish va hamkorlikni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Globallashuvning salbiy tomonlari esa bu – iqtisodiy tengsizlik bo‘lib boy va kambag‘al mamlakatlar va aholi qatlamlari o‘rtasidagi tafovutning kengayishiga, madaniy o‘ziga xoslikni yo‘qotishga, G‘arb madaniyatining hukmronligi va milliy an’analarning yo‘qolishiga, ekologik muammolar, tabiiy resurslarning ifloslanishi va kamayishiga, yangi mojarolar va milliy xavfsizlikka tahdidlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Globallashuv zamonaviy dunyoni shakllantiradigan asosiy jarayonlardan biridir. U inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi va mamlakatlar va madaniyatlarning o‘zaro munosabatlarini o‘zgartiradi. Globallashuvni chuqurroq tushunish uchun uning asosiy jihatlari va jamiyatga ta’sirini ko‘rib chiqish muhimdir.

“Globallashuv” tushunchasi amerikalik olim T.Livittin tomonidan 1983-yilda “Garvard biznes revyu”[3] jurnalida e’lon qilingan maqolada qo‘llanilgan. U bu tushunchani qo‘llash orqali jahon, xususan, taraqqiy topgan mamlakatlarda iqtisodiy sohada yuzaga kelgan rivojlanishlarni, ularda transmilliy korporatsiyalarning paydo bo‘lishi va ularning o‘zaro birlashib katta hududlarni va bozorlarni egallashi, shu tariqa gigemom iqtisodiy makonni yaratilishiga qaratilgan harakatlarni ko‘rsatish maqsadida qo‘llagan. Bu davrda Yevropaning bir qator mamlakatlari va AQSHda iqtisodiyotning tez sur’atlar bilan rivojlanishi sodir bo‘ldi hamda ularning jahon iqtisodiyotida yetakchiligi ta’minlandi. Eng asosiysi, ular

jahon bozorida yagona kush sifatida mustahkam o‘rin egallashga muvaffaq bo‘lgan edilar.

Bu jarayonning avj olishi uni ilmiy jihatdan o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni ham orttirib yubordi. Bu jarayonni birinchilardan bo‘lib Roland Robertson 1985-yildan boshlab ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rgana boshladi[4]. Roland Robertson globallashuvga taraqqiyotning ma’lum bosqichi, uning tobora rivojlanishi jahonda bir butunlikka olib keluvchi omil sifatida qaradi. Uning bu jarayonni o‘rganishdagi xizmati shunda ko‘rindiki, u globallashuvni rivojlanishiga, iqtisodiyotning o‘sishiga va yutuqlarning ommaviylashuviga olib keluvchi omili ekanligini, shuning uchun uni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish, tahlil qilish hamda uning imkoniyatlaridan o‘z vaqtida foydalanish zarurligini anglab yetdi.

Ana shundan keyingi o‘tgan davrlarda “globallashuv” tushunchasining mazmun-mohiyatini va uning mamlakatlar hamda insonlar hayotidagi o‘rnini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlar ortdi, unga nisbatan turli qarashlar, ziddiyatli fikrlar shakllandi va ular bugungi kunda ham davom etib kelmoqda. Bugungi kunda bu jarayonga bag‘ishlangan turli darajadagi ilmiy-nazariy anjumanlar, seminar, treninglar o‘tkazib kelinmoqda, maxsus ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ammo uning ijobiy yoki salbiy jihatlari haqida yagona fikrga kelinmagan. Bu tabiiy hol, chunki vaqt o‘tishi bilan globallashuvning yangi qirralari yuzaga chiqmoqda, uning jahon taraqqiyotiga va insoniyat hayotiga o‘tkazayotgan ta’siri kuchayib bormoqda. Ayni paytda, bu jarayonlarda bir qator ziddiyatlar ham yuzaga kelmoqda. Ularni chuqur o‘rganmasdan turib esa insoniyat barqaror taraqqiy qila olmaydi.

Globallashuv ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Dastlab uni G‘arb olimlari o‘rganganlar va bugun ham o‘rganishda davom etmoqdalar. Agar ular dastlab globallashuvni taraqqiy topgan mamlakatlar iqtisodiyotida kechayotgan jarayonlar orqali o‘rganishga e’tibor bergan bo‘lsalar, bugungi kunda uni kompleks holatda tahlil qilib, istiqbolda uning rivojlanishi nimalarga olib kelishi mumkinligini basharot qilishga harakat qilmoqdalar. Jumladan, Kolumbiya universitetining professori Jozef Stiglis globallashuv jarayonini taraqqiyotga olib keluvchi, insonlar hayotini yaxshilashning omili sifatida qarab, shunday yozadi: “Globallashuv

insonlar hayotini yaxshilashning eng yaxshi potensialidir, shu jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining hayoti yaxshilanmoqda. Uning ayrim yo‘nalishlari hozirning o‘zida, masalan, ilmning globallashuviga, sog‘liqni saqlash, insonlarning umrini uzaytirishga olib kelmoqda”[5].

Professor S.Otamuratov “globallashuv” tushunchasining ma’no-mazmuniga aniqlik kiritish uchun uni “baynalmilallashuv”, “integratsiyalashuv”, “ilmiy-texnik revolyutsiya” kabi tushunchalar bilan qiyoslaydi. U shunday yozadi: “…bugungi kunga kelib “baynalmilallashuv”, dunyo xalqlari o‘rtasidagi kechayotgan tabiiy yaqinlashuvni ifoda ettiruvchi “integratsiya” (bugun bu tushuncha asosan iqtisodiyotga nisbatan qo‘llanilishi an’anaga aylangan), fan, texnika, texnologiyada insoniyat taraqqiyotini yuksaltirishga xizmat qilgan “ilmiy-texnik revolyutsiya” kabi tushunchalar ilmiy iste’moldan chiqib ketdi va globallashuvning “qurboni”ga aylandi[6].

Muallif fikricha, globallashuv birdaniga sodir bo‘lgan jarayon emas, balki u “baynalmilallashuv”, “integratsiyalashuv” va “ilmiy-texnik revolyutsiyalar”ning amal qilishi hamda ularning tabiiy kechishidan, bir tomonning manfaatlari ustuvorligini ta’minlovchi omil sifatida yuzaga kelgan jarayondir.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, globallashuvga voqelik sifatida ham turli qarashlar mavjud. Jumladan, bir qator olimlar unga jarayon sifatida qarasa, ikkinshi birlari tendensiya, yana birlari esa omil sifatida qaraydilar.

Globallashuv bilan bir qatorda, shaxslar uchun ham, butun jamiyat uchun ham xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan yangi tahdidlar paydo bo‘lmoqda. Tahdidlarning tabiati va manbalarini tushunish ularning oldini olish va yumshatish strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi. Ushbu tahdidlar ijtimoiy-falsafiy, jismoniy, iqtisodiy, siyosiy va kibernetik bo‘lishi mumkin va ularning har biri ularni yo‘q qilish uchun alohida e’tibor va yondashuvlarni talab qiladi. Jumladan:

jismoniy tahdidlarga tabiiy ofatlar (zilzilalar, toshqinlar), texnogen baxtsiz hodisalar va mojarolarni kiritish mumkin. Tabiiy ofatlar hisoblanadigan zilzilalar, toshqinlar, bo‘ronlar, vulqon otilishi, bu sezilarli halokat va yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Texnogen baxtsiz hodisalar bu sanoat obyektlaridagi baxtsiz

hodisalar, transport hodisalari, keng ko‘lamli oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan xavfli moddalarning oqishi kabilar kiradi. Harbiy mojarolar va terrorizm odamlar hayoti va davlatlar barqarorligiga tahdid soladigan harbiy harakatlar, terroristik harakatlar va zo‘ravonlikdir;

ijtimoiy tahdidlarga epidemiya va pandemiya, ommaviy talofatlarga va jamoat hayotining buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yuqumli kasalliklarning tarqalishi, ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy yoki siyosiy notinchlik va harbiy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan turli xil ijtimoiy guruhlarning kengayishi, ishsizlik va qashshoqlikning darajasi oshib ketish kabilar kiradi. Ular hayot sifatining yomonlashishiga va ijtimoiy muammolarga olib keladi;

kiber tahdidlarlarga axborot tizimlariga hujumlar, ma’lumotlar chiqishi, raqamli josuslik, kiber hujumlar, ma’lumotlarni o‘g‘irlash, kodlarni buzish va axborot tizimlariga noqonuniy kirish uchun aloqa tarmoqlariga hujumlar, kiber hujumlar, elektron raqamli vositalar orqali maxfiy ma’lumotlarni noqonuniy ravishda olish, kiberterrorizm, terroristik harakatlar va qo‘rqitishlarni amalga oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish kabilar tashkil etadi.

Tahdid haqida xabardorlikning ijobiy tomonlari shundaki tahdidlardan xabardor bo‘lish ularning oldini olish va oqibatlarini minimallashtirish choralarini ishlab chiqishga imkon beradi. Ya’ni turli tahdidlarga samarali qarshi tura oladigan tizimlar va mexanizmlarni yaratish, terrorizm va iqlim o‘zgarishi kabi global tahdidlarga qarshi kurashish bo‘yicha davlatlar va tashkilotlarning birgalikdagi sa’y-harakatlari tashkil etish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Фалсафа: қомусий луғат. –Тошкент: Шарқ, 2004. –Б.313
2. Муаллифнинг шу йўналишдаги назарияларни ўрганиш натижасида чиқарган талқинлари.
3. Мировая економика и международные отношения. – М., 1988. – №1. – С.13.
4. ҳттп (www.word.widewar)

5. Узбекистан анд Централ Ациа – Сентр политисъҳеских исследований. Информасионно-аналитический бюллетень, 2007. IX. – С. 42.
6. Отамуратов С. Глобаллашув ва илмий-маънавий хавфсизлик (сиёсий-фалсафий таҳлил). Иккинши нашр. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 31

MILLIY MA'NAVIYATIMIZGA TA'SIR ETUVCHI TAHDIDLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Shapsanova Nodira Berdiqulovna
Ренессанс таълим университети
"Ижтимоий-сиёсий фанлар"
кафедраси мустақил тадқиқотчиси
+998935281018
@odiljonmusayev

Anatatsiya. *Mazkur maqolada globallashuv sharoitida milliy ma'naviyatimizga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi tahdidlar, ularning o'ziga xos jihatlari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek unda tahdidlarning ichki va tashqi ko'rinishlari haqida fikr yuritilganda, ko'proq uning shakllari ko'z oldimizda namoyon bo'lishi borasidagi fikrlar tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *globallashuv, mustaqillik, millat, tahdidlar, bevosita tahdidlar, bilvosita tahdidlar, milliy ma'naviyat, mafkura, qadriyatlar, milliy til, ziddiyat.*

Конкретные аспекты угроз, затрагивающих нашу национальную духовность

Anatatsiya. *V dannoy statye rassmatrivayutsya ugrozы, kotorыe pryamo i kosvenno zatragivayut nashu natsionalnuyu duxovnost v usloviyax globalizatsii, a takje ix konkretnыe aspektы. Takje, dumaya o vnutrennix i vneshnix aspektax ugrozы, on analiziruyet mыsli o yee formax, voznikayuщix pered nashimi glazami.*

Klyuchevыe slova: *globalizatsiya, nezavisimost, natsiya, ugrozы, pryamыe ugrozы, kosvennыe ugrozы, natsionalnaya duxovnost, ideologiya, sennosti, natsionalnыy yazыk, konflikt.*

Specific aspects of the threats affecting our national spirituality

Anatomy. *This article examines the threats that directly and indirectly affect our national spirituality in the context of globalization, as well as their specific aspects. Also, thinking about the internal and external aspects of the threat, he analyzes thoughts about its forms that appear before our eyes.*

Keywords: *globalization, independence, nation, threats, direct threats, indirect threats, national spirituality, ideology, values, national language, conflict.*

Ijtimoiy hayot shiddat bilan o‘zgarib borayotgan globallashuv davrida yashayapmiz. O‘tgan asrning 70-80 yillarida tor doiradagi geosiyosiy, makroiqtisodiy va siyosiy-mafkuraviy adabiyotlarda paydo bo‘lgan bu atama bugun kishilar o‘rtasidagi oddiy muloqot mavzuiga aylanishga ulgurdi. Globallashuvning bu qadar shiddat bilan rivojlanishiga o‘tgan asrning 90-yillariga kelib “Sovuq urush”ning barham topishi, uning oqibatida xalqaro munosabatlarda kuchlar nisbatining butunlay o‘zgarishi, avvalgi “ikki qutbli dunyo”dan iborat jahon siyosiy haritasi asta-sekinlik bilan “ko‘p qutbli dunyo”ga aylana boshlaganligi faol ta’sir ko‘rsatdi.

Endilikda xalqaro xavfsizlikka tahdid soluvchi manbalar sifatida davlatlarning harbiy bloklari emas, turli kuch markazlari tomonidan muttasil ko‘mak olib turuvchi “g‘ayriqonuniy” tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda. U yoki bu davlatda yuz berayotgan ichki ziddiyatlar, davlatlararo mintaqaviy mojarolar esa, ba’zan o‘z-o‘zidan xalqaro xavfsizlikka tahdid soluvchi manbaga aylanib ketsa, ba’zan sun’iy ravishda shunday manbaga “aylantirilmoqda”. O‘z navbatida, bularning barchasi globallashuvning keng quloch yozishi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotganligini tushunish unchalik qiyin emas.

Ilmiy adabiyotlarda tahdidlarni ikki – tashqi va ichki guruhlarga ajratish an’anaga aylangan[1]. Aslida bunday qarashlarga e’tirozimiz yo‘q. Chunki, haqiqatdan ham, voqea-hodisa va jarayonlar tashqi yoki ichki omillarning ta’sirida yuzaga kelishi mumkin. Bunday qarashni milliy ma’naviyatga nisbatan ham qo‘llash xato bo‘lmaydi. Ammo ma’naviyatning ong, dunyoqarash va ruhiyat bilan bog‘liqligini hisobga oladigan bo‘lsak, fikrimizcha, yuqorida ta’kidlangan an’anaviy qarash ularning ta’sir etish holati, imkoniyatlari va jarayonlarning mohiyatini to‘la

anglab yetishda bir qadar qiyinchilik tug‘diradi. Nazarimizda, tahdidlarning ichki va tashqi ko‘rinishlari haqida fikr yuritilganda, ko‘proq uning shakllari ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Tahdidning mazmuni va ta’sir o‘tkazish jarayoni chuqur anglab yetilmaydi. Shuni hisobga olganimizda, milliy ma’naviyatning o‘ziga xos ta’sirga beriluvchanligi va jarayonning murakkabligi nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, tahdidlarga nisbatan noan’anaviy qarashlarni shakllantirish to‘g‘ri bo‘ladi. Bu uning ong, dunyoqarash va ruhiyat bilan o‘zaro munosabatlarida ma’naviyatda kechadigan jarayonlar mohiyatini chuqurroq anglab yetish imkonini beradi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, “Ma’naviyatning yana bir muhim xususiyati odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qilishda yorqin namoyon bo‘ladi”[2].

Yuqoridagi fikrlariga asoslanib, ta’kidlash mumkinki, ma’naviyatga nisbatan yuzaga keladigan tahdidlarni ikkita – bevosita va bilvosita guruhlarga ajratish to‘g‘ri bo‘ladi. Ular, o‘z navbatida, tashqaridan va ichkaridan yuzaga kelishi mumkin. O‘zbekistonda chop etilgan lug‘atlarda “bevosita” va “bilvosita” tushunchalarining mazmun-mohiyati berilmagan. Lekin u kundalik hayotdagi voqea-hodisa va jarayonlarning yuzaga kelishida keng qo‘llaniladigan tushuncha hisoblanadi. Fikrimizcha, “bilvosita” deganimizda, voqea-hodisa va jarayonlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sirlar asosida yuzaga kelishi anglashilsa, “bilvosita” ularning u yoki bu vositalar yoxud omillar orqali amal qilish holatini anglatuvchi tushunchadir. Ularning har ikkalasi ham “ta’sir”ning mohiyati va uning amal qilishi natijasida bo‘ladigan o‘zgarishlar darajalarini belgilashda qo‘llaniladi.

Milliy ma’naviyatlarga nisbatan yuzaga keladigan tahdidlar ta’sirini, ularning natijalarini aniq tasavvur etish, bilib olish va ularning ijobiy yo‘nalishga – inson va millat manfaatlariga xizmat qildirish uchun “bevosita” va “bilvosita” tushunchalaridan keng foydalanish mumkin. Bu tushunchalar ta’sir etish jarayonlarining falsafiy ta’sir etish imkonini ham beradi. Ya’ni ta’sirning mohiyati, nimaga qaratilganligi va turli munosabatlar tizimidagi o‘rnini ham “bevosita” va “bilvosita” tushunchalari orqali tasavvur etish mumkin bo‘ladi.

Endi “bevosita” va “bilvosita” tushunchalarining falsafiy mohiyatiga qaytib, shuni alohida ta’kidlash lozimki, ular ilmiy iste’molda ham keng ommaviylashgan emas. O‘zbekistonda chop etilgan ilmiy adabiyotlar va lug‘atlarda bu tushuncha uchramaydi. Ular qo‘llangan adabiyotlarda ham ba’zan o‘zining mazmun-mohiyatini topmagan.

Bevosita ta’sir etuvchi tahdidlarning birinchisi – milliy o‘zlikdan begonalashuvdir. U yoki bu millatning milliy o‘zligidan begonalashuvi uning boshqa tahdidlarga nisbatan ham tahdidbardoshlik immunitetidan mahrum bo‘lib qolishiga, o‘z navbatida, bu millatning o‘zgalarga qo‘shilib (assimiliatsiyalashib) ketishiga olib keladi. Ammo millatlarning o‘zligidan begonalashuvi o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Ular quyidagi holatlarda sodir bo‘ladi:

– millatlarning o‘z mustaqilligi va erkinligidan mahrum bo‘lib, qaramlik holatiga tushib qolishi;

– ularning milliy-ma’naviy rivojlanishga zid ma’naviyatlar ta’siriga tushib qolishi;

– millat vakillarining o‘z milliy-ma’naviy zaminlariga nisbatan e’tiborsizligining kuchayib borishi;

– millat vakillarini birlashtiruvchi g‘oyaning yo‘qligi yoki bo‘lsa-da, zaifligi “yoxud” real hayotdan uzoqligi kabilarda.

Tarixiy xotiraning xiralashuvi milliy ma’naviyatga nisbatan bevosita ta’sir o‘tkazuvchi tahdidlarning ikkinchisini tashkil etadi. Tarixiy xotira bilan milliy o‘zlikni anglash o‘zaro bog‘liq hodisalardir. Agar tarixiy xotira xiralashadigan bo‘lsa, millat o‘z ajdodlaridan uzilib qoladi, o‘z taraqqiyoti uchun o‘ta muhim bo‘lgan tarixiy tajribadan mahrum bo‘ladi, ajdodlarining taraqqiyotda erishgan yutuqlari va yo‘l qo‘ygan kamchiliklaridan bexabar bo‘lib qoladi. Ularsiz esa millat mustaqil subyekt sifatida shakllana olmaydi, istiqboli uchun zarur bo‘ladigan taraqqiyotning aniq yo‘lini ham ishlab chiqolmaydi.

Milliy ma’naviyatimizga tahdidlardan yana biri millatimiz vakillarining bir qismida milliy-ma’naviy zaminlardan begonalashuvning yuzaga kelayotganidir. Xo‘sh, milliy-ma’naviy zaminlar deganda nimani tushunamiz? Uning zaminini, eng

avvalo, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bizgacha yetib kelgan moddiy va ma’naviy boyliklar tashkil qiladi. Moddiy boyliklar ajdodlarimizning qo‘l mehnati va aql chirog‘i bilan qurilgan binolar: madrasa, masjid, qal’a, kutubxona va boshqalarni o‘z ichiga olsa, ma’naviy boyliklarimizni ularning intellektual salohiyatining mevasi bo‘lgan ilmiy va badiiy asarlar, shakllantirilib, qadriyat darajasigacha ko‘tarilgan urf-odat, an’ana va qadriyatlar tashkil etadi.

Milliy ma’naviyat rivojlanishiga qarshi bo‘layotgan tahdidlardan yana biri milliy tilning millat vakillari o‘rtasidagi munosabatlarda ustuvor vosita sifatidagi maqomining zaiflashuvi bilan bog‘liq. Mustaqillik yillarida milliy tilimizga davlat maqomi berildi, uning huquqi oshirildi.

Rossiyalik tadqiqotchi ta’kidlagandek, “Milliy tilda milliy tafakkurning xususiyatlari o‘z ifodasini topadi”[3]. Milliy til millatning mustaqil subyekt sifatidagi maqomini ham belgilab beradi. O‘z milliy tiliga ega bo‘lmagan millat mustaqil subyekt darajasiga ham ko‘tarila olmaydi. Lekin bugun globallashuvning avj olish sharoitida milliy til taraqqiyotida ma’lum muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan, milliy tillar faqat millat vakillarining o‘zaro kundalik aloqalari vositasi darajasiga aylanib bormoqda. Xorijiy tillarning, xususan, ingliz tilini o‘rganishning har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi til siyosatida ustuvor darajaga ko‘tarildi. Bugun yoshlar orasida o‘z ona tilini bilmaydiganlar yoxud chala biladiganlar soni ko‘paymoqda.

Milliy tarbiyani olib borishdagi sustkashlik ham milliy ma’naviyatga nisbatan yuzaga keladigan tahdidlardan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bugungi kunda tarbiyaning mamlakatimiz, ayniqsa, yoshlarimiz, xalqimiz taraqqiyotida tutgan o‘rnini ta’kidlar ekan, “...tariximiz, madaniyatimiz, dinimizga aloqador bir varaq qo‘lyozma bo‘lsa ham, ularni to‘plab, xalqimizni, yoshlarimizni tanishtirish, bizning qanday buyuk va betakror merosimiz borligini anglatish, farzandlarimizni shu ulug‘ merosga munosib etib tarbiyalashdan iborat”[4], – degan fikrlarni bildiradi.

Haqiqatan ham, mustaqilligimiz sharofati tufayli milliy-ma’naviy tiklanishimiz kechayotgan bugungi kunda tarbiyaning roli nihoyatda katta

ahamiyatga ega. Ayniqsa, bugungi kunda kechayotgan jarayonlar uzoq yillar davomida milliy-ma’naviy rivojlanishimiz borasida boy berilgan imkoniyatlarni qayta tiklash, millatimiz vakillarining, ayniqsa, yoshlarimizning ongi va qalbiga milliy merosimiz, urf-odat, an’ana va qadriyatlarni singdirishimiz uchun milliy tarbiyani izchillik bilan olib borishimizni taqozo etmoqda.

Milliy ma’naviyatga tahdidlar har doim turli darajalarda amal qilib kelgan. Ammo ma’naviyatlararo o‘zaro ta’sir etish va boyish qonuniyatining tabiiy kechishi ularning sezilarli darajada salbiy ta’sir o‘tkazish imkoniyatini qoldirmagan. Globallashuv jarayonining avj olishi ma’naviyatlararo tengsizlikni vujudga keltirishi oqibatida ana shu o‘zaro ta’sir etish va boyishdagi amal qiladigan obyektiv qonuniyatlarning barbod bo‘lishiga olib keldi. Bu, o‘z navbatda, tahdidlarning kuchayishiga, ularning yangi bosqichga ko‘tarilishida yetakchi omilga aylandi.

Shuni aytish mumkinki, bevosita hamda bilvosita tahdidlar bir-birlari bilan bog‘liq holda kechayotgani hamda ularning moddiy bazalarining mustahkamlanayotganligi milliy ma’naviyatlarni ularning ta’siridan asrashni ham murakkablashtirmoqda. Chunki bugungi globallashuvning avj olishi bir tomonning, ya’ni asosan, moddiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan tomonning manfaatlariga xizmat qilmoqda, ikkinchi tomon esa ularga o‘zlari “sezmagan” holda bog‘lanib qolmoqdalar. Ana shu salbiy holatlarni hisobga olgan holda, tahdidlarga nisbatan tegishli nazariy xulosalar va amaliy tadbirlarni ishlab chiqish milliy ma’naviyatlarni asrab qolishning zaruriy ehtiyoji bo‘lib qolmoqda.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Paxrutdinov Sh. Tahdid – halokatli kuch (maqola va ma’ruzalar to‘plami). – Toshkent: Akademiya, 2001. – B. 12; Jurayev T., Paxrutdinov Sh. Dunyoviy davlatchilik va siyosiylashgan diniylik azaliy muxolifot. – Toshkent: Akademiya, 2008. – 146 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 25.
3. Istomina O.B. Natsionalnaya kultura: puti soxraneniya v usloviyax globalizatsii // Gumanitarnыy vektor. – M., 2011. – №2 (26). – S. 36.

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 471.

5.

SHAMSIDDIN TABRIZIYNING TASAVVUFIY-FALSAFIY QARASHLARI

Odinayev Mahmud Ahmadovich,
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti
Tel: +998 93 635 42 12
E-mail: mahmud.odinayev@mail.ru
Orcid: 0009-0008-8710-0288

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tasavvuf falsafasining namoyandalaridan biri Shamsiddin Tabriziyning hayoti, ilmiy-falsafiy faoliyati, tasavvufiy qarashlari tahlil qilingan. Mutasavvif qarashlarining komil inson konsepsiyasini shakllantirishdagi roli misollar asosida ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tasavvuf, Shams Tabriziy, komil inson,* shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat, Mavlaviya tariqati, Jaloliddin Rumiy.

Аннотация. *В статье анализируется жизнь, научная и философская деятельность, мистические взгляды Шамсиддина Тебризи, одного из представителей суфийской философии. На примерах поясняется роль суфийских воззрений в формировании представления о совершенном человеке.*

Ключевые слова: *суфизм, Шамс Тебризи, совершенный человек, шариат, тарикат, просветление, истина, тарикат Мавлави, Джалалуддин Руми.*

Abstract. *The article analyzes the life, scientific and philosophical activity, mystical views of Shamsiddin Tabrizi, one of the representatives of Sufi philosophy. Examples explain the role of Sufi views in the formation of the idea of a perfect person.*

Key words: *Sufism, Shams Tabrizi, perfect man, Sharia, Tariqah, enlightenment, truth, Tariqah Mawlawi, Jalaluddin Rumi.*

Tasavvuf falsafasining yorqin namoyandalaridan biri hisoblangan Shamsiddin Muhammad ibn Ali Malikdod Tabriziy taxminan 1186-yili Tabrizda tug‘ilgan. U

asosan Shamsuddin, Shamsu-l-haq va-d-din, Shams va Shams Tabriziy nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Aflokiyning yozishicha, Shams tug‘ilgan joyidagi tasavvuf tarafdorlari tomonidan sargardon hayot kechirgani uchun “Shamsiddini Paranda” nomi bilan ham atalib kelingan. [Eflâkî, 1995. 7].

Uning otasi Ali ibn Malikdod savdo-sotiq maqsadida Xurosondan Tabrizga kelib o‘rnashib olgan savdogar edi. Shams Tabriziy – XIII asrda yashagan mashhur mutasavvif va faylasuf bo‘lib, asosan Jaloliddin Rumiy hayotida tutgan o‘rni va uning fikriy shakllanishidagi ta’siri bilan mashhurdir. Shams Tabriziyning ilmiy-falsafiy faoliyati haqida to‘liq tushuncha olish uchun uning hayoti, asarlari, g‘oyalari va Jaloliddin Rumiy ta’limotining shakllanishidagi o‘rnini ko‘rib chiqish lozim. [Sultan Veled, 1976. 49].

Allomaning hayoti va ilmiy-falsafiy faoliyati haqida guvohlik beruvchi «Maqoloti Shams Tabriziy» va «Manoqibul orifin» asarlarida Shamsiddin Tabriziyning bolalik va yoshlik yillarida yuksak ma’naviy qobiliyatga ega bo‘lgani, zohidona hayot kechirgani, turli mushohadalar bilan mashg‘ul bo‘lgani ta’kidlangan. Ma’lum bo‘lishicha, Shams Tabriziy dastlab shayx Abu Bakr Sallabofdan ta’lim-tarbiya olgan. Shams Tabriziyning tasavvufiy ta’limoti shakllanishida savat to‘qish bilan kun ko‘rgan, so‘fiylik tuyg‘usi kuchli bo‘lgan Sallabofning ta’siri katta bo‘lgan. Keyinchalik Shams Tabriziy Tabrizdan Abu Bakr Sallabofni tark etib, Bag‘dod, Damashq, Halab, Qaysariya, Sivas, Erzurum va Erzinjon kabi shaharlarga borgan. Aflokiy Shams Tabriziy tomonidan bu safarlar o‘sha davr avliyolari suhbatiga qo‘shilish, ma’naviy baraka topish va chin do‘st topish istagi bilan qilinganini aytadi. Ushbu safarlar asnosida mutasavvif Bag‘dod va Qaysariyada asli termizlik bo‘lgan olim va tasavvuf namoyandasi Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy bilan, Damashqda Muhyiddin ibn al-Arabiy bilan, Sivas shahrida ilohiyot olimi Asaduddin Mutakallim bilan suhbat qurdi va ularning ma’ruzalarida qatnashdi. Mavlono Jaloliddin Rumiyning fikricha, Shams kimyo, astronomiya, riyoziyot, ilohiyot, hikmat, mantiq kabi ilmlarda ham mohir hisoblangan. [Eflâkî, 1995. 29].

Shams Halabdagi madrasa hujrasida o‘n to‘rt oy zohidlikda qolib, keyinchalik esa Anado‘li tomon yuzlanadi. Aflokiyning yozishicha, Shams Konyaga borishdan oldin Erzurumdagi shahar hokimining farzandlariga dars bergan. Rumiy va Shams Tabriziy ilk bor Shom diyorida uchrashgan. Jaloliddin Rumiy otasi vafotidan so‘ng ustozi Sayyid Burhoniddinning buyrug‘i bilan ilm o‘rganish uchun Shomga jo‘nab ketib, bir kuni xalq orasida bo‘lganida, boshiga konussimon qalpoqli, yelkasida qora chopon kiygan Shamsni ko‘rib qoladi va o‘zaro muloqotga kirishadi. Mavlononing Shams Tabriziy bilan ikkinchi uchrashuvi Sayyid Burhoniddin Termiziy vafotidan besh yil o‘tib, Konyada sodir bo‘ldi. Mavlono Jaloliddin Rumiy o‘zining “Devoni Kabir” nomli asarida Shams Tabriziyni “Haqiqat va din quyoshi, rahmat dengizi, lutfning porloq yulduzi, eng buyuk quvvat, mutlaq nur” kabi sifatlar bilan ulug‘lagan. Ushbu ma’lumot ham ikki alloma o‘rtasidagi munosabatlar naqadar yuksak darajada bo‘lganliliga dalolat qiladi. [Eflâkî, 1995. 34].

Shams Tabriziyning tasavvufiy g‘oyalari, Rumiy va boshqa so‘fiylar bilan bo‘lgan suhbatlari va hayotiga oid boshqa ma’lumotlardan iborat bo‘lgan “Maqolot” asari “Hirqai Shams” va Asrori Shamsiddin Tabriziy” kabi nomlar bilan Mavlaviya tariqati tarafdorlari orasida mashhur manbalardan hisoblanadi. Ayrim nusxalarda uning nomi “Kalimoti Shams Tabriziy” va “Maorifi Shams Tabriziy” deb qayd etilgan. Asarni Jaloliddin Rumiyning farzandi Sulton Valad tuzganligi to‘g‘risida ba’zi manbalarda ma’lumot keltiriladi. “Maqolot”ning eng qadimgi nusxasi Konyadagi Mavlono muzeyi kutubxonasida 2154 inventar tartib raqami bilan qayd etilgan. “Maqolot” asari keyinchalik Mavlaviya tariqatining shakllanish davrida yozilgan “Risolai Sipohsolor”, Sulton Valadning “Ibtidonoma” asari va Aflokiyning “Manoqibul orifin” kabi asarlari uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Mazkur asar Ahmad Xusnavis (Maqoloti Shams Tabriziy, Tehron, 1349 hijriy), Nosiruddin Sohibuzzamon (Xatti sevvum, Tehron, 1351 hijriy), Muhammad Ali Muvahhid (Maqolot, Tehron, 1369 hijriy) kabi tadqiqotchilar tomonidan bir necha narta nashr qilingan.

“Maqolot” asari Shams Tabriziy g‘oyalari va so‘fiylik tabiati haqida ma’lumot beruvchi asosiy manba hisoblanadi. Mutasavvif suhbatlari va

hikmatlaridan jamlangan mazkur asarda uning so‘fiyona qarashlari, Rumiy bilan suhbatlari, boshqa so‘fiylar haqidagi fikrlari o‘rin olgan bo‘lib, Shams Tabriziy g‘oyalarining asl mazmun-mohiyatini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Shams Tabriziyning tasavvufiy hayot yo‘liga e’tibor beradigan bo‘lsak, unda malomatiylik ta’limotining ta’siri yaqqol namoyon bo‘ladi. Malomatiylikka moyil bo‘lgan boshqa so‘fiylar singari Shams Tabriziy ham ibodatdagi riyokorlik xavfiga katta ahamiyat bergan. Sipohsolorning yozishicha, Shams o‘zining boy ma’naviy dunyosi omma orasida mashhur bo‘lishidan nihoyatda bezovta bo‘lgan. Shon-shuhratdan zerikkanligi uchun odamlar orasida muqim istiqomat qilishdan qochgan. Uning ruhiy holati tanilib, o‘zi muqim bo‘lgan joyda shuhrat qozonishini anglagach, darrov o‘sha shaharni tark etar edi. Shu bilan bog‘liq bir rivoyatda uning o‘zi yashab turgan joyda zohidlik holati tan olinsa, darhol o‘sha joyni tark etgani qayd etilgan. [Sipehsâlâr, 1977. 122].

Umuman aytganda, Shams Tabriziyning tasavvufiy qarashlari shakllanishiga alloma yashagan davrdagi ilmiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy muhit katta ta’sir ko‘rsatgan. Tanqidiy nuqtai nazarga ega bo‘lgan Shams o‘zi bilgan haqiqatlarni hech kimga ikkilanmasdan, qattiqqo‘llik bilan ifodalagan.

Aytishimiz mumkinki, Shams Tabriziy o‘z qarashlarida amaldagi riyokorlik xavfiga alohida e’tibor qaratadi. Bu bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra o‘z davrining ba’zi shayx va ulamolarini tanqid qiladi. Alloma o‘zining so‘fiyona qarashlari, chuqur ilmi va zohidona fazilatlari bilan mashhur bo‘lgan Mavlono Jaloliddin Rumiyga chuqur ta’sir qiladi. U dindorlikni tushunishni ibodat va zohidlikdan tashqari, ilohiy ishq va jozibaga yo‘naltiradi. Bu tushunchada zohidlik ibodat va sa’y-harakatlari ahamiyatsiz va keraksiz ko‘rilmasa-da, insonni kamolga yetkazuvchi asosiy omil ilohiy ishq va joziba sifatida qabul qilinadi.

Shams Tabriziy ko‘p vaqtini sayohat va izlanishlar bilan o‘tkazgan. Alloma o‘zidan yozma asarlar qoldirmagan, uning qarashlari va g‘oyalari asosan Rumiyning asarlarida, xususan, “Masnaviy”da aks etgan. Shams Tabriziyning fikrlari ko‘proq tasavvuf falsafasiga yaqin bo‘lib, unda ishq-muhabbat g‘oyasi markaziy o‘rinda turadi. U insonni Allohga yetaklovchi eng yuqori kuch — ishq deb biladi. Bu

muhabbat insonni o‘z “men”idan voz kechishga, ma’naviy poklanishga undaydi. Uning nazarida, insonning chin ma’nodagi haqiqatga yetishi uchun muhabbat asosiy vosita hisoblanadi.

Shams Tabriziy ko‘plab olimlarning kitoblardan ilm olishini yetarli deb bilmas edi. U ilmning chinakam ma’nosi inson qalbi orqali idrok etilishi, ya’ni ma’naviy tajriba va qalb ko‘zi bilan bilish kerakligini ta’kidlagan. Alloma ko‘p hollarda odatiy diniy doiralardan chiqib ketgan fikrlarni ilgari surgan. Uning g‘oyalari ko‘pincha konservativ ulamolar tomonidan qabul qilinmagan. Ammo bu fikrlar insonning o‘zini anglash va Allohga yaqinlashishga undovchi bo‘lib, tasavvufda yangilik sifatida qabul qilingan. [Shams Tabriziy, 1949. 104].

Shams Tabriziy ilmiy-falsafiy faoliyatining eng muhim qismi – uning Jaloliddin Rumiyning hayoti va tafakkuriga ta’siri bilab belgilanadi. U Rumiyga inson qalbi va ilohiy ishqning mohiyatini anglashda muhim yo‘l ko‘rsatgan. Shams bilan uchrashgandan keyin Rumiy ko‘plab ilmiy-fiqhiy bilimlarini qo‘yib, ma’naviy ishq va tasavvufiy she’riyat yo‘liga o‘tgan. Bu ikki shaxs o‘rtasidagi ruhiy aloqa dunyo adabiyoti va falsafiy tafakkurida ulkan iz qoldirgan.

Shams Tabriziy ilmiy asarlar yozmagan bo‘lsa-da, uning ta’limoti ko‘proq og‘zaki tarzda, Rumiy va boshqa shogirdlari orqali yashab kelgan. Shuningdek, “Maqoloti Shams” asari bugungi kunda tasavvuf falsafasi bo‘yicha muhim manba sifatida qadrlanadi. Mutafakkir komil inson konsepsiyasiga alohida ahamiyat qaratgan holda, qalbni poklash, ishq orqali ilohiy haqiqatga yetishish g‘oyalarini ilgari surgan. Uning ilmiy-falsafiy faoliyati Rumiy orqali keng tarqalib, butun dunyo mutasavviflari va falsafa ixlosmandlariga Bugungi kunda ham ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR

1. Eflâkî. Âriflerin Menkıbeleri (trc. Tahsin Yazıcı). – İstanbul. 1995. – 286 s.
2. Ferîdûn-i Sipehsâlâr. Risâle: Mevlânâ ve Etrafındakiler (trc. Tahsin Yazıcı). – İstanbul. 1977. – S. 121-134.
3. Sahih Ahmad Dada. Mavlaviylar tarixi. – Istanbul. 2003. 171 b.

4. Shams Tabriziy. Maqolot. Ali Muvahhid tahriri ostida. – Tehron: 1949. – 356 b.
5. Sultan Veled. İbtidânâme (trc. Abdülbâki Gölpınarlı). – Ankara. 1976. – S. 48-92.
6.

O‘ZBEKISTON AHOLISINING MILLIY UDUMLAR, MAROSIMLARGA MUNOSABATI

Alibekov Umurzoq Yuldashevich,
katta o‘qituvchi,
Guliston davlat universiteti
umurzokalibekov@gmail.com
Umarova Aziza umurzoq qizi,
Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani
2-maktab tarix o‘qituvchisi
aziza_sayxun_24@mail.ru

Annotatsiya. *An‘analar, udumlar va urf-odatlar haqli ravishda har bir xalqning, mamlakatning madaniy merosi hisoblanadi. Ular odamlarning odatlari va turmushdagi asoslarini, ularning o‘ziga xosligi va individualligini aks ettiradi. Hozirgi kunda ham ularning ko‘pchiligiga amal qilinadi. Maqolada o‘zbek xalqining milliy an‘analari, udumlari, urf-odatlari, marosimlariga O‘zbekiston, xususan Sirdaryo viloyati aholisining munosabatini o‘rganish natijalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar*: Ijtimoiy fikr, s‘orovnoma. an‘ana, urf-odat, udum, Umra, Haj, milliy mentalitet.*

Annotation*. Traditions, customs and traditions are rightfully considered the cultural heritage of every nation, country. They reflect the habits and foundations of people's lives, their uniqueness and individuality. Many of them are still practiced today. The article analyzes the results of a study of the attitude of the population of Uzbekistan, in particular the Syrdarya region, to the national traditions, customs, traditions and rituals of the Uzbek people.*

Key words*: Public opinion, survey, tradition, custom, ritual, Umrah, Hajj, national mentality.*

Bugun shiddatli o‘zgarishlarga olib kelayotgan globallashuv, jahon miqyosidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy integratsiya va birlashuv sharoitida milliy an‘analar, udumlar, urf-odatlarning yo‘q bo‘lib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik muhim. Jahon hamjamiyatida, bir tomondan, insoniyatning iqtisodiy birligi va ajralmasligiga, ikkinchi tomondan, madaniyatlar, dinlar va millatlarning plyuralizmiga asoslangan yangi tipdagi sivilizatsiyaning shakllanishi jarayoni davom etmoqda[Korolyova, Saxapova, 2015. 184]. Milliy an‘analar, udumlar va urf-odatlar yangi avlodlarga ma‘naviy-axloqiy madaniyat elementlarini (umumiy inson tajribasi, qadriyatlari, munosabatlari, xulq-atvor shakllarini) yetkazish shakli bo‘lib, yuksak ma‘naviy, axloqiy va tarbiyaviy salohiyatga egaki, buning natijasida ular oila orqali o‘tkaziladigan yoshlarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasining vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu borada shuni ta‘kidlash kerakki, oila etnik-madaniy an‘analarning asosiy instituti va tashuvchisi sifatida ijtimoiy taraqqiyot jarayonlariga va madaniy siyosatdagi o‘zgarishlarga ta‘sir ko‘rsatadigan eng muhim ijtimoiy vosita bo‘lishi mumkin. Aynan u an‘anaviy qadriyatlarning tashuvchisi va saqlovchisi hisoblanadi.

“Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov shuni ko‘rsatdiki, o‘zbekistonlik jamiyatida so‘nggi paytlarda milliy an‘analar, udumlar, urf-odatlar va marosimlarga qiziqish kuchaymoqda. Shuningdek, milliy qadriyatlarni va milliy madaniyatni asrab-avaylashda oilaning, ta‘lim muassasalrning roli oshib bormoqda. Sotsiologik tadqiqot “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan 2016 yilda O‘zbekiston hududida o‘tkazilgan edi. Jami so‘rovda 1100 kishi (shu jumladan, shaharliklar – 49,5%, qishloq aholisi – 50,5%) ishtirok etishdi [Latipova, 2016. 108-109]. So‘rov davomida milliy qadriyatlarni bilish darajasini, milliy an‘ana, udum, urf-odat, rasm-rusum va marosimlarga rioya qilish xususiyatlarini aniqlashga harakat qilindi. So‘rov natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston fuqarolarining milliy tuyg‘ulari zamirida “men tug‘ilib o‘sgan va ota-bobolarim yashab o‘tgan Vatanga muhabbat” (71,9 foiz), milliy an‘ana va urf-odatlar (60,3 foiz) tashkil etadi.

Tan olish kerakki, Yevropa tarbiyasini olgan kam sonli respondentlar (3,0%) so‘nggi paytlarda o‘z millati tarixi va madaniyatini chuqurroq o‘rganish zaruratini his qila boshladilar. Turli yoshdagi guruhlar vakillari milliy o‘ziga xoslikning (ya‘ni identiklikning) turli tarkibiy qismlarining ahamiyati bilan ajralib turadi - milliy an‘ana, udum va urf-odatlarga asoslangan turmush tarzi, o‘z xalqiga daxldorlik hissi va ona tilining ahamiyati tuyg‘usigacha.

O‘zbekistonda oilalarning dindorlik xususiyati va darajasi bir qator mezonlar – diniy udumlar, urf-odatlar va marosimlarga rioya qilish, marhum qarindoshlarining qabrlarini va muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish, diniy urf-odatlarni va udumlarni bajarish kabilar asosida aniqlandi. Islomda diniy udumlar, urf-odatlar va bayramlar bilan bog‘liq maxsus marosimlar mavjud. Marosimlar, udumlar, urf-odatlar va bayramlar islomgacha bo‘lgan zardushtiylikning va ko‘proq islom dinining ajralmas tarkibiy qismidir. Oilada bajariladigan bunday udumlar, marosim va urf-odatlarga rioya qilish darajasini aniqlash uchun so‘rov o‘tkazildi. So‘rov davomida olingan ma‘lumotlar aholining diniy va xalq urf-odat va marosimlariga rioya qilishga umumiy munosabatini ochib beradi. O‘z oilasida diniy urf-odatlar, udumlar va marosimlarga rioya qiluvchi respondentlar 2016 yilda 69,7 foizni tashkil etdi. Qolganlari, kamayish tartibida, “Nikoh”, “Janoza”, “Iftor”, “Sunnat”, “Xudoyi” kabi marosim, udum va urf-odatlarni ko‘rsatishdi. Respondentlarning yarmi, ya’ni 50,9 foizi “musulmon bayramlarida” vafot etgan qarindoshlarining (ota-onasi, aka-uka, opa-singillari va boshqalar) qabrlarini ziyorat qiladi. O‘zbekiston fuqarolarining 27,5 foizi qabrlarni muntazam ziyorat qiladi. Shu bilan birga, bunga ehtiyoj sezganda, respondentlarning 12,5 foizi qabristonga tashrif buyurishadi. Bunga ijobiy munosabatda bo‘lgan, lekin qabrlarga bormaydiganlar soni kamaygan (7,6 foizi), 2,4 foizi esa savolga javob berishga qiynalgan.

O‘zbekiston fuqarolarining asosiy qismi (74,3%) barcha udum va urf-odatlarga rioya qiladi, xalq marosimlari va tadbirlarida qatnashadi. 28,5 foizi to‘ylarda, 26,0 foizi dafn marosimlarida, 21,5 foizi hasharlarda, 14,9 foizi diniy ehsonlarda qatnashadi. Tadbirlarda eng ko‘p Jizzax (100 foiz), Xorazm (90,2 foiz), Namangan (85,4 foiz), Toshkent (84,7 foiz), Navoiy (84,4 foiz) viloyatlari aholisi

ishtirok etmoqda. To‘ylarni Sirdaryo (60,7 foiz), Surxondaryo (54,2 foiz), Buxoro (50,8 foiz) viloyatlari aholisi ko‘proq yoqtirmoqda.

Aholi orasida (27,2%) do‘st-dugonalarni navbat bilan mehmon qilish udumi, ya‘ni gap-gashtaklar ayniqsa ommalashgan. Ular orasida erkaklar (7,1%) ayollarga (5,7%) nisbatan ko‘proq. So‘nggi yillarda 18-25 yoshdagi yoshlarda (12,9%) ham qap o‘tkazish tarqalmoqda. Gap-gashtaklarda “qora kassa” udumiga ko‘ra tayinlangan kassir hammada belgilangan pulni yig‘ib oladi va chiroyli istaklar bilan mezbonga uzatadi. Shuningdek, hamma yoshdagi erkaklar va ayollarning “sinfdoshlar uchrashuvlari” tarqalib ketdi.

To‘ylarga qatnashishni ko‘proq yoshlar (20-24 yoshlilar - 35,2 %, 18-19 yoshlilar - 31,4 %) yoqtiradi. Diniy xayriya tadbirlarida esa asosan 50-59 yoshlilar (20,9 %) va 60 yosh va undan katta yoshdagi (16,0%) yosh guruhlari ko‘proq qatnashmoqda. So‘nggi yillardagi kuzatuvlarga ko‘ra, Sirdaryo viloyatidagi to‘ylarda 40-70 yoshdagi ayollar (43,8%) ko‘proq kelmoqda. Buning sababi, bizningcha, erkaklar uchun maxsus nahor oshi berilishidadir. Odatda to‘yxonada 30ta stol yasatilgan bo‘lsa, 1ta stol kuyovning jo‘ralari, 1tasi sinfdoshlari uchun, 1ta stol kelin dugonalari va 1ta kelinning yaqin qarindoshlari uchun, 1 ta stol kyouv dadasining sinfdoshlari, 1 tasi ayasi sinfdoshlari uchun, 7ta stol mehmon erkaklar uchun, 12ta stol ayol mehmonlar uchun (qarindoshlar va qo‘shnilar), 1ta stol artistlar uchun va qolgan stollar ishxonadagilar va uzoqdan kelgan mehmonlarga ajratiladi [Umarova A. Dala tadqiqotlari].

Oila insonning axloqiy tarbiyasi va madaniy rivojlanishi uchun asos yaratadi, bu esa keyinchalik uning xulq-atvor me‘yorlarini shakllantiradi va uning ichki dunyosini boyitadi. Oila insonning ijtimoiy va ijodiy faolligini rag‘batlantiradi va har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Oila institutining barqarorligi, uning mustahkamligi butun mamlakatning muvaffaqiyatli va har tomonlama rivojlanishining garovidir [Safiyazova, 2013. 171].

2024 yil bahor va yoz fasllarida o‘tkazilgan so‘rovda Sirdaryo viloyati tumanlaridan tanlab olingan turli yoshdagi 100 ta shaharlik, 100ta qishloqlik xotin-qiz va erkak respondentlar ishtirok etishdi. Sirdaryo viloyatidagi respondentlarga

“Oilangizda 2020-2024 yillarda qaysi diniy urf-odatlar, marosimlar va an‘analar bo‘lib o‘tgan?” degan savol berildi. Javoblar 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

1-ladval. Oilangizda 2020-2024 yillarda qaysi diniy urf-odatlar, marosimlar va an’analar bo‘lib o‘tgan?

	Shahar	Qishloq
Nikoh	100	100
Janoza	87	98
Sunnat	92	96
Xudoyi	94	100
Iftor	89	97
Aqiqa	76	83
Bibiseshanba	64	88
Katta haj va umra safariga borgan oila a’zolari sharafiga o‘tkazilgan ziyofat	52	61

So‘nggi yillarda respublikamiz aholisining moddiy ahvoli yaxshilandi. Ularning Haj va Umra ibodatiga borishlari ham bundan darak beradi. Biroq, ziyoratdan keyin ularning xonadonida ziyofat beriladi. “Zikr ahlidan so‘rang” blogidagi “Umra safaridan keyingi ziyofat”ga oid savol va javob quyidagicha [Zikr ahlidan so‘rang]: *Savol:* Haj, umra safariga chiqishidan oldin ko‘p odamlar ko‘rgani keladi. Safardan qaytgandan keyin ham juda ham ko‘p odamlar keladi, bu to‘g‘rimi? Erkaklarni ko‘rgani ayollar ham boraveradi, bu to‘g‘rimi?

Javob: Bu noto‘g‘ri. Zo‘rg‘a pul topib ibodatni qilib kelsa, uni ziyorat qilamiz deb malollantirish to‘g‘ri ish emas. Qancha-qancha insonlar borishga boramizu, mehmon kuzatishni nima qilamiz deb o‘ylanib yurishibdi.

Biz Sirdaryo viloyati respondentlarimizga ham shu savolni berdik. Bu haqda respondentlarimizning fikrlari quyidagicha bo‘ldi (2-jadval):


2-jadval. Haj, umra safaridan qaytganlar sharafiga ziyofat uyushtirish shartmi, kishi

Javoblar	Xotin-qizlar	Erkaklar
Ha	53	38
Yo‘q	12	24
Agar moddiy ahvoli imkon bersa o‘kazsa bo‘ladi	25	17

Bu haqda diniy ulamolar tushuntirish ishlarini olib orishi yazshi bo‘lardi	7	10
Bilmayman	3	11

Shuningdek, respondentlarning o‘zbek xalqining milliy mentalitetiga xos udumlarni bilishi-bilmasligi aniqlandi. Buning uchun biz 2024 yil bahorida o‘rkazgan so‘rovda respondentlarga “Siz o‘zbek xalqi mentalitetiga xos qanday udumlar, urf-odatlar va marosimlarni bilasiz?” degan savol berildi va javoblar quyidagicha bo‘ldi (1-rasm).

1-rasm. “Siz o‘zbek xalqi mentalitetiga xos qanday udumlar, urf-odatlar va marosimlarni bilasiz?”, %



Ko‘rinib turibdiki, asosan aholi beshik to‘y va aqiyqani, lola saylini yaxshi bilishadi. Qolgan udumlarni asosan katta yoshdagilar bilishi aniqlandi.

Bugungi kunda milliy qadriyatlar, udumlar, an‘analar, marosimlar va urf-odatlar kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta‘minlaydigan etnik makonda shakllanadi, rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo‘ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o‘ziga xos tarzda ta‘sir qiladi. Ular o‘zbek xalqi milliy mentalitetini belgilovchi mezonlardir. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi va sovet davrlarida ko‘pgina an’analarimiz, udumlarimiz, urf-odatlarimiz, rasm-rusumlarimiz taqiqlab qo‘yildi va yevropacha marosim va bayramlarga hamda sovet davriga xos an‘analarga almashtirildi. Mustaqillik sharofati bilan bir qator qadimiy udumlarimiz, urf-odat va an‘analarimiz tiklandi. Shuning uchun bugungi kunda

etnografik tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etib, tiklanayotgan bayramlarimiz nishonlanib kelinmoqda. Respublikamizda yashayotgan xalqlarning milliy madaniy markazlari tomonidan ham turli tadbirlar uyushtirilmoqda. Navro‘z, Qovun sayli, etnografik hududlar, qadamjolar, yodgorliklar, qadimiy shaharlarimiz jahonning turli burchaklaridan mamlakatimizga tashrif buyurayotgan turistlarni qiziqtirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Королева Н. Е., Сахапова Ф. Х. Роль семьи в сохранении национальных традиций в контексте социально-культурной модернизации. // Социально-экономические и технические системы: исследование, проектирование, оптимизация. – Набережные Челны: НИК(П)ФNaberezhnye Chelny: Naberezhnochelninskiy institut K(P)FU. – 2015. - №1 (64). - С. 183-188.
2. Латипова Н. М. Особенности влияния национальных традиций на семью. // Проблемы современной науки и образования. - 2016. - №26 (68).- С.108-111.
3. Сафиязова Д. Ж. Влияние национальных традиций на воспитание детей в узбекских семьях // Теория и практика образования в современном мире: материалы III междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, май 2013 г.). СПб.: Реноме, 2013. С. 170-172.
4. Umarova A. Dala tadqiqotlari. Muallifning kuzatuvlari.
5. Зикр аҳлидан сўранг / URL: https://savollar.islom.uz/s/125317

TURKIY TILLI DAVLATLARNING FALSAFASI, MADANIYATI, ALOQALARI: TARIX, BUGUN VA KELAJAK

Quramatov Murod
Toshkent kimyo-texnologiyalar institutining
Yangiyer filiali o‘qituvchisi
murodquramatov@gmail.com

Annotatsiya: *Turkiy til oilasiga mansub davlatlar, o‘zlarining tarixiy rivojlanishi davomida, turli madaniy va falsafiy an'analarni shakllantirgan va o‘zaro aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. Turkiy til oilasidagi davlatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar, o‘zaro iqtisodiy va siyosiy hamkorlik, shuningdek, global miqyosda shakllanayotgan yangi strategik bog‘lanishlar hozirgi*

kunda katta ahamiyat kasb etadi. Tarixan, turkiy tilli davlatlar ko‘plab ko‘priklar qurishgan, madaniyatlarni o‘zaro almashishgan va ko‘plab davrlarda bir-birlariga ta’sir ko‘rsatganlar. Bugungi kunda, bu aloqalar yangi siyosiy va iqtisodiy sharoitlar bilan yangi o‘lchovlarga ko‘tarilmoqda. Kelajakda esa, turkiy tilli davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik va birlashuv ko‘proq rivojlanib, yangi global muammolarni hal qilishda birgalikda qatnashishlari kutilmoqda.

Kalit so‘zlar: *Turkiy tilli davlatlar, falsafa, madaniyat, aloqalar, tarix, bugun, kelajak, madaniy aloqalar, siyosiy hamkorlik, iqtisodiy hamkorlik, global aloqalar, turkiy xalqlar, siyosat, hamjihatlik, kelajak rivoji.*

Annotation: *Throughout history, states belonging to the Turkic language family have developed distinct philosophical and cultural traditions and have played a significant role in strengthening mutual relations. The cultural exchanges, economic, and political cooperation among Turkic-speaking countries have been pivotal in shaping the dynamics of their relations. Historically, these states have built bridges, exchanged cultures, and influenced one another over various periods. Today, these relationships have evolved, reflecting new political and economic contexts. In the future, cooperation and unification among Turkic-speaking countries are expected to grow, playing a more significant role in addressing global challenges together.*

Keywords: *Turkic-speaking states, philosophy, culture, relations, history, today, future, cultural relations, political cooperation, economic cooperation, global relations, Turkic peoples, politics, unity, future development.*

Dunyo tarixida, insoniyat taraqqiyotida turli davrlarda yuzaga kelgan sivilizatsiyalar, saltanatlarning o‘rni va ahamiyati katta bo‘lgan. Ular orasida turkiy xalqlar tomonidan asos solingan qadimiy davlatlar, ularning madaniyat va tamaddunlari alohida o‘rin tutadi. Tarixga nazar tashlasak, buyuk sulolalar o‘z hukmronligi davrida davlatni haq va adolat bilan boshqarishga, ilm-fan, me’morchilik, madaniyat va san’atni rivojlantirishga harakat qilgan.

Bugun sayyoramizda yashayotgan turkiy tilli xalqlarning umumiy soni 250 milliondan oshadi. E’tirof etish joizki, hozirgi kunda ham turkiy tilli davlatlar o‘rtasida har tomonlama hamkorlik aloqalari tobora rivojlanmoqda. Muhtaram Prezidentimizning tashqi siyosatdagi ochiqlik, amaliy va konstruktiv sheriklikka qaratilgan siyosati natijasida yangi O‘zbekiston dunyoga tobora keng ochilyapti. Shu ma’noda O‘zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining 2019-yil 15-oktabrda Boku shahrida bo‘lib o‘tgan sammitida ilk bor to‘la huquqli a’zo sifatida ishtirok etdi. Tashkilotning asosiy maqsadi qardosh mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, savdo-iqtisodiyot, transport, energetika, turizm va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish, tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash bo‘yicha sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishdan iborat.

O‘zbekiston 2019-yilda ushbu tashkilotga a’zolikka rasman qabul qilingan bo‘lib, u mamlakatimizning qardosh va qondosh davlatlar bilan ko‘p tomonlama aloqalarini rivojlantirishda keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Qisqa davr ichida mamlakatimiz tashkilotning eng faol a’zolaridan biriga aylandi.

TDTning integratsiya jarayonlari, birinchi navbatda, savdo-iqtisodiy, turizm, energetika, transport va tranzit hamda madaniy-gumanitar sohalarda qamrab olmoqda.

So‘nggi yillarda transport, energetika va turizm sohalaridagi qator loyihalarning yo‘lga qo‘yilishi TDT doirasidagi yangi tendentsiyaga aylanmoqda. Tashkilotning “Turkiy nigoh – 2040” rivojlanish strategiyasi iqtisodiy yo‘nalishida mamlakatlar o‘rtasida to‘siqsiz tovar almashinuvini ta’minlaydigan erkin savdo zonasini yaratish strategik maqsad sifatida belgilangan.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining TDTga a’zo va kuzatuvchi davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari dinamik ravishda o‘sib borayotganini kuzatish mumkin. Jumladan, Turkiya bilan o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 2016-yilda qariyb 1,1 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yilda ushbu raqam 2,1 milliard AQSh dollarini, 2021-yilda esa salkam 3 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Xuddi shu kabi dinamik o‘sish tendentsiyasi tashkilotning boshqa a’zolari bilan ham kuzatilmoqda.

Davlatimiz rahbari 2021-yili Istanbul shahrida bo‘lib o‘tgan sammit davomida turkiy tilli xalqlarning dunyo sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasi va nihoyatda boy yozma merosini birgalikda chuqur o‘rganish kerakligini alohida ta’kidlagan edi.

Shu bilan birga, Prezidentimizning Yangi O‘zbekiston strategiyasida kitobida belgilangan “O‘zbekiston xalqaro tuzilmalar bilan amaliy muloqotni rivojlantirish, o‘zaro manfaatli hamkorlik va amaliy sheriklikni kengaytirish” tamoyiliga binoan, O‘zbekistonda yangi siyosiy tizim yaratilgani, amalga oshirilayotgan xalqaro hamkorlik bo‘yicha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik asosidagi integratsiya va hamkorlik aloqalari mustahkamlanayotganining omillari ochiqlik siyosati ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy tomonidan tahliliy tadqiq etish bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan.

E’tirof etish joizki, yurtimiz bugungi kunda Uchinchi Renessans davri ostonasida turibdi. Uchinchi Renessans mustahkam poydevorini yaratish uchun, avvalo, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho tarixiy, ilmiy va madaniy merosini o‘rganish nihoyatda zarur.

Tan olish kerakki, bugungi o‘ta murakkab, alg‘ov-dalg‘ov zamonda TDTdek muhim platforma taraqqiyotga va o‘zaro hamkorlikni yanada kengaytirishga intilayotgan davlatlar uchun ayni muddaodir. U qardosh va qondosh turkiy xalqlarni bir-biriga yanada yaqinlashtirish, siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalardagi o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishga katta hissa qo‘shishi, shubhasiz.

Shu nuqtai nazardan, qator ekspertlar Turkiy davlatlar tashkilotining istiqboli porloq va ancha barqaror, deya e'tirof etmoqda. Ularning fikricha, Tashkilot Markaziy Osiyo, Kichik Osiyo va Kaspiy dengizi havzasi mintaqasida ko‘p tomonlama hamkorlikning samarali mexanizmlaridan biri bo‘lib qoladi.

Qolaversa, TDTning integratsiyasi kun tartibi tobora kengayib, iqtisodiyot, turizm, tranzit va transport sohalarida, shuningdek, madaniy-gumanitar sohalarda yangi-yangi yo‘nalishlarni qamrab olmoqda. O‘rta muddatli istiqbolda TDT

doirasidagi yangi tendentsiya — energetika, transport, turizm sohalaridagi turli loyihalarning faollashuvi, shu bilan birga, tashkilot faoliyatida savdo-iqtisodiy munosabatlar o‘z ustuvorligini saqlab qolishi bashorat qilinmoqda.

Muxtasar aytganda, turkiy xalqlarda buyuk ajdodlarga nisbatan hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o‘rganishga qiziqish hamisha yuqori bo‘lgan. Bu kabi xalqaro darajadagi ilmiy anjumanlar esa tarixiy, madaniy va ilmiy yo‘nalishlarda o‘zaro munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, mavjud juda katta imkoniyat va salohiyatdan to‘liq va unumli foydalanish uchun mustahkam zamin yaratishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Назиров М. ТУРКИЙ ДАВЛАТЛАР ТАШКИЛОТИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ МАРКАЗИЙ ОСИЁ УЧУН АҲАМИЯТИ //Международный журнал научных исследователей. – 2025. – Т. 10. – №. 1. – С. 112-116.
2. Каримов Ф. Turkiy davlatlar integratsiyasi masalalari va rivojlanish istiqbollari //Культура, отношения, философия туркоязычных народов: история, сегодня и будущее. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 261-264.
3. Abdullayev J. THE EMERGENCE AND PROSPECTS OF THE ORGANIZATION OF TURKIC STATES //SHARQ MASH'ALI. – 2024. – Т. 3. – №. 01. – С. 127-140.
4. Tojiyev D. THE HISTORICAL SIGNIFICANCE OF THE" SUPREME ORDER OF THE TURKISH WORLD" AND THE" ALISHER NAVOY INTERNATIONAL AWARD" //SHARQ MASH'ALI. – 2023. – Т. 2. – №. 04. – С. 27-36.
5. Abdullayeva K., Qoriyev A. U. YANGI O‘ZBEKISTONNING TINCHLIKPARVAR TASHQI SIYOSATI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 14-18.

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING YEVROOSIYO MINTAQASIDAGI MADANIY, IQTISODIY VA SIYOSIY AHAMIYATI. CULTURAL, ECONOMIC AND POLITICAL SIGNIFICANCE OF THE ORGANIZATION OF TURKISH STATES IN THE EURASIA REGION

Abdulhamidov Abdullajon Ortiq o‘g‘li,
O‘zbekiston Milliy unversiteti Jizzax filiali talabasi
abdulabdullajon3232.32@gmail.com
+998930014468

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Turkiy davlatlar tashkilotining Yevroosiyo mintaqasidagi ko‘p qirrali ahamiyati to‘g‘risida so‘z boradi. Shunga ko‘ra mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo va investitsiyalar hajmi, ularning soha va tarmoqlarga taqsimlanishi to‘g‘risida ochiq manbalarda keltirib o‘tilgan ma’lumotlarga asosan yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiyot, madaniyat, keng qamrovli hamkorlik, sammit, eksport va import, logistika.*

Annotation. *The article cited below discusses the multifaceted importance of the Turkic States Organization in the Eurasian region. Accordingly, an attempt has been made to shed light on the volume of mutual trade and investments between the countries, as well as their distribution across sectors and industries, based on information cited in open sources.*

Keywords: *economy, culture, comprehensive cooperation, summit, export and import, logistics.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 12-noyabr kuni Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining sakkizinchi sammitida ishtirok etdi.

Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an tashabbusi bilan tadbir Istanbuldan janubisharqda joylashgan hamda Turkiya uchun tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan Demokratiya va erkinlik orolida bo‘lib o‘tdi.

Kengash majlisida, shuningdek, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Qozog‘iston Respublikasi

Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev hamda Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov va Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban qatnashdi. Sammit kun tartibiga muvofiq, savdo, investitsiyalar, “yashil” iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, transport va kommunikatsiyalar, ta’lim va madaniyat sohalaridagi ko‘p qirrali munosabatlarni har tomonlama kengaytirish va mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqining avvalida O‘zbekiston Turkiy Kengash nomini «Turkiy davlatlar tashkiloti» deb o‘zgartirish hamda Turkmanistonga tashkilotda kuzatuvchi maqomini berish to‘g‘risidagi tarixiy qarorlarni qo‘llab-quvvatlashini ta’kidladi. Bu muhim qadamlar tashkilot faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, uning xalqaro maydondagi o‘rni va nufuzini oshirishi qayd etildi.

Hozirgi vaqtda dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlar, turli tahdid va xatarlar, pandemiya sinovlari, oziq-ovqat xavfsizligi, iqlim o‘zgarishi va ekologiya bilan bog‘liq muammolar tashkilotga a’zo davlatlar oldiga yangi dolzarb vazifalarni qo‘yayotgani ta’kidlandi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston rahbari mamlakatlarimiz hamkorligining ulkan salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish va tashkilotni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surdi.

Mamlakatlar o‘rtasidagi savdo aloqalari kengayishi uchun qulay va jozibador sharoitlar yaratish bosh ustuvor vazifa ekani ko‘rsatib o‘tildi.

Oxirgi yillarda O‘zbekistonning qardosh mamlakatlar bilan umumiy tovar ayirboshlash hajmi ikki barobar oshgani alohida ta’kidlandi. Shu bilan birga, bu ko‘rsatkich mavjud imkoniyatlar darajasida emas.

Tahlillarga ko‘ra, 2020 yilda Kengashga a’zo davlatlarning jami importi 420 milliard dollarga teng bo‘lgan, ular o‘rtasidagi o‘zaro mahsulot yetkazib berish hajmi esa 21 milliard dollarni tashkil etgan.

Shu bois, uchinchi davlatlarning mahsulotlarini tashkilotga a’zo mamlakatlarda ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan tovarlar hisobidan qoplash eng dolzarb vazifa ekani qayd etildi.

Bu borada mavjud imkoniyatlarni har tomonlama o‘rganish maqsadida Turkiy davlatlar savdo hamkorligi tadqiqot markazini tashkil etish taklifi bildirildi. Ushbu markaz savdo to‘siqlarini bartaraf etish, elektron tijoratni keng joriy qilish, eksport-import hajmini ko‘paytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi.

O‘zbekiston Prezidenti transport va tranzit sohalarini rivojlantirish hamkorlikning muhim yo‘nalishi ekani, Tashkilotdagi mamlakatlarning savdo-iqtisodiy sherikligi kengayishiga xizmat qilishini ta’kidladi.

Bugungi vaziyat Xitoydan Yevropagacha mamlakatlarimiz hududlari orqali o‘tgan transqit’aviy transport yo‘laklarini yanada rivojlantirish va yangilarini yaratishni taqozo etmoqda.

Bu borada tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida “Turkiy davlatlar tashkilotining transport sohasidagi o‘zaro bog‘liqlik dasturi”ni ishlab chiqish taklif qilindi.

Davlatimiz rahbari sanoat kooperatsiyasini kuchaytirishga chaqirdi. Bu borada qo‘shma loyihalarni ishlab chiqish uchun a’zo davlatlardagi ixtisoslashgan tashkilotlar negizida Injiniring va texnologiyalar markazlari tashkil etish taklifi bildirildi. Kelgusi yili O‘zbekiston Turkiy davlatlar sanoat haftaligini o‘tkazishga tayyor ekani ma’lum qilindi.

Kengashning mazkur sammiti uchun “Raqamli asrda yashil texnologiyalar va “aqlli” shaharlar” mavzusi tanlanganini hisobga olib, Prezidentimiz “aqlli” shaharlarni yaratishda tajriba almashish va innovatsiyalarni transfer qilish maqsadida ekspertlar va IT-mutaxassislar uchun doimiy platformani tashkil etish tashabbusini ilgari surdi. Bu borada ilk qadam sifatida 2022-yilda ekspertlar konferensiyasini o‘tkazish taklif qilindi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida iqlim o‘zgarishi, uning Tashkilot mamlakatlariga ta’sirini yumshatish masalasi va Orol dengizining qurishi keltirib chiqarayotgan muammolarga ham to‘xtalib o‘tdi. Ekologik halokatlarning salbiy oqibatlarini yumshatish, ular tarqalishining oldini olish uchun Shavkat Mirziyoyev

Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda Turkiy mamlakatlarning atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha tuzilmasini tuzish, uning qarorgohini esa

Orolbo‘yining ekologik fojiadan eng ko‘p jabr ko‘rgan tumanlaridan birida joylashtirish g‘oyasini ilgari surdi. O‘zbekiston Prezidenti turizmni rivojlantirish mavzusiga alohida urg‘u berib, “Turkiy dunyo turizmi” va “Tabarruk ziyorat” loyihalarini amalga oshirish, hunarmandchilik ko‘rgazmalari va etnosport musobaqalarini o‘tkazish, madaniy meros ob’ektlarini saqlash va tiklash masalalari, sohadagi hamkorlikning boshqa yo‘nalishlarini qamrab olgan “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishni taklif qildi.

Davlatimiz rahbari bu galgi sammit davomida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis qilish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingani uchun minnatdorlik bildirib, tashkilotga a’zo mamlakatlar fondlarida saqlanayotgan nodir asarlarni tadqiq va tarjima qilish, ularning yagona elektron bazasini yaratish muhimligini ta’kidladi.

Birgina O‘zbekiston fondlarida tashkilot mamlakatlarining mushtarak tarixi va madaniyatiga aloqador 200 mingdan ortiq noyob qo‘lyozma asarlar saqlanmoqda. Shu munosabat bilan Turkiy tilli davlatlarning tarixiy, ilmiy va madaniy merosini o‘rganish tadqiqot markazini tashkil etish taklif qilindi. [https://president.uz/oz/lists/view/4756].

Umumturkiy integratsiya - bu turkiy xalqlarning etnik, lisoniy qarindoshligi va madaniy yaqinligini tan olishdan kelib chiqadigan va bu xalqlarning birligi, birodarligi va hamkorligiga va shu bilan ularning rivojlanishiga hissa qo‘shadigan g‘oyalar tizimidir. Turkizm g‘oyalari va harakati XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan. 19-20-asrlarda turkiy harakat turkiy xalqlar orasida keng tarqaldi. Ma'lumki, turkiy xalqlarning etnik, diniy, madaniy va hududiy yaqinligi oxir-oqibat ularning birlashishiga olib keladi, ammo bu tabiiy siyosiy va ijtimoiy jarayon bir vaqtlar turkizmga qarshi bo‘lganlar (Rossiya imperiyasi, Buyuk Britaniya va Frantsiya siyosiy doiralari, yunonlar, arman diasporasi) barcha turkiy xalqlarni birlashtirish va afsonaviy Turon davlatini qurish g‘oyasiga asoslangan va agressiv millatchilik harakati sifatida mafkura ta'riflab kelindi.Imperializmning manfaatlari va uning dunyoning tabiiy va geoiqtisodiy boyliklari ustidan nazorati hali uzoq davom etadiganga o‘xshaydi. Shuning uchun, ular har doim ham qaysi xalqaro

ittifoqlar mavjud bo‘lishi mumkinligini va qaysi biriga bu mumkin emasligini hal qilishlari shart emas. Shuning uchun madaniy, lingvistik va irqiy mansublik asosida tuzilgan xalqaro tashkilotlar (Kengash, Hamdo‘stlik, Hamkorlik va boshqalar) ularning manfaati uchun qoldirilmasligi kerak. Xalqaro tashkilotlar, avvalo, a'zo davlatlarning, ya'ni mustaqil turkiy davlatlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlari asosida shakllanadi.Turk dunyosining siyosiy platformasi yanada adolatli dunyo tartibini qurish bo‘lishi kerak. 19-20 asrlarda mavjud bo‘lgan dunyodagi geosiyosiy tartiblar turk dunyosiga zarar etkazgan va uni qulash yoqasiga olib kelganligini hech qachon unutmaslik kerak.

Qayd etish kerakki, lisoniy, irqiy, madaniy jihatdan juda yaqin xalqlar va jamiyatlar orasida aynan Turk dunyosi amaliy integralizm harakatlarini eng kechikib boshladilar. Ulug‘ siyosat arbobi M.K.Otaturkning Turkiya va sobiq SSSRdagi turkiy xalqlar o‘rtasida til, tarix va madaniyat ko‘priklarini o‘rnatish va bu ishni xalqlarning ozodlikka erishishini kutib o‘tirmasdan amalga oshirish xususidagi ko‘rsatmalari hayotga yetarlicha tatbiq qilinmadi. 1990-yillar boshida Turkiya turkiy integralizmning lokomotivi bo‘lishga hali tamoman tayyor emas edi.

Shu sababli bu ishning strategiyasi va taktikasi “sinab ko‘r-xato qil-tuzat” shaklida amalga oshirila bordi. Masalan, Turgut O‘zal davrida turkiy integralizm jarayonlari katta sur’atlar bilan borgan bo‘lsa, undan keyingi rahbarlar davrida bu masala turk tashqi siyosatida hatto Yaqin Sharq va Yevropa masalalaridan ham keyingi navbatda turgani ma’lum[38].

1990-yillarda mintaqada turklar ittifoqini targ‘ib qilishda muvaffaqiyatsizlikka uchraganiga qaramay, 2000-yillarning dastlabki dekadasida Turkiyaning ta’lim, madaniyat sohalarida faol bo‘lgan “yumshoq kuchi” o‘sha yillari ayniqsa Qozog‘iston va Qirg‘izistonda ancha muvaffaqiyatlarga erishdi. Umuman, Turkiyaning mintaqadagi rivojlanishga ko‘maklashish siyosati beshta asosiy ustunga ega: aloqa, transport, madaniyat, ta'lim, iqtisod va energetika sohalarida hamkorlik. Ushbu maqsadlarga muvofiq, Turkiya tomonidan qilingan

[38] 6Pınar Akçalı, Türk Dış Politikası ve Türk Dünyası https://tasam.org/Files/Icerik/File/turk_dis_politikasi_ve_turk_dunyasi_588e3be0-87ba-4f51-bff1-0100f4540148.pdf (January, 2021).

eng muhim qadam TIKAning (Turkiya Respublikasi Bosh vaziri idorasi huzuridagi Turkiya hamkorlik va taraqqiyot agentligi) tashkil etilishi bo‘ldi. Turkiyaning Markaziy Osiyodagi qardosh davlatlar bilan aloqasini ildam rivojlantirishda TIKA taraqqiyotga ko‘maklashish agentligi sifatida muhim rol o‘ynadi[39]. Nihoyat, Turkiya tashqi siyosatning muhim quroli bo‘lgan “yumshoq kuch” vositasidan unumli foydalana boshladi. Bu hol 1990-yillar boshida yaratilgan TurkSOY tashkilotining yoniga madaniy integralizmni rivojlantiradigan yana bir kuch va vosita kelib qo‘shilganini anglatar edi.

Turkiy davlatlar parlamentlari hamkorligi Turk kengashining faoliyati ko‘lamini yanada orttirishi tabiiy edi. Shu sababli 2008-yil 21-noyabrda Turkiy tilli davlatlarning parlament assambleyasi (TurkPA) tashkil etildi. 2009-yil 29-sentyabrda Ozarbayjon Respublikasi poytaxti Boku shahrida Turkiy tilli davlatlar parlament assambleyasining 1-umumiy yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Majlisda TurkPA Nizomnomalari, Kotibiyati va Boku deklaratsiyasi qabul qilindi. Shu bilan birga, TurkPA Kotibiyati doimiy ravishda Bokuda istiqomat qilishi to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

TurkPA tashkil etilganidan keyin turkiy integralizmning ilm-fan, iqtisod va siyosiy hamkorlik parametrlari ham kun tartibiga olina boshlandi. Jumladan, 2009 yil 3 oktyabrda Ozarbayjonning Naxchivan shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy tilli Prezidentlarning 9-sammitida Qozog‘iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev turk dunyosi bo‘yicha tadqiqotlar olib borish uchun xalqaro ilmiy markaz tashkil etishni taklif qilgan edidi. Turk akademiyasi 2010-yil 25-mayda Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida tashkil etilgan. Tadqiqot markazining ochilish marosimida Qozog‘iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev va Turkiyaning o‘sha paytdagi Prezidenti Abdulla Gul, shuningdek Qozog‘iston, AQSh, Rossiya (Tatariston, Boshqirdiston, Chuvashiston, Yoqutiston), O‘zbekistondan kelgan taniqli turkologlar ishtirok etishdi. 2012-yil 22-23 avgust kunlari Qirg‘iziston poytaxti Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining

[39] A. N. Maxanova, Mexanizmi polyticheskogo prisutstviya Turtsii v «tyurkskix» gosudarstvax / A. N. Maxanova // Molodoy ucheniy, 2017. - № 13 (147). -s. 503-505.

Sammitida Turk akademiyasiga xalqaro maqom berish to‘g‘risida bitim imzolandi. Tasdiqlash jarayoni tugagandan so‘ng, Qozog‘iston Respublikasi Ta'lim va fan vazirligi huzurida Ostona shahrida 2010-yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan Turk akademiyasi 2014-yil 28-avgustda xalqaro tashkilot maqomini oldi. Shunday qilib, to‘rtta turkiy tilli davlatlar (Ozarbayjon Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi va Turkiya Respublikasi) tomonidan ixtiyoriy ravishda tashkil etilgan xalqaro ilmiy markaz o‘z faoliyatini “Xalqaro turk akademiyasi” nomi ostida olib borishni boshladi. [Juliboy Eltazarov, 2021.05.21].

Qisqa xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki Turkiy davlatlar tashkiloti a’zolari o‘zaro iqtisodiy va siyosiy shu bilan bir qatorda ko‘rish mumkinki bu davrga kelib ta’lim va madaniyat sohalarida ham sezilar darajada manfaatli kelishuvga erishdi deb aytish mumkin. So‘ngi yillardagi tashkilot uchrashuvlarida esa yana ham ko‘p vektorli siyosat olib borishga va shu bilan bir qatorda iqtisodiy savdo logistika munosabatlarini ham keng qamrovda ko‘rib chiqilayotganlini guvohim bo‘lishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Juliboy Eltazarov. “Umumturk Integralizmining Doimiy kodlari: tilda, fikrda, ishda, ilm-fanda va texnologıyada birdamlik”. — Academic Journal of History and Idea https://doi.org/10.46868/atdd.128.
2. Dostonjon Tojiyev, Axrorjon Davkarov. — O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 20.12.2023 24-son, “Globallashuv sharoitida turkiy davlatlar tashkiloti tarixi va istiqbolining mahalliy hamda xorijiy tadiqotlarda o‘rganilishi”.
3. Mamatov Behruz. O’zbekiston Milliy universiteti, Tarix fakulteti O’zbekistonning eng yangi tarixi kafedrasi 1 kurs magsitranti. — Hosted from Amsterdam, Netherlands, April 30th 2022. “O‘zbekistonning turkiy tilli davlatlar hamkorlik ittifoqidagi o‘rni”. “International Conference on Developments in Education”.
4. Internet ma’lumotlari. Prezident Rasmiy sayti, https://president.uz/oz/lists/view/4756.

5. “Yangi O‘zbekiston” — “Ijtimoiy Siyosiy Gazeta”, 2024-yil 7-iyul, 1-bet, № 135 (1196).

TURKIY DAVLATLAR TARIXI VA MADANIYATI RIVOJLANISHIDA MUSIQIY BILIMLARNING O‘RNI

Olimova Nigora Lutpullaevna
Andijon mediata’lim texnikumi
musiqa fani o‘qituvchisi
tel: 99891-602-73-84

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turkiy davlatlar tarixida musiqaning o‘rni, musiqiy bilimlarning madaniy rivojlanishga ta’siri, va musiqaning turkiy xalqlar o‘rtasidagi almashuvdagi o‘rni keng tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Turkiy tillar madaniyati, turkey xalqlar tarixi, musiqiy bilimlar taraqqiyoti, musiqa asboblari, madaniy va ijtimoiy hayot tarsi, madaniyataro aloqalar.*

Annotation. *This article comprehensively analyzes the role of music in the history of Turkic states, the influence of musical knowledge on cultural development, and the role of music in the exchange between Turkic peoples.*

Keywords: *Culture of Turkic languages, history of Turkic peoples, development of musical knowledge, musical instruments, cultural and social life, intercultural relations.*

Musiqa insoniyat tarixining ajralmas qismi sifatida turli xalqlar va madaniyatlar orqali o‘zini ifoda etgan. Turkiy xalqlar ham musiqiy an'analarga boy, turli musiqiy asarlar yaratishda ulkan rol o‘ynagan. Musiqaning tarixi, uning madaniy va ijtimoiy jihatlari, turkiy davlatlar madaniyatining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, nafaqat san'at, balki milliy va xalqlararo aloqa vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Musiqa — insoniyat madaniyatining bir qismi, xalqning ruhini, his-tuyg‘ularini, tarixini va dunyoqarashini ifoda etuvchi san’at turi sifatida ko‘p asrlar davomida rivojlanib kelgan. Musiqiy bilimlar har bir xalqning madaniy an’analari, qadriyatlari va o‘ziga xosligini shakllantirgan. Turkiy xalqlarning madaniyati va tarixi ham musiqaning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu xalqlarda

musiqaning roli nafaqat san’at sifatida, balki ma’naviy va diniy, ijtimoiy va pedagogik vosita sifatida ham ulkan ahamiyatga ega. Turkiy xalqlar, o‘zlarining turli davrlardagi tarixiy yutuqlari, madaniy va diniy ta’sirlar asosida musiqiy bilimlarni rivojlantirib, o‘z madaniy merosini saqlab qolishga intilganlar.[1,3] Musiqiy bilimlar bu jarayonda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ushbu maqolada musiqaning turkiy xalqlar tarixidagi o‘rni va uning madaniyat rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Turkiy xalqlar tarixi juda qadimiy bo‘lib, bu xalqlarning musiqasi ham turli davrlar va hududlarda rivojlangan. Boshqa ko‘plab xalqlarga o‘xshab, turkiy xalqlar musiqani o‘zlarining kundalik hayotining ajralmas qismi sifatida shakllantirgan. O‘zining boy folkloriga ega bo‘lgan turkiy xalqlar, musiqani nafaqat ma'rifat, balki diniy va ijtimoiy tadbirlar uchun ham ishlatgan. Bunda turli musiqa asboblari, ayniqsa, qobuz, dutor, rubob, tambur kabi o‘ziga xos cholg‘u asboblari markaziy o‘rin tutadi. Turkiy xalqlarda musiqiy bilimlar milliy madaniyatni mustahkamlash, xalqlararo kommunikatsiyani yaxshilash va ma'naviy boylikni saqlashda katta rol o‘ynagan. Musiqaning nafaqat san'at sifatida, balki axloqiy, diniy va ma'naviy tarbiya vositasi sifatida ham ahamiyati katta. Turkiy xalqlarda musiqiy bilimlar avvalo an'anaviy tarzda avloddan-avlodga o‘tgan. Biroq, ma'lumotlarning uzluksiz rivojlanishi va xalqaro miqyosda tarqalishi uchun ilmiy va pedagogik yondoshuvlar zarur edi. O‘zbekistonda, Turkiyada, Qozog‘istonda va boshqa turkiy davlatlarda musiqiy ta'lim tizimi shakllanib, musiqiy bilimlarni keng tarqatish imkoniyatlarini yaratdi. Shu bilan birga, musiqiy ta'lim nafaqat professional musiqachilarni, balki keng jamoatchilikni ham musiqaga qiziqtirgan.[2,4] Musiqiy bilimlar o‘zining ta'sirini faqat musiqiy san'atda emas, balki milliy madaniyat, ijtimoiy tadbirlar va hokazo sohalarda ham ko‘rsatadi. Masalan, turkiy xalqlarning bayramlari, diniy marosimlari va boshqa ijtimoiy tadbirlarida musiqaning o‘rni juda katta. Bu jarayonlarda musiqaning ta'limi va uning jamiyatdagi roli muhim ahamiyatga ega. Turkiy xalqlar o‘rtasidagi musiqiy almashuvlar madaniyat rivojlanishining ajralmas qismi bo‘lgan. Musiqiy bilimlar orqali turli xalqlar o‘zlarining madaniy xususiyatlarini bir-birlariga taqdim etishgan va shu bilan turli xalqlar o‘rtasidagi aloqalar mustahkamlangan. Ayniqsa, turkiy xalqlar orasida musiqaning tarixi va

rivojlanishidagi o‘zaro ta'sirlar xalqaro madaniy almashuvning shakllanishiga yordam berdi. Shuningdek, musiqaning xilma-xilligi va boyligi turkiy xalqlarning o‘ziga xos madaniy xususiyatlarini saqlab qolish va rivojlantirishda yordam berdi. Har bir turkiy xalqning musiqasi o‘zining maxsus uslubini, an'analarini, tarixiy bosqichlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, musiqiy ta'lim orqali bu an'analar ham saqlanib qolgan va yangi avlodlarga etkazilgan. Turkiy xalqlarning musiqiy bilimlari tarixiy va madaniy rivojlanishda muhim ahamiyatga ega.[1,6] Musiqa nafaqat san'at, balki milliy, diniy, ijtimoiy va madaniy aloqa vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Musiqiy bilimlar orqali xalqaro miqyosda madaniy almashuv va o‘zaro ta'sir o‘rnatilgan. Musiqa turkiy xalqlarning o‘ziga xosligini saqlab qolish va rivojlantirishda, shuningdek, yangi avlodni tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. Bu o‘zgarishlar musiqaning ta'lim tizimi orqali mustahkamlanib, jamiyatdagi har bir insonni musiqiy jihatdan boyitishga imkon yaratmoqda.Turkiy xalqlar tarixan juda boy va xilma-xil madaniyatga ega. Bu xalqlarning madaniy rivojlanishida musiqaning o‘rni juda katta. Musiqa nafaqat bayramlar, diniy marosimlar va urf-odatlarni ifoda etuvchi vosita, balki xalqning tarixiy tajribalari va g‘oyalarini saqlovchi omildir. Musiqa bilan bog‘liq an’analar va bilimlar turkiy xalqlarni birlashtiruvchi, ularning madaniy identifikatsiyasini ta’minlovchi muhim omillardan biridir.[4,6] Tarixiy jihatdan turkiy xalqlar O‘rta Osiyo, Turkiya, Kavkaz, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon va boshqa hududlarda yashab kelgan. Ularning har birida musiqaning o‘ziga xos janrlari, uslublari va usullar mavjud bo‘lib, ular milliy madaniyatning bir qismi sifatida taraqqiy etgan. Masalan, O‘zbekistonda "maqam" tizimi, Turkiyada "Türk Sanat Müziği" (Turk san’ati musiqasi), Qozog‘istonda esa "akyn" musiqasi — bu turli xil musiqiy shakllar va janrlar turkiy xalqlar madaniyati rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Turkiy xalqlarda musiqiy bilimlar nafaqat professional musiqachilar uchun, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Musiqaning o‘rganilishi va tarixi, odatda, an’anaviy shaklda, xalq orasida o‘tgan. Avloddan-avlodga o‘tgan musiqiy bilimlar, nafaqat madaniyatni saqlash, balki uni rivojlantirish va boyitishda ham katta rol o‘ynagan. Shuningdek, musiqiy bilimlar turkiy xalqlarda ijtimoiy birlikni

mustahkamlashda, axloqiy tarbiyani shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, O‘zbekistonda va boshqa Markaziy Osiyo davlatlarida musiqaning diniy va axloqiy tarbiya vositasi sifatida qo‘llanilishi keng tarqalgan. Xalqning madaniy an’analari, uning ruhiy holati va dunyoqarashi musiqaning turli shakllari orqali ifodalangan. Musiqiy bilimlar nafaqat xalqlarni birlashtiruvchi vosita, balki milliy madaniyatni qayta tiklash va saqlashda muhim ahamiyatga ega. Musiqa, ayniqsa, turkiy xalqlar uchun mustahkam ijtimoiy va madaniy taraqqiyotning asosiy omili sifatida xizmat qilgan. Turkiy xalqlarda musiqiy bilimlarni rivojlantirish, o‘z navbatida, san’atni qadrlash, uning jamiyatdagi o‘rni va ta’sirini kuchaytirishga yordam beradi. Turkiy xalqlar o‘rtasida musiqaning madaniy almashuvi juda ko‘p asrlar davomida mavjud bo‘lib, bu almashuv turli ijtimoiy, siyosiy va diniy kontekstlarda rivojlanib kelgan.[2.4.5] Musiqa turkiy xalqlar orasida o‘zaro madaniy ta’sirlar va savdo-aloqalar orqali tez tarqalgan. Masalan, turkiy xalqlar orasida tarixiy jihatdan boy musiqiy an’analar mavjud bo‘lib, ular o‘zaro do‘stlik, madaniy hamkorlik va siyosiy ittifoqlar orqali bir-birlariga ta’sir ko‘rsatganlar. Shu bilan birga, musiqaning va musiqiy bilimlarning saqlanishi va rivojlanishida madaniy almashuvning roli juda katta. Turkiy xalqlarda musiqaning xalqaro miqyosda rivojlanishiga ko‘plab unsurlar ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, O‘rta Osiyo va Turkiya mintaqalarida musiqaning o‘zgarishi va yangilanishi ko‘p jihatdan qo‘shni xalqlardan va madaniy o‘zgarishlardan kelib chiqqan. Misol uchun, O‘rta Osiyodagi musiqiy madaniyatga islom dinining kirib kelishi va uning musiqaga bo‘lgan ta’siri haqida gapirish mumkin. Islom dinining kirib kelishi bilan turkiy xalqlarda musiqaning diniy va tasavvufiy shakllari rivojlandi. Shu bilan birga, turkiy xalqlarda musiqaning san’at sifatida o‘rni yanada mustahkamlandi, yangi janrlar va uslublar paydo bo‘ldi. Musiqiy bilimlar faqat san’atni yaratish uchun emas, balki insonlarni ma’naviy jihatdan tarbiyalashda, ijtimoiy hayotda faol qatnashishga undashda ham katta rol o‘ynaydi. Turkiy davlatlar madaniyatida musiqaning pedagogik roli keng tarqalgan. Musiqiy ta’lim nafaqat musiqiy mahoratni rivojlantirish, balki yosh avlodni tarbiyalashda, axloqiy va estetik qiymatlarni shakllantirishda ham o‘z aksini topadi. Xususan, Turkiyada, O‘zbekistonda va boshqa turkiy davlatlarda musiqiy

ta’lim tizimi nafaqat musiqani o‘rganish, balki uni jamiyatdagi har bir inson uchun kerakli vositaga aylantirishga qaratilgan. Musiqa yoshlarni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, milliy va xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. [1,3.5]

Xulosa qilib aytganda, turkiy davlatlar tarixi va madaniyatida musiqaning o‘rni juda katta. Musiqiy bilimlar bu xalqlarning madaniy kimligini shakllantirish, ijtimoiy birlikni mustahkamlash va xalqaro madaniy almashuvni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Musiqa nafaqat san’at, balki axloqiy, diniy va ma’naviy tarbiya vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Turkiy xalqlarda musiqaning ta’lim tizimi orqali yangi avlodlarni tarbiyalash, musiqiy an’analarni saqlash va rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Shuningdek, musiqiy bilimlar xalqaro miqyosda madaniyatlararo aloqalar o‘rnatishda va xalqlarni birlashtirishda katta rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1 Turk Halk Müziği ve Türküler" (Turk xalq musiqasi va turkular) — A. U. Sunar

2 "Orta Asya Türklerinin Müzikal Kültürü" (O‘rta Osiyo turklarning musiqiy madaniyati) — S. K. Tunca

3 "Türk Sanat Müziği" (Turk san'ati musiqasi) — Ahmet Yılmaz

4 "Musiqa Tarixi" (Musiqa tarixi) — Mark Azaroff

5 "Türk Dünyasında Müzik Kültürü ve Eğitim" (Turkiy dunyoda musiqiy madaniyat va ta'lim) — Ahmet Özdemir

6 "Maqom - O‘zbek xalq musiqasi" (O‘zbek xalq musiqasi - maqom) — Z. M. Sharipov.

YEVROOSİYO MİNTAQASİDA TURKİY DAVLATLAR TARİXİ VA MADANİYATİ HAMDA MINTAQAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA SPORTINING ROLI, IJTIMOIY TAHLILI

Xolmatov Ixtiyor Baxtiyorovich ,
Farg‘ona Davlat Universiteti,
Sotsiologiya yo‘nalishi magistranti
e-mail ihtiyor0586@gmail.com,
+998916600577

Annotatsiya. *Mazkur maqola Markaziy Osiyoda mintaqaviy birdamlikni mustahkamlashda sportning o‘rni, ayniqsa, O‘zbekistonning bu boradagi liderlik vazifasini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Kecha, bugun va ertaga uchala vaqt o‘lchovida O‘zbekiston sportining rivoji, uning mintaqa davlatlari bilan integratsiya jarayonlariga ta’siri o‘rganiladi. 2024-yil Parij Olimpiadasi misolida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi sport birdamligi va mintaqaviy barqarorlikka qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar. *Markaziy Osiyo, O‘zbekiston sporti, mintaqaviy birdamlik, barqarorlik, Parij Olimpiadasi 2024, madaniy diplomatiya, kurash, sport diplomatiyasi, milliy sport turlari, Markaziy Osiyo o‘yinlari.*

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу роли спорта в укреплении региональной сплоченности в Центральной Азии, особенно в контексте лидерской роли Узбекистана в этом процессе. Исследуется развитие спорта в Узбекистане на трех временных отрезках: вчера, сегодня и завтра, а также его влияние на процессы интеграции с другими странами региона. На примере Олимпийских игр в Париже 2024 года рассматривается вклад спортивного единства стран Центральной Азии в региональную стабильность.*

Ключевые слова: *Центральная Азия, спорт Узбекистана, региональное единство, стабильность, Олимпийские игры Парижа 2024, культурная дипломатия, борьба, спортивная дипломатия, национальные виды спорта, Игры Центральной Азии.*

Abstract. *This article is dedicated to analyzing the role of sport in strengthening regional unity in Central Asia, with a particular focus on Uzbekistan's leadership in this regard. The development of Uzbekistan's sport is studied across three temporal dimensions: the past, present, and future, along with its influence on integration processes with other regional countries. Using the example of the 2024 Paris Olympics, the contribution of sports unity among Central Asian countries to regional stability is analyzed.*

Keywords: *Central Asia, Uzbekistan sport, regional unity, stability, Paris 2024 Olympics, cultural diplomacy, wrestling, sports diplomacy, national sports, Central Asian Games.*

Kirish

Markaziy Osiyo mintaqasida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlash global va mintaqaviy xavfsizlik uchun muhim hisoblanadi [1] Ushbu jarayonda sport faqat madaniy-gumanitar soha sifatida emas, balki davlatlararo birdamlikni mustahkamlash vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston, o‘zining sport an’analari va tashabbuslari bilan, mintaqadagi birdamlik siyosatining asosiy omillaridan biriga aylangan. Markaziy Osiyoning birdamligi siyosati va mintaqada barqarorlikni saqlashda O‘zbekiston sportining tarixiy roli bir necha muhim omillar bilan izohlanadi. Bu jarayonda sport faqat jismoniy faoliyat emas, balki madaniy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan davlatlararo aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida o‘z o‘rnini topgan. Quyida ushbu mavzuga tegishli tarixiy dalillar va ilmiy asoslar keltiriladi. Sport millatlararo birlashuv vositasi sifatida yurtimiz va qardosh xalqlar tarixida muhim o‘rin tutadi. Misol uchun Sovet Ittifoqi davrida sport mamlakat ichidagi turli millatlar, shu jumladan Markaziy Osiyo davlatlarini birlashtiruvchi vosita sifatida faol ishlatilgan. Toshkent, 1950-1980-yillarda, mintaqaning sport markazlaridan biriga aylangan. Bu davrda o‘zbek sportchilari xalqaro musobaqalarda nafaqat o‘z mamlakatini, balki mintaqani ham ifoda etgan. O‘zbekistondan kelib chiqqan milliy sport turi – **kurash,** boshqa Markaziy Osiyo davlatlarida ham ommaviylashdi. Bu milliy qadriyatlarni birlashtiruvchi sport turi sifatida mintaqaviy birdamlikka hissa qo‘shgan [2].**Pelé**

(Edson Arantes do Nascimento) quyidagicha fikr bildirganda naqadar haq edi “Futbol yoki sport til, irq va madaniy farqlardan qat’i nazar, butun dunyo xalqlarini birlashtiruvchi universal tildir.”[10]. Pelé sportning global ahamiyatiga urg‘u beradi.


Mustaqillikdan keyin O‘zbekiston sportining yangi bosqichi boshlandi.bu davrda Milliy sportning rivojlanishi va mintaqaviy ta’siri yanada ortdi. 1991-yilda mustaqillik qo‘lga kiritilgach, O‘zbekiston sportni madaniy diplomatiya vositasiga aylantirdi. Toshkentda o‘tkazilgan xalqaro sport musobaqalari mintaqaviy birdamlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutgan. O‘zbekistonning yetakchiligida tashkil etilgan Markaziy Osiyo o‘yinlari mintaqa davlatlari o‘rtasidagi sport hamkorligini mustahkamlashga xizmat qilgan. Bu musobaqalar nafaqat sportchilarning mahoratini oshirdi, balki davlatlar o‘rtasida do‘stona aloqalarni rivojlantirdi [4] “Kurash”ni xalqaro sport turi sifatida targ‘ib qilishi muhim ijtimoiy xodisa bo‘ldi. O‘zbekistonning xalqaro miqyosda kurash sport turini targ‘ib qilishi Markaziy Osiyo xalqlari madaniy birdamligini kuchaytirgan. 1999-yilda kurash Xalqaro Olimpiya Kengashining tan olingan sport turlaridan biriga aylandi, bu esa Markaziy Osiyoning global sport maydonidagi birligini ifodalaydi[3]. O‘zbekistonning xalqaro sport musobaqalarini tashkil etishi mintaqadagi davlatlar uchun birlashish maydoni bo‘ldi. Masalan, 2003-yilda Toshkentda o‘tkazilgan Osiyo kurash chempionati butun mintaqa uchun sport birdamligi ramzi bo‘lgan.Ayniqsa yoshlar o‘rtasidagi sport musobaqalari mintaqadagi tinchlik va birdamlikni ta’minlashning muhim mexanizmi hisoblanadi. O‘zbekiston ushbu jarayonning tashabbuskorlaridan biri bo‘lib kelgan [1] Kuzatuvlarimizga ko‘ra milliy sport turlari va xalqaro musobaqalar Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasida madaniy va tarixiy aloqalarni mustahkamlashga yordam bergan. Bu haqida “Markaziy Osiyoda sport orqali madaniy integratsiya” maqolasida P.Taylor batafsil to‘xtalib o‘tadi Jumladan, Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda sportning madaniy integratsiyani ta'minlashdagi roli ko‘rib chiqiladi. Xususan, xalqaro musobaqalar va milliy sport turlari orqali Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi madaniy va tarixiy aloqalar mustahkamlanishi, hamda sportning mintaqada madaniy o‘zaro tushunishni rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi [5]. O‘zbekiston sporti tarixan nafaqat

Mirzo Ulug‘bek madrasasida ibrat olgan Xonim Feruzshoh Shohmalik Qutbiddin va boshqa madrasalar ham o‘z ta'lim o‘choqlari faoliyatidan dunyoviy fanlar mashg‘ulotlarini ko‘proq olib borishga e'tiborni kuchaytirdilar. Mirzo Ulug‘bek Ali Qushchini o‘z farzandidek ko‘rar edi. Ulug‘bek uning o‘sib buyuk olim bo‘lishi yo‘lida unga barcha sharoitini muhayyo qildi. Koinotning cheksiz ummoni sir- sinoatlari sari yetakladi . Natijada Rasadxona akademiyasining eng yosh va iqtidorli o‘ta qobiliyatli olimi deya tilga tushdi . Uning buyuk kelajakni ko‘ra olgan. Mirzo Ulug‘bek farzandi arjumandiga quyidagicha baho bergan edi. " Ammo ittifoqo farzandi arjumand Ali ibn Muhammad Qushchi umrining yosh yillaridan beri ilm- u fan zamirida ilg‘orlab boryapti va uning tarmoqlari birla mashg‘uldir " deya ta'riflaydi. Ali Qushchining iste' dodini hisobga olgan Mirzo Ulug‘bek unga Oliy madarasa talabalari uchun tushunarli topshiradilar va tabiiyki , ustozining bu ma'suliyatli topshirig‘ini bajarib taxsinga sazovor bo‘ladi . Natijada

talabalar o‘rganishi uchun " Risola fi' l hisob " darsligi yuzaga keldi. Ali Qushchi Istanbuldagi Abu Ayyub Ansoriy maqbarasida qo‘nim topgan Ali Qushchidan katta ilmiy meros qoldi. Dunyoning turli mashhur kutubxona va nodir qo‘lyozmalar saqlanadigan ilmiy muassasalarida O‘rta asrlar davri olimlari noyob asarlari avaylab saqlanib kelinadi . Mirzo Ulug‘bek jahonga shunday ulug‘ inson va buyuk olimni tarbiyalab bergan edi. Ali Qushchi Mirzo Ulug‘bekdek buyuk insonga ham farzand, ham shogird bo‘lib, doim u bilan ilmiy hamkorligi bois shunday buyuklik mavqega erishishga muyassar bo‘lgan. U saltanat va mamlakat iqtisodiy siyosiy va madaniy taroqqiyotida barcha, jumladan tabiiy hamda ijtimoiy fanlar muhim o‘rinini mujassam tushungan hukmdor edi. Ulug‘bekning aqliy qobiliyati , xususan , mantiqiy fikrlash tarzi ham nihoyatda kuchli bo‘lgan. Mashhur shoir va adib Zayniddin Mahmud Vosifiyning yozishicha Ulug‘bek haftaning bir kunida fuqarolarni shaxsiy iltimoslari bo‘yicha qabul qilar ekan va bunday qabul kunlari fuqarolarning o‘ta chigal muammolarini ham juda ustalik bilan yechib bergan va zamondoshlarini hayratga solgan.

Xulosa qilib aytganda qomusiy ilmlar sohibi Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosi o‘z avlodlarini ilhomlantirgan va buyuk olimlar uchun asrlar osha yo‘l ko‘satish uchun mayoq bo‘lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzo Ulug‘bek : / tragediya / M. Shayxzoda. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 248 b.
2. “Мирзо улуғбекнинг жаҳон илм-фани ривожига қўшган ҳиссаси“ халқаро илмий конференция материаллари. Самарканд, 9-11 июнь 2009 й.
3. https://allomalar.uz/media/e-books/mirzo_ulugbek_tort_ulus_tarixi

MIRZO ULUG‘BEK - ZAMONASINING KELAJAKNI OLDINDAN TAFAKKUR QILA OLGAN YETUK SHAXSI

Vaxabova O‘g‘ilxon Tolibjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti vb dotsenti, PhD
Sadriddinova Kamola
Pedagogika fakulteti Psixologiya yo‘nalishi talabasi
+998935281018
@odiljonmusayev

Annotatsiya: *Ushbu maqola o‘z davrining buyuk siymosi, ulkan olim va adolatli hukmdor Mirzo Ulug‘bekning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan. Maqolada uning ilm-fanga qo‘shgan hissasi, Samarqandda barpo etgan obidalar va madrasalari, shuningdek, ajoyib kashfiyotlari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Mirzo Ulug‘bekning ilmga bo‘lgan qiziqishi va ma’rifatni rivojlantirish yo‘lidagi sa’y-harakatlari nafaqat o‘z zamonasida, balki bugungi kunda ham katta tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyatga ega ekani ta’kidlangan. Mazkur maqola orqali o‘quvchi Mirzo Ulug‘bekning bebaho merosi va uning bugungi jamiyat uchun dolzarbligi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘ladi. Maqola yoshlarda ilmga intilish, ma’rifat va adolat tamoyillariga sodiq bo‘lish g‘oyasini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, yurtimiz tarixidagi bu buyuk shaxsning yuksak ma’naviy qadriyatlarini yodga soladi.*

Kalit so‘zlar: *astranom, matematik, rasadxona, ma’rifatparvar, huquqshunos, riyoziyot, ilmiy meros, mutafakkir, tilshunos, teleskop, falakiyot, taqvim, kompyuter, yulduzlar, qomusiy olim.*

Annotation: *This article is dedicated to the life and work of Mirzo Ulugh Beg, a great figure of his time, an outstanding scientist, and a just ruler. It provides detailed information about his contributions to science, the monuments and madrasas he established in Samarkand, as well as his remarkable discoveries. The article emphasizes that Mirzo Ulugh Beg‘s passion for knowledge and his efforts to promote enlightenment are of great educational and moral significance, not only in his era but also today. Through this article, readers gain a comprehensive understanding of Mirzo Ulugh Beg‘s invaluable legacy and its relevance to*

contemporary society. It is aimed at inspiring young people to strive for knowledge, adhere to the principles of enlightenment and justice, and reminds them of the high moral values of this great figure in the history of our nation.

Keywords: *astronomer, mathematician, observatory, enlightener, jurist, arithmetic, scientific heritage, thinker, linguist, telescope, astronomy, calendar, computer, stars, encyclopedic scholar.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-sentabrdagi PQ-323-son qaroriga muvofiq, buyuk qomusiy olim va davlat arbobi. Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligi keng nishonlanadi. Qarorga ko‘ra, 2024-yil oktyabr oyida Samarqand shahrida "Mirzo Ulug‘bek: buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi" mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkaziladi. Shuningdek, Mirzo Ulug‘bek asarlarini o‘zbek, rus va ingliz tillarida qayta nashr qilish, davlat teatrlari va talabalar teatr-studiyalarida uning hayoti va faoliyatiga oid spektakllar sahnalashtirish rejalashtirilgan. Sharqshunoslik institutida uning davriga oid asarlar qo‘lyozmalarining ko‘rgazmasi, shuningdek, "Osmon toqiga qo‘yilgan narvon" nomli hujjatli film taqdimoti o‘tkazilishi belgilangan.

Ilm-fan va ma’rifatning yuksalish davrlaridan biri bo‘lgan buyuk taraqqiyot davri nomi ilm-fan, ma’rifat va adolat timsoli sifatida yuksak hurmatga sazovor. U nafaqat yirik hukmdor, balki dunyo ilm-faniga salmoqli hissa qo‘shgan buyuk astronom, matematik va maorifparvar sifatida tanilgan. Ulug‘bekning noyob iste’dodi, ilmiy kashfiyotlari va adolatli davlat boshqaruvi nafaqat o‘zi yashagan davr, balki asrlar davomida insoniyat uchun ilhom manbai bo‘lib kelgan. Uning merosi hanuzgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, balki zamonaviy jamiyat rivojiga muhim yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qimmatli ma’naviy manba hisoblanadi. Mirzo Ulug‘bekning umri va ijodi ilmga sadoqat, adolatga intilish hamda yurt ravnaqi uchun tinimsiz mehnat qilishning yorqin namunasidir. U o‘z mamlakatidagi iqtidorlarni bir yerga yig‘ib ularni ilm olishiga yetarlicha xissa qo‘shgan. Uning faoliyati nafaqat tarix sahifalarida, balki insoniyatning aqliy taraqqiyotida ham yorqin iz qoldirgan.

Mirzo Ulug‘bekning nomini shoxlikdan ko‘ra xam jahon maydonida mashhurligi ta'minlagan uning olimlik ilmiy faoliyati, qolaversa mazkur faoliyatining eng sermahsul natijasi "Zijji Jadidi Ko‘rogoniy" shox asari bo‘ldi. Ulug‘bek bu asarni Rasadxonani ishga tushirish ibtidosidan boshlab 1437-yilda yakunlandi. Demak bu asari ustida 10 yildan ortiq ter to‘kib ishlagan. Bu Rasadxona qurilishiga sabab bo‘lgan narsa Elxoniy xukmdorlar va Nasiriddin Tusiy tomonidan tayyorlangan "Zij" dagi nuqson va xatolar astronomiya amaliyotida yaqqol chalkashliklarni keltirib chiqarayotgan edi. Yil xisobida taqvimlar tuzish va shunga muvofiq marosimlar, Navro‘z kabi bayramlarni va turli fasllardagi sayllarni o‘tkazish va kun vaqtlarini aniq topishdagi ikkilanish va qiyinchiliklar to‘planib yangi "Zij" ga bo‘lgan talabni oshirayotgan edi. Bu ishlarni bajarishdek mas’uliyatni g‘oyat og‘ir vazifani, aniq belgilashdek murakkab ishga Mirzo Ulug‘bek o‘z tafakkur kuchiga ishonib kirishdi. Mirzo Ulug‘bek o‘z tafakkur kuchiga ishonib kirishdi. Kecha-kunduz kunni tunga tunni kunga ulab og‘ir va mashaqqatli ilmiy faoliyat va kuzatish natijasida "Zij' vujudga keldi. Daxo tafakkur egasi Mirzo Ulug‘bekning "Zij"i manaman degan ilmiy markazlarda elakdan o‘tkazib tekshirilgach jahon olimlarining olqish-u e’tiroflariga sazovor bo‘ldi. Uning "Zij" asari 2 jilddan iborat bo‘lib Rasadxonaning xam nazariy xam amaliy masalalarini o‘z ichiga oldi. Astronomiyaning nazariy va amaliy masalalar falakiyot va geometriyaga oid jadvallarni o‘zida mujassamlashtirib "Zij" yaratilganunga qadar yutuqlarni xam o‘z mazmuniga singdirgandir. YUNESKO bosh direktori Fediriko mayor bilan Islom Karimov o‘rtasida suxbat Amir Temurning jahon tarixidagi buyuk xizmatlari bemisl bo‘lganligi, ayniqsa Buyuk ipak yo‘lini tiklaganligi Sohibqironning jahon iqtisodiy integratsiyasining taminlashda bemisl aximiyat kasb etganligi, fan, madaniyat, san'at jahon savdosi, diplomatik aloqalarini tubdan yuksalish bosqichiga ko‘tarilishlar bo‘ylab muloqot qilinadi. So‘ngra suxbat Mirzo Ulug‘bek, Soxibqiron Amir Temurning donishmand nabirasi tarafga buriladi. YUNESKO bosh kotib Fediriko Mayor Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosini va uning yulduzlar xarakatiga doir xisob-kitoblarni yuksak baholab, bugungi kundagi kompyuter texnika va texnologiyasi asridagi xisob-kitoblardan bor-yo‘g‘i bir necha

daqiqa (aniqrog‘i bir daqiqayu ikki sekund) farqlsnishini ta’kidlaydi. Shunda O‘zbekiston respublikasi 1-prezidenti Islom Karimov"Yo‘q, janob Fediro Mayor Mirzo Ulug‘bek bobokalonimiz xato qilishi mumkun emas, balki xozirgi zamon texnologiyasi xato qilgan bo‘lishi mumkin" deb e'tiroz bildiradi. Bu e'tirozda katta xizmat yashirin bo‘lib, Mirzo Ulug‘bekning aql tafakkuri o‘z davri qamrovidan ming yillar ilgarilab ketganligini dalilidir. Mirzo Ulug‘bekning tafakkur daxosi quyoshning yillik xarajatini g‘oyat aniqlikda xisoblab chiqishda yaqqol ko‘rish mumkin. Mirzo Ulug‘bekga qadar yunon, arab, xitoy, xind, fors, yaxudiy va boshqa astronom olimlar bunday ilmiy aniqligiga erisha olmagan edilar. Bugungi jahon fani erishgan "Ziji Jadidi Ko‘rogoniy" falakiyot ilmining mukammal asari sifatida nafaqat sharq balki g‘arb olamida ham bemisl shuhrat qozondi. Uni jahon ilmiy jamoatchiligiga tanishtirishda dastlab Mirzo Ulug‘bekning sadoqatli shogirdli Ali qushchi va ma’rifatparvar Abulqosim Boburning xizmatlari katta bo‘ldi. Mirzo Ulug‘bek "Zij"i turli xalqlar orasida yetishgan falakiyotshunoslar natijalaridan ko‘ra eng mukammali, xatto bugun va kelajak zamonlar amaliyotiga bemalol bardosh bera oluvchi jadval bo‘lib o‘z ilmiy axamiyatini barcha zamonlarda xam yo‘qo‘tmaydigandir. Ushbu fikrimiz sayyoralarning yillik xarakati naqadar to‘g‘ri yechimini topganligini bugungi jahon fani erishgan yutuqlar bilan isbotlaganda ham Mirzo Ulug‘bekning natijalariga tasanno aytishdan o‘zga so‘zni qo‘llashdan bo‘lak taassurot qoldirmaydi. Ushbu aniq natijalar olimning daxo tafakkuri mahsuli edi. Negaki zamonaviy teleskop va murakkab elektron apparaturalardan foydalangan xolatdagi chiqarilgan astronomik xulosalar qayerda-yu Mirzo Ulug‘bekning oddiy jixozlardan foydalanib Rasadxonada chiqargan yakuniy xuloslari qayerda? Mirzo Ulug‘bekning bemisl doxiyona tafakkur darajasi zamonaviy texnika bilan qurollangan astronomik xalqaro stantsiya yoki ilmiy markaz olimlaridan ayrim jixatlari bilan ustun bo‘lsa borki, aslo kam emas.

Mirzo Ulug‘bek "Zij" ining jahon fani va madaniy dunyosi uchun muhim ahamiyatga molik jihati shundaki O‘rta asrlardan to xozirgacha (keyingi davrlarda ham bu jarayon albatta davom etadi) Dunyoning eng zabardast olimlari buyuk

asarga sharxlar yozib kelmoqdalar. Shuning o‘ziyoq bu asarning ilmiy qimmati naqadar yuqori mavqeni egallab kelayotganganligini isbotidir. Fikrimizning dalili sifatida dovrug’li asar haqida qoyalar va mamlakatlarning mashhur ilmiy dargohlari olimlari unga murojaat qilganligiga bir nazar tashlaymiz.

Sulton Abusaid Mirzo Abulqosim Bobuurga "Zij"ning bir nusxasini sovg‘a qilib yuborgan edi. Abulqosim Bobur Xirot xukmdori bo‘lib turgan paytida "Zij"ning fan uchun katta ahamiyatini bilgach, uni Xirotning eng mohir xattotlatlariga ko‘p nusxada ko‘chirishga ko‘rsatma beradi. Ali Qushchi butunlay Turkiyaga ko‘chib ketgach Istanbulda faoliyatini davom ettirib "Zij"ni targ‘ib qila boshlaydi. Bu vaqtda Sharq ilm ziyosidan bahramand bo‘lish uchun Istanbul tomon oqib kela boshlagan tabiiy fanlar ixlosmandlari, yevropaliklar uni o‘z tillariga tarjima qilib, qit'a hududi bo‘ylab yoyilishiga sabab bo‘ldi. Angliyaning dunyoga mashhur Universiteti (Oksford) professori, yirik astronom Jon Grive Mirzo Ulug‘bekning "Zij"i xaqida yirik kitob yozib, ingliz tilida nashrdan chiqaradi. Bu asar yani Grivs nashr asosida 1648-yili Beynbridj tomonidan chop etiladi. 1665 yilda asarning to‘liq nashri (forscha va lotinga tarjimasi bilan) Tomas Xayd tarafidan nashrdan chiqariladi. Shu tariqa agar Soxibqiron Amir Temur G‘arbiy Yevropaning xaloskori va uning uyg‘onishini ta'minlagan siyosiy va harbiy arbob sifatida Yevropada mashhur bo‘lgan bo‘lsa, uning nabirasi Mirzo Ulug‘bek donishmand, buyuk madaniy, ilm-ma’rifat olamida mashhur bo‘lib, nomi G‘arb olamida keza boshladi. Shu tariqa G‘arb dunyosi avval Soxibqiron Amir Temurni va oradan yarim asr o‘tib uning donishmand nabirasi Mirzo Ulug‘bekni "Zij" asari orqali kashf etdilar. Quvonarlisi shundaki, Yevropa uyg‘onishning asosiy olimi va ildizi, avvalo, bizning buyuk ajdodlarimiz boshlab bergan. Bunda Amir Temur va Mirzo Ulug‘bekning xissalari juda katta o‘rinni egallaydi. Yevropada Mirzo Ulug‘bek "Zij" iga extiyoj yanada oshdi va kuchaydi. Grigoriy Sharl 1767-yili Fresis Beli 1843-yili Londonda qayta nashr etildi. 1889-yili Fransiyada astronom Sediyo tomonidan nashr etildi. Mirzo Ulug‘bek asari Okean orti xududlariga yetib bordi. AQSH lik olim Eduard Boll uni nashrdan chiqardi. Shu tariqa Mirzo Ulug‘bek nomi dunyo bo‘ylab sayohatini 5 asr davom etdi. Natijada buyuk

mutafakkir Mirzo Ulug‘bek nomi ilmiy-ma’naviy me’rosi nufuzli xalqaro tashkilot YUNESKO ro‘yxatidan o‘rin oldi. Bu xam xalqimiz va vatan uchun faxrdir. Uning Rasadxonasi ilmiy tadqiqotlari jahon ilm-fani taraqqiyotiga poydevor asos bo‘ldi.
Mirzo Ulug‘bek qomusiy olim edi. U o‘z davrining yetuk xuquqshunosi bo‘lgan. Eng yirik xuquqshunoslar bilan bahs munozaralar olib borgan. Saroydagi xuquqshunoslar Mirzo Ulug‘bekning bu sohadagi ilmining mukammaligiga tan berganlar.

Mirzo Ulug‘bek she’riyat qonun-qoidalaridan ham yaxshigina xabardor bo‘lgan. Bu haqda Alisher Navoiy o‘zining " Majlis un-nafois" va Abu Toxirxo‘ja "Samariya" asarlarida xukmdorning she’rlaridan ayrim na’mumalar ham keltiradilar. Mirzo Ulug‘bek musiqashunoslikga ham o‘zining munosib hissasini qo‘shgan. Mirzo Ulug‘bek katta va kichik naqoralar ijro etiladigan bulujiy, shodiyona, axloqiy, ulusiy, usuli ravon kabi alohida musiqiy asarlar yaratgan. Mirzo Ulug‘bek qadim ajdodlarimizning fan, madaniyat, tariximiz uchun katta ahamiyatga ega turkiy bitik yodgorliklari, ahloqiy, falsafiy asarlarni o‘rganib, xalqning ma’naviy saviyasini ko‘tarish, targ‘ib qilish sohasida ham jonbozlik ko‘rsatgan. Natijada Axmad Yugnakiyning "Xibat ul-Xaqoyiq" va Yusuf Xos Xojibning " Qutadg‘u bilig" i hamda shunga o‘xshash mashhur asarlar yangidan ko‘chirilgan. Ulug‘bek saroyida tarjima maktabi va markazi ham faoliyat ko‘rsatib bir talay qimmatli asarlar (Firdavsiy, Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Niyoziy Ganjaviy va boshqa asarlar) arab, fors, xind tillaridan turkiy, o‘zbek tiliga o‘girilgan. Buyuk bobokalonimiz koinot kashoffi, mashhuri olam astronom, matematik, musiqashunos va alomma tarixchi, odil shoh Mirzo Ulug‘bekdir. Nima bo‘lganda ham, Mirzo Ulug‘bek bemisl darajadagi mashaqqatli intilishlari bois o‘zi ko‘zlagan marralarini ilmga intilib zabt eta oldi. Mamlakat hududiga tashqi g‘animlarni yo‘latmaslik, mamlakat fuqarolariga tinchlikni ta'minlab, mexnat sharoitini ta'minlab, mexnat sharoitini yaratish, yurtni iqtisodiy va madaniy gullab yashnatishga erishish. Mirzo Ulug‘bek bularga asosan erishdi. Bozorlarga eng arzonchilik, mo‘l-ko‘lchilikka erishildi. Fan madaniyatga yurt Sharq mashaliga aylandi.

Markaziy Osiyo xalqlari ming yillik tarixi davomida kechirgan alg‘ov-dalg‘ov davrlar manzaralar xaqlni xabardor qilish va shu orqali Oliy amaldorlardan to oddiy tabaqa vakillarigacha moziy ilmidan xabardor bo‘lish, o‘tmish saboqlaridan xar bir inson ma'lum darajada tarixiy ongini o‘stirib borishi zaruritidan Ulug‘bek moziy ilmiga murojaat qildi. Xalqning tarixiy xotirasini mustahkam qilish muhim ahamiyatga ega ekanligini chuqur his qildi. Movarounnahr bir yuz ellik yil mustamlakachilikning barcha chirkin va xuquqsizlik vahshatlarini boshidan kechirganligi uchun o‘sha davrdagi Vatan xalq hayotining xonavayronlik manzarasini ochishga jazm etgan. Mirzo Ulug‘bek bunday tarixiy fojianing takrorlanmasligi uchun ogohlikning jangovar quroli-tarix bitishga kirishdi. Ayniqsa, 13-asrdagi Chingizxon va chingiziylar o‘rnatgan vahshiyona xunrezlik tartiblari xalq, Vatan taqdirida takrorlanishini Mirzo Ulug‘bek Ulug‘ olim, xukmdor, gumanist inson sifatida aslo istamasdi. Vatani va xalqi fuqarosini shunday darajaga ko‘tarish uchun bobosi Amir Temur va ota-o‘g‘illar Shohruh Mirzo va Mirzo Ulug‘bek Ulug‘bek qancha aql, qancha jismoniy, ruhiy kuchlarini sarflamadilar axir. Demak, xalqni tarixi bilan uyg‘otish lozim. Tarixi bilan yuritilgan xalqni xech bir g‘anim mag‘lub qila olmaydi. Qaramlik, tutqunlik davri bilan ozod, erkinlik, farovon yashashning manzaralarini bor bo‘yi bilan xaqqoniy ko‘rsatmoq uchun davrlarini tarixining ikkala pallasiga tortib, bu tarixiy voqea va hodisalarning xukmiy xulolasasini chiqara bilmoq uchun buyuk tarbiya vositasini insoniyatga tarixiy saboqlari tarix ilmli suv va havodek zarur. Demak, tarix buyuk muallim, uning chiqargan hox inson bo‘lsin hox millat yoxud el-ulus zavol bilmaydi.

Bularni o‘z vaqtida chuqur anglagan Mirzo Ulug‘bek, avvalo bobosi Sohibqiron to‘plagan va saroy kutubxonasida dunyoning turli mamlakatlaridan keltirib saqlayotgan noyob manbalar, nodir kitob va xujjatlaridan foydalanib, tarixiy asar bitishga bel bog‘ladi. Kitob qamaroviga kirgan davrlar ilk odamzod paydo bo‘lishidan (Odam Ato tarixidan) to bobosi Sohibqiron Amir Temurning hokimiyatiga kelishigacha bo‘lgan voqealarni o‘zida mujassamlashtiradi. Shunga ko‘ra Mirzo Ulug‘bekning "Tarixi Arba Ulus" (To‘rt ulus tarixi) asarini

tarixshunoslar 15 asrdan buyon davrlar qamaroviga kirgan tarixiy hodisa va voqealarni o‘rganishda birinchi darajali manbalar qatorida xisoblab kelganlar. Shunga ko‘ra muarrixlar o‘z asarlarini shunga tayanib yozishgan. Bu ham Mirzo Ulug‘bekning tarixiy asarning ilmiy qimmati yuqori ekanligidan darak beradi. Chunonchi mashhur tarixchi Xondamir "Habib us-siyar" va "Xulosat ul-axbar" muallifi noma’lum "Tarixi Guzida" va " Zubdat ul-osor" 17-asrda yashagan yirik qomusiy olim Maxmud ibn Valining " Baxr ul-as-asror" (sirlar dengizi) kabi tarixiy asarlarini yozishlarida Mirzo Ulug‘bek " To‘rt ulus tarixi" asar manbalari ularga asos bo‘lganligi yaqqol sezilib turadi. U kishi riyoziyot fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan va shunday jiddiy mahorat ko‘rsatganlarki kunlardan biri kuni otda ketayotib, 818 yil rajab oyining o‘ninchi v ana beshinchi kunlari orasidagi (milodiy 1415-yil 15-20 sentyabr) dushanba kuni yil mavsumining qaysi kuniga munosib kelishini aniqlashni aytadilar. Shunga ko‘ra otda ketayotib xayoliy hisob bilan Quyoshning taqvimi o‘sha kuni bir daraja va ikki daqiqa ekanligini toptilar. Keyin otdan tushgan hisob aniqligini aniqlab oldilar. Xaqiqatdan ham xayoliy hisobda ko‘p miqdorlarini yodda tutmoq va boshqa miqdorlarini bularga asoslab tarmoq kerak. Lekin insonning yodlash quvvati zaifdir va u daraja daqiqalarini u qadar aniq topolmaydi. Inson bino bo‘lganidan beri shu kungacha hali hech kimsa bu qadar aniq hisoblay olmagan edi. Qisqa qilib aytganda, u kishi bu fan sohasida g‘oyat katta mahoratga erishganlar, yulduzshonoslikka taalluqli ammalarini yaxshi bajarardi va chuqur dalillar bilan xuddi keragidek isbotlaydi. " Tazkira " va " To‘xta " dan shu qadar dars o‘tadilarki, ularga xech qanday qo‘shimcha qilishining xojati qolmaydi. Ulug‘bekning ilmga qiziqqonligi va mamlakatning ravnaqini o‘zgarganligi tufayli yangi usuddagi bilim yurti, maktab va madrasalar barpo qilishga qaror qilib, deyarli bir vaqtning o‘zida Samarqand, Buxoro va G‘ijduvonda uchta madrasa barpo etadi. Tez orada Ulug‘bek madrasaga muddaris va olimlarni to‘play boshlaydi va shu tariqa Samarqanddagi astronomik maktabi shakllanadi. Xurosonda to‘plangan olimlarning soni 1417-yilga kelib 100 dan ortiq ketadi. Ular orasida adiblar, muarrixlar, xattotlar, rassomlar va me’morlar bor edi. Lekin astronomiya va matematika sohasida olimlar o‘bro‘liroq edi. Ular orasida Qozizoda

bilan Koshiy eng salobatli va nufuzli edilar. 1420-yili Samarqand madrasasining tantanali ochilishi bo‘ladi. Madrasada asosiy ma’ruzalarni Qozizoda, Ulug‘bek, Koshiy va Ali Qushchi o‘qiydilar. Ulug‘bek barpo etgan Samarqand madrasasi va ilmiy to‘garagi Sharq madaniyati va fani tarixida ulkan ahamiyat kasb etdi. Mamlakat ravnaqiga, shuningdek, ko‘p xalqlarning madaniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Yevropa uyg‘onish davrida bizning bobokalonlarimizning hissasi katta. Buni biz Mirzo Ulug‘bek timsolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Mirzo Ulug‘bekning hayoti va faoliyati insoniyat tarixida ilm-fan, ma’rifat va adolatning yuksak namunasini namoyon etgan. Uning ilmga bo‘lgan cheksiz qiziqishi, ta’lim va madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasi, shuningdek, adolatli boshqaruv tamoyillari asrlar davomida insoniyat uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Ulug‘bek nafaqat o‘z davrining, balki barcha zamonlarning ulug‘ siymosi bo‘lib, uning merosi bugungi kunda ham dolzarb va qadrli bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy jamiyat uchun Mirzo Ulug‘bek nafaqat tarixiy shaxs, balki o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida intilish va bilim olishning yorqin ramzidir. Uning hayoti yoshlarga ilmga sadoqat, o‘z-o‘zini rivojlantirish va yurt ravnaqi uchun astoydil mehnat qilish zarurligini eslatadi. Ulug‘bekning bebaho merosi bizni har doim taraqqiyot va ma’rifat yo‘lida intilishga undaydi.

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR

1. Mirzo Ulug‘bek : / tragediya / M. Shayxzoda. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 248 b.
2. “Мирзо Улуғбекнинг жаҳон илм-фани ривожига қўшган ҳиссаси“ халқаро илмий конференция материаллари. самарканд, 9-11 июнь 2009 й.

3. https://allomalar.uz/media/e-books/mirzo_ulugbek_tort_ulus_tarixi

SUN'IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISHNING TURK DAVLATLARIDAGI O'RNI
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND AUTOMATION IN TURKISH STATES

Toshpo'lotova Jasmina Nuriddin qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
"Matematika va Informatika" yo'nalishi talabasi
jasminatoshpulotova06@gmail.com
(97) 389-83-78

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining turk davlatlaridagi roli, ularning iqtisodiyot, ta'lim, sanoat va jamiyat hayotiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish turkiy mamlakatlarning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining ijtimoiy oqibatlari, ish o'rinlariga ta'siri va axborot xavfsizligi masalalari ham ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar. *Sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, turk davlatlari, sanoat, raqamli texnologiyalar, ta'lim, iqtisodiyot, innovatsiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль искусственного интеллекта и технологий автоматизации в турецких странах, их влияние на экономику, образование, промышленность и общество. Внедрение современных технологий служит повышению конкурентоспособности тюркских стран, совершенствованию производственных процессов и повышению эффективности. При этом также рассматриваются социальные последствия технологий искусственного интеллекта и автоматизации, влияние на рабочие места и вопросы информационной безопасности.*

Ключевые слова. *Искусственный интеллект, автоматизация, турецкие государства, промышленность, цифровые технологии, образование, экономика, инновации.*

Annotation. *This article analyzes the role of artificial intelligence and automation technologies in Turkish countries, their impact on economy, education, industry and society. The introduction of modern technologies serves to increase the competitiveness of Turkic countries, improve production processes and increase efficiency. At the same time, the social consequences of artificial intelligence and automation technologies, the impact on jobs and information security issues are also considered.*

Keywords. *Artificial intelligence, automation, Turkish states, industry, digital technologies, education, economy, innovation.*

Bugungi kunda sun’iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari butun dunyoda, shu jumladan turk davlatlarida ham jadallik bilan rivojlanmoqda. Ushbu texnologiyalar iqtisodiyotning turli sohalarida, xususan sanoat, ta’lim, tibbiyot va transport tizimida jadal ravishda joriy qilinmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari turkiy davlatlarda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ijtimoiy xizmatlarni yaxshilash maqsadida keng qo‘llanilmoqda. Masalan, Turkiyada sun’iy intellekt asosida ishlovchi aqlli tizimlar turli sohalarda, jumladan, transport va sog‘liqni saqlash sohasida faol joriy etilmoqda.

Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish sanoatning rivojlanishida muhim rol o‘ynamoqda. Turk davlatlarida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali samaradorlik oshirilmoqda. O‘zbekistonda ham raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan tizimlar ishlab chiqilmoqda. Masalan, yirik ishlab chiqarish korxonalarida robototexnika va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish natijasida mahsulot sifati oshmoqda va ishlab chiqarish xarajatlari kamaymoqda. Shuningdek, Qozog‘iston va Ozarbayjonda ham sanoatda avtomatlashtirish jarayonlari tezlashmoqda. Bu esa mintaqa mamlakatlariga xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni ta’minlash imkonini bermoqda.[1]

Sun’iy intellekt ta’lim sohasida ham katta o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Turk davlatlarida masofaviy ta’lim platformalarining rivojlanishi, sun’iy intellekt asosida individual ta’lim dasturlarining ishlab chiqilishi ta’lim jarayonini soddalashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Masalan, O‘zbekistonda raqamli ta’lim resurslari joriy etilishi natijasida talabalar sun’iy intellekt yordamida o‘quv jarayonini yanada interaktiv tarzda olib borish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Turkiyada esa onlayn ta’lim tizimlari sun’iy intellekt algoritmlari orqali shaxsiylashtirilgan ta’lim usullarini taklif qilmoqda.

Tibbiyot sohasida ham sun’iy intellektning ahamiyati ortib bormoqda. Turk davlatlarida tibbiy tashxis qo‘yish va davolash jarayonlarida sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish kengaymoqda.[2] Sun’iy intellekt asosida ishlovchi diagnostika tizimlari bemorlarga tez va aniq tashxis qo‘yish imkonini bermoqda. Masalan, Turkiyada sun’iy intellekt yordamida saraton kasalligini erta aniqlash tizimlari ishlab chiqilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda avtomatlashtirilgan laboratoriya tizimlari tibbiy tekshiruvlarning aniqligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Avtomatlashtirish transport va logistika sohasida ham muhim rol o‘ynamoqda. Turk davlatlarida aqlli transport tizimlari rivojlanmoqda, bu esa yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash va transport samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Masalan, Qozog‘istonda aqlli yo‘l tizimlari joriy etilmoqda, bu esa transport oqimini optimallashtirish va tirbandliklarning oldini olish imkonini bermoqda. Turkiyada esa haydovchisiz avtomobillar va sun’iy intellekt asosida boshqariluvchi metro tizimlari amaliyotga tatbiq qilinmoqda.

Biroq, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq muammolar ham mavjud. Eng katta muammolardan biri – ish o‘rinlarining qisqarishi va mehnat bozoriga ta’siridir. Ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi natijasida an’anaviy kasblar yo‘qolib, yangi kasblar paydo bo‘lmoqda. Bu esa jamiyatga yangi chaqiriqlarni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellekt bilan bog‘liq axborot xavfsizligi masalalari ham dolzarb

bo‘lib qolmoqda. Turk davlatlarida kiberxavfsizlikni ta’minlash va sun’iy intellektdan xavfsiz foydalanish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda.[3]

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish turk davlatlarida jadal rivojlanayotgan va turli sohalarga ta’sir ko‘rsatayotgan texnologiyalar hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ta’lim jarayonini yaxshilash, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynamoqda. Biroq, bu texnologiyalarni samarali va xavfsiz boshqarish, ularning ijtimoiy oqibatlarini hisobga olish ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Turk davlatlari uchun sun’iy intellekt va avtomatlashtirishni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Russell S., Norvig P. Sun’iy intellekt: Zamonaviy yondashuv. – 3-nashr. – Moskva: Williams, 2020. – 1136 b.
2. Kurenkov P. Avtomatlashtirish va sun’iy intellekt: sanoat inqilobining yangi bosqichi // Raqamli iqtisodiyot jurnali. – 2021. – №4 (15). – B. 45-56.
3. Turkiya Texnologiyalar Agentligi. 2023-yilgi Sun’iy intellekt strategiyasi. – Anqara: TUBITAK Nashriyoti, 2023. – 78 b
4. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpo‘lotova. "Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy jarayonlar va moliyaviy munosabatlarning transformatsiyasi." (2024): 38-41.
5. Uktamov, M. "Modeling the professional training development of future teachers through computer training." Science and innovation 2.B9 (2023): 139-141.
6. Октамов, Мададжон, Жасмина Тошполотова, and Яйра Мусурманова. "Aniq fanlarni o ‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo ‘llagan holda dars jarayonlarini tashkil etish." Новый Узбекистан: наука, образование и инновации 1.1 (2024): 432-434.
7. Madadjon, O‘Ktamov. "PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING INFORMATIKADAN AXBOROT-TEXNOLOGIK

KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI." Academic research in educational sciences 4.CSPU Conference 1 (2023): 275-281.
8. O‘G‘Li, Madadjon O‘Ktam. "Kuzatuv quduqlarida yer osti suvlarini gidrorejim parametrlarini masofaviy nazorat qilishning avtomatlashgan tizimlari." Science and Education 2.12 (2021): 202-211.
9. Usmon o‘g‘li, Musirmanov Shohboz. "IJTIMOIY TARMOQLAR ORQALI TURISTIK JOYLARNI REKLAMA QILISH VA MIJOZLAR BILAN SAMARALI ALOQA O ‘RNATISH." Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4.10 (2024): 369-374.
10. Xabibullayevich, Abdullayev Safibullo, et al. "TECHNOLOGY OF ORGANIZATION OF ENVIRONMENT FOR THE DEVELOPMENT OF ERGONOMIC CULTURE." Harvard Educational and Scientific Review 1.1 (2021).
11. Beknazarova, Saida, et al. "METHOD OF FILTERING DIGITAL IMAGES BY PULSE CHARACTERISTIC IN THE SPECTRAL REGION." Актуальные вопросы развития инновационно-информационных технологий на транспорте 2021 (2021): 66-69.

OTSIZNING XORAZMSHOHLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHIDAGI O‘RNI.

THE ESTABLISHMENT OF THE KHWAREZMSHAH STATE DURING THE ANUSHTEGENIAN HORSELESS PERIOD.

Qilichev Shohruh Sherali o‘g‘li
Chirchiq Davlat Pedagogika
Unverseteti Gumanitar fanlar
fakulteti tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.
shohruhqilichev70@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola Anushtegiylar sulolasi hukumdori Otsizning hokimyat tepasiga kelish davri,uning tangalari Sulton Sanjar bilan olib borgan yurishlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Anushtegin, Sulton Malikshoh, Malik Abu Muzaffar Alovuddin Jaloliddin Otsiz, Xorazm Shixnaligi, Sulton Sanjar, Qoraxoniylar, Masud ibn Muhammmad topar.*

Abstract: *This article discusses the period of the rise to power of Atsiz, the ruler of the Anushtegid dynasty, and his campaigns with Sultan Sanjar.*

Keywords: *Anushtegin, Sultan Malikshah, Malik Abu Muzaffar Alovuddin Jalaluddin Atsiz, Khorezm Shikhnaligi, Sultan Sanjar, Karakhanids, Masud ibn Muhammad Tobar.*

Kirish: Anushteginiylar sulolasining boshlovchisi Anushtegin (vafoti 1097 yil) hisoblanadi. XI asrning ikkinchi yarmida saljuqiylarning omadi chopgan vaqtlar edi. Anushtegin saljuqiy hukmdor Sulton Malikshohning mansabdorlaridan bo‘lib, o‘zining namunali xizmati evaziga yuksak martaba va hukmdorning yaqin ayonlaridan biri darajasiga ko‘tariladi. Taxminan 1077-yili u Xorazm shihnaligi (komendant ma’nosida) vazifasiga tayinlanadi 1097-yili esa o‘g‘li Qutbiddin Muhammad Xorazm voliysi, ya’ni hokimi mavqeiga erishadi Uning hokimligi faqat Xorazm doirasida bo‘lgani tabiiy. Qutbiddin Muhammad saljuqiylar dargohiga qaram edi. [Azamat Ziyo. 2000.135]

Xorazmshox Qutbiddin Muxammad 30 yil davomida Xorazmda xukmronlik surdi. U vafotigacha (1127) sulton Sanjarga sodiq fuqoroligini izzor qilib, sulton xazinasiga xiroj , ulponlarni uz vaqtida tulab turdi (bu xirojlarni Qutbiddin Muxammad uzi yoki o‘g‘li Alovuddin Muxammad Otsiz orqali yetkazib berar edi.) Bu bilan Xorazmshox sulton Sanjarning oliy xukmdorligini e’tirof qilardi. Shu sadoati uchun xam sulton Sanjar Xorazmshox Qutbiddin Muxammadning vafotidan so‘ng Xorazmshoxlar toju taxtini uning o‘g‘li Al Malik Abu Muzaffar Alovuddin Jaloliddin Otsizga topshirdi [Bunyotov Z.1998. 109].

Otsiz ham avvaliga otasi kabi saljuqiylar xonadoniga sidqidildan xizmat qiladi. Ammo siyosatda bo‘lganidek, o‘z mavqei mustahkamlanib va, aksincha, raqobatchilari zaiflasha borganini sezgan holda saljuqiylarga qaramlikdan bosh torta boshlaydi. Garchi faoliyatining so‘nggi 20 yili davomida u mutlaq mustaqillikka erishish va bu bilan ham chegaralanmay o‘z hukmini Sirdaryoning quyi oqimlaridagi yerlar va Xurosonga ham o‘tqazishga intilgan bo‘lsada, ammo mohiyat e’tibori bilan aytadigan bo‘lsak, uning zamonida Xorazm viloyati to‘la erkinlikka erisha olmadi. Agar Otsiz zamonasi siyosiy manzarasiga nazar tashlagudek bo‘lsak,

bu vazifani hal etish haqiqatan ham qiyin ekanligini sezamiz. Avvalo, nima bo‘lganda ham Sulton Sanjar sulolasiga, goh esa Xuroson amirlariga suyangan holda o‘zaro kurash olib borganlar. [Azamat Ziyo. 2000.135]

Xorazm mustaqilligini ta’minlash, uning sarhadlarini kengaytirishda Qutbiddin Muhammadning o‘g‘li Jaloliddin Otsiz (1127- 1156)ning roli alohidadir. Negaki, u Qoraxoniylar kuchsizligidan va Saljuqiylar zaifligidan foydalanib, o‘z davlati qudratini yuksaltira bordi. Uning 1141- yilda oltin tangalar zarb ettirib, muomalaga chiqarishi ham Xorazm mustaqilligining muhim belgisi bo‘lgan. U Qoraxitoylar bilan kelishib, ularga har yili 30 ming dirham miqdorda o‘lpon to‘lash sharti bilan amalda o‘z davlatining ichki mustaqilligini ta’minlaydi. [Q. Usmonov. 2006.132].

Alovddin Otsiz otasining taxtiga o‘tirganida 29 yoshda edi. U xam otasiga o‘xshab, sulton Sanjarning poytaxti Marvda yaxshi ta’lim olgan edi. Otsiz musulmonlar podshoxiga xos islom diniga va ilohiyot olimlariga xomiylik qilishdan tashqari, turli fanlar va san’at axlini qadrlar, uzi xam forscha qasida va ruboiylar yozar , juda ko‘p buyuk shoirlarning baytlarini yoddan bilar edi. U, Xorazm aholisiga g‘amxo‘r, adolatli podshoxlik qildi. Bir manbada aytilishicha, fuqarolar Xorazmshox Otsizni yaxshi ko‘rar, uning zamonida fuqarolar xavf -xatardan mutlaqo xoli, tinchlik va osoyishtalikda, adolatda yashadi. Alovuddin Otsiz jasur sarkarda edi, janglarda tole kulib boqar, sulton Sanjar xizmatida juda ko‘p g‘alabalarga erishgan edi. Bu bilan o‘z xomiysi dargohida yuksak izzat-xurmat qozongan edi. Bir marta u buyuk sulton Sanjarni o‘limdan qutqarib qoldi va bu bilan yanada obruyi ziyoda buldi. Bu voqea 1130-yilda yuz bergan edi (xijriy 524). Shu yili sulton Sanjar o‘ziga qarshi isyon ko‘targan Samarqand xoni Arslonxon Muxammad ibn Sulaymonga qarshi yurish qildi. Sulton Sanjar Buxoroga yaqinlashganida vazirlari fitna chichiqarib, uni shikor (ov) paytida o‘ldirish qasd qildilar Alovuddin Otsiz ovga bormagan edi. Ammo, yarim kechada uyg‘onib ketib, sulton Sanjarning og‘ir axvolga tushganini kungli sezib, otlanib, zudlik bilan yordamga yetib bordi. Xuddi shu payt fitnachi amirlar sultonni qurshab olgan, u chorasiz ahvolda qolgan ekan. Shu zahoti Otsiz fitnachilarga tashlanib, ulardan

sulton Sanjarni qutqarib qoldi. Sulton Sanjar extimol, keyinroq Xorazmshoxdan «Fitnachilarning ishidan qanday xabar topding?» deb so‘raganida u «Tushimda sulton ov paytida falokatga uchraganini ko‘rdim va tura solib, bu yoqqa yetib keldim» deb javob bergan edi.

Sulton Sanjarning barcha xarbiy yurishlarida Otsiz uning yonida bo‘lgan. Sulton boshqa bir jiyani Ma’sud ibn Muxammad Topar (1133-1152) bilan jang qilganida Otsiz qo‘shinining Javongori chap qanotiga qumondonlik qilgan edi. Xorazmshox Otsiz saljuqiy sultoni Sanjarga o‘n yil mobaynida (1128 - 1138) ixlos va sadoqat bilan xizmat qildi. Xuddi shu vaqtlarda, xalifa Mustarshid zamonida Bag‘dod xalifaligi xokimiyati bilan xorazmshohlar o‘rtasida doimiy aloqalar kuchaydi. Xalifa Saljuqiylarning kuchayib ketishidan xavfsirayotgan edi. Xorazmshox Otsiz bu kurashda unga ittifoqchi bo‘lishi mumkin edi. Shu ittifoqni tuzish va kuchaytirish maqsadida xalifa Mustarshid hijriy 528 (milodiy- 1133) yili xorazmshohga elchilar bilan faxriy kiyim -kechaklar yubordi qimmatbaho kiyim-kechaklar sovg‘a qilish bilan xalifa Xorazmshox Otsizning saljuqiy sultoni Sanjarga qarshi kurashini qo‘llab-quvvatlashini bildirdi. Buyuk sulton Sanjarning saroyida ham Xorazmshoxning obro‘yi shu qadar baland bo‘lib ketdiki, buni ko‘rolmagan maliklar va amirlar Otsiz atrofida turli ig‘volar qilib, sulton bilan uning orasini buzishga urindilar. Sulton Sanjarning muomilasi o‘zgarib qolganini Otsiz ham sezib turardi. Bu narsa ayniqsa g‘aznaviylar podshohi Bahromshohning sulton Sanjarga qarshi isyoni vaqtida (hijriy 529, zulsa’da-iyul-avgust 1135) yaqqol sezildi.[Bunyotov Z.1998. 10;11bet]

Qutbiddin Muhammad Otsiz 1127-1156 - yillarda hukumronlik qildi. Saljuqiy Sulton Malikshoh davrida Xorazmni hukmdori bo‘lgan Anushteginning nevarasi Otsiz o‘zi tobe bo‘lgan Saljuqiy sultonlarining har bir xatosidan ustalik bilan foydalandi. Ayyor, diplomat va mohir sarkarda bo‘lgan Otsiz mustaqil tashqi siyosat olib bordi. U Xorazm yerlarini ancha kengaytirib, Sirdaryoning quyi oqimi yerlarini, Mang‘ishloqni bosib oladi. Shundan so‘ng u bir necha bor (1138, 1141, 1142, 1147-1148-yy.) Sulton Sanjarga qarshi isyon qildi va mag‘ubiyatga uchrab Saljuqiylarga butunlay tobe bo‘lib qoldi.[R.H Murtazayeva. 2005.151]

1153-yilgi o‘g‘uzlar g‘alayoni Saljuqiylar saltanatiga hal qiluvchi zarba bo‘lib xizmat qildi. Isyon natijasida Sulton Sanjarning o‘zi ham asir olindi Bunday bir vaziyatda xorazmshoh Otsiz saltanat uchun mas'uliyatni o‘z bo‘yniga olish, qolaversa, shu yo‘l bilan hududni kengaytirib, davlatni mustahkamlash maqsadida Amudaryoning yuqori oqimidagi Omul qal'asini egallashga harakat qildi. Shu bois, imkon topib, asirga tushgan sultonga chopar yo‘lladi.

Xorazmshoh Otsiz o‘z davlatini qaramlikdan tamomila xalos etish, saljuqiylar hukmronligini tugatishni asosiy maqsadi deb hisoblar edi Lekin, o‘g‘uz qabilalarining kuchaya borishi, saltanatda yuzaga kelgan tahlikali vaziyat, o‘zaro boshboshdoqlik Otsizning bu xavfga qarshi turishiga sabab bo‘ldi.

Saljuqiylarning yangi hukmdori sulton Mahmudxon xorazmshoh Otsizning mintaqada tutgan mavqeini tushungan holda «o‘g‘uzlar isyoniga qarshi kurashda undan harbiy yordam so‘radi. Xorazmshoh Otsiz 1156-yilning aprel oyida katta o‘g‘li El Arslon bilan isyonni bostirish hamda Sulton Sanjarni asirlikdan qutqarish maqsadida o‘z qo‘shiniga boshchilik qilgan holda Xurosonning Shahriston degan joyiga qadar yetib keldi. U yon-atrofdagi hokimliklarga murojaat etib, birgalikda sa'y-harakatlarni amalga oshirishga da'vat etdi. Shunday bir vaqtda Sulton Sanjarning o‘g‘uzlar asirligidan qochishi vaziyatni bir muncha o‘zgartirib yubordi. Otsiz Sulton Sanjarga maktub jo‘natib, uning ozodlikka chiqishi bilan tabrikladi hamda unga o‘z sadoqatini izhor etdi. [A. Zamonov 2024. 220]

Bu voqeadan ko‘p o‘tmay Xorazmshoh Otsiz Xurosonning Habushon mavzeida turgan vaqtida qoqshol dardiga chalinib qoldi va 1156-yilning 30 iyul kuni 61 yoshida olamdan o‘tdi. Ta'kidlash joizki, aslida Otsiz to‘laqonli ravishda Anushtegin-xorazmshohlar davlatining asoschisi hisoblanadi. U Xorazm davlatining xalqaro aloqalarini boshlab berdi, davlat nufuzi va obro‘sini ko‘tarish jarayoniga zamin yaratdi

Xulosa. Al Malik Abu Muzaffar Alovuddin Jaloliddin Otsiz Xorazmshohlar davlatini mustahkamlashda katta rol o‘ynagan. Saljuqiylardan davlatni mustaqil siyosat yuritishiga tamal toshini qo`ygan, Movoraunnahrda Qoraxitoylarga qarshi siyosat yuritgan va ularga ma’lum darajada bo‘ysinishga majbur bo‘lgan.

Xorazmshoxlar davlatining iqtisodiy va siyosiy jihatdan kuchayishiga hissa qo‘shgan. Otsiz Xorazmshohlar tarixida muhim shaxs bo‘lib, uning hukmronligi keyingi buyuk Xorazmshoxlar davlati poydevorini yaratishda muhim bosqich bo‘lgan.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi Toshkent 2000 yil.
2. Bunyotov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231).- T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1998.
3. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova O‘zbekiston tarixi Toshkent- 2006 yil.
4. R.H Murtazayeva O‘zbekiston tarixi Toshkent- 2005 yil.
5. O‘zbekiston tarixi. I qism. Darslik. Mas'ul muh.: Sagdullayev A.S.-T.: Fan, 2019.
6. A. Zamonov. S. Abdusodiqov O‘zbekiston tarixi. II qism.-T.: Bayoz, 2024.

JAMIYATNI MODERNIZATSIYA QILISH VA DEMOKRATLASHTIRISHDA PROPORSIONAL SAYLOV TIZIMINING AHAMIYATI

Musayev Odil Raxmatovich,
Renessans ta’lim universiteti
Professori, falsafa fanlari doktori (DSc).
+998935281018
@odiljonmusayev
Djamiyev Bekzod Akramovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali dotsenti, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya*:* *Mazkur maqolada proporsional saylov tizimining siyosiy institutlarni modernizatsiya qilish va demokratik jarayonlarni mustahkamlashga ta’siri nuqtayi nazaridan roli va ahamiyatini o‘rganilgan. Maqolada proporsional saylov tizimi siyosiy madaniyatni rivojlantirishga, fuqarolarning siyosiy hayotdagi ishtirokiga va hukumatning vakilligini ta’minlashga qanday hissa qo‘shishiga alohida e’tibor berilgan.*

Kalit so‘zlar: *proporsional saylov tizimi, modernizatsiya, demokratiya, demokratik saylovlar, siyosiy partiya, ko‘ppartiyaviylik.*

Значение пропорционалной избирателной системы в модернизатсии и демократизации общества

Аннотация: *В данной стате рассматривается роль и значение пропорционалной избирателной системы с точки зрения ее влияния на модернизатсию политических институтов и укрепление демократических процессов. В стате уделено особое внимание тому, как пропорционалная избирателная система способствует развитию политической културы, участию граждан в политической жизни и представителству власти.*

Ключевые слова: *пропорционалная избирателная система, модернизация, демократия, демократические выборы, политическая партия, многопартийност.*

The role and importance of the proportional electoral system in the modernization and democratization of society

Annotation: *This article examines the role and importance of the proportional electoral system in terms of its impact on the modernization of political institutions and the strengthening of democratic processes. The article pays special attention to how the proportional electoral system contributes to the development of political culture, citizen participation in political life and representation of power.*

Key words: *proportional electoral system, modernization, democracy, democratic elections, political party, multi-party system.*

Proporsional saylov tizimi zamonaviy demokratik jarayonlarning muhim elementi bo‘lib, jamiyatni modernizatsiya qilish va demokratlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Aksariyat tizimlardan farqli o‘laroq, proporsional saylov tizimlari fuqarolarning siyosiy imtiyozlari va fikrlarining xilma-xilligini aniqroq aks ettirishga intiladi. Ular turli ijtimoiy guruhlarning keng ko‘lamli siyosiy e’tiqodlari va manfaatlarini aks ettiruvchi vakillik organlarini shakllantirishga hissa qo‘shadilar.

Bizga ma’lumki, proporsional saylov tizimida saylovchilar aniq bir shaxsga emas, balki tizimda saylovchi siyosiy partiya uchun ovoz beradi.

Proporsional saylov tizimi – har bir partiya olgan ovozlar soniga mutanosib ravishda deputatlik o‘rinlarini taqsimlash yo‘li bilan belgilanadigan saylov tizimining bir turidir. Shundan kelib chiqib, agar biror partiya 30 foiz ovoz olsa, parlamentdagi o‘rinlarining 30 foizga yaqinini qo‘lga kiritadi. Umumiy tarzda aytadigan bo‘lsak, proporsional saylov tizimi deganimizda mutanosiblik prinsipini tushunamiz.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, tarixda yigirmanchi asrgacha saylovlar instituti sof majoritar shaklda mavjud bo‘lgan. Partiya ro‘yxati bo‘yicha, ya’ni proporsional saylov tizimi bo‘yicha saylovlar birinchi marta 1899-yilda Belgiyada joriy etilgan. Keyinchalik, 1906-yilda Finlyandiyada, 1909-yilda Shvetsiyada, 1921-yilda Daniya va Norvegiyada proporsional saylov tizimi qo‘llanila boshlandi.

Hozirgi kunda proporsional saylov tizimi Ispaniya, Turkiya, Isroil, Gretsiya, Shveysariya, Polsha, Avstriya, Latviya, Xorvatiya kabi mamlakatlarda qo‘llanilib kelinmoqda. Hozirgi kunda mazkur tizimdan 80 ga yaqin davlatlar foydalanadi[1].

Proporsional saylov tizimida saylov natijalarini aniqlashda qonunchilikda vakillik organida mavjud deputatlik o‘rinlariga da’vogarlik qilish uchun siyosiy partiyalar qo‘lga kiritishi zarur bo‘lgan ovozlarning ma’lum bir o‘tish miqdori belgilanadi. Masalan, Saylov kodeksiga muvofiq, Qonunchilik palatasiga saylovda yagona saylov okrugi bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida yetti foiz ovozini olgan siyosiy partiyalar belgilangan tartibda mandatga ega bo‘ladi. Proporsional saylov tizimi jamiyatni modernizatsiya qilish va demokratlashtirishda muhim rol o‘ynaydi, turli ijtimoiy guruhlar va partiyalarning siyosiy afzalliklarini aks ettirishning samarali mexanizmini ta’minlaydi.

Proporsional saylov tizimi ko‘p mamlakatlarda qo‘llaniladigan saylov tizimining bir turidir. Boshqa turi bo‘lib majoritar saylov tizimi hisoblanadi. Proporsional saylov tizimi har xil turga ega. Umumiy tarzda uning mazmuni quyidagilardan iborat:

Davlat yoki vakillik organlari xuddi yagona saylov okruglari deb e’lon qilinadi. Siyosiy partiyalar va harakatlar, ularning ittifoqlari (saylov uyushmalari, bloklari) o‘z nomzodlari ro‘yxatini ilgari surishadi. Saylovchi siyosiy partiya,

harakatlar ularning rahbar va a’zolariga bo‘lingan munosabatidan kelib chiqqan holda, shunday ro‘yxatlardan biriga ovoz beradi. Bunday holatda g‘alaba qozonish saylov uyushmalarining taqdim etgan ro‘yxati uchun berilgan ovoz soniga qarab proporsional bo‘ladi, ammo ovozlarni hisoblash 5 % ko‘p ovoz yiqqan ro‘yxat bo‘yicha olib boriladi. (Masalan Rossiya 5 %, Shvetsiyada 4 %, Argentinada 3 %, Daniyada 2 %, Isroilda 1 % ni tashkil qiladi). Saylovlarda ishtirok etgan saylovchilar ovozining umumiy soni proporsional saylov tizimi bo‘yicha deputatlar mandatining umumiy soniga bo‘linadi va buning natijasida xususiy saylov degan ma’no hosil bo‘ladi. So‘ng har bir nomzod uchun berilgan ovozlar soni xususiy saylovga bo‘linadi. Shunday qilib, partiyalar, harakatlar vakillik organida qancha o‘rin olganliklarini bilib oladilar. Ro‘yxat ichidagi o‘rinlarni (mandatni) nomzodlar birinchisidan boshlab navbatga ko‘ra oladilar. Agarda ro‘yxat markaziy qism va mintaqaviy guruhlarga taqsimlangan bo‘lsa, unda birinchi bo‘lib parlamentga markaziy qism nomzodlari o‘tishadi. Mintaqaviy guruhlardan nomzodlar tegishli mintaqada mazkur ro‘yxat uchun saylovchilar bergan ovozlarga proporsional bo‘lgan holatda o‘rinlarni (mandatni) olishadi.

Proporsional saylov tizimining ijobiy tomoni shundaki, birinchidan, saylovchilarning ovozlari yo‘qolmaydi, proporsional holatda partiya va harakatlar (faqat 5 % li yoki boshqa o‘rnatilgan chegaradan o‘ta olmaganlardan tashqari) vakillik organida mandatga ega bo‘ladilar. Proporsional saylov tizimining salbiy tomoni shundaki, saylovchi absrakt shaxslarni saylaydi, ya’ni u faqat partiya, harakatlarning liderlari va bir necha faollarini bilishi mumkin, qolganlari esa unga noaniq, shu sababli ham saylovchi kimga ovoz berayotganligini konkret bilmaydi. Bundan tashqari, saylangan deputatlarning ularni saylagan konkret okrugning saylovchilari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqasi yo‘q, bu holatning aksini majoritar saylov tizimida ko‘rishimiz mumkin[2].

Bir qator mamlakatlar umumiy nomzodlar ro‘yxatiga ovoz berish tizimidan voz kechib, erkin nomzodlar ro‘yxatini saylashga o‘tganlar. Ushbu tizimda saylovchilar partiyalar, harakatlar ro‘yxatidan o‘zlari xohlagan nomzodni saylash huquqiga va hattoki ro‘yxatni to‘ldirish huquqiga ega bo‘ladilar.

Proporsional saylov tizimi jamiyatning turli qatlamlarining siyosiy qarashlarini aniqroq aks ettirishga yordam beradi. Bu bizga ko‘p millatli va ko‘ppartiyaviylik jamiyatlarida ayniqsa muhim bo‘lgan turli xil fikr va manfaatlarni hisobga olish imkonini beradi. Ushbu saylov tizimi siyosiy partiyalar va mafkuralarning xilma-xilligini rag‘batlantiradi, raqobat va siyosiy plyuralizmni rivojlantirishga hamda fuqarolarga ko‘plab nomzodlar va partiya dasturlarini taqdim etishga yordam beradi.

Бугунги кунда Ўзбекистонда фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятини ошириш — демократик ислоҳотларнинг марказий йўналишларидан бирига айланган. Чунки ҳар қандай жамиятда қонун устуворлиги ва инсон ҳуқуқларини кафолатлаш учун, энг аввало, фуқароларнинг қонунларга ҳурмати ва ҳуқуқий билим даражаси етарли бўлиши шарт. Президент Шавкат Мирзиёев раҳбарлигида бу йўналишда қатор муҳим фармонлар қабул қилиниб, ҳуқуқий онгни ошириш ва ҳуқуқий давлат қуришга қаратилган тизимли чоралар амалга оширилмоқда.

Жумладан: “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармон (2022 йил 28 январ, ПФ–60-сон)

Ушбу фармонда аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини ошириш алоҳида устувор вазифа сифатида белгиланган. Фуқароларга ҳуқуқий маълумотларни етказиш, суд-ҳуқуқ соҳасини ислоҳ этиш ва адолатни таъминлаш орқали ҳуқуқий давлат пойдеворини мустаҳкамлаш назарда тутилган. Стратегия доирасида таълим, ОАВ ва рақамли технологиялар орқали ҳуқуқий тарғиботни кучайтириш белгиланган. Бундан ташқари “Аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармон (2019 йил 9 январ, ПФ–5618-сон) фармони бўлиб, бу фармонда ҳуқуқий тарғибот ишларини давлат сиёсати даражасида ташкил этиш, ҳуқуқий таълимни болаликдан бошлаб кенгайтириш, аҳолига ҳуқуқий ахборотни содда ва тушунарли шаклда етказиш, давлат органларининг бу борадаги масъулиятини ошириш каби муҳим вазифалар белгиланган. Фармонга мувофиқ, “Ҳуқуқий ахборот кунлари” ва “Ҳуқуқий билим ҳафталиги” каби оммавий тадбирлар йўлга қўйилди.

Шу билан биргаликда “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва ҳуқуқий тарбиялаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармон (2020 йил 14 август, ПФ–6034-сон) бўлиб, азкур фармонда ёшларни ҳуқуқий билимлар билан қуроллантириш, мактаб ва олий таълим муассасаларида ҳуқуқий тарбияни кучайтириш, ҳуқуқбузарлик ва

жиноятчиликнинг олдини олишга йўналтирилган тарғибот ишларини самарали ташкил этиш чоралари кўзда тутилган. Ушбу фармон ёшлар орасида ҳуқуқий маданиятни оширишда муҳим ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилмоқда.

Президент фармонларида белгиланган чора-тадбирлар ҳуқуқий давлат барпо этиш йўлидаги муҳим қадамлардир. Ҳуқуқий маданиятни ошириш фақат ҳуқуқшунослар ёки давлат идоралари вазифаси эмас, балки ҳар бир фуқаро ва жамиятнинг умумий бурчи ҳисобланади. Шунинг учун мазкур фармонлар нафақат давлат органлари, балки таълим муассасалари, нодавлат ташкилотлар ва оммавий ахборот воситалари олдига ҳам аниқ вазифаларни қўймоқда.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистонда ҳам сўнгги йилларда ҳуқуқий маданиятни ошириш борасида кенг қамровли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Қонунчиликни ислоҳ қилиш, аҳоли ўртасида ҳуқуқий саводхонликни ошириш, оммавий ахборот воситалари ва таълим муассасалари орқали ҳуқуқий тарғибот ишларини кучайтириш каби чора-тадбирлар ушбу йўналишдаги ишлар самарадорлигини таъминлашга қаратилган.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Кравцова М. Е., Баргачева В. Н. Культ Конфуция // Духовная культура Китая. — М., 2006. Т.2. С.196-202.
2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 12 мая 2018 года № ПП-3721 «Об организации среди молодежи конкурсов любителей книги в целях широкого изучения и пропаганды творческого наследия наших великих ученых, поэтов и мыслителей» / «Народное слово», 15 мая 2018 года.
3. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М.: «Республика», 1991. – С. 24.
4. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўк. -Т.: Ўзбекистон, 1998.
5. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 47-бет.

6. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 47-бет.
7. Сохибова, Л. Ж. (2021). КУЛЬТУРНЫЙ УРОВЕНЬ ЛИЧНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ДИАЛЕКТИКА СТАБИЛЬНОСТИ И ИЗМЕНЕНИЙ. *Ответственный редактор*, 45.
8. Сохибова, Л. (2023). Шахс маданий савияси тушунчасининг мазмуни ва таркибий элементлари. *Общество и инновации*, *4*(2/S), 224-228.
9. Сохибова, Л. (2023). ШАХС МАДАНИЙ САВИЯСИ–МАДАНИЙ РИВОЖЛАНГАНЛИК ИФОДАСИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/2), 220-224.

5-SHO‘BA:

MUHANDISLIK, MATEMATIK MODELLASHTIRISH, AXBOR OT TIZIMLARI VA TEXNOLOGIK BILIMLAR

ASSESSMENT OF THE CONCENTRATION AND SPATIAL DISTRIBUTION NATURAL RADIOACTIVE ELEMENTS IN THE KARAKAYA (KAYMAZ) GRANITE (NW, TÜRKİYE)

Assoc. Prof. Dr. Bahattin GÜLLÜ[1*]

Prof. Dr. Yusuf Kağan KADIOĞLU[2,3]

Prof. Dr. Tamer KORALAY[4]

Assoc. Prof. Dr. Kıymet DENİZ YAĞCIOĞLU[2,3]

Asst. Prof. Dr. Musa Avni AKÇE[5]

[1] *Aksaray University, Geology Eng. Department, 68100, Aksaray-Türkiye*

[2] *Ankara University, Geology Eng. Department, 06830, Gölbaşı-Ankara-Türkiye*

[3] *Ankara University, Earth Sci. App. and Res. Center (YEBİM), 06830, Gölbaşı-Ankara-Türkiye*

[4] *Pamukkale University, Geology Eng. Department, 20017, Denizli-Türkiye*

[5] *Nevşehir Hacı Bektaş Veli University, Geology Eng. Department, 50300, Nevşehir-Türkiye*

* bgullu@aksaray.edu.tr

Abstract

The Karakaya (Kaymaz) Granite, located ~65 km southeast of Eskişehir in northwestern Anatolia, represents a small, semi-elliptical pluton intruding on the boundary of the Tavşanlı–Sakarya Zone. The pluton displays a holocrystalline granular texture and is mainly composed of quartz, orthoclase, oligoclase, biotite,

and tourmaline, with accessory minerals including allanite, zircon, and titanite. Geochemically, the granite belongs to the sub-alkaline suite and is classified within the medium-K shoshonitic series, following a calc-alkaline trend. Major oxide compositions range as follows: SiO_2 (67.46–74.58 wt.%), Al_2O_3 (12.68–15.50 wt.%), Na_2O (3.29–4.16 wt.%), K_2O (4.84–6.26 wt.%), CaO (0.42–2.36 wt.%), MgO (0.40–0.92 wt.%), Fe_2O_3 (0.61–2.17 wt.%), TiO_2 (0.09–0.30 wt.%), P_2O_5 (0.04–0.15 wt.%), and MnO (0.03–0.10 wt.%). Interpolation of uranium (U_{avg}: 16.8 ppm) and thorium (Th_{avg}: 38.0 ppm) concentrations within the pluton reveals that both elements display prominent anomalies in the inner parts of the intrusion. Petrographic analyses of samples collected from these high-radioactivity zones indicate a relative enrichment of radiogenic accessory minerals such as allanite, titanite, and zircon. Petrogenetic interpretations suggest that U and Th concentrations increase during magma evolution, particularly during crystallization. The results provide insights into the petrogenetic behavior of U and Th in felsic intrusive systems and contribute to understanding the spatial variability of natural radioactivity in granitoid rocks.

Key words: *Karakaya (Kaymaz) Granite, Uranium (U), Thorium (Th), Natural Radioactivity, Accessory Minerals, Interpolation*

Introduction

Granitic rocks are intrusive igneous rocks that are hard, compact, and characterized by a phaneritic texture because of the slow cooling of magma at depths within the crust. Their primary felsic minerals are orthoclase, plagioclase, and quartz, whereas mafic components are biotite, hornblende, and pyroxene. In addition, accessory minerals such as tourmaline, apatite, zircon, titanite, and allanite are present in magmatic rocks. These minerals play a critical role in accommodating high field strength elements (HFSE), rare earth elements (REE), as well as uranium (U) and thorium (Th) in magmatic rocks [1]. In particular, U and Th are the dominant naturally occurring radioactive elements in magmatic systems, and their concentrations exhibit a positive correlation with increasing rock acidity and silica saturation.

U and Th are naturally occurring radioactive elements whose distribution within magmatic systems is primarily controlled by magmatic differentiation, mineralogical composition, and tectonic setting [2,3]. U and Th concentrations tend to increase in the residual melt because of their incompatibility during mantle melting, making them reliable fingerprints of magmatic evolution and late-stage processes such as metasomatism and hydrothermal alteration [4,5,6].

The level of natural radioactivity in granitic rocks is directly related to the concentrations of U and Th. Numerous studies have been conducted to determine the natural radioactivity levels of granitic plutons [6,7,8,9,10,11,12,13] in Turkey. The Karakaya (Kaymaz) granite, located at the boundary of the Tavşanlı and Sakarya zones in northwestern Anatolia [14], is classified as a radioactive pluton based on its whole-rock uranium (U_{avg}:16.8ppm) and thorium (Th_{avg}:38.03ppm) concentrations. Although radioactivity concentrations within this pluton have been revealed in previous studies [8], this study presents, for the first time, a petrological approach to the origin of natural radioactivity by evaluating the spatial distribution of radioactive elements using interpolation methods.

Geological Setting and Field Characteristics

The study area comprises the Karakaya (Kaymaz) granite, one of the granitoids located along the boundary between the Tavşanlı and Sakarya zones in northwestern Anatolia, which developed concerning the closure of the Neotethys. As shown in the magmatic facies map (Figure 1), the pluton is intruded by numerous NE-SW-trending felsic dikes. The inner part of the pluton is predominantly composed of biotite granite, while in the rim zones, tourmaline minerals accompanied biotites [14,15,16].




Fig. 1. Magmatic facies map of Karakaya (Kaymaz) granite (taken from [14]).

The pluton exhibits a very hilly morphological structure and well-developed fracture systems. These fracture systems are significant in documenting the signature of granite's tectonic (Figure 2a). Due to alteration, the exposed surfaces of the pluton display a yellowish-gray colour (Figure 2b). Macroscopically, the intrusive body contains quartz, orthoclase, plagioclase, biotite, and tourmaline minerals, along with mafic microgranular enclaves ranging in size from 1 cm to 15 cm (Figure 2c).

Experimental

In this study, the fresh rock samples were collected and prepared as thin sections for petrographic analysis at the Laboratory of the Earth Sciences Application and Research Center (YEBİM), Ankara University. Petrographic identification was performed under a polarizing microscope. The same samples' whole-rock and trace element geochemical analyses were conducted at the YEBİM XRF Laboratory. The

samples are crushed and then ground to a size of 20 microns. 4 g powdered sample was homogenized with 0.9 g of wax and pressed into pellets under a pressure of 15×10^4 N/m². Analyses were performed using a SPECTRO X-LAB 2000 model PED-XRF (Polarized Energy Dispersive X-Ray Fluorescence) instrument. The GEO-7220 method was used, and the instrument was calibrated using USGS plutonic rock standards, specifically K02-GSR-09 and G01-GS-N-Granite, developed for granitic and granodioritic compositions.




Fig. 2. (a,b) General and (b) macroscopic view of Karakaya (Kaymaz) granite (Güllü, 2012).

Results and Discussion

Petro-chemical Properties

According to the results of modal mineralogical analysis (Table 1), the Karakaya (Kaymaz) pluton is in granitic composition. It has an ellipsoidal shape that intruded into metamorphic and ultrabasic rocks. A prominent high-temperature metamorphic belt and a hydrothermal alteration zone are developed particularly along the southern contact of the intrusion, which is crosscut by numerous quartz veins. The rock has a holocrystalline hypidiomorphic granular texture and is composed of

quartz (Qz_avg: 42.0%), orthoclase (Ort_avg: 30.4%), plagioclase (Pl_avg: 16.7%) and with minor amounts of biotite (Bi_avg: 6.3%) and tourmaline (Tour_avg: 2.1%) (Figure 3a,b). Epidote, allanite (orthite), zircon, and opaque minerals (Figure 3) take place as accessory minerals. Additionally, chlorite and sericite are locally observed as alteration products (Figure 3c,d).

Table 1. Modal mineralogic analysis of granites (average of 500 points were counted)

	K-1	K-2	K-3	K-4	K-5	K-6	K-7	K-8	K-9	K-10
Quartz	39.56	51.17	30.22	33.99	37.6	73.09	40.3	40.6	37.42	35.64
Plagioclase	20.42	12.39	24.79	23.12	17.44	1.52	12.9	16.1	22.5	16.3
Orthoclase	33.23	30.84	34.3	38.28	34.5	7.64	24.5	33.42	33	34.09
Biotite	5.7	3.2	8.1	3.8	8.3	3	8.3	6.9	4.8	11.3
Tourmaline	0.41	1.8	0.73	-	-	12.16	3.9	1.38	0.85	-
Titanite	0.12	-	0.3	-	0.14	-	2.3	-	0.28	0.27
Allanite	0.3	0.2	-	-	1.2	-	2.2	0.04	0.03	-
Zircon	0.01	0.01	0.1	-	0.02	-	1.8	0.03	0.02	0.2
Apatite	0.04	-	0	0.1		0.15	0.2	0.41	0.13	0.17
Opaque min.	0.06	0.01	0.3	0.01	0.05	0.04	0.9	0.12	0.07	0.06
Epidote	-	0.37	0.8	-	-	2.4	1.5	-	-	1.7
Chlorite	0.1	-	0.29	-	-	-	0.4	-	-	0.2
Sericite	0.05	0.01	0.07	0.7	0.75	-	0.8	1	0.9	0.07




Fig. 3. (a) General view of holocrystalline hypidiomorphic granular textured granites under polarizing microscope, (b) tourmaline mineral in granites, (c*) allanite and titanite minerals in granites, (d*) zircon minerals in granites (pl: plagioclase, Bi: biotite, Qz: quartz, Tour: tourmaline, Ort: orthoclase, Aln: allanite, Ttn: titanite, Zrn: zircon, (*): these figures are taken from [14]).

The Karakaya (Kaymaz) granite is characterized by a generally high silica content and plots within the granite field on the geochemical classification diagram based on major oxides and trace elements [17] (Figure 4a). In the $Na_2O + K_2O$ vs. SiO_2 diagram proposed by Irvine and Baragar [18] for the discrimination of different magma series, the Karakaya granites fall in the subalkaline field (Figure 4b). Similarly, on the AFM diagram (FeOt–(Na_2O + K_2O)–MgO) also proposed by Irvine and Baragar [18] to distinguish subalkaline rocks, the samples show a calc-alkaline trend (Figure 4c).




Fig. 4. (a,b) Total alkali vs. silica (TAS) diagram and (c) AFM (FeOt–(Na_2O + K_2O)–MgO) diagram showing the geochemical distribution of the Karakaya (Kaymaz) granites.

Nature and spatial distribution of Radioactive Elements

Discussions on natural thorium and uranium occurrences and enrichment in magmatic rocks can be categorized into three main aspects. The first one is the average concentrations of these elements in different types of magmatic rocks, the other is the specific concentrations and variations of Th and U within each rock

type, and the last is the potential behavior of Th and U during magmatic differentiation processes [19].

The average thorium and uranium concentrations in various types of magmatic rocks are presented in Table 2. Although an increase in U and Th content is generally observed with increasing silica in rocks, the notably high concentrations in subsilicic alkaline rocks indicate that the enrichment of these elements is not solely controlled by silica content. Considering the U and Th contents of accessory minerals such as allanite, zircon, sphene, and apatite in magmatic rocks (Table 3), it becomes evident that the distribution of uranium and thorium is largely controlled by these accessory minerals.

Table 2. Thorium and Uranium in igneous rocks [19].

Rock Type	Thorium (ppm)	Uranium (ppm)	Th/U
Silicic intrusive	1 - 25	1 - 6	2 - 6
Silicic ekstrusive	9 - 25	2 - 7	4 - 7
Basic intrusive	0.5 - 5	0.3 - 2	3 - 4
Basic ekstrusive	0.5 - 10	0.2 - 4	3 - 7
Ultrabasick	low	0.0001 - 0.03	-
Alkaline	-	0.1 - 30	variable
Silicic pegmatite	1 - 2	1 - 4	0.4 - 1.5

The lithological characteristics of the Karakaya (Kaymaz) granite and its average uranium (U_{avg}:16.8ppm), thorium (Th_{avg}:38.0ppm), and Th/U (avg:2.9) values reflect the distribution typical of silicic intrusive rocks, as shown in Table 2. Based on the modal mineralogical composition, the pluton contains accessory minerals reaching up to 5% in certain areas. When compared with the thorium and uranium contents of accessory minerals listed in Table 2, it is evident that the enrichment of Th and U in the Karakaya (Kaymaz) granite is controlled by these accessory phases.

Table 3. Thorium and Uranium in minerals of igneous rocks [19].

Mineral	Thorium (ppm)	Uranium (ppm)		Th/U
Alanite	500-5000	300-700	5-10	(in accessory)
	1000-20000	7-100	high	(in pegmatite)
Apatite	200-150	5-150	1	(in accessory)
	50-250	10-50	10-25	(in coarse aggregate)
Epidote	50-500	20-50	2-6	

Ilmenite	-	1-50		
Magnetite	0.3-20	1-30	variable	
Monazite	25000-200000	500-30000	25-50	
Sphene	100-600	100-700	1-2	
Ksenotim	low	500-35000	low	(0.01?)
Zircon	100-2500 50-4000	300-3000 100-6000	0.2-1 1	(in accessory) (in pegmatite)
Biotite	0.5-50	1-40	0.5-3	
Hornblende	5-50	1-30	2-4	
K-Feldspar	3-7	0.2-3	2-6	
Muscovite		2-8		
Plagioclase	0.5-3	0.2-5		
Olivine	low	0.01	1-5	
Pyroxene	2-25	0.01-40	4-5	
Quartz	0.5-6	0.01-5	2-5	

Güllü and Kadıoğlu [14], Sr isotope-based modeling suggests that the emplacement of the Karakaya (Kaymaz) granite involved approximately 80% contribution from the continental crust. When the average U and Th concentrations of the Karakaya granite are compared with the average concentrations in the continental crust (cc) and upper continental crust (ucc) ($Th_{avg\text{-}cc}$: 5.6 ppm; $Th_{avg\text{-}ucc}$: 10.5 ppm; $U_{avg\text{-}cc}$: 1.3 ppm; $U_{avg\text{-}ucc}$: 2.7 ppm) as reported by Hawkesworth and Kemp [20], it can be inferred that, in addition to accessory mineral control, upper continental crustal contamination also played a significant role in the enrichment of U and Th in the pluton (Figure 5a, b).

Th/U ratios in magmatic rocks provide insights into the relative enrichment or depletion of these radioisotopes [6]. In U vs. Th/U and Th vs. Th/U diagrams, a pronounced decrease in U concentration is observed with increasing Th/U (Figure 5a), while Th remains relatively stable (Figure 5b). This trend suggests that, during magmatic differentiation, U is incorporated into early-crystallizing accessory minerals through isomorphic substitution, whereas in late stages of crystallization, U may be disintegrated into Th [21,22].




Fig. 5. (a) U vs Th/U and (b) Th vs Th/U diagrams of Karakaya (Kaymaz) granite ($U_{avg\text{-}ucc}$: average U concentration of upper continental crust and $Th_{avg\text{-}ucc}$: average Th concentration of upper continental crust, taken from [20]).

To reveal the spatial distribution of Th and U-bearing minerals within the pluton, weighted distribution maps were generated through interpolation based on selected sample analyses. When the magmatic phase map of the Karakaya (Kaymaz) Granite is evaluated together with the U and Th distribution maps (Figure 6a, b, c), it shows that both elements higher concentrations in the inner part of the pluton. Considering the nature of the magma forming the Karakaya Granite, the presence of tourmaline is indicative of a hydrous magma [14]. Therefore, it would be expected that U and Th concentrations are higher in the tourmaline-biotite granite zones. However, the observed enrichment of U and Th may instead result from their incorporation into early-crystallizing accessory minerals such as allanite and titanite, which preferentially host these elements. Petrographic investigations support this interpretation as accessory minerals are more abundant in the biotite granite located toward the inner part of the pluton.




Fig. 6. (a) Magmatic facies, U (b) and Th (c) distribution map of Karakaya (Kaymaz) granite.

Conclusion

Petrographic and geochemical analyses reveal that the Karakaya (Kaymaz) Granite is sub-alkaline, calc-alkaline. It is predominantly composed of quartz, orthoclase, plagioclase, biotite, and tourmaline, with notable accessory phases including zircon, allanite, and titanite, which play a key role in the enrichment of U and Th.

The average concentrations of uranium (16.8 ppm) and thorium (38.03 ppm) in the Karakaya pluton significantly exceed typical continental crust and upper continental

crust values, suggesting that the granite represents a naturally radioactive body. Isotopic and compositional data suggest that upper continental crustal contamination (≈80%) played a significant role in the genesis of the granite, supporting the view that both magmatic differentiation and crustal assimilation contribute to U-Th enrichment within the pluton.

Spatial interpolation maps indicate that the highest U and Th concentrations are located in the central portion of the pluton. This enrichment correlates with an increased abundance of accessory minerals, particularly allanite and titanite, implying that they control on the distribution of radioactive elements.

Despite the presence of tourmaline an indicator of hydrous magmatic conditions the expected correlation between tourmaline-rich zones and elevated U-Th levels is not consistently observed. Instead, early crystallizing accessory phases are likely responsible for the observed element enrichment patterns.

Acknowledgement

This study was supported by the Ministry of Development under grant number 2012K120440. We would like to thank Aksaray University, Ankara University Directorate of Earth Science Applications and Research Center (YEBİM), and all its employees for their support throughout this study.

REFERENCES

[1]. Pagel, M. (1982). The mineralogy and geochemistry of uranium, thorium, and rare-earth elements in two radioactive granites of the Vosges, France. Mineralogical Magazine, 46(337), 149–161.

[2]. Faure, G. (1986). Principles of Isotope Geology (2nd ed.). John Wiley & Sons.

[3]. Cuney, M., & Friedrich, M. (1987). Physicochemical and crystal-chemical controls on accessory mineral chemistry in granites: implications for uranium metallogenesis. Bulletin de Minéralogie, 110(3), 235–247.

[4]. Mason, B., & Moore, C. B. (1982). Principles of Geochemistry (4th ed.). John Wiley & Sons.

[5]. Wilson, M. (1989). Igneous Petrogenesis. Springer Netherlands.

[6]. Örgün, Y., Altinsoy, N., Gültekin, A. H., Karahan, G., & Celebi, N. (2005). Natural radioactivity levels in granitic plutons and groundwaters in

Southeast part of Eskisehir, Turkey. Applied Radiation and Isotopes, 63(2), 267–275. https://doi.org/10.1016/j.apradiso.2005.03.008

[7]. Osmanlioglu, A. E. (2006). Natural radioactivity and evaluation of effective dose equivalent of granites in Turkey. Radiation Protection Dosimetry, 121(3), 325–329. https://doi.org/10.1093/rpd/ncl028

[8]. Örgün, Y., Altınsoy, N., Şahin, S. Y., Güngör, Y., Gültekin, A. H., Karahan, G., & Karacık, Z. (2007). Natural and anthropogenic radionuclides in rocks and beach sands from Ezine region (Çanakkale), Western Anatolia, Turkey. Applied Radiation and Isotopes, 65(6), 739–747. https://doi.org/10.1016/j.apradiso.2006.06.011

[9]. Cetin, E., Altinsoy, N., & Örgün, Y. (2012). Natural radioactivity levels of granites used in Turkey. Radiation Protection Dosimetry, 151(2), 299–305. https://doi.org/10.1093/rpd/ncs007

[10]. Onargan, T., Gür, F., Kaya, E., & Güneri, S. (2012). Assessment of natural radioactivity in commercial granites used in Turkey. Journal of Environmental Science and Health, Part A, 47(12), 1825–1830. https://doi.org/10.1080/10934529.2012.689548

[11]. Erkül, S. T., Özmen, S. F., Erkül, F., & Boztosun, İ. (2016). Comparison between natural radioactivity levels and geochemistry of some granitoids in western Turkey. Turkish Journal of Earth Sciences, 25(3), Article 3. https://doi.org/10.3906/yer-1511-6

[12]. Papadopoulos, A., Altunkaynak, Ş., Koroneos, A., Ünal, A., & Kamacı, Ö. (2016). Distribution of natural radioactivity and assessment of radioactive dose of Western Anatolian plutons, Turkey. Turkish Journal of Earth Sciences, 25(5), Article 3. https://doi.org/10.3906/yer-1605-4

[13]. Yalçın, F., Ilbeyli, N., Demirbilek, M., Yalçın, M. G., Güneş, A., Kaygusuz, A., & Özmen, S. F. (2020). Estimation of natural radionuclides' concentration of the plutonic rocks in the Sakarya Zone, Turkey using multivariate statistical methods. Symmetry, 12(6), 1048. https://doi.org/10.3390/sym12061048

[14]. Güllü, B., & Kadıoğlu, Y. K. (2022). Magmatic signature of the closure of the northern branch of Neo-Tethys: Upper Paleocene–Middle Eocene magmatism at the boundary of Tavşanlı–Sakarya Zone (Turkey). Geological Quarterly, 66(1), 1–20. https://doi.org/10.7306/gq.1645

[15]. Güllü, B. (2012). Temporal and spatial relations of Topkaya and Karakaya (Eskişehir) granitoids (Ph.D. Thesis). Ankara University.

[16]. Güllü, B., & Kadıoğlu, Y. K. (2010). Temporal relation of Karakaya Eskişehir granite within the felsic intrusive rocks of NW Anatolia. Tectonic Crossroads: Evolving Orogens of Eurasia-Africa-Arabia, 1(1), 43. (Abstract)

[17]. Cox, K. G., Bell, J. D., & Pankhurst, R. J. (1979). The Interpretation of Igneous Rocks. George Allen & Unwin.

[18]. Irvine, T. N., & Baragar, W. R. A. (1971). A guide to the chemical classification of the common volcanic rocks. Canadian Journal of Earth Sciences, 8(5), 523–548.

[19]. Adams, J. A. S., Osmond, J. K., & Rogers, J. J. W. (1958). The geochemistry of thorium and uranium. Physics and Chemistry of the Earth, 3, 298–348. https://doi.org/10.1016/0079-1946(59)90008-4

[20]. Hawkesworth, C. J., & Kemp, A. I. S. (2006). Evolution of the continental crust. Nature, 443(7113), 811–817. https://doi.org/10.1038/nature05191

[21]. Papadopoulos, A., Altunkaynak, S., Koroneos, A., Unal, A., & Kamaci, O. (2016). Natural radioactivity of Western Anatolian plutons, Turkey. Bulletin of the Geological Society of Greece, 50(4), 2332–2341. https://doi.org/10.12681/bgsg.14299

[22]. Erkül, S. T., Özmen, S. F., Erkül, F., & Boztosun, İ. (2016). Comparison between natural radioactivity levels and geochemistry of some granitoids in western Turkey. Turkish Journal of Earth Sciences, 25(3), Article 3. https://doi.org/10.3906/yer-1511-6

УДК: 631.3.088

АВТОТРАКТОР ПНЕВМАТИК ШИНАСИНИ СИФАТ ДАРАЖАСИНИ КВАЛИМЕТРИК УСУЛДА БАҲОЛАШ

QUALIMETRIC ASSESSMENT OF THE QUALITY LEVEL OF TRACTOR PNEUMATIC TIRES

Мелибаев Махмуджон.
Наманган давлат техника университети профессори., т.ф.н
E-mail: meliboevmeliboev1@gmail.com
+998 97 591 19 51
Негматуллаев Содикжон.
Наманган давлат техника университети доценти
E-mail: snegmatullaev153@gmail.com
+998 93 405 20 07
Ортиқов Ҳайитали.
Наманган давлат техника университети стажёр ўқитувчиси

E-mail: hayitali.7754@gmail.com
+998 99 602 51 55

Аннотация: *Ушбу мақолада машинасозлик соҳасида ишлаб чиқарилаётган пневматик шинасининг сифат кўрсаткичлари ва уни баҳолашни квалиметрик яъни саноқли баҳолаш усули ва воситаларидан фойдаланиш жараёнлари хақидаги маълумотлар ёритилган.*

Калит сўзлар*: сифат, баҳолаш, квалиметрия, индекс, нуқсон, шина, коэффициент.*

Abstract: *This article covers information about the quality indicators of pneumatic tires produced in the field of mechanical engineering and the process of using methods and means for qualitative assessment of its evaluation.*

Key words: *quality, assessment, qualimetry, index, defect, tire, coefficient*

Замонавий корхоналарда бирданига турли хил маҳсулотларни ишлаб чиқариш, корхона рентабеллигини оширишнинг асосий омиларидан бири бўлиб ҳисобланади. Машинасозлик деталларини сифат индекси ва нуқсонлар индексидан фойдаланган ҳолда куп хилдаги маҳсулотларнинг сифат даражасини баҳолаш усули энг мақбул ҳисобланади [Мелибаев М 2023. 1].

Маҳсулот сифати даражасини баҳолаш усуллари азалдан маълум бўлиб турли хил усуллар амалиётдан фойдаланиб келинмоқда, лекин машинасозлик деталларини ишлаб чиқаришда турли хил деталларнинг сифат кўрсаткичларини баҳолаш етарли даражада ўрганилмаган.

Маҳсулот сифатини олимлар томонидан Аристотель, Гегель, Шухарт (1931 й.), Исикава К (1950 й.), Джуран Д (1979 й.) ва бошқалар томонидан турлича усуллар билан, истемолчиларни талабларини қондириш сифатларини аниқлаб келинганлиги адабиётлардан маълум:

Ҳозирда маҳсулот сифат кўрсаткичларини ГОСТ 15467-79, ИСО 8402-86, ИСО 8402-94, ИСО 9000:2000 ва ИСО 9000:2011 талаблари асосида аниқланиши йўлга қўйилган.

Турли хил машинасозлик деталларининг сифат даражасини ҳар томонлама баҳолаш учун маҳсулот сифати индекслари қўлланилади.

Маҳсулот сифати индекси - бу кўриб чиқилаётган давр учун ҳар хил турдаги маҳсулотларнинг нисбий сифат кўрсаткичларининг ўртача вазнига тенг бўлган турли хил маҳсулотлар сифатининг комплекс кўрсаткичи ҳисобланади. Сифат кўрсаткичлари детал сифатини яхшилаш режаларини тузишда ва уларнинг бажарилишини текширишда, турли корхоналар маҳсулотларини сифатини таққослашда, ишлаб чиқариш барқарорлигини баҳолашда ва бошқа ҳолларда қўлланилади [Мелибаев М 2022. 2].

Машинанинг сифат кўрсаткичи кўпинча деталларнинг сифат кўрсаткичлари асосида жамланиб ҳисобланади. Одатда бу маҳсулотларнинг ишлаши ёки чидамлилиги юқори даражада бўлишини таъминлайди.

Бир неча s турдаги маҳсулотлар учун сифат индекси томонидан (1.1) формула ёрдамида ҳисоблаб топилади.

$$И_к = \frac{(\sum_{i=1}^{s} N_i \cdot N_i \cdot К_i \cdot Ц_i)}{(\sum N_i \cdot Ц_i)}, \qquad (1.1)$$

бунда $К_i$ - *i*-турдаги маҳсулот сифатининг нисбий кўрсаткичи; N_i - жорий даврдаги *i* -турдаги маҳсулотлар сони ёки *i* -маҳсулотлар ҳажми; $Ц_i$ - і-тоифадаги маҳсулотларнинг улгуржи нархи, сўм.

Агар і-турдаги ишлаб чиқарилган маҳсулотлар миқдор, $C_i = N_i = Ц_i$ ва барча турдаги маҳсулотлар ишлаб чиқарилган умумий миқдор $C_i = \sum C_i$ бўлса, сифат кўрсаткичи қўйидагича аниқланади (1.2) .

$$И_к = \frac{(\sum К_i \cdot С_i)}{С}, \quad \sum_{i=1}^{s} \text{Ni}. \qquad (1.2)$$

Асосий ва мос келадиган сифат индексларини ҳисоблашда ҳисобот даврлари, ҳар бири учун ҳақиқий сифат даражаси олинган давр ва ҳар икки давр учун нарх бир хил деб ҳисобланади. Сифат кўрсаткичлари турли ташкилотлар учун ҳисобланиши мумкин бўлган даражалари: устахона, завод, корхона учун. Ташкилот учун - индекс сифати (1.3) формула ёрдамида аниқланади [Мелибаев М 2019, 2017, 2021. 3,4,5].

$$И_{умум} = \frac{\sum c_j . И_{kl}}{\sum c_j}, \qquad (1.3)$$

бунда C_j -j -объект маҳсулот j ишлаб чиқарган миқдор; $И_{kj}$ – j-объектнинг сифат кўрсаткичи; m - объектлар сони.

Мисол. Цех икки турдаги автомобиль шиналари ишлаб чиқаради. Жорий вақт оралиғида уларнинг сифат даражасини баҳолаш керак. Асосий қиймат учун ўтган йили ишлаб чиқарилган шиналарнинг километр қиймати индекс сифат - минг км учун шиналар юриши (1-жадвал)да келтирилган.

1-жадвал

Дастлабки маълумотлар

Шиналар	**Масофа, минг км**		**Шиналар**	**Улгуржи нарх, сўм**
тури	**асосий**	**баҳоланди**	**сони, дон.**	
1	60	64	5	50
2	50	60	36	40

(1.1) формула бўйича маҳсулот сифат индексининг ҳисобланган қиймати 1.176 эканлиги аниқланди, шиналар сифати даражаси 17,6 % га ошганлини кўрсатди.

Баҳоланаётган маҳсулотлар таснифланганда сифат кўрсаткичи сифатида ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг улгуржи нархлардаги ҳақиқий таннархининг унинг шартли қийматига нисбатига тенг бўлган ҳал коэффитциентидан фойдаланиш мумкин, агар унинг ҳаммаси энг юқори турда ишлаб чиқарилган деб фараз қилинади.

$$К_с = \frac{\sum Ц_{ik} \cdot \sum N_{ik}}{\sum Ц_{il} \cdot \sum N_{il}}, \qquad (1.4)$$

бунда s - маҳсулот турлари сони; n - маҳсулот турлари сони; $Ц_{ik}$ - k-турининг i-туридаги маҳсулотларнинг нархи; N_{ik} - k-турининг i-туридаги маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажми;

$Ц_{il}$ - энг юқори тури i-турдаги маҳсулотларнинг нархи [Мелибаев М 2023, 2024. 6,7].

Мисол. Корхона А, Б, С турдаги маҳсулотлар ишлаб чиқаради. Ҳар бири унинг турига тегишли нархга эга 1 ва 2 турли маҳсулотлар киради (2-жадвал)

2-жадвал

Маҳсулот турлари

Тури	**Вид А**			**Вид Б**			**Вид В**		
	N	*Ц*	*Ц-N*	*N*	*Ц*	*Ц-N*	*N*	*Ц*	*Ц-N*
1	100	6	600	50	5	250	60	4,5	270
2	50	5	250	20	4	80	30	3	90

(1.4) формула бўйича синф коэффитциентининг ҳисобланган қиймати 0,93 га тенг.

Баҳолаш коэффитциенти устахона, завод, компания учун ҳисобланиши мумкин, агар m объект (ишлаб чиқариш корхоналари, фирмалар ва бошқалар) учун бўлса.

Агар маҳсулот ишлаб чиқарилган K_{ci} ва тегишли миқдорлар C_i маълум бўлса, умумий таснифлаш коэффитциенти формула бўйича ҳисобланади.

$$K_{c.умум} = \frac{(\sum C_i \cdot K_{ci})}{\sum C_j}. \qquad (1.5)$$

Маҳсулот сифати кўрсаткичларига одатда нуқсон коэффициенти ҳам бевосита таъсир кўрсатади. Улар ишлаб чиқариш жараёнида маҳсулот сифатини тавсифлайди ва алоҳида ишлаб чиқариш бўлимларида (цех, участкада) меҳнат сифатини баҳолаш учун ишлатилади [Мелибаев М 2023. 8,9].

Нуқсонли (қамчилик) даражаси - бу і-хилдаги маҳсулот бирлигига тўғри келадиган нуқсонларнинг ўртача вазнли сони:

$$D_i = \frac{(\sum m_j \cdot r_j)}{n}, \qquad (1.6)$$

бунда *d* - берилган маҳсулотдаги нуқсонлар турлари сони; m_j -турдаги нуқсонларнинг оғирлик коэффитциенти; r_j - *j*-турдаги нуқсонлар сони; *n* - маҳсулот намунаси ҳажми.

Оғирлик коэффитциентлари m_j эксперт усули билан аниқланиши ёки нуқсонларни бартараф этиш харажатларига мутаносиб равишда олиниши мумкин.

i -хилдаги маҳсулотлар нуқсонларининг нисбий кўрсаткичи

$$q_i = \frac{D_i}{D_{ib}}, \qquad (1.7)$$

бунда D_i - корхонанинг ўтган даврдаги (йил, ой ва бошқалар) иши натижалари бўйича қабул қилинган нуқсон даражасининг асосий қиймати.

Агар q_i қийматлари s турдаги маҳсулотлар учун ҳисобланса, у ҳолда турли хил маҳсулотларнинг нуқсонлилик индекси:

$$И_д = \frac{\sum C_i q_i}{\sum C_i}, \qquad (1.8)$$

бунда C_i - *i*-турдаги маҳсулотлар учун ишлаб чиқарилган миқдор олинган давр.

Мисол. Маълум хилдаги автотрактор шиналари учун 4 хилдаги нуқсонлар аниқланган (А, Б, В ва Г). Ушбу нуқсонлар 3-жадвалда кўрсатилган оғирлик коэффитциентларига эга. 50 та шина намунасини текширишда 7 та нуқсон аниқланди [Мелибаев М 2024. 10]

3-жадвал

Дастлабки маҳсулотлари

Нуқсон	**Коэффициент весомости m_j, %**	**Йиғилган нуқсонлар сони, r_j**	**$m_j \cdot r_j$, %**
А	50	0	0
Б	25	1	25
В	15	2	30
Г	10	4	40
Жами	**100**	**7**	**95**

Олиб борилган кузатувлар асосида нуқсон даражасини ҳисоблаймиз: D_i = 95 / 50 = 1,9 %.

Мисол. Жадвалдаги учта хилдаги маҳсулотлар учун 4-жадвалда нуқсонлар кўрсаткичининг асосий ва ҳақиқий қийматлари, анъанавий бирликларда ишлаб чиқариш ҳажмлари кўрсатилган. Барча маҳсулотлар учун нуқсон индексини аниқлаш:

4-жадвал

Асосий ва ҳақиқий нуқсонлилик кўрсаткичи қийматлари

i	D_i	D_{ib}	C_i	q_i	$C_i \cdot q_i$
1	0,8	1,0	2	0,8	1,6
2	6,5	5	3	1,3	3,9
3	1,8	2,0	1	0,9	0,9
Жами			**6**		**6,4**

Биз нуқсонлар индексини ҳисоблаймиз:

$$И_д = \frac{6,4}{6} = 1,07$$

Ҳулоса: Олиб борилган кўзатишлар ва тадқиқотлардан маълум бўлишича автоарторларнинг пневматик шиналарининг ишлаб чиқари ва ишлатиш даврида нуқсонланиш (шикастланиш) даражаси 7 фоизга тенг эканлиги маълум бўлди ва бошқа маҳсулотларни ҳам нуқсонланиш даражасини аниқлаш имконияти пайдо бўлади.

АДАБИЁТЛАР:

[1] Мелибаев М., Акбаров С., Негматуллаев С. Э., Хасанов М. Ғилдирак шинасининг ўртача ишлаш ресурс ва шикастланиш кўрсаткичларини аниқлаш. // Journal of innovation, creativity and art. InnovaScience. Vol.2, No.2, 2023. ISSN: - Б. 123-132.

[2] Мелибаев М., Хожиева Д., Ортиқов Х., Ахмедова Д. Шиналарнинг хизмат мувозанати ва эскириш омиллари. // SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL**.** / ISSUE=3. MARCH 2022./ IN VOLUME=3.ISSUT 3. - Б. 319-330. WWW.OPEN SCTENCE.UZ.

[3] Мелибаев М., Дедаходжаев А., Лаптев И. Зависимость эксплуатационного ресурса шин от внутреннего давления. Вестник науки и образования. // Электронный научно-методический журнал. Издательство «Проблемы науки» №10 (22) май. 2019. – Иванова, 2.06.2019.

[4] Мелибаев М., Нишонов Ф Норбоева Д. Грузоподъёмность пневматических шин. / “Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида ёшларнинг ўрни” шиори остидага “Фарғона водийси ёш олимлари” I-ҳудудий илмий

анжумани материаллари тўплами. – Наманган. НМТИ, 2017. 16-май. - Б. 376 - 380.

[5] Melibayev M., Yigitaliyev J. Characteristics of the parameters of tractor tires on a non-horizontal support surface. // International journal for Innovative Engineering and Management Research. ELSEVIER SSRN. IJIEMR Transactions, online available on 26 th, Feb. 2021. Link: http: // ijiemr. org/downloads/Volume-10/Speciel. Iesse 0,3. Pages: 239 - 246.

[6] Мелибаев М., Акбаров С., Кудратов Ж. Пневматик шиналарининг пухталик миқдорий кўрсаткичларини аниқлаш. // Iqro journal. 2023. Vol-1, ISSUE-2. https://wordlyknowledge.uz.

[7] Melibayev M. Tizimli tahlil asosida shina resursini oshirishda informatsion modeli. // Namangan muhandislik-qurilish instituti Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali. – Namangan, 2024. Maxsus soni. № 3. -B. 103-107.

[8] Акбаров С.А., Негматуллаев С.Э., Хасанов З., Мелибаев М. Ғилдирак шинасининг ўртача ишлаш ресурс ва шикастланиш кўрсаткичларини аниқлаш. // Journal of innovation, creativity and art. Innova science. Vol.2, No.2, 2023 ISSN: - Б. 133-137.

[9] Melibayev M., Askarkhan A., Tokhirovych T., N.S. Ergashevich. Slip and deformation Characteristrics of tractor pneumatic tires. // Journal of innovation, Creativity and art 2(2), 2023. – B. 143-151.

[10] Melibayev M., Akbarov S. Factors of increasing the performance resource of pneumatic tires. // IJFMR - Academic Journal. Spanish Journal of Innovation and Integrity (ISSN: 2792-8268). IF (Impact Factor) 9.87 / 2024. – P. 165-173. http://sjii.indexedresearch.org/index.ph...

РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР – АХБОРОТ ВА МЕДИАНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИГА ТАЪСИРИ

Базаров Отабек Хасанбаевич
Ўзбекистон Республикаси Олий таълим,
фан ва инновациялар вазирлиги бошқарма бошлиғи,
ф.ф.д.,(PhD)

Аннотация: *Бугунги глобал рақамлашув даврида ахборот ва коммуникация технологиялари жамиятнинг барча соҳаларига чуқур кириб келмоқда. Хусусан, ёшлар орасида интернет, ижтимоий тармоқлар ва рақамли медиа воситаларининг оммалашуви уларнинг дунёқараши, турмуш тарзи ва, энг муҳими, маънавий-ахлоқий қарашларига сезиларли таъсир кўрсатмоқда. Ушбу мақолада рақамлашган ахборот муҳитининг ёшлар маънавиятига бўлган ижобий ва салбий таъсирлари таҳлил қилинади, шунингдек, уларни тўғри йўналтириш бўйича таклифлар илгари сурилади.*

Таянч тушунчалар: *рақамлашган жамият, рақамли таълим, рақамли технология, ижтимоий фаоллик, модернизация, тараққиёт стратегияси, ахборот макони, ахборот технологияси, маънавият, ижтимоий тараққиёт.*

Аннотация: В сегодняшнюю эпоху глобальной цифровизации информационные и коммуникационные технологии проникают глубоко во все сферы жизни общества. В частности, популярность интернета, социальных сетей и цифровых медиа среди молодежи оказывает значительное влияние на их мировоззрение, образ жизни и, самое главное, на их духовно-нравственные взгляды. В данной статье анализируется положительное и отрицательное влияние оцифрованной информационной среды на духовность молодежи, а также выдвигаются предложения по их правильному направлению.

Ключевые слова*:цифровое общество, цифровое образование, цифровые технологии, социальная политика, модернизация, стратегия развития, нишевые инновации, технологические инновации, духовность, социальное развитие.*

Abstract: *In today's era of global digitalization, information and communication technologies are penetrating deeply into all spheres of society. In*

particular, the popularity of the Internet, social networks and digital media among young people has a significant impact on their worldview, lifestyle and, most importantly, on their spiritual and moral views. This article analyzes the positive and negative impact of the digitized information environment on the spirituality of young people, as well as makes suggestions for their proper direction.

Keywords: *digital society, digital education, digital technologies, social policy, modernization, development strategy, niche innovations, technological innovations, spirituality, social development.*

Бугунги кунда жаҳонда юз бераётган рақамлашув жараёни инсон фаолиятининг барча жабҳаларига, жумладан, таълим, маданият, ижтимоий ҳаёт ва маънавият соҳаларига чуқур таъсир кўрсатмоқда. Ахборот технологиялари ва медиа воситаларининг тараққиёти, айниқса, ёшлар қатламида янги дунёқараш, тафаккур ва хулқ-атвор моделларини шакллантирмоқда. Шу сабабли, рақамли ахборот ва медиа муҳитининг ёшлар маънавий-ахлоқий камолотига таъсирини чуқур ўрганиш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

Рақамли ахборот муҳити интернет, мобил алоқа, ижтимоий тармоқлар, онлайн нашрлар ва видеоплатформаларни ўз ичига олади. Рақамли ахборот муҳити ахборотни электрон шаклда тарқатиш, қабул қилиш ва таҳлил қилиш имкониятини беради. Унинг асосий хусусиятларига ахборот тарқалишининг тезкорлиги, манбаларнинг турлилиги ва аудиторияга таъсир қилиш қобилияти, контентни мустақил яратиш ва тарқатиш имконияти кабилар киради. Интернет, ижтимоий тармоқлар (Instagram, Telegram, TikTok, YouTube ва бошқалар) орқали ёшлар ҳар куни юзлаб ахборотларга дуч келадилар. Бу ахборотлар турли мавзуларни қамраб олади: таълимий, кўнгилочар, сиёсий, ахлоқий ва бошқалар.

Ёшлар мазкур муҳитда ахборотни фаол қабул қилувчи ва тарқатувчи субъектлар сифатида иштирок этадилар. Шу билан бирга, улар ушбу ахборот таъсирига энг кўп мойил қатлам ҳисобланади.

Медианинг ёшлар маънавий ҳаётидаги таъсири икки жиҳатда намоён бўлади. Бир томондан, турли онлайн платформалар орқали маърифий ва ахлоқий мазмундаги контент тарқалмоқда. Бу, ўз навбатида, ёшларнинг билим олишини рағбатлантиради, уларда ватансеварлик, инсонийлик, юксак ахлоқ каби қадриятларни мустаҳкамлайди.

Иккинчи томондан эса, медиа муҳит орқали нотўғри, салбий тарғиботли, оммавий маданият таъсиридаги контентлар тарқалиши ҳам кузатилмоқда. Бундай ахборотлар ёшларда реал ҳаётга нисбатан нотўғри тасаввур, ахлоқий инқироз ва ижтимоий изоляция ҳолатларини келтириб чиқариши мумкин.

Медиа воситалари ёшлар маънавиятини шакллантиришда муҳим ўрин тутади. Улар орқали фақатгина билим эмас, балки ҳаётий позиция, ахлоқий қарашлар, жамиятга нисбатан муносабат ҳам шаклланади. Миллий ва умуминсоний қадриятларни тарғиб этувчи медиа контентлар ёшларда ижобий тафаккур, инсонийлик ва Ватанга муҳаббат туйғуларини уйғотиши мумкин.

Бироқ муаммо шундаки, медиа муҳитда салбий, бузғунчи ахборотлар ҳам кенг тарқалмоқда. Булар қаторига зўравонликни тарғиб этувчи видеолар, ёшларни ахлоқан йўқотувчи контентлар, ёлғон хабарлар ва манипулятив ахборотлар киради. Бундай маълумотлар ёшлар онгида нотўғри стереотиплар, индивидуализм, ўз манфаатини устун қўйиш, беахлоқлик каби хулқларни шакллантириши мумкин.

Медианинг ижобий таъсири қуйидагиларда намоён бўлади:

- Яхши шаклланган таълимий каналлар ва онлайн курслар ёшларнинг билим олиш имкониятларини кенгайтиради.
- Миллий маданият ва тарихни тарғиб этувчи медиа лойиҳалар ватанпарварлик туйғусини кучайтиради.
- Ёшлар ўртасида ижтимоий фаолликни оширади, уларни жамият ҳаётида иштирок этишга ундайди.

Бироқ, замонавий медиа маконида тарқалаётган контентлар доимо ижобий бўлавермайди. Тарғибот характеридаги баъзи ахборотлар зўравонлик, маданиятсизлик, моддий бойликни мутлақлаштириш, ёшларнинг шахсий

қадриятларига салбий таъсир кўрсатувчи ғояларни ўз ичига олмоқда. Улар қуйидагилардан иборат:

- Ахлоқий бузуқлик ва беқарорликни тарғиб этувчи контентлар ёш онгини заҳарлайди.
- Вақтни самарасиз ўтказиш, интернетга боғлиқлик, ижтимоий ёлғизлик ҳолатлари кучайиши.
- Тартибсиз ахборот оқимида ёшлар ҳақиқий қадриятлардан чалғиб қолиши мумкин.

Рақамли технологиялари кишилар ҳаётининг кўп жабҳаларида ахборот маҳсулотлари ва коммуникациялар соҳасига ўтишга имкон яратиб берди. Ўзбекистонда шу муносабат билан жамият нафақат ахборотлашган, балки рақамли жамият бўлиб қолди.

Жамиятни янада модернизация қилиш ва миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини ошириш борасида рақамли трансформация алоҳида аҳамиятга эга. Буни англаб етган Президентимиз Ш.Мирзиёев рақамлаштириш сиёсатига эътибор қаратиб, амалга оширилаётган ислоҳотларда ҳақиқий ахборотлашган жамиятни барпо этишга алоҳида эътибор қаратмоқда.

Ўзбекистонда ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ)ни ривожлантириш ва рақамлаштиришга 2000 йилларнинг бошлариданоқ аҳамият берила бошланди. Бу борада ҳукумат қарорлари ва Фармонлар, чора-тадбирлар режалари ишлаб чиқилди. Жумладан, “2013-2020 йилларда Ўзбекистон Республикаси Миллий ахборот-коммуникация тизимини ривожлантириш комплекс дастури”, “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси” ҳамда “Рақамли Ўзбекистон – 2030” ва “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси” каби норматив ҳужжатлар қабул қилиниб, уларда миллий иқтисодиёт, саноат, ижтимоий соҳа, таълим ва умуман жамиятда рақамли трансформацияни амалга оширишга қаратилган бир қатор чора-тадбирлар кўзда тутилган.

Жамиятни рақамлаштириш фуқароларга қандай енгилликлар олиб келади? Биринчидан, ижтимоий-иқтисодий ва илмий-техникавий жараёнларни тезлаштиради; фуқароларнинг ҳокимият органлари ва бошқа ташкилотлар билан учрашувлари ва мурожаатларида енгилликлар яратади; учинчидан, ҳаёт сифатини яхшилайди; тўртинчидан, иш унумдорлигини ошириш ва меҳнат шароитларини енгиллаштиришга муваффақ бўлади. Рақамлашган жамиятнинг яна энг муҳим хусусиятларидан бири шуки, бу коррупцияга қарши курашишнинг энг самарали усулидир. Чунки, рақамлар ҳамма нарсани аниқ кўрсатади, хотирада сақлайди, керак пайтда маълумотларни тақдим эта олади. Бундай шароитда бирон маълумотни яшириш, яширин битимлар тузиш(келишиш), у ёки бу фаолият ҳақида тўлиқ ахборот бермаслик(камчиликларни яшириш)нинг иложи йўқ, компьютер ҳаммасини намоён қилиб қўяди. Маълумотларнинг тизимлилиги ёлғон ва қинғир ишларга йўл бермайди, чунки тизимни алдашнинг имкони йўқ. Натижада порахўрлик, маблағларни самарасиз ва мақсадсиз сарфлаш, ошириб ё яшириб кўрсатиш имкони қолмайди. Бу эса жамиятнинг барча соҳасида шаффофлик бўлишига олиб келади, мисол учун, ижтимоий соҳага йўналтирилган маблағлар ўғирланмайди, мактаблар, касалхоналар, йўлларга ажратилган пуллар тўлиқ етиб боради ва ҳоказо.

Бундан ташқари, рақамлаштирилган жамият одамларни билим олишга ундайди. Чунки, глобал ахборот маконида одамларнинг ахборот билан ўзаро таъсири кучаяди; уларнинг жаҳон ахборот ресурсларидан фойдаланиш имкониятлари кенгаяди; ахборот маҳсулотлари ва хизматларига бўлган эҳтиёжлари қондирилади, электрон ҳукумат, рақамли бозорлар, электрон ижтимоий ва иқтисодий тармоқлар ривожланади, таълим соҳасидаги янгиликлар шиддат билан ёйилади.

Ҳозирги кунда жаҳонда юз бераётган глобал ўзгаришлар, ахборот технологияларнинг жадаллашуви келгусида механик ҳамда жисмоний меҳнат ўрнини робототехника эгаллаши мумкинлигидан дарак бермоқда. Шунинг учун рақамли технология бўйича стратегия ишлаб чиқиш, рақамли

кўникмаларни оммавий шакллантиришни таъминлаш долзарб масалаларидан бири саналади. Ёшлар янги касблар, турли технологиялардан фойдаланиш, компьютерлар, интернет, катта миқдордаги рақамли маълумотларга ишлов беришга тайёр туриши керак. Одамлар ўз фаолиятида замонавий технологиялардан фойдаланишга тайёр туришлари лозим, буларнинг барчаси эса билимни талаб этади.

Хўш, рақамли технологиялар шиддат билан ривожланиб бораётган, ахборот олиш ва фойдаланиш тезлиги жуда йириклашган ҳозирги даврда таълим тизимида ўқитиш жараёни қандай ташкил қилинмоқда?

Олий таълим тизимида рақамли технологиялардан фойдаланиш таълим сифатини ошириш ва ижтимоий фаол ёшларни тарбиялашда катта аҳамиятга эга. Чунки, ўқитиш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш ва кенг дунёқараш ва юксак маънавиятли баркамол авлодни тарбиялаш, уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш борасида рақамли технологиялар ва замонавий усуллардан фойдаланиш бугунги кун талабидир.

2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сонли “Рақамли Ўзбекистон - 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонда айнан шу рақамли технологияни ривожлантириш ва масофавий таълимни ривожлантириш масалалари кўриб чиқилди. Ўзбекистон Республикасида узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, таълим самарадорлиги имкониятларини ривожлантириш, меҳнат бозорида юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш вазифалари илгари сурилди. Бу борада бир қанча амалий ислоҳотлар олиб борилди ва бугунги кунга қадар олиб борилмоқда.

Таълим жараёнига рақамли технологиялар ва замонавий усулларни жорий этиш бўйича қуйидаги тадбирларни амалга ошириш лозим:

- ✓ Рақамли таълимни тушунадиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини ташкил этиш ва бу борада педагог кадрларнинг касбий маҳоратини

узлуксиз ривожлантириб бориш учун қўшимча шарт-шароит ҳамда имкониятлар яратиш;

✓ Олий таълим муассасасининг конференция материаллари, битирув-малакавий ишлар, магистрлик ва докторлик (PhD, ScD) диссертацияларидан иборат илмий-техник маълумотлар электрон базасини яратиш;

✓ масофавий ўқитишнинг дидактик имкониятларини назарий-методик асослаш;

✓ Замонавий ахборот-коммуникция технологиялари ва таълим технологияларининг мустаҳкам интеграциясини таъминлаш;

✓ Таълим жараёнларини рақамли технологиялар асосида индивидуаллаштириш, масофавий таълим хизматларини ривожлантириш, вебинар, онлайн, “флиппед слассроом” технологияларини амалиётга кенг жорий этиш;

✓ Тингловчилар ҳам камида компютер ва интернет билимларидан хабардор бўлишини таъминлаш.

Qaror qabul qilish va boshqaruv choralari: monitoring natijalari yer osti suvlari resurslarini boshqarish bo‘yicha qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Suv olishni cheklash, ifloslanish manbalarini bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rish yoki yangi suv manbalarini izlash kabi chora-tadbirlar monitoring ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi (Rasm 1.).



Rasm 1. Gidrogeologik jarayonlarni matematik modellashtirishni GAT asosidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyalash usullari

Zamonaviy monitoring jarayonlarida avtomatlashtirilgan sensorlar, real vaqt rejimida ma'lumot uzatish tizimlari, masofaviy zondlash ma'lumotlari va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish monitoringning samaradorligini va aniqligini sezilarli darajada oshirmoqda. Ushbu texnologiyalar monitoring jarayonlarini tezlashtirish, inson omilini kamaytirish va keng ko‘lamli hududlarda monitoring olib borish imkonini beradi [2, 6, 7].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ushbu omillar yer osti gidrosferasini monitoring qilish - suv resurslarini barqaror boshqarish va kelajak avlodlar uchun ularni saqlab qolishning asosidir. Yer osti gidrosferasi global miqyosda ham, mintaqaviy darajada ham hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan strategik resurs hisoblanadi. Aholining o‘sishi, iqtisodiy rivojlanish va iqlim o‘zgarishlari fonida yer osti suvlari resurslariga bo‘lgan talab ortib bormoqda, shu bilan birga ularning miqdori va sifati xavf ostida qolmoqda. Yer osti gidrosferasini samarali boshqarish va himoya qilish uchun uning holatini aniq, o‘z vaqtida va ishonchli monitoring qilish zarurati ortib bormoqda.

Tadqiqotda ko‘rib chiqilganidek, axborot texnologiyalari, matematik modellar va innovatsion yechimlarni yer osti gidrosferasini monitoringida joriy qilish ushbu jarayonni tubdan yaxshilash uchun muhim omillar hisoblanadi. An'anaviy usullarning cheklovlari zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali bartaraf etilib, axborot texnologiyalarining joriy etilishi, geofazoviy axborot tizimlari turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish, vizuallashtirish va fazoviy tahlil qilish imkonini beradi. Sensor texnologiyalari va real vaqt rejimida ma'lumot uzatish tizimlari doimiy va avtomatlashtirilgan monitoringni ta'minlab, inson omilini kamaytiradi va tezkor qaror qabul qilishga yordam beradi. Katta ma'lumotlarni tahlil qilish esa muhim tendensiyalar va anomaliyalarni aniqlashga xizmat qiladi.

Matematik modellarning roli, gidrogeologik modellar yer osti suvlari oqimini, ifloslantiruvchi moddalarning tarqalishini va turli ta'sirlar ostida gidrosistemaning javobini simulyatsiya qilish va bashorat qilish uchun kuchli vosita bo‘lib, ular monitoring ma'lumotlarini tahlil qilish, potentsial xavflarni baholash va turli boshqaruv ssenariolarining natijalarini prognozlash imkonini beradi.

Innovatsion yechimlar: Sun'iy intellekt va mashinani o‘rganish algoritmlari ma'lumotlardagi murakkab bog‘liqliklarni aniqlash, bashoratlar aniqligini oshirish va monitoring jarayonlarini optimallashtirishda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Dronlar va avtonom qurilmalar monitoring nuqtalariga kirishni osonlashtirib, ma'lumot yig‘ish jarayonini tezlashtirmoqda. Texnik infratuzilma, ma'lumotlar bazasini yaratish va boshqarish yetarliligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, axborot texnologiyalari, matematik modellar va innovatsion yechimlarni yer osti gidrosferasi monitoringida joriy qilish nafaqat texnologik jihatdan, balki strategik jihatdan ham zaruriyatdir. Bu yondashuv monitoringning samaradorligini oshiradi, yer osti suvlari haqida aniq va o‘z vaqtida ma'lumot olish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida suv resurslaridan oqilona foydalanish, ularni ifloslanishdan himoya qilish va kelajak avlodlar uchun barqaror suv ta'minotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABİYOTLAR RO‘YXATİ

1. Anderson, M. P., & Woessner, W. W. (2002). Applied Groundwater Modeling: Simulation of Flow and Advective Transport. Academic Press. (Yer osti suvlari modelini tuzish va ulardan monitoring ma'lumotlarini tahlil qilishda foydalanish bo‘yicha chuqur ma'lumot beradi).
2. Djumanov J.X., Abduvaitov A.A., Aytmetov B.R. "Application of geographic information systems and technologies in hydrogeology" TUIT News.
3. Driscoll, F. G. (1986). Groundwater and Wells. Johnson Filtration Systems. (Bu yer osti suvlari va quduqlar haqida klassik va fundamental manba bo‘lib, monitoring asoslari haqida ma'lumot beradi).
4. Fetter, C. W. (2001). Applied Hydrogeology. Prentice Hall. (Amaliy gidrogeologiya bo‘yicha yana bir keng qo‘llaniladigan darslik, yer osti suvlari harakati, oqimi va monitoringi usullarini batafsil yoritadi).
5. National Research Council. (2000). Investigating Groundwater Systems with Models. National Academies Press. (Yer osti suvlari tizimlarini modellar yordamida o‘rganish bo‘yicha ilmiy yondashuvlarni muhokama qiladi).
6. Reilly, T. E., & Harbaugh, A. W. (2004). Guidelines for Evaluating Ground-Water Flow Models. U.S. Geological Survey. (Yer osti suvlari oqimi modellarini baholash bo‘yicha yo‘riqnomalar va ularning monitoring ma'lumotlari bilan bog‘liqligi haqida ma'lumot beradi).
7. Sophocleous, M. A. (2002). Groundwater and Surface Water: A Single Hydrologic System. Cambridge University Press. (Yer osti va yer usti suvlarining o‘zaro bog‘liqligi va monitoringning kompleks yondashuvi muhimligini tushuntiradi).

ДИЗЕЛ ЁҚИЛҒИЛАРИНИ ҚЎШИМЧАЛАР ЁРДАМИДА МОДИФИКАЦИЯЛАШ

Ҳ.С.Фозилов[1].,
С.М.Туробжонов[2].,
С.Ф.Фозилов[1].,
Р.Н.Ражабов[3].
Бухоро давлат техника университети[1],
Тошкент давлат техника университети[2],
Ренессанс таълим университети[3].
E-mail: fozilovhasann@gmail.com

Автотранпорт саноатининг ривожланиши ва автомабил двигателларининг ишлаши учун экологик талабларнинг кучайиши билан замонавий дизел ёқилғисини ишлаб чиқариш турли хил фунционал мақсадлар учун қўшимчалардан фойдаланмасдан амалда ошириб бўлмайди. Бугунги кунга келиб, қўшимчалар ёқилғи ишлаб чиқариш ва улардан фойдаланиш техник кўрсаткичларнинг зарур элементи ҳисобланади [77]. Қўшимчаларнинг янги глобал ассортименти ишлаб чиқариш,вазифасига кўра бир биридан фарқ қилувчи бир неча ўнлаб турларни ва ўн минглаб савдо брендларини ўз ичига олади [61; 150 б].

Асосан, қўшимчалар баъзи кимёвий моддалар ёрдамида дизел ёқилғисининг хусусиятларини ўзгартиради [62]. Анъанавий равишда қўшимчаларни икки турга бўлиш мумкин [63; 243-246 б, 64;247-250 б, 65; 146-148 б, 66]:

- дизел ёқилғиси сифатини стандартлар талабларига мувофиқлаш тириш учун фойдаланилади. Буларга куйинишга қарши, цетан сонини оширувчи ва депрессант-дисперсант қўшимчалар киради;

- ёқилғининг ёниш жараёнидаги хусусиятларини спецификация талабларидан ташқари яхшилаш ва ёқилғига ўзига хос сифат кўрсаткич ларига таъсир доирасини бериш [67; 190 б].

Энг кенг тарқалган қўшимчалар гуруҳлари ва уларнинг дизел ёқилғиларида тавсия этилган таркиби 1.7.1-расмда кўрсатилган [71;368 б].


Цетан сонини оширувчи, куйинишга қарши ва депрессант-дисперсант қўшимчалар бугунги кунда энг кўп тарқатилди.

Сўнгги пайтларда таркибида олтингугурт миқдори паст бўлган дизел ёқилғиси ишлаб чиқарилмоқда [69-70], бу уларнинг мойланишининг ёмонлашишига олиб келади, бу эса ёқилғи ускуналарининг хизмат қилиш муддатига таъсир қилади.

Юқори босимли ёқилғи насосларининг ишлаши учун хос бўлган чегара ишқаланиш режимида ишқаланиш юзаларида сўрилган ва трибокимёвий реакцияларда иштирок этадиган сирт фаол органосульфур бирикмалари муҳим рол ўйнайди, ҳимоя плёнкасини ҳосил қилади [37].

Ёқилғи таркибига цетанни сонини оширувчи ва сусайтирувчи маълум қўшимчаларнинг киритилиши куйинишга қарши хусусиятларнинг ёмонлашишига олиб келиши мумкин [72], бу эса двигател қисмларининг ишдан чиқишини тезлаштиради [73; 74;1 17 б, 75; 21-24 б,76].

Ушбу камчиликларни бартараф этишнинг энг кенг тарқалган усули - куйинишга қарши қўшимчалардан фойдаланиш.



1.7.1-расм. Дизел ёқилғиси қўшимчаларининг таснифи

Яқин вақтгача Россиянинг қўшимчалардан фойдаланиш ёқилғилар ишлаб чиқариш саноатида асосан Слариант, Инфинеум, Лубризол, БАСФ ва бошқалар каби хорижий ишлаб чиқарувчилар томонидан олиб келинар эди. Фақат 2003 йилдан кейин қўшимчаларни маҳаллийлаштиришга катта эътибор қаратила бошлади. 1.7.1-жадвалда маҳаллий ишлаб чиқарувчилар томонидан бир нечта қўшимчаларнинг номлари келтирилган [77;78;79].

1.7.1-жадвал

Россияда ишлаб чиқарилган қўшимчаларнинг номлари

№ п/п	Қўшимча номи	Ишлаб чиқарувчи
2	Альта	ОАО «ВНИИ НП»
3	Миксент-2030	ОАО «Алтайский центр прикладной химии»
4	Каскад-5	ООО «Пластнефтехим»
5	Байкат	ОАО «ВНИИ НП», ОАО «АЗКиОС»
6	Комплексол-Эко-Д	ООО «Новокуйбышевский завод масел и присадок»

1.7.2-жадвалда Евро дизел ёқилғиларида фойдаланиш учун тасдиқланган куйинишга қарши қўшимчалар рўйхати келтирилган [80; 81;82;83;].

1.7.2-жадвал

Евро дизел ёқилғиларида фойдаланиш учун тасдиқланган куйинишга каршиқўшимчалар рўйхати.

Қўшимча номи	Ишлаб чиқарувчи	НҚИЗ сони
Додилубе 4940	Слариант	19
Керокорр ЛА 99С	БАСФ	9
HiTech 4140A	Афтон	6

LZ 539 M	Лубризол	5
PC-32	Тотал	2
Инфинеум P 690	Инфинеум	1
OLI-550	Инноспес Инс.	1
Байкат	ОАО «Ангарский завод катализаторов и органического синтеза»	5
Комплексол-Эко-Д	ООО «Новокуйбышевский завод масел и присадок»	4

1.7.2-жадвалдан кўриниб турибдики, Евро дизел ёқилғисини ишлаб чиқариш учун асосан хорижий ишлаб чиқарувчиларнинг куйинишга қарши қўшимчалари қўлланилади.

ПАРАФИН УГЛЕВОДОРОДЛАРДАН ЮҚОРИ ЁҒ СПИРТЛАР ОЛИШ ВА УЛАРНИ ДИЗЕЛ ЁҚИЛҒИСИ УЧУН МОЙЛОВЧАНЛИК ПРИСАДКА СИФАТИДА ҚЎЛЛАШ

Ҳ.С.Фозилов[1]., С.М.Туробжонов[2]., С.Ф.Фозилов[1]., Р.Н.Ражабов3.
Бухоро давлат техника университети[1],
Тошкент давлат техника университети[2],
Ренессанс таълим университети3.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистон саноатининг нефтни қайта ишлаш тармоғида ишлаб чиқаришни сифат жиҳатдан янги босқичга кўтариш, модернизациялаш ва диверсификация қилиш, инновацион технологияларни жорий этиш, ишлаб чиқарилаётган маҳсулот ҳажмини орттириш ва турларини кенгайтириш бўйича кенг кўламдаги ишлар амалга оширилди. Ўзбекистон Республикасининг ҳудуди ер ости ва ер усти бойликлари учун катта потенциалга эга. Унинг умумий майдонининг 60 % нефт ва газга истиқболли

ҳисобланади. Ҳозирги кунда республикамиздаги неф ва газ мавжуд бўлган майдонлар 5 та ҳудудга бўлинади. Буларга қуйидагилар киради. [1-3].

1) Устюрт ҳудуди (истиқболли ҳудуди 105,1 минг км^2), 2) Бухоро-Хива ҳудуди (44,4 минг км^2), 3) Жануби-ғарбий Ҳисор ҳудуди (4,1 минг км^2), 4) Сурхондарё ҳудуди (14,0 минг км^2), 5) Фарғона ҳудуди (17,0 минг км^2) майдонларди 162 нефт ва газ конлари очилган, улардан 92 тасидан маҳсулот олинмоқда.

Республикамиздаги нефт конларидан чиқаётган парафин углеводородларини оксидлаб юқори ёғ спиртлари олиш хозирги куннинг долзарб муаммоларидан ҳасобланиб улар асосида нефт маҳсулотлари учун мойловчанлик хоссаларини яхшилайдиган присадкалар олиш мақсадга муфофиқдир.

Органик ва нефткимё синтезда кенг қўлланиладиган юқори ёғ спиртларни олиш усуллари такомиллаштириш ЮЁСларини олиш учун янги хомашё базаларини ўзлаштирилиши, олинадиган маҳсулот сифатининг яхшиланиши, ишлаб чиқаришда ресурс тежамкор, чиқиндисиз технологияларни жорий этиш каби афзалликларни намоён этади. [138, 524-528 с].

Саноатда борат кислотаси иштирокида суюқ парафин углеводородларни кислород сақловчи газ билан оксидлаб, оксидатдан реакцияга киришмаган углеводородларни дистиллаш, борат кислотаси эфирларини гидролиз қилиш ва хом ёғ спиртларни дистиллаш орқали ЮЁСлари олинади. Ушбу усул бўйича олинган ёғ спиртларнинг сифат кўрсаткичлари паст, чунки улар таркибида кўп миқдордаги эфирли, карбонилли, тўйинмаган, икки функционал ва бошқа бирикмалар мавжуд. Ушбу спиртлар қониқарсиз органолептик хусусиятларга эга ва сарғиш тусдан оч жигар ранггача бўлади. Таркибида борат кислотаси эфирлари, қайтариладиган углеводородларни сақловчи оксидланган парафин ҳайдалган-да ўз ичига эфир ва карбонил сақловчи моддаларнинг моддаларнинг муҳим қисми дистиллятга ўтиб,

қайтариладиган углеводородларнинг оксидланиш жараёнига ва ҳосил бўлган оксидатнинг сифат хусусиятларига салбий таъсир қилади. Бундан ташқари, спиртларнинг бир қисми йўқотилади[4].

Техник моҳияти ва эришиладиган самараси жиҳатидан таклиф қилинган усулга энг яқин бўлган усул - бу бор бирикмалари иштирокида кейинчалик, олинган оксидатни сув билан ювиш, ювилган оксидатни 4% ишқор билан совунлаш ва совунланган оксидатни сув билан қайта ювиш орқали амалга ошириладиган парафин углеводородларини кислород сақлаган газ билан оксидлаб, юқори ёғ спиртларни олиш усулидир. Совунланган оксидат ювилгач спиртларни ажратиш уни борат кислотаси билан этерификация қилиш, углеводородларни дистиллаш ва борат кислотаси эфирларини гидролизлаш орқали амалга оширилади.

Олинган спиртлар етарли даражада юқори сифат кўрсаткичларига (айниқса ранги, ҳиди ҳамда таркибидаги карбонил, эфир ва тўйинмаган бирикмалар) эга эмас. Тадқиқотда ЮЁСларини олиш учун, борат кислотасини этерификациялаш мақсадида углеводородлар ва олдиндан совунланган оксидатдан 50-80 вазн % миқдорида вакуум остида дистиллаш орқали ажратилган спиртлар аралашмаси тайёрланади. Ювилган оксидатнинг совунланиши 40 %-ишқор билан амалга оширилади[5].

Тажриба учун молекуляр оғирлиги ўртача 210 дан 212 гача бўлган, углерод атомилари 11-13 ни ташкил қилувчи 600 г парафин аралашмаси 15 г (углеводородлар оғирлигининг 5 % миқдорида) сувсиз кристалл ҳолатдаги борат кислотаси билан биргаликда жойлаштирилади ва ҳаводаги кислород билан икки соат мобайнида 150 °С да оксидланади. Ҳосил бўлган реакция маҳсулотига оксидланиш маҳсулотининг 1/3 қисми миқдорида сув қўшиб, аралашма тахминан 100 °С ҳароратда 1 соат давомида аралаштирилади. Сўнгра, сувли қатлам ажратилади ва яна шунча миқдордаги сув билан ювилиб, сувли қатлами ажратилади. Олинган ювилган оксидат кислота 5,0; эфир 20,5;

карбонил 22,0; гидроксил 63,9; йод 1,6 сонларига эга бўлиб, икки қисмга бўлинади ва ундан кейин спиртлар ажратилади.

а) Оксидатнинг биринчи қисмига кислота, эфир ва карбонил сонлари бўйича ҳисобланган миқдорда 40 % натрий ишқори қўшилади ва 100-110 °С ҳароратда 80 минут давомида аралаштирилади. Сўнгра, совунланган маҳсулотдан 6,8 % оғир. миқдорида углеводородлар ва спиртлар ҳайдалади.

Ҳайдаш вакуум остида (5 мм.сим.уст. қолдиқ босимда) колбадаги ҳарорат 120 °С, буғда эса 85 °С да амалга оширилади. Олинган углеводород ва спиртга спиртларни этерификациялаш учун ҳисобланган миқдорда борат кислотаси қўшилиб, жараён 120 °С да 1 соат давомида амалга оширилади[6].


Шундан сўнг, этерификацияланган маҳсулотдан углеводородлар 180 °С ҳароратда ва 5 мм.сим.уст. босимида ҳайдалиб, борат кислотаси эфирларига 1,5 ҳажм сув қўшилади ва улар 100 °С ҳароратда 1 соат давомида аралаштириб гидролизланади. Борат кислотасининг сувли эритмаси ажратилиб, спиртлар ҳам шунча миқдордаги сув билан ювилади ва таҳлил қилинади.

б) Оксидланган парафиннинг иккинчи қисмидан спиртларни ажратиб олиш учун оксидатга натрий гидроксидининг 5 % сувли эритмаси оксидатнинг 1/3 қисми миқдорида қўшилади, шундан сўнг аралашма 100 °С ҳароратда 1,5 соат давомида аралаштирилади. Сувли қатлами тиндириш билан ажратилади ва оксидат шунча миқдордаги сув билан икки марта ювилади. Ювилган оксидатга борат кислотасининг ҳисобланган миқдори қўшилади ва 1 соат давомида 140 °С да этерификацияланади.

Этерификацияланган маҳсулотдан углеводородлар, борат кислотаси-нинг эфирлари сув билан парчаланади ва ажратилган спиртлар таҳлил қилинади. Улар таркибида карбонил, эфир ва тўйинмаган бирикмалар икки карра камроқ сақлаб, очроқ рангга ва камроқ ўткир ўзига хос ҳидга эга.

Ундаги ароматик углеводородларнинг таркиби 0,5 % дан ошмаслиги керак, акс ҳолда оксидланиш жараёни кечмайди. Энг мақбул хом ашё (*таркибида*

ароматик углеводородлар сақламаслиги боис, CO ва H_2 синтези натижасида олинган 275-320 *°C ҳарорат оралиғида қайновчи парафин углеводородларининг аралашмаси саналади)*. Оксидланиш реакциясини қуйидаги тенглама билан ифодалаш мумкин:



Оксидланиш жараёни углерод занжирини узмасдан амалга оширилади. Шунинг учун юқори молекуляр оғирликдаги ёғ спиртларини ишлаб чиқаришда дизел ёқилғисини депарафинлаш натижасида ҳосил бўлган юмшоқ парафинлардан оксидлаш учун фойдаланиш мумкин. Оксидланиш жараёни, кислоталарга қадар оксидланишдаги сингари, оксидловчи газнинг парафин ўзаро тўқнашув сирти таъсир қилади. Шу сабабли, оксидлаш колоннасининг бутун колоннаси бўйлаб газ оқимини иложи борича майин тарзда қисмларга бўлиш мақсадга мувофиқ саналади[7].

Бу усул асосида C_{10}-C_{20} алканларни молекуляр кислород билан суюқ фазада оксидлаш реакцияси ётади. Жараён атмосфера босимида ва 140-220 ^{0}C

ҳароратда 5 % (масс) миқдорида борат кислота қўшимчаси билан амалга оширилади. Оксидловчи аралашмада кислород миқдори 3,0-4,5 % (ҳажм) ни ташкил қилади. Дастлабки углеводородларнинг ўгариш даражаси 20 % ортиқ эмас.

Парафинларни кислород билан борат кислота ва унинг бирикмалари иштирокида оксидлаб юқори ёғ спиртларнинг олиниш усуллари афзалликларига технологик схема ва жиҳознинг оддийлигини, кўп тоннали ишлаб чиқариш учун хом ашё арзонлигини кўрсатиш мумкин. [8-10].

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Туробжонов С.М., Фозилов Ҳ.С., Мавлонов Б.А. Дизел ёқилғиларининг мойловчанлик хусусиятларини яхшиловчи присадкалар (Монография) // Бухоро: «Дурдона» нашриёти. 2022. 168 б.

2. Фозилов Ҳ.С. Нормал парафин углеводородларни оксидлаб юқори ёғ спиртлари олиш ва уларни дизел ёқилғисининг физик-кимёвий хоссаларини яхшилашда қўллаш // Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий техникавий журнал. Бухоро.-2021. №1. 110-115 б. [02.00.00; №14].

3. Фозилов Ҳ.С., Шарипов М.З., Фозилов С.Ф., Мавлонов Б. А, Ғайбуллаева А.Ф. Получение и изучение высших жирных спиртов и их применение в нефтехимичкской промышленности. «Universum: технические науки» электронный научный журнал. - г. Москва. 2021 г. №11 (92) часть 4.-С. 97-100. [02.00.00; №3].

4**.** Фозилов Ҳ.С., Мавланов Б.А., Фозилов С.Ф., Турсунов Б.Ж., Дизел ёқилғиларининг мойловчанлик хоссаларини яхшилаш // Фан ва технологиялар тараққиёти Илмий техникавий журнал. 2022. № 1. 39-44 б. [02.00.00; №14]

5. Fazilov H.S., Turabjanov S.M., Rajabov R.N. Obtaining higher fatty alcohols from industrial waste, and their application as lubricating additives for diesel fuels //

“O‘zbekiston neft va gaz” ilmiy-texnika jurnali. 2022. №2. / aprel, iyun, iyul 41-45 b [02.00.00; №7].

6. Ҳ.С.Фозилов, С.М.Туробжонов, Б.А.Мавлонов, У.К.Уринов, Д.Р. Атакузиева. Иккиламчи нефт хомашёси парафинни оксидлаш маҳсулотларни гидрогенлаб бирламчи ёғ спиртларни олиш. Композицион материаллар Узбекистон илмий-техникавий ва амалий журнали. 2023. №1. 85-89 б.

7. Фозилов Х.С., Туробжонов С.М., Мавланов Б.А., Давронова Ф.Л. Шўртангаз кимё мажмуаси иккиламчи хом ашёси қуйи молекулали полиэтиленни оксидлаб юқори ёғ спиртлар олиш ва уларни дизель ёқилғилари учун мойловчи присадкалар сифатида қўллаш // Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий техникавий журнал. Бухоро.-2023. №5. 113-120 б. [02.00.00; №14].

8. S.M.Turobjonov, H.S.Fozilov, B.A.Mavlonov, S.A.G‘aybullaev, S.F.Fozilov. Quyi molekulali polietilendan dizel yoqilg‘ilari uchun moylovchi prisadkalar olish texnologiyasini ishlab chiqish// “O‘zbekiston neft va gaz” ilmiy-texnika jurnali. 2023. №2. /aprel, май, iyul 47-52 b. [02.00.00; №7].

9. Фозилов Ҳ.С., Туробжонов С.М., Мавлонов Б.А. Ғайбуллаев С.А. Маҳаллий иккиламчи чиқинди хомашё қуйи молекулали полиэтилен асосида дизел ёқилғилари учун мойловчи присадкалар олиш технологиясини яратиш// Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий техникавий журнал. Бухоро.-2023. №6. 74-81 б. [02.00.00; №14].

10. Fozilov H.S., Turobjonov S.M., Jumaev J., Mavlonov B.A., G‘aybullaev S.A. Mahalliy xomashyolardan sintez qilingan prisadkalarni dizel yoqilg‘isining moylovchanlik xususiyatlariga ta’sirini matematik modellashtirish // Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий техникавий журнал. Бухоро.-2023. №6. 113-119 б. [02.00.00; №14].

MATEMATIK MODELLASHTIRISHNING ELEKTRON JADVAL YORDAMIDA OPTIMALLASHTIRISH MASALASI

OPTIMIZATION PROBLEM OF MATHEMATICAL MODELING WITH THE HELP OF ELECTRONIC TABLE

Kamalov Sherzodbek Sabirovich

Andijon davlat texnika instituti, assistenti,

E-mail: kamalovsherzodbek1986@gmail.com

Annatatsiya

Ushbu maqolada matematik modellashtirishning elektron jadval yordamida optimallashtirish masalasi hamda MS Excel da matematik modellashtirishning muayyan elementlari keltirilgan. Shu bilan birga matematikaning sodda, oddiy matematik ifodalarni MathCAD tizimida hisoblash, unda ikki va uch o‘lchovli grafiklar qurish, integral va limitlarni hisoblash, matritsalar ustida amallar bajarish, tenglamalar va tenglamalar sistemasini yechish hamda masalalarning analitik yechimlarini qurish kabi masalalarni yechish proseduralari to‘g‘risida ma'lumotlar va vizual materiallar berilgan.

Kalit so‘zlari: *matematik, mantiqiy modellash, optimallash, kompyuterda masalani yechish, iqtisodiy matematik modellash.*

Annatatsiya

In this article mathematical models in a spreadsheet, as well as certain elements of mathematical modeling in MS Excel, is presented. At the same time, information and visual materials are given about the procedures for solving the simplest mathematical expressions in the MathCAD system, constructing two-and three-dimensional graphs in it, calculating integrals and limits, performing operations on matrices, solving equations and systems of equations, as well as constructing analytical solutions to problems.

Key words: *mathematical, logical modeling, optimization, solving a problem on a computer, economic mathematical modeling.*

Bugungi kunda ishlab chiqarishning barcha sohalarida axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Zamonaviy texnik tizimlaridagi barcha muhandislik muammolari yangi yondashuvni talab etadi. Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari, Geometrik modellash dasturlari, tarmoqdagi ma’lumotlar bazalarini ishlab chiqarish jarayonidagi va texnik tizimlardagi muammolarni yechishda samarali qo‘llanilmoqda. Shuningdek, hozirda talabalarning yangi bilimlarni egallashida ta’lim jarayonida va mustaqil ta’limda axborot texnologiyalaridan unumli foydalana olishi va zamonaviy texnologiyalarni tadbiq etishi talab qilinadi [Heikki, 2014. 1].

Maqsad. Optimallashtirish masalalarining asosiy maqsadi quyidagi nuqtalarga qaratilgan:

- Maqsadli funktsiyani maksimal yoki minimal qilish.
- Resurslar va cheklovlar mavjud bo‘lib, ular doirasida optimal yechimga erishish.
- Kichik xarajatlar, yuqori daromad yoki samarali ishlashni ta’minlash.
- Masalan, ishlab chiqarish jarayonida resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash, yoki moliyaviy masalalarda xarajatlarni minimallashtirish.

Vazifalar. Optimallashtirish masalalarini hal qilishda quyidagi asosiy vazifalar bajarilishi kerak:

1. Maqsadli funktsiyani aniqlash – optimallashtirish kerak bo‘lgan o‘zgaruvchilarni tanlab, maqsadli funktsiyani (masalan, foyda, xarajatlar yoki vaqtni minimallashtirish yoki maksimal qilish) tuzish.

2. Cheklovlarni belgilash – tizimda mavjud cheklovlar, masalan, resurslar, vaqt, yoki boshqa omillarni hisobga olish.

3. Matematik modelni qurish – barcha o‘zgaruvchilar, maqsadli funktsiya va cheklovlarni matematik ifodalash.

4. Optimal yechimni topish – modellardan foydalangan holda optimal yechimni topish uchun algoritmlar va usullarni qo‘llash. Elektron jadvalda bu operatsiyalarni amalga oshirish uchun maxsus funksiyalar (masalan, Solver funksiyasi) mavjud.

5. Natijalarni tahlil qilish – topilgan yechimlarning real sharoitlarda amal qilishi va samaradorligini tekshirish [Aripov, 2009. 2].

Matematik modellarni elektron jadvaldagi tadqiqoti, hamda MS Excelda matematik modellashtirishning muayyan elementlari keltirilgan, shu bilan birga matematikaning eng sodda, oddiy matematik ifodalarini hisoblash, bir va ikki o‘lchamli grafiklar qurish, integral va limitlarni hisoblash, matritsalar ustida amallash bajarish, chiziqli va chiziqsiz tenglamalarni yechish, tenglamalar sistemasini yechish, differensial tenglamalarni chegaraviy va boshlang‘ich shartlar bilan yechish, tajriba natijalarini tahlil qilishda interpolyatsiyalash, regressiya tenglamalarini qurish va chiziqli dasturlash masalalarini yechish, hamda masalalarning analitik yechimlarini qurish kabi masalalarni yechish protseduralari keltirilgan. Chiziqli programmalashtirish inson faoliyatining turli sohalarida keng qo‘llaniladigan fanlardan biridir. Uning asosiy yo‘nalishi esa optimallashtirish masalasidir. Bu sohasidagi muvaffaqiyatlarga katta texnik tizimlarni loyihalash va tahlil qilish natijasida erishilgan [Aripov, 2007. 3].

Inson oldiga qo‘yiladigan barcha masalalarni yechishda yaxshi yoki yomon degan yechimni qabul qilishi mumkin. Yechim qabul qilish jarayoni formallashgan va formallashmagan holda bo‘lishi mumkin. Formallashmagan yechim qabul qilish – bu ijod, san’atdir. Formallashmagan yechimni qabul qilishda insondan hech narsa talab etmaydi. Masalan, inson o‘tirdi, o‘yladi, yechim qabul qildi. Haqiqatdan ham bu holda yechimning to‘g’riligiga hech qanday kafolat yo‘q. Inson ko‘p hollarda hech qanday asossiz o‘zi o‘ylagan holda, ayrim hollarda esa tajribasiga ishongan holda yechimlarni qabul qiladi. Formallashgan yechimga kelsak, u aniq tavsiyaga asoslanib qabul qilinadi. Formallashgan yechim qabul qilish ikkita usulga asoslanadi:

- mantiqiy modellash;
- optimallash

Mantiqiy modellashda yuqori bilimga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan usul tanlanib, uning yordamida biror bir holat yoki boshqa holatda nima qilish

kerakligi aniqlanadi. Bunda matematik mantiqiy funktsiyalar xizmat qiladi. Yechim qabul qilishning optimallash usuli quyidagilarga asoslanadi:

- iqtisodiy matematik modellash;
- kompyuterda masalani yechish;
- boshlang'ich ma'lumotlar;

Iqtisodiy matematik modellashning ikkita imkoniyati mavjud:

- qo'yilgan savolga tez javob berish;
- keng tajriba o'tkazish imkoniyati.

Yechim qabul qilish algoritmi ancha murakkab bo'lib, ayniqsa hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida kompyuterni qo'llamasdan turib amaliy jihatdan bajarish mumkin emas. Kompyuterda optimal yechimni izlash algoritmi uchun ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot va boshlang'ich ma'lumotsiz izlanayotgan natijaga erishib bo'lmaydi. Ma'qul bo'lgan yechimlarni qabul qilishni quyidagi etaplarga bo'lish mumkin:

1. Masalani tanlash. Bunda masala qanday talablarni qanoatlantirishi kerakligi aniqlashtiriladi.

2. Masalani qo'yish. Bunda masalaning iqtisodiy matematik modeli va uning elementlari aniqlanadi.

3. Masalaning iqtisodiy matematik modelini tuzish. Bu etapda optimal yechim qabul qilishga asoslangan iqtisodiy matematik modelni tuzish masalasi qaraladi.

4. Masala uchun boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish. Bu etapda tuzilgan iqtisodiy matematik modelga mos boshlang'ich ma'lumotlar yig'iladi.

5. Masalani yechish. Bu etapda kerakli usul tanlanib masala yechiladi.

6. Yechimni tahlil qilish. Bu etapda olingan optimal yechim iqtisodiy matematik model asosida tahlil qilinadi [Shodimetov, 2012. 4].

7. Optimal yechimni qabul qilish. Optimal yechimni olingan natijalarga asoslanib mutaxassis tomonidan qabul qilinadi. Simpleks usuli chiziqli dasturlash masalasini yechishning asosiy usullaridan biri bo'lib, ketma-ket yaqinlashish usuli yordamida x_1, x_2, . . .x_n o'tkazuvchilarning shunday optimal qiymatini topadiki, bu

qiymatlar maqsad funktsiyasiga maksimal yoki minimal qiymat beriladi. Chiziqli dasturlash masalasini simpleks usul yordamida yechish ikki etapdan iborat:


1. Boshlang'ich tayanch rejani topish.

2. Tayanch planlar ichidan masalaning optimal rejasini topish.


3. Jadvalda simpleks almashtirish bajariladi.

4. Yangi topilgan simpleks jadvalda tayanch plan mavjud bo'lsa ikkinchi bosqichga, ya'ni optimal planni topishga o'tiladi, aks holda yuqoridagi jarayon yangi jadval uchun toki tayanch plan topilguncha qayta takrorlanadi.


Masala sharti: Fermadagi mollarni boqish uchun 2 turdagi yemdan ratsion tanlash mumkin. 1-turdagi 1 kg ozuqa tarkibida: yog' 1 birlik, oqsil 3 birlik, 1 birlik uglevod, 2 birlik nitrat mavjud va narxi 80 pul birligiga teng. 2-turdagi 1 kg ozuqa tarkibida esa: yog' 3 birlik, oqsil 1 birlik, 8 birlik uglevod, 4 birlik nitrat mavjud va narxi 10 pul birligiga teng. Tarkibida kamida 6 birlik yog', 9 birlik oqsil, 8 birlik uglevod va 16 birlik nitratlar bo'lgan eng arzon ratsionni tuzing. Masala shartiga muvofiq ma'lumotlarni Excel jadval protsessoridan foydalanib shakllantirish mumkin [Abdukadirova, 2018. 5]





Ozuqa 1 va Ozuqa 2 uchun tegishli ma'lumotlarni mos ustunlarga kiritib, ozuqalarning tarkibiy qismlarining har biri uchun mos hisoblashlarni bajaradigan formuladan foydalaniladi.



Hisoblashlarning o‘zaro bog’liqligi







	Ozuqa 1	Ozuqa 2	M funksiya
	0	9	90

	Ozuqa 1 tarkibi	Ozuqa 2 tarkibi	Har biri uchun formula	Talab tarkibi
Yog`	1	3	27	6
Oqsil	3	1	9	9
Uglevod	1	8	72	8
Nitrat	2	4	36	16

Ozuqa 1	Ozuqa 2	M funksiya
0	9	90

Yuqorida berilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha qo‘yilgan chiziqli masalani simpleks metodi yordamida optimal yechimi sifatida Ozuqa 2 dan 9 birlikni 90 pul birligiga olish eng ma`qul hisoblanadi [Kadirov, 2018. 7]

Xulosa

Matematik modellashtirish optimallashtirish masalalarini hal qilishda tizimlar va jarayonlarni samarali boshqarishga yordam beradi. Elektron jadval (masalan, Excel) yordamida optimallashtirish masalalari uchun modellarni yaratish va yechimlarni topish qulay bo‘ladi, chunki bu dasturlar matematik hisob-kitoblar va analizlarni tez va aniq bajarishga imkon beradi.

Optimallashtirish masalalarini yechishda Solver kabi vositalar yordamida resurslar, vaqt va boshqa cheklovlar doirasida optimal yechimlarni topish mumkin. Ushbu metodlar ishlab chiqarish, logistika, moliya, marketing va boshqa sohalarda samarali qarorlar qabul qilishda foydalidir. Shu bilan birga, optimallashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun maqsadli funktsiya va cheklovlar aniq belgilanib, hisob-kitoblar va tahlillar to‘g‘ri bajarilishi zarur. Bu esa biznes va boshqa sohalarda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi va qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilaydi [Shodimetov, Asqarov, Abduqayumov 2010. 6-7]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Heikki Topi, Bentley University Waltham, Massachusetts, USA “COMPUTING HANDBOOK THIRD EDITION” Information Systems and Information Technology, 2014.

2. Aripov M.M va b. Axborot texnologiyalari, o‘quv qo’llanma. Toshkent, Noshir, 2009 y.

3. Aripov M.M., Muxammadiyev J.U. Informatika, information texnologiyalar. Darslik. Toshkent. 2007 y.

4. Shodimetov X.M va b. Informatika va axborot texnologiyalari. O’quv qo’llanma, Toshkent 2012 y.

5. D. Abdukadirova. Axborot texnologiyalari va jarayonlarning matematik modellashtirish fanidan laboratoriya va amaliyot ishlari uchun o’quv uslubiy qo’llanma. Toshkent 2018 y.

6. Iqtisodiy-matematik usullar va modellar (O’quv qo’llanma) X.M.Shodimetov, N.A.Asqarov, B.N. Abduqayumov. Toshkent 2010 y.

7. Kadirov M.M. «Axborot texnologiyalari» 1-qism. O’quv qo’llanma. «Fan va texnologiya», Toshkent 2018, 316 b.

8. Kadirov M.M. «Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari» 2-qism. O’quv qo’llanma. «Fan va texnologiya», Toshkent 2018, 306 b.

BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA YASHIL IQTISODIYOT, RAQAMLI TEXNOLOGIYA LARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Hasan Tekin, Feyzullah Esad Şekkeli, Şahay Ok, Hidayet Zahid *Türk devletleri teşkilatının ekonomik yapısı economıc structure of the turkıc states organızatıon*..**1**

Ali Konak, Serkan Dilek *Turkiya bizneslarida digital transformation*……..**13**

K.A.Shakarov *Raqamli iqtisodiyot shartlarida korxonalarda korporativ axborot tizimlarini joriy etish usullari va xususiyatlari* ……..**22**

Hakan Yıldırım *Ekonomik Uyumun Göstergesi Olarak Döviz Kuru Davranışları: Türk Devletleri Teşkilatı Üye Ülkeleri Üzerine Ampirik Bir Analiz*.....**28**

N.A.Usmanova, M.Sh.Nishonova *The importance of artificial intelligence for sustainable development in business management*……..**30**

N.A.Usmanova, A.A.Сулейманова *Интеграция принципов зеленой экономики и цифровых технологий в стратегическое управление для достижения устойчивого развития*.....**37**

E.Norbekov *Umumıy o'rta ta'lım muassasalarıda byudjetdan tashqarı mablag'lar hısobi*.....**42**

Г.Д.Нарбекова *Халқ таълими тизими муассаларида бюджетдан ташқари маблағлар ҳисоби*.....**46**

N.A.Usmanova, M.Sh.Nishonova *Ensuring a sustainable future by integrating artificial intelligence into human resource management*……..**52**

Z.Daljanova *"Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi – barqaror rivojlanishning ustuvor omili sifatida*……..**58**

D.T.Raximov *Yo'l qurılısh korxonalarınıng molıyavıy barqarorlıgıga ta'sır etuvchı tashqı omıllar tahlılı*.....**63**

Н.К.Аширов *Механизмы и преимущества развития рынка ценных бумаг для стимулирования экономического роста*.....**71**

B.T.Do‘stov *O‘zbekıstonda barqaror ıqtısodıy o‘sısh sharoıtıda yashıl ınnovatsıyalar va raqamlı texnologıyalarnıng o‘rnı*.....**77**

Ж. Б.Саитмуродов,А.Х. Холмахматов *Ёшлар тараққиётнинг ҳал қилувчи кучи*.....**87**

Холмахматов Азим *Хазраткулович Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини ўрганишда қўлланиладиган сиёсий фанлар методлари қиёсий таҳлили* **94**

YEVROOSIYO MINTAQASIDA TURKIY DAVLATLAR TARIXI VA MADANIYATI

O.R.Musayev, O‘.Mayliyev *Yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashning ma’naviy omillari*.....**103**

O‘.B.Shakarov *Davlat boshqaruvi va rahbar imiji uyg‘unligi*.....**112**

A.T.Eshmurodov *To‘rtinchi sanoat inqilobi davrida ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash masalalari*.....**118**

Ф.Р.Равшанов, З.М.Хидиров *Марказий осиёда геосиёсий билимлар ва ҳаракатлар тарихидан*.....**123**

О.О.Рахматов *Философский анализ природы социальных конфликтов в условиях глобализации*……..**143**

O.X.Rajabov *Turkiy davlatlar tarixi va madaniyatida psixologik bilimlarning o‘rni va ahamiyati*……**148**

Sh.H.Davurova *Buxoro - turkiya diplomatik aloqalarining arxiv hujjatlarida yoritilishi*……**153**

J.Sh Elmurotov *O’rta osiyoda hadisshunoslik ilmining rivojlanishida imom al-buxoriyning tutgan o’rni*……**159**

L.J.Soxibova *Shaxs madaniy saviyasi qaror topishining tarixiy va ijtimoiy rakurslari*……**164**

Д.Ш.Худойқулова *Инновацион таълим технологиялари асосида талабаларнинг гносеологик мотивациясини ошириш*……**168**

O.Toshev *Etnik ziddiyatlarning jamiyat barqarorligi va taraqqiyotiga salbiy ta’siri*……**174**

A.T.Eshmurodov *To‘rtinchi sanoat inqilobi davrida ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash masalalari*.....**118**

К.Ғ.Камолова *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг жамият тараққиётига таъсири* **182**

X.B.Salamov *Yoshlar ma’naviy kamolotida ajdodlarimiz qarashlarining o‘rni.***194**

M.Y.Xazratkulov *Yoshlarda bag‘rıkenglık madanıyatını rıvojlantırısh omılıları*.....**201**

N.Yesnkulova *Ijtimoiy konfliktlarning jamiyatda namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari*.....**206**

F.N.Axmedov *Jamiyat xavfsizligiga oid tushunchalarning ijtimoiy tahlili*.....**213**

N.B.Shapsanova *Milliy ma’naviyatimizga ta’sir etuvchi tahdidlarning o‘ziga xos jihatlari*.....**220**

M.A.Odinayev *Shamsiddin tabriziyning tasavvufiy-falsafiy qarashlari……..226*

U.Y.Alibekov, A.U.Umarova *O‘zbekıston aholisining milliy udumlar, marosimlarga munosabati*……**231**

M.Quramatov *Turkiy tilli davlatlarning falsafasi, madaniyati, aloqalari: tarix, bugun va kelajak*……**237**

A.O.Abdulhamidov *Turkiy davlatlar tashkilotining yevroosiyo mintaqasidagi madaniy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyati*……**242**

N.L.Olimova *Turkiy davlatlar tarixi va madaniyati rivojlanishida musiqiy bilimlarning o'rni*……**249**

I.B.Xolmatov *Yevroosiyo mintaqasida turkiy davlatlar tarixi va madaniyati hamda mintaqaviy barqarorligini ta’minlashda sportining roli, ijtimoiy tahlili*……**254**

F.M.Madreymov *1917-1920 йилларда қорақалпоғистонда ижтимоий ҳимоя ва унинг шаклланиши*.....**263**

Н.С.Мырзабаева, К.К.Курбанбекова *Борьба с религией за всеобщую грамотность в Кыргызстане в период до 1940г (по архивным материалам Жалал-Абадского облгосархива)*……**268**

O‘T.Vaxabova, M.Mo'ydinov *Dunyoning renessansiga hissa qo‘shgan hukmdor*……**278**

O‘.T.Vaxabova, K.Sadriddinova *Mirzo ulug‘bek - zamonasining kelajakni oldindan tafakkur qila olgan yetuk shaxsi*……**284**

J.N.Toshpo‘lotova *Sun’iy intellekt va avtomatlashtirishning turk davlatlaridagi o‘rni*……***293***

Sh.Sh. Qilichev *Otsizning xorazmshohlar davlatining tashkil topishidagi o‘rni.***297**

O.R.Musayev, B.A.Djamiyev *Jamiyatni modernizatsiya qilish va demokratlashtirishda proporsional saylov tizimining ahamiyati*……**302**

Sh.Xonimov *Yoshlarda ijtimoiy-siyosiy faollikni oshirish va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash omillari*……**312**

И.И.Неъматуллаев *Сравнительный анализ событий, происходивщие в турции и центральной азии в начале xx века*……**317**

Алдабек Нургул, Динашева Ляззат, Зульпыхарова Эльмира *История и культура тюркских государств в евразийском регионе*……**336**

J.Burxonov *Ижтимоий тармоқларнинг ёшлар маънавий ва мафкуравий тарбиясига таъсири*……**342**

Muammer İskenderoğlu, Aslı Çiçek Özbek Bilgili *Çivi yazılı kaynaklar işığında mö ii. binyıl başlarında anadolu'da hukuk anlayışı*……**348**

Abdullah Yakşi *1925-1935 yillarinda kazakistan da sovyet propaganda ve eğitim çadirlari kizil yurtlar*……**355**

Z.Turaboeva, B.Kenjaev *Somoniylar davrida ilmiy va diniy markazlarning rivojlanishi (Eski Termiz misolida)*……**372**

Z.M.Xidirov, L.J. Soxibova *Спортда ҳуқуқий масъулият ва унинг амалиётдаги татбиқлари*.....**382**

MUHANDISLIK, MATEMATIK MODELLASHTIRISH, AXBOROT TIZIMLARI VA TEXNOLOGIK BILIMLAR

Bahattin GÜLLÜ, Yusuf Kağan KADIOĞLU, Tamer KORALAY, Kıymet DENİZ YAĞCIOĞLU, Musa Avni AKÇE *Assessment of the concentration and*

spatial distribution natural radioactive elements in the karakaya (kaymaz) granite (nw, türkiye)……**388**

М.Мелибаев, С.Негматуллаев, Х.Ортиқов *Автотрактор пневматик шинасини сифат даражасини квалиметрик усулда баҳолаш*.....**401**

О.Х.Базаров *Рақамли технологиялар – ахборот ва медианинг ёшлар маънавий-ахлоқига таъсири*.....**409**

Abdalbagi A.H. HUSSIEN, Yusuf Kağan *Kadıoğlu understandıng the dıfferences between orogenıc and non-orogenıc gold-bearıng rocks: ımplıcatıons for exploratıon*.....**418**

Güldane AKILLI, Yusuf Kağan KADIOĞLU, *Doğal grafitlerde safsızlıkların uç ürün uygulamalarına etkisi: kastamonu (bozkurt-kutluca), türkiye*.....**425**

M.A.Sobirov *High-reliability application of artificial neural networks in energy supply systems*……**436**

Özcan BÜYÜKGENÇ *Ce/nd eklenmiş ez43 magnezyum alaşımlarına çok yönlü dövme işleminin etkileri*.....**443**

Е.Н.Рейпназаров, А.П.Лазарев, Н.М.Ахмедов *Оптимизация технологий доступа в беспроводных сетях с помощью машинного обучения*.....**457**

Ulusoy Ezgi, Kadıoğlu Yusuf Kağan *Magma karışım dokularının dokusal ve kökensel karşılaştırmaları: ıstranca intrüzifleri, kb türkiye*.....**464**

Ulusoy Ezgi, Koralay Tamer, Deniz yağcıoğlu Kıymet, Güllü Bahattin, Kadıoğlu Yusuf Kağan *Evaluation of the Alteration Mineralogy and Weathering Indices of Oligo-Miocene Granitoids in Northwestern Anatolia: Preliminary Findings*.....**478**

Junaid Ashraf, Yusuf Kağan Kadıoğlu *The potentıal of lıthıum ın muscovıte and lepıdolıte as geochemıcal ındıcators for pegmatıte exploratıon: a case study from northwestern hımalayas, pakıstan*.....**497**

Altinsoy Mustafa Gökhan, Kadıoğlu Yusuf Kağan, Beyazpirinç Metin, Özkan Mustafa Kemal *Geology, petrology, temporal and spatial relationships of keban, elaziğ and elaziğ magmatics*.....**515**

Demet Banu Koralay, Tamer Koralay *Geochemical proxies for interpreting depositional conditions of carbonaceous rocks: a case study from yatağan town, denizli (sw türkiye)*.....**527**

Cahit Dönmez, Zehra Deveci Aral, Samet Saka *Tamdytau yöresinde yüzeyleyen granit ve plajigranitlerin jeokimyası ve granitlerin jeokronolojisi* **.....543**

Cahit Dönmez, Zehra Deveci Aral, Samet Saka *Geochemıstry and geochronology of ıntrusıve rocks ın the tamdytau regıon*.....**558**

Ali Osman Taş, Kıymet Deniz Yağcioğlu, Eren Şahine,Yusuf Kağan Kadioğlu *Investigation of phase changes in sulfate minerals with increase in temperature by x-ray diffraction (xrd)*……**572**

Kıymet Deniz Yağcıoğlu, Yusuf Kağan Kadıoğlu *Bazalt kaya lifi üretiminde petrokimyasal özellikler: karacadağ bazaltları (diyarbakır-türkiye)*.....**581**

Q.K.Norqo‘ziyev *Nmap algorıtmı: avtonom mobıl robotlar uchun yo‘lnı rejalashtırısh va harakatnı boshqarıshga yo‘naltırılgan moslashuvchan navıgatsıya tızımı*.....**592**

Eren Şahiner *Use of luminescence dosimetry methods for nuclear forensics measurements*……**600**

J.M.Qurbonov *Korxonalarnı barqaror rıvojlanıshnı ta’mınlashda raqamlı texnologıyalarda electron texnıkalarınınıg o‘rnı va ahamıyatı*.....**612**

F.Sh.Davlatova *IN-depth analysis of artificial intelligence techniques for emotion detection senior lecturer at renaissance university of education*.....**618**

Ш.Карагулов *Ta'lim sohasidagi zamonaviy axborot texnologiyalari: imkoniyatlar va istiqlablar*.....**627**

Samirə Atabala qızı Həsənova *Akademik arif paşayev elmi irsi haqqinda elektron resurslar*.....**633**

H.S.Boltaboyev, G.Y.Yusupova *Xorijıy ommavıy axborot vosıtalarınıng medıa makondagı o‘rnı: g‘oyavıy-sıyosıy raqobat va axborot geosıyosatı kontekstıda tanqıdıy tahlılı*.....**637**

J.X.Djumanov, A.F.Babadjanov, F.F.ARajabov, N.I.Abroqulova, X.N.Botirov *Axborot texnologiyalar, matematik modellar va innovatsion echimlarni yer osti suvi monitoringida joriy qilish omillari*……**643**

Ҳ.С.Фозилов, С.М.Туробжонов, С.Ф.Фозилов, Р.Н.Ражабов *Дизел ёқилғиларини қўшимчалар ёрдамида модификациялаш*.....**650**

Ҳ.С.Фозилов., С.М.Туробжонов., С.Ф.Фозилов., Р.Н.Ражабов. *Парафин углеводородлардан юқори ёғ спиртлар олиш ва уларни дизел ёқилғиси учун мойловчанлик присадка сифатида қўллаш*.....**653**

Sh.S.Kamalov *Matematik modellashtirishning elektron jadval yordamida optimallashtirish masalasi*……..**660**